

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATION UNIVERSITETI NTM**

***INNOVATSIYA
VA
TARAQQIYOT***

INNOVATION AND PROGRESS

***Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy
JURNAL***

***Scientific-methodological, social, spiritual-educational
JOURNAL***

**2025-yil, 12-son 1-qism
2025, Issue 12, Part 1**

Bosh muharrir:

M.J.Eshmurodov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

S. Samandarova – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Mas’ul kotib:

U.Bekmuhammad – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Tahrir hay’ati:

G.Durdieva – Arxitektura fanlari doktori, professor.

M.Isxoqov – Tarix fanlari doktori, professor.

F.Maqsudov – Tarix fanlari doktori, professor.

A.Ashirov – Tarix fanlari doktori, professor.

G‘.Boboyorov – Tarix fanlari doktori, professor.

S.Hoshimov – Tarix fanlari doktori, professor.

O.Komilov – Tarix fanlari doktori, professor.

D.Jamalova – Tarix fanlari doktori, dotsent.

F.Boboyev – Tarix fanlari doktori, professor.

D.N.Abdullayev – Tarix fanlari doktori, professor.

I.Xaydarov – Tarix fanlari doktori, professor.

X.X.Matyaqubov – Tarix fanlari doktori, dotsent.

O.Radjabov – Tarix fanlari doktori, dotsent.

T.R.Xamrayeva – Tarix fanlari nomzodi, professor.

M.Alixojiev – Tarix fanlari nomzodi, dotsent.

X.Qurbonov – Tarix fanlari nomzodi, dotsent.

X.E.Xodjamberdiev – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Sh.Mahamadyunusov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

B.Abdirimov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

M.Xo‘jamov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

A.P.Axunov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

N.Mahmudov – Filologiya fanlari doktori, professor.

Z.Do‘simov – Filologiya fanlari doktori, professor.

Ulug‘bek Hamdam – Filologiya fanlari doktori, professor.

Bahodir Karim – Filologiya fanlari doktori, professor.

Jabbor Eshonqul – Filologiya fanlari doktori, professor.

M.Asadov – Filologiya fanlari doktori, professor.

M.Qo‘chqorova – Filologiya fanlari doktori, professor.

Q.Ergashev – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.D.O‘razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.

D.Q.G‘ayipov – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.I.Primov – Filologiya fanlari doktori, professor.

N.Hasan – Filologiya fanlari doktori, professor.

M.Pirnazarova – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

D.T.Yuldashev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

I.Ismoilov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

J.Mahmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

Sh.Norboyeva – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

M. Tillayeva – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
R.Y. Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
O‘.X. Rajabov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
R.B. Maxmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.
N. Axmedova – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
Z. Azilova – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
O. Xaytboyev – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
F. Kenjayev – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
Sh. Alimova – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
A.N. Sadullayeva – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
Qozoqboy Yo‘ldosh – Pedagogika fanlari doktori, professor.
M. Salayeva – Pedagogika fanlari doktori, professor.
F.R. Madrahimova – Pedagogika fanlari doktori, professor.
S.K. Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
I. Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
D. Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
M. Xoshimxonov – Falsafa, pedagogika, filologiya fanlari doktori, professor.
M.S. Xajiyeva – Falsafa, pedagogika fanlari doktori, professor.
O.N. Naumenko – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).
Y.A. Naumenko – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).
Y.M. Gancharov – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).
K.V. Karpinskiy – Psixologiya fanlari doktori, professor (Belorus).
L.S. Zelensova – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya).
V.A. Barmin – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).
A.A. Veryayev – Pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya).
A.G. Abdullin – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).
Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).
Azizullah Aral – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (AQSH).
H.H. Tadjiev – Turkologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog‘iston).

Hamkor tashkilotlar:

Xorazm viloyat turizm boshqarmasi.

Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi Xorazm viloyat bo‘limi.

“Jaloliddin Manguberdi” fondi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 24-sentabrda № 375/5 qaroriga ko‘ra “Innovatsiya va taraqqiyot” jurnali Tarix va filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

ISSN 3030-3206

Innovatsiya va taraqqiyot: ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal.
 № 12 (32), Urganch innovatsion universiteti, 2025-yil.

MUNDARIJA: TARIX

B.SADULLAYEV. Janubiy Xorazm hududida o'rta asrlar manzilgohlarini aniqlashga doir arxeologik qidiruv ishlari.	5
A.QURBANOV. Qadimgi va ilk o'rta asrlarda Xorazm vohasida shaharsozlik va savdo aloqalarining rivojlanishi.	12
SH.SADADDINOV. Xorazm vohasida haykaltaroshlik san'atining rivoji va undagi tub o'zgarishlar tahlili.	17
S.ABDULLAYEV. Xorazm savdogarlarining Buyuk Ipak yo'li orqali tijoriy aloqalari.	23
S.KOMILOVA. Klavixo tasvirlarida Amir Temur saltanatining qudrati.	29
X.XAKIMJONOVA. 1898-yilgi Andijon qo'zg'olonining arxiv hujjatlarida yoritilishi.	35
U.BEKMUHAMMAD. "Yosh xivaliklar"ning ijtimoiy siyosiy jarayonlardagi faoliyati va jamiyatga ta'siri.	41
A.MAXKAMOV. Namanganlik jadid Zayniddinqori Nasriddin o'g'lining fojiali qismati.	67
J. IMINOV. Jadid Oqilxon Dadaxo'jayevning fojiali qismati.	73
G.ISAMIDINOVA. Tarix sahifalarida ayol.	78
G'.SABIROV. Xorazmda zamonaviy hunarmand ayollar: an'analar va innovatsiyalar.	83
S. KOMILOVA. Xorazm viloyat iqtisodiyotini urush talablariga moslab qayta qurishda shaharlarda yashaydigan aholining ishtiroki.	88
F.JUMANIYAZOVA, G.MADRIMOVA. Ikkinchi jahon urushi yillarida Xiva sanoatidagi yutuq va kamchiliklar.	93
I.TO'XTAROV. Beshta muhim tashabbus va yoshlar ma'naviyati.	98
I.NURMETOV. Global ekologik konvensiyalar va Xalqaro ekologik munosabatlarda O'zbekistonning ishtiroki.	104
N.ALIMOVA, M.SOTVOLDIYEV. Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida Turkistonda milliy maorif sohasidagi jarayonlar.	110
E.ERKAYEV. Turkistonda paxta yakkahokimligining o'rnatilishi.	116
S.SOBIROV. Miniatyura san'atining paydo bo'lishi va sharqdagi dastlabki miniatyura maktablari.	122
O.SHIXOV. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati.	129
A.AMONULLAYEV. Ijtimoiy himoya tushunchasi va uning asosiy yo'nalishlari.	133
B.AXMADJONOV. Yangi O'zbekistonning barqaror rivojlanishini ta'minlashda turkiy tilli davlatlar kasaba uyushmalari tashkiloti bilan o'zaro hamkorlik aloqalari yangi yo'nalishda.	138
R.NARZIYEV. O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslar ta'limining mustaqillik davri tajribasi: tizimning tarkib topishi va normativ kafolatlar.	145
D.MURTAZAYEV. Yangi O'zbekistonda advokatura institutining qayta shakllanish tarixi.	155
N.AXMADIYEV. Ahloqiy madaniyatni yuksaltirishda keksa avlod tajribasining ahamiyati.	161
F.FAYZIYEV. Nogironlar sportining jahonda va o'zbekistonda huquqiy shakllanishi.	166
I.OTAXONOVA. Oliy ta'lim islohotlari: talabalar va professor-o'qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar.	171
N.MATYAQUBOV, M.YULDASHOVA. Mahallaning fuqarolik jamiyati institutlari tizimidagi o'rni va roli.	179
X.Rahmatov. O'zbekiston Saudiya Arabistoni munosabatlari shakllanishining dastlabki bosqichi.	184
M. XASANOV. Xorazmda zardushtiylilik dini (arxeologik va yozma manbalar tahlili)	190

TARIX

JANUBIY XORAZM HUDUDIDA O‘RTA ASRLAR MANZILGOHLARINI ANIQLASHGA DOIR ARXEOLOGIK QIDIRUV ISHLARI



**BAHROM
SADULLAYEV, Tarix
fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent**

UO‘K 902.34

Annotatsiya: Ushbu maqolada 2023-yilda Xorazm viloyatining Qo‘shko‘pir tumani hududida amalga oshirilgan arxeologik qidiruv ishlarining natijalari yoritilgan. Tadqiqotlar Amudaryoning qadimgi Davdon o‘zani, Qoraqum cho‘liga yondosh hududlar atrofida olib borildi. Arxeologik qidiruv-kuzatuv ishlari natijasida rivojlangan o‘rta asrlarga (IX–XI, XII–XIV asrlar) oid qator qishloq manzilgohlari izlari aniqlandi va ularning koordinatalari aniq belgilandi.

Аннотация: В данной статье освещаются результаты археологических поисковых работ, проведённых в 2023 году на территории Кошкуньинского района Хорезмской области. Исследования осуществлялись в районах, прилегающих к древнему руслу Давдона Амударьи и к территории пустыни Каракум. В результате археологических поисково-наблюдательных работ были выявлены следы ряда сельских поселений развитого средневековья (IX–XI, XII–XIV вв.), а также точно зафиксированы их координаты.

Annotation: This article presents the results of archaeological survey work carried out in 2023 in the territory of Koshkupyir District of Khorezm Region. The research was conducted in areas adjacent to the ancient Davdon channel of the Amu Darya River and the bordering zones of the Karakum Desert. As a result of the archaeological survey and field observations, traces of several rural settlements dating to the developed medieval period (9th–11th and 12th–14th centuries) were identified, and their coordinates were precisely recorded.

Kalit so‘zlar: Janubiy Xorazm, arxeologik qidiruv, qishloq manzilgohlari, o‘rta asrlar, sopol materiallar.

Ключевые слова: Южный Хорезм, археологическая разведка, сельские поселения, средние века, керамика.


Key words: Southern Khorezm, archaeological survey, rural settlements, Middle Ages, ceramics.

Xorazm vohasi qadimgi va oʻrta asrlar sivilizatsiyasi rivojida muhim oʻrin tutgan hududlardan biri hisoblanib, bu sivilizatsiyaning rivojlanishida qishloq manzilgohlarning ham oʻrni juda katta. Xorazmning oʻrta asr qishloq manzilgohlari dastlab Xorazm arxeologiya-ekspeditsiyasining izlanishlarida arxeologik qidiruv jarayonlarida (2, s. 63-68; 5, s.19-21) va alohida tadqiqot obyektlari sifatida oʻrganilgan (4). Shuningdek, Xorazmning sugʻorilish tarixini oʻrganish jarayonida Ya.Gʻulomov ham oʻz tadqiqotlarida oʻrta asr qishloq manzilgohlariga eʼtibor qaratgan (3). Ayniqsa, Amudaryoning qadimgi oʻzanlari hamda Qoraqum choʻliga yondosh dehqonchilik zonalarida shakllangan qishloq manzilgohlari masalasi hali ham toʻliq oʻrganilmagan. Shu bois 2023-yilda Qoʻshkoʻpir tumani hududida olib borilgan arxeologik qidiruv ishlari Janubiy Xorazm hududida rivojlangan oʻrta asrlarga oid manzilgohlarni aniqlash, ularning xronologiyasi va joylashuv xususiyatlarini belgilashni maqsad qilib, bir qator yangi obyektlarni aniqlashga muvaffaq boʻlindi.

2023-yilda Xorazm viloyatining Qoʻshkoʻpir tumani hududida arxeologik qidiruv ishlari amalga oshirildi. Tuman hududi 540 kv.km ni tashkil etadi. Tadqiqotlar marshrutli qidiruv, vizual kuzatuv, yer yuzasidagi sopol materiallarni yigʻish va ayrim joylarda stratigrafik shurf qazish usullari asosida olib borildi.

Dastlabki ishlar Koʻshkoʻpir tumani hududida Amudaryoning qadimgi Davdon oʻzani atrofida amalga oshirildi. Qoʻshkoʻpir tuman markazidan 2–3 km shimolda, Qoʻshkoʻpir–Shovot yoʻlidan gʻarbga tomon 14–15 km masofaga choʻzilgan qadimgi daryo oʻzanida shakllangan Amirqum choʻlining janubiy etaklari boʻylab 51 kv.km maydon qamrab olindi (1-rasm).

Keyingi marshrutlar Qoʻshkoʻpir tumanining Qoraqum choʻliga yondosh janubiy hududlarida (Uygʻur, Oʻrtayop, Tagalak, Obod qishloqlari atrofi) davom ettirildi.



1-rasm. Qo'shko'pir tumani xaritasi

Qo'shko'pir tumani hududida, Amirqum qumlari yaqinida atrofni kuzatish jarayonida Sho'rolar davrida o'zlashtirilib, keyinchalik tashlandiq holatda qolib ketgan dala maydonlari ham kuzatiladi. Qurib yotgan kanallarning yon tomonlarida ochilib qolgan pastqam jarliklarda qadimgi daryo yotqiziqlarini ham ko'rish mumkin.

Qo'shko'pir tuman markazidan 12-13 km shimoli-g'arbda Ilgaldi qishlog'i yaqinida qumloq va tashlandiq dala hududlari o'rganilganda ko'plab sirlangan va sirlanmagan sopollar bo'laklari aniqlanib, ular asosan, ko'zalar va tog'oralar hamda sirlangan kosa, piyola bo'laklaridan iborat ekanligi aniqlandi. Ko'zalar va tog'oralar asosan kul rang sopollardan tashkil topgan bo'lib, ko'zalar tutqichi qirqimida yo'g'on aylana shaklda. Ishlanish uslubi va loyining tarkibi va xususiyatlariga ko'ra bunday idishlar Xorazmda XII-XIV asrlarda keng tarqalgan (3-rasm) (1, 300-328, ris.21-22; 4, s.139, ris.85).

Sopol namunalari orasida IX-XI asrlarga oid sopollar ham kam miqdorda uchraydi. Aftidan, bu atrofda rivojlangan o'rta asrlarda qishloq manzilgohlar mavjud bo'lgan. Lekin ayni paytda bu hududdan manzilgohlarga tegishli turarjoylar qoldiqlari aniqlanmadi. Sopol buyumlar aniqlangan hududning geografik koordinatlari 41°36'23.38"S shimoliy kenglik, 60°11'45.02"E sharqiy uzunlikda

joylashgan bo'lib, bu manzilgoh shartli ravishda Amirqum 1 deb nomlandi (2-rasm).



2-rasm. Davdon o'zani atrofida Amirqum cho'li. Amirqum 1 va Amirqum 2 manzilgohlari.

Qo'shko'pir tuman markazidan 6 km shimoli-g'arbda Bullak qishlog'i yaqinida qumloq va

tashlandiq dala hududlari o'rganilganda bu yerdan ham XI – XI, XII-XIV asrlarga oid sirlangan va sirlanmagan sopollar bo'laklari aniqlandi. Sirlanmagan idishlar loyi kul rangda bo'lib, ular orasida xum, ko'zalar, xurmachalar, kosa bo'laklari uchraydi (4-rasm) (Vakturskaya 1959, s. 300-328, ris.21-22; Nerazik, 1976, s.139, ris.85).



3-rasm. Amirqum 1 manzilgohi topilmalari.

Bu yerda ham rivojlangan o'rta asrlarda qishloq manzilgoh mavjud bo'lgan. Turar-joylar qoldiqlari aniqlanmadi. Sopol buyumlar aniqlangan hududning geografik koordinatlari

41°34'21.01"S shimoliy kenglik, 60°16'39.14"V sharqiy uzunlikda joylashgan. Bu manzilgoh shartli ravishda Amirqum 2 deb nomlandi (2-rasm).




4-rasm. Amirqum 2 manzilgohi topilmalari.

Keyingi marshrut yoʻnalishi Qoʻshkoʻpir tumanining janubida Qoraqum choʻliga yondosh Uygʻur, Oʻrtayop, Tagalak, Obod qishloqlari atrofida amalga oshirildi (5-rasm). Tadqiqotlar asosan qum barxanlari yaqinidagi oʻzlashtirilgan hududlarda (Qum bozor, $41^{\circ}28'26.31''S$, $60^{\circ}13'10.01''V$; Xoʻjaeri, $41^{\circ}25'41.15''S$, $60^{\circ}9'16.34''V$) olib

borildi. Ushbu hududlarni oʻrganish jarayonida sopollar juda siyrak va tarqoq holda aniqlandi. Sopol idishlar ichida antik davr sopollaridan tortib to IX-XII asrlarga oid boʻlaklarni uchratish mumkin. Aftidan, Shoʻrolar davridagi yerlarni oʻzlashtirish jarayonida koʻplab qadimiy manzilgohlar butkul yoʻq qilingan. Faqat ulardan ayrimlarigina saqlanib qolgan (Ashurmattepa qabristoni $41^{\circ}26'51.86''S$, $60^{\circ}7'58.57''V$).

2023-yilda Qoʻshkoʻpir tumani hududida olib borilgan arxeologik qidiruv ishlari Janubiy Xorazm hududida oʻrta asrlarga oid qishloq manzilgohlarining joylashuvi va rivojlanish xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqotlar natijalari shuni koʻrsatadiki, Amudaryoning qadimgi Davdon oʻzani hamda Amirqum choʻlining janubiy etaklari oʻrta asrlarda aholi zich joylashgan dehqonchilik zonalari hisoblangan.



5-rasm. Qoraqum cho‘liga yondosh hududlar. Uyg‘ur, O‘rtayop, Tagalak, Obod qishloqlari atrofida.

Aniqlangan Amirqum 1 va Amirqum 2 shartli nomli manzilgohlardan yig‘ilgan sopol materiallar asosan XII–XIV asrlarga oid bo‘lib, ularning morfologik va texnologik xususiyatlari Xorazm hududida yaxshi ma‘lum bo‘lgan kul rang sopol ishlab chiqarish an‘analari bilan uyg‘unlashadi. Ayrim hollarda IX–XI asrlarga oid sopol namunalarining uchrashi mazkur hududlarda qishloq manzilgohlarining ilk o‘rta asrlardan boshlab faoliyat yuritganini ko‘rsatadi. Bu holat Davdon o‘zani atrofida dehqonchilik tizimlari uzluksiz ravishda rivojlanganligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, mazkur manzilgohlarda turar-joy inshootlari qoldiqlarining aniqlanmagani ehtimolan tabiiy-geografik omillar (qum bosishi, eroziya), shuningdek, XX asrdagi yerlarni o‘zlashtirish jarayonlari bilan bog‘liq. Ayniqsa, Sho‘rolar davrida amalga oshirilgan meliorativ ishlar natijasida ko‘plab arxeologik obyektlar yo‘q qilingan yoki kuchli darajada zararlangani janubiy marshrutlar davomida aniq ko‘zga tashlanadi.

Qoraqum cho‘liga yondosh hududlarda sopol materiallarning juda siyrak va tarqoq holda uchrashi mazkur makonlarning doimiy manzilgoh emas, balki mavsumiy yoki vaqtinchalik xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan zonalar ekanligini ko‘rsatishi mumkin. Shu bilan birga, ayrim saqlanib qolgan obyektlar (Amirqum 1, Ashurmattepa qabristoni) ushbu hududlarda rivojlangan o‘rta asrlarda inson faoliyati faol mavjud bo‘lganini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, Ko‘shko‘pir tumani hududida aniqlangan yangi arxeologik ma‘lumotlar Janubiy Xorazmning o‘rta asrlar davri qishloq manzilgohlari geografiyasini kengaytirish va ularning tabiiy muhit bilan o‘zaro munosabatlarini yaxshiroq anglashga xizmat qiladi.

2023-yilda Qo‘shko‘pir tumani hududida amalga oshirilgan arxeologik qidiruv ishlari natijasida Amudaryoning qadimgi Davdon o‘zani va Qoraqum cho‘liga yondosh hududlarda o‘rta asrlarga oid qator qishloq manzilgohlari mavjud bo‘lgani aniqlandi. Amirqum 1 va Amirqum 2 manzilgohlaridan yig‘ilgan sopol materiallar asosida mazkur obyektlarning asosiy faoliyat davri XII–XIV

asrlarga to‘g‘ri kelishi, shu bilan birga, ayrim hollarda ilk o‘rta asrlarga oid qatlamlar ham mavjud ekanligi belgilandi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Janubiy Xorazm hududida qishloq manzilgohlarining joylashuvi, avvalo, gidrografik tarmoqlar, qadimgi daryo o‘zanlari va sug‘orish imkoniyatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. XX asrdagi intensiv yer o‘zlashtirish ishlari natijasida ko‘plab arxeologik obyektlar yo‘q qilingan bo‘lsa-da, saqlanib qolgan materiallar mintaqa tarixi va aholining xo‘jalik faoliyatini qayta tiklashda muhim manba hisoblanadi.

Olib borilgan qidiruv ishlari kelgusida mazkur hududlarda keng qamrovli arxeologik qazishmalar, paleoekologik va arxeobotanik tadqiqotlarni amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa Janubiy Xorazmning o‘rta asrlar davri qishloq madaniyati va uning mintaqaviy rivojlanish xususiyatlarini yanada chuqurroq o‘rganish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Вактурская Н.Н. Хронологическая классификация средневековой керамики Хорезма (IX–XVII вв. н.э.). М., 1959. ТХАЭЭ, IV. С. 261–343.
2. Вишневская О.А. Археологические разведки на средневековых поселениях левобережного Хорезма // МХЭ. Вып. 7. М., 1963. С. 54-72.
3. Гуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Т.: “Фан”, 1957. – 324 б.
4. Неразик Е.Е. Сельское жилище в Хорезме (I-XIV вв.) (Из истории жилища и семьи). Археолого-этнографические очерки // ТХАЭЭ. – Т.IX. –М.: «Наука», 1976. – 256 с.
5. Толстов С.П., Жданко Т.А., Итина М.А. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции АН СССР в 1958 – 1960 гг. // МХЭ, вып. 6. – М., 1963. – С. 3-90.

TARIX**QADIMGI VA ILK O'RTA ASRLARDA XORAZM VOHASIDA
SHAHARSOZLIK VA SAVDO ALOQALARINING RIVOJLANISHI**

Abdulla Qurbanov,
Tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori

UO'K 902.34

Annotatsiya: Mazkur maqolada qadimgi va ilk o'rta asrlarda Xorazm vohasining siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivoji yoritiladi. Xorazmning Qang' davlati tarkibidagi o'rni, sug'orma dehqonchilikka asoslangan xo'jalik tizimi, shaharlarning shakllanishi va savdo aloqalarining kengayishi tahlil qilinadi.

Аннотация: В статье рассматривается политическое, экономическое и культурное развитие Хорезмского оазиса в древности и раннем Средневековье. Анализируется роль Хорезма в составе государства Кангюй, развитие орошаемого земледелия, рост городов и расширение торговых связей.

Annotation: This article analyzes the political, economic, and cultural development of the Khorezm oasis in antiquity and the early Middle Ages. It examines Khorezm's role within the Kangju state, the expansion of irrigated agriculture, urban growth, and the development of trade relations.

Kalit so'zlar: Xorazm, Qang' davlati, shaharsozlik, sug'orma dehqonchilik, savdo yo'llari, o'rta asr shaharlari.

Ключевые слова: Хорезм, государство Кангюй, урбанизация, орошаемое земледелие, торговые пути, средневековые города.

Key words: Khorezm, Kangju State, urbanization, irrigated agriculture, trade routes, medieval cities.

Mustaqil davlat bo'lgunga qadar ham Xorazm Qang' davlati tarkibidagi yetakchi hududlardan biri bo'lgan. Mil. avv. III-II asrlarda Qang' davlati kuchayib, Sirdaryo quyi oqimidan dahlarni siqib chiqardi. Shu davrdan Xorazm ham o'z mustaqilligini yo'qotdi. Dahlar esa Xuroson hududiga ko'chib o'tdi. Iqtisodiy jihatdan ancha taraqqiy etgan, yuksak va boy madaniyatga ega Xorazm aksariyat aholisi ko'chmanchilar bo'lgan Qang' davlati tarkibida muhim iqtisodiy va madaniy markazlardan biri sifatida o'z yuksalishini davom ettirdi. Sug'orma dehqonchilik an'analari hisobiga ekin maydonlari kengaydi, irrigatsiya shaxobchalari yanada tarmoq yoydi, yangi qo'rg'on, qal'a va shaharlar vujudga keldi.

Tadqiqot davomida tarixiy-tahliliy, qiyosiy va tizimli yondashuvlardan foydalanildi. Arab va fors mualliflari — al-Istahriy, al-Maqdisiy, Ibn Fadlan, Zakariyo ibn Muhammad al-Kazviniiy, Hamdulloh Qazviniiy asarlaridagi ma'lumotlar o'zaro solishtirildi.

Shuningdek, Tuproqqal'a, Ayozaqal'a, Guldursun qal'a, Ardaxushmisan (Voyangan) yodgorliklarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari ilmiy tahlil qilindi. Bu manbalar Xorazm shaharlarining joylashuvi, iqtisodiy faoliyati va tarixiy rivojlanish bosqichlarini aniqlash imkonini berdi.

Arab tarixchisi Al-Istahriy taxminan 930-933-yillarda Xorazmdagi shaharlarni sanab o'tarkan, Xorazm (Kas), Darg'on, Xazorasp, Xiva, Xushmisan, Ardaxushmisan, Safardiz, Nuzbar, Kardaronxos, Kardar, Barategin, Mazminiya, Jurjoniya (Gurganj) kabi o'n uchta nomni tilga oladi. 985-yilda Xorazmga kelgan arab muallifi al-Maqdisiy voqea shaharlari soni 32 ta bo'lganligini yozadi. Jumladan, u Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi Kas, Gardman, Oyxon, Arxaxiva, Nukfag, Kardar, Mizdahqon, Jashira, Sadvar, Zardux, Barategin, Madkaminiya; chap qirg'og'ida joylashgan Jurjoniya (Gurganj), Nuzvar, Zamaxshar, Ruzund, Vazarmand, Vaskaxankas, Raxushmisan, Madamisan, Xiva, Kardaronxos, Xazorasp, Jigarband, Jaz, Darg'on, Jit, Kichik Jurjoniya, Ikkinchi Jit, Sadvar, Masasan, Kardar, Andarstan kabi shaharlar borligini ko'rsatgan. Bundan tashqari, Xorazmga boradigan yo'llarda Sho'raxon, Xas, Nuzkat, Darson, Juvikan, Amir, Barabsar, Vardara kabi aholi punktlari bo'lganligi ta'kidlanadi.

Shaharlarning o'sishi mamlakat umumiy iqtisodiy taraqqiyotining muhim tomonlaridan biri bo'lib, yangicha asosda yuksala boshlagan Xorazm shahar sivilizatsiyasining atrofdagi dashtlar va uzoqdagi mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalari mustahkamlanayotganidan va kengayib borganidan dalolat beradi. Xorazmlik savdogarlar, xuddi qadim zamonlardagidek, Turkmaniston va G'arbiy Qozog'iston o'rnida bo'lgan dasht ko'chmanchilari bilan, Volgabo'yi - Xazoriya (keyinchalik Dashti Qipchoq) va Bulg'oriya bilan, nihoyat, Sharqiy Yevropadagi keng slavyanlar olami bilan savdo-sotiq aloqalarini kuchaytirdilar. X asrdayoq yuqoridagi hududlar bilan savdo-sotiq munosabatlari kengayganligi to'g'risida va, umuman, xorazmliklar haqida Istahriy yozgandi: "Xorazm - hosildor, oziq-ovqati va mevalari ko'p shahar (madina), faqat yong'og'i yo'q; bu yerda paxta va jundan ko'p narsalar tayyorlanadi hamda bu narsalar uzoq-uzoq joylarga etiladi. Aholisining ajralib turadigan xususiyati - boyligi va mardlik ko'rsatishga intilishidir". X asr oxirida yozilgan "Hudud al-Olam" asarining muallifi Kat shahri to'g'risida quyidagilarni yozadi: "Shaharning boyligi katta. Bu yerdan

yostiqlik jildi, qavima kiyim-bosh, ip gazlama, kigiz, qora uy, ruxbin (pishloqning bir turi) chiqariladi”.

Yana bir Oʻrta asr fors tarixchisi Zakariyo ibn Muhammad al-Kazviniyning yozishicha: “Har bir shahar oʻrtasida yana bir kichik shahar boʻlgan. Kichik shaharning oʻrtasi qoʻhandiz deb atalgan. Markazdagi kichik shaharlarni shahriston yoki arabcha - madinat us-sugʻro (kichik shahar) deb ataganlar. Uning atrofi devor bilan oʻralgan va bir necha darvozalari boʻlgan. Shahriston atrofida katta shahar -madinat ul-kubro boʻlib, u ham devor bilan oʻralgan va bir necha darvozalari boʻlgan. Katta shahar atroflarida esa uzumzorlar va mevali bogʻlar, ularning tevaragida ekinzor dalalar bor edi”.

Tarixiy manbalarda Xorazmning boshqa savdo shaharlari toʻgʻrisida ham koʻp maʼlumotlar saqlanib qolgan. 922-yilda Xorazmda boʻlgan arab diplomati Ibn Fadlan “Ardaxushmisan bozorlari gavjum va aholisi farovon, katta shahar. Ardaxushmisan Kat va Gurganj oraligʻida joylashgan hamda Amudaryo boʻyidagi shahar boʻlib, unga suv yoʻli orqali boriladi”, - deb yozgandi. “Hudud al-Olam” asarida “Ardaxushmisan savdogarlarning toʻplanish joyi”, - deb koʻrsatilgan. Istahriy va Maqdisiylar Ardaxushmisanni Xorazmning Kat (Kos) va Gurganjdan keyingi yirik shahri sifatida koʻrsatishgan. Kosdan Jurjoniya-gacha masofa 3 kunlik yoʻl, Ardaxushmisangacha esa 1 kunlik yoʻl deb koʻrsatgandi Istahriy. Xivadan Raxushmisangacha (Ardaxushmisan) ham masofa (30-40 km.) shuncha boʻlganligini Maqdisiy yozib qoldirgan. Hamdulloh Qazviniy va Xoji Xalfalarning maʼlumotlariga koʻra, Gurganj bilan Ardaxushmisan oraligʻidagi masofa - 14 farsah (84-112 km.) boʻlgan. Ardaxushmisan orqali Xivani chetlab, toʻgʻri Xazorasp bilan Gurganjni bogʻlovchi yoʻl ham oʻtgandi. Xazorasp va Ardaxushmisan oʻrtasidagi masofa 16 farsahdan iborat deb hisoblangan. Ardaxushmisan oʻrnidagi hozirgi Voyangan yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar tarixiy manbalardagi maʼlumotlarni toʻla tasdiqlab, oʻrta asrlarda shaharning yirik savdo-hunarmandchilik markazi boʻlganligini koʻrsatadi.

III asrga kelib qalʼa-shaharlarning hayoti ham turlicha kechdi. Baʼzi shaharlarda aholi bir necha yuz yillar muddat yashagan boʻlsa, baʼzi birlari tabiiy jarayonlar oqibatida qisqa muddat odamlar hayoti uchun yaroqli holda faoliyat yuritgan. Xususan, Guldursun qalʼasi Qirgʻiz kanali boʻyida bunyod etilib, suv tanqisligi tufayli uni odamlar tark eta boshladi. Natijada, bir mahallar gullab-yashnagan shahar oʻz ahamiyatini yoʻqotgan edi. Qizilqalʼa ham oʻz taraqqiyot oʻrnini yangidan bunyod etilgan, yuksalib borayotgan Tuproqqalʼaga boʻshatib berdi. Ayoqqalʼa shahri oʻrniga esa Jildikqalʼa vujudga keldi. Bu jarayon voha taraqqiyotida markaz boʻlib shakllanayotgan Tuproqqalʼaning ahamiyatini oshirib bordi. Hatto Ayoqqalʼa va Tuproqqalʼa oʻrtasida suv taʼminoti masalasida

jiddiy raqobat kuchayib bordi. Bu kurashda Tuproqqal'a vakillari, ya'ni, qattiq-qo'l va shijoatli Afrig' boshchiligidagi afrig'iylar xonadoni vakillari g'olib kelgan. Shundan so'ng raqobatga dosh berolmagan Ayozaqal'a o'z faoliyatini to'xtatib, Tuproqqal'a yuksalib borgan. Xorazm shaharlarining rivoji sug'orma dehqonchilik va suv resurslari bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Suv ta'minoti masalasidagi raqobat ayrim shaharlarning tanazzuliga, boshqalarining esa yuksalishiga sabab bo'lgan. Guldursun qal'a va Ayozaqal'aning inqirozi, Tuproqqal'aning esa yirik markazga aylanishi ushbu jarayonning yaqqol misolidir. Shaharlararo savdo va hunarmandchilik Xorazmni mintaqadagi eng muhim iqtisodiy markazlardan biriga aylantirgan. Bu holat vohaning uzoq vaqt davomida o'z taraqqiyotini saqlab qolishiga xizmat qilgan.

X-XI asrlarda ham Xorazmning eng yirik savdo markazlari sifatida tanilgan Xazorasp, Darg'on, Zamaxshar, Norinjon, Kat shaharlarining rivojlanishi keyingi davrlarda ham davom qilgan. Yoqut Hamaviy Darg'onni ham yirik savdo markazi sifatida tilga olib o'tadi. Ulkan xorazmshohlar davlati shakllangan davrda asosiy savdo yo'llaridan birida joylashgan Darg'on qal'asi muhim strategik tayanch shaharga aylangan. Savdo-sotiq munosabatlarining rivojlanishiga zamin tayyorlovchi siyosiy barqarorlikning ta'minlanishi natijasida Buyuk Ipak yo'lining ham shimoliy, ham janubiy tarmoqlari tutashgan joyda turgan Darg'on shahrining muhim iqtisodiy tugunga aylanishiga sharoit yaratgan arab geografi Ibn Rusta Jurjoniyadan 4 farsax (28 km.) janubda Vargada (Varagdag') qishlog'i joylashgan, deb yozgandi. Arxeolog olimlarning aniqlashicha, Vargada IX-X asrlarga kelib shaharga aylangan va unda hayot to XIV asrgacha uzluksiz davom etgan. Shaharning umumiy maydoni 20 gektardan ortiq bo'lib, uning qoldiqlaridan turli-tuman hunarmandchilik buyumlari, sopol idishlar topilishi shaharning xorazmshohlar davrida yirik savdo-hunarmandchilik markazi bo'lganligidan dalolat beradi. Shahar atroflarida keng ekinzorlar, qishloq va kanallar izlari, sug'orish inshootlari mavjud bo'lib, u yirik dehqonchilik rustog'i markazi bo'lganligini ham ko'rsatadi.

X asrdagi arab yozma manbalarida qayd etilgan Mizdahqon, Nuzkat, Nukfag, Kardor, Barategin, Juvakin, Sho'roxon kabi taraqqiyoti yuksalgan shaharlar bilan bir qatorda so'l qirg'oq Xorazmda Daskoxonxos, Ruzund, Vazarmand kabi arab manbalarida tilga olingan shaharlar ham mavjud bo'lganki, hozirgacha ularning aniq o'rnini aniqlash imkoniyati topilmasdan qolmoqda. Arab sayyohi al-Maqdisiy tilga olgan Xorazmning Nuzkat, Nukfag, Barategin va Juvakin shaharlari to'g'risida boshqa manbalarda ma'lumotlar uchramasada, ularning mo'g'ullar bosqini arafasida yirik savdo markazlari qatorida turganligini taxmin qilsa bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аскарлов А.Хива шаҳар маданиятининг шаклланиши ва унинг асосий босқичлари //Инсониятнинг илмий ва маданий мероси - учинчи минг йилликка. Бухоро ва Хива шаҳарларининг халқаро симпозиум тезислари-Тошкент, Ўзбекистон-1937-Б.165-167.
2. Баратов С. Матрасулов Ш. Археологические работы в Южном Хорезме //Археологические исследования в Узбекистане в 2003 г- Самарканд. 2004.
3. Баратов С.Р.,Рахманов У.В. Новый краевовый комплекс античного – раннесредневекового времен на юге Хорезма. Ташкала-2 //Традиции Востока и Запада в античной культуры Средней Азии //Сборник статей, посвященной 70-летию П. Бернара-Ташкент, 2010-С.102-105.
4. Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма. – М.: Наука, 1977. – С.80-82.
5. Вактурская Н.Н, Воробьева М.Г. Хроника работ Хорезмской АнССР в 1952 /Тр.ХАЭЭ.-М:1958.Т. II- С.619-620.
6. Гудкова А.В. Токкала –Ташкент: Фан. 1964. 152 С.
7. Гуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Тошкент: Фан, 1959. -Б.123.
8. Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. –Т: Изд-во АН УзССР, 1967. -С. 97-98.
9. Мамбетуллаев М. Городище Кят (Левобережный Зарлык Ишанбобо//Археологические исследования в Каракалпакии. –Нукус.-1981. -С.65-76.
10. Рапопорт Ю.А. Раскопки городища Шахсанем в 1952 г. //Тр.ХАЭЭ.-М.: Наука, 1958. –Том. -2. -С.398-467.
11. Ртвеладзе Э.В. Некоторые аспекты политической и династийной истории государства Вазамаидов (Афригидов) // В кн.: Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2013. -С. 95-96.
12. Ходжаниязов Г.К. Новые данные к истории фортификации древнего Хорезма //ТДМК молодых ученых Средней Азии и Казахстана. Душанбе: Дониш.1984. -С.67-68.
13. Ягодин В.Н. К изучению топографии и хронологии древнего Миздахкана. История археология и этнография Средней Азии. -М.: Наука. 1968. -С.189-198.
14. Турабеков М. Исследование цитадели Гауркалы городища Миздахкан //Археологические исследования в Узбекистане 2001 г. –Ташкент: 2002. -С.153-155.
15. Якубовский А.Ю. Городище Миздахкан //ЗКВ-Л, Т-V. 1930-С-10-25.

TARIX

XORAZM VOHASIDA HAYKALTAROSHLIK SAN'ATINING RIVOJI VA UNDAGI TUB O'ZGARISHLAR TAHLILI

UO'K 930.85



Sadaddinov
Sharafaddin,
Abu Rayhon Beruniy
nomidagi Urganch
davlat universiteti
“Tarix” kafedrası
o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Xorazm vohasida haykaltaroshlik san'atining shakllanishi, asosiy bosqichlari va rivojlanish jarayonlari tahlil qilingan. Tadqiqotda qadimiy haykaltaroshlikning diniy ildizlari, badiiy xususiyatlari hamda zamonaviy davrdagi milliy qadriyatlar asosidagi davomiyligi yoritilgan.

Аннотация: В статье рассматриваются становление и развитие скульптурного искусства Хорезмского оазиса. Освещаются религиозные истоки, художественные особенности древней скульптуры и её современное развитие на основе национальных ценностей.

Annotation: The article analyzes the formation and development of sculpture art in the Khorezm oasis. It highlights the religious origins, artistic features of ancient sculpture, and its modern continuation based on national values.

Kalit so'zlar: Xorazm vohasi, haykaltaroshlik, qadimiy haykallar, Tuproqqal'a, Qo'yqirilganqal'a, ona ma'buda, bronza davri, zamonaviy haykaltaroshlik.

Ключевые слова: Хорезмский оазис, скульптура, древние статуи, Топрак-кала, Койкырылганкала, Богиня-мать, бронзовый век, современная скульптура.

Key words: Khorezm oasis, sculpture, ancient statues, Toprakkala, Koykirilgankala, mother-moddessa, bronze age, modern sculpture.

Xorazm vohasi Markaziy Osiyoning eng qadimiy madaniy markazlaridan biri bo'lib, bu hududda haykaltaroshlik san'ati uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Haykaltaroshlik insoniyat tafakkurining eng qadimiy badiiy ifoda vositalaridan biri sifatida diniy e'tiqod, marosim, kundalik hayot va ruhiy dunyo bilan bevosita bog'liq holda shakllangan [1]. Xorazm hududida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar bu san'at turining dastlabki ko'rinishlari neolit davridayoq vujudga kelganini ko'rsatadi.

Dastlabki davrlarda yaratilgan haykallar asosan marosimiy va diniy maqsadlarga xizmat qilgan bo'lib, ularning shakllarida tabiat kuchlariga sig'inish, ona zamin, hosildorlik va hayot timsoli ustuvor o'rin egallagan. Xorazm haykaltaroshligida ona ma'buda haykalchalari, hayvon figuralari, totemik tasvirlar orqali ajdodlarning dunyoqarashi, ruhiy kechinmalari va e'tiqod tizimi ifoda topgan.

Vaqt o'tishi bilan haykaltaroshlik san'atining mazmuni va shakli o'zgara bordi. Antik davr va o'rta asr bosqichlarida inson obrazini badiiy ifodalashda realizm, ramziylik va dekorativlik uyg'unligi kuchaydi. Islom davri bilan birga tasviriy shakllarning o'rini naqsh, yozuv va ramziy kompozitsiyalar egallay boshladi. Bu davrda haykaltaroshlik bevosita diniy me'morchilik bilan uyg'unlikda rivojlandi.

Zamonaviy davrga kelib, Xorazm vohasida haykaltaroshlik san'ati milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va zamonaviy badiiy tafakkur uyg'unligida yangicha bosqichga ko'tarildi. Bugungi kunda Xorazm haykaltaroshlari o'z asarlarida milliy tarix, buyuk siymolar, madaniyat va ruhiylikni zamonaviy estetik qarashlar bilan uyg'unlashtirmoqdalar.

Tadqiqotning asosiy manbalarini Xorazm vohasida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijalari, haykaltaroshlik namunalari hamda bu soha bo'yicha yozilgan ilmiy manbalar tashkil etadi. Asosiy ma'lumotlar S.P.Tolstov, B.I.Vaynberg, A.V.Vinogradov, M.A.Itina, V.V.Akulov singari olimlarning tadqiqotlariga tayanilgan. Ularning asarlarida Xorazm vohasining madaniy hayoti, haykaltaroshlik namunalarining xronologiyasi va funksional ahamiyati chuqur tahlil qilingan[2].

Metodologik jihatdan tadqiqotda tarixiy-tahliliy, qiyosiy, madaniy-falsafiy va badiiy-estetik usullar qo'llanildi. Tarixiy-tahliliy metod yordamida Xorazm haykaltaroshlik san'atining shakllanish bosqichlari — neolit davridagi ona ma'buda haykalchalaridan tortib, o'rta asr me'moriy bezaklariga va zamonaviy yodgorliklarga qadar bo'lgan jarayonlar izchil o'rganildi.

Qiyosiy metod Sharq va G'arb haykaltaroshlik maktablarini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, Xorazm vohasidagi qadimiy shakllarning boshqa madaniy markazlar — Mesopotamiya, Eron, Baqtriya san'atlari bilan o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilindi [3].

Madaniy-falsafiy yondashuv esa Xorazm haykaltaroshligining diniy e'tiqod, marosimiy qarashlar va ruhiy tafakkur bilan bog'liqligini ochib berishga xizmat qildi. Badiiy-estetik metod orqali esa haykallar shakli, plastika, proporsiya va badiiy ifoda jihatidan baholandi. Shuningdek, zamonaviy haykaltaroshlik namunalarini o'rganishda 3D-modellashtirish, raqamli arxivlashtirish va muzey

fondlari bilan solishtirma tahlil usullari ham qo'llanildi. Bu metodlar Xorazm vohasida haykaltaroshlik san'atining zamonaviy bosqichdagi innovatsion rivojini ko'rsatish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Xorazm vohasida haykaltaroshlik san'ati qadimiy davrlardan boshlab shakl, mazmun va g'oya jihatidan uzluksiz rivojlanib kelgan. Arxeologik manbalarga ko'ra, Xorazm hududida topilgan neolit davri ona ma'buda haykalchalari bu san'atning eng dastlabki namunalaridan hisoblanadi. Ular, avvalo, hosildorlik, ona zamin va hayot timsoli sifatida diniy e'tiqodning markazida turgan. Bu topilmalar orasida Tozabog'yob va Jonbos-4 yodgorliklaridan olingan loydan yasalgan figuralar eng qadimgi haykaltaroshlik shakllarini ifodalaydi [4].

Bronza va ilk temir davrlarida Xorazm haykaltaroshlik san'ati shaklan murakkablashib, inson va hayvon obrazlarini yanada aniqroq ifodalashga intilgan. Bu davr haykallarida antropomorf shakllar bilan bir qatorda, totemik hayvon figuralari ham uchraydi. Bunday obrazlar orqali insonning tabiat kuchlariga e'tiqodi va marosimiy qarashlari ifodalangan. Antik davrda Xorazmda shahar madaniyatining yuksalishi bilan bir qatorda haykaltaroshlikning badiiy saviyasi ham sezilarli oshdi. Tuproqqal'a va Qoyqirilgan qal'a yodgorliklarida topilgan haykallar inson obrazining aniq mutanosiblikda, ifodali plastika va realistik uslubda ishlanganini ko'rsatadi. Tadqiqotchi B.I.Vaynberg va A.V.Vinogradov bu davr haykaltaroshlik namunalarini O'rta Osiyoda realizm tamoyillarining ilk namunalari sifatida baholagan [5].

O'rta asr davrida islom madaniyatining ta'siri ostida, haykaltaroshlik san'atida tasviriy shakllarning o'rni qisqardi. Shunga qaramay, Xorazm ustalari haykaltaroshlikka xos plastika va ramziylikni me'moriy bezaklarda, ganch o'ymakorligi va sopol naqshlarda davom ettirdilar. Masalan, Xiva va Qo'hna Urganchdagi inshootlarda haykaltaroshlikka xos hajm, simmetriya va chiziq dinamizmi saqlanib qolgan [6].

Zamonaviy davrga kelib, Xorazm haykaltaroshlik san'ati milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va zamonaviy estetik tafakkur uyg'unligida yangi bosqichga ko'tarildi. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida yaratilgan "Al-Xorazmiy haykali", "Beruniy siymosi", "Jadidlar xotirasi" kabi yodgorliklarda qadimiy haykaltaroshlik an'analari bilan zamonaviy badiiy shakllar uyg'unlashgan [7]. Bu davrda haykaltaroshlik san'atida bronza, beton, marmar kabi materiallar bilan bir qatorda kompozit va zamonaviy texnologiyalar qo'llanila boshlandi.

Xorazm haykaltaroshlik maktabining o'ziga xos xususiyati shundaki, u tarixiy davrlar o'tishi bilan o'z an'alarini yo'qotmagan, balki ularni yangi



badiiy yo‘nalishlar bilan boyitgan. Shu bois, Xorazm haykaltaroshligi bugun ham o‘zining diniy-falsafiy ildizlariga tayangan holda zamonaviy estetik yo‘nalishlarda rivojlanmoqda.

Xorazm vohasida haykaltaroshlik san‘atining shakllanishi va rivoji insoniyat tafakkurining o‘zgarish jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir. Bu san‘at turi dastlab diniy-marosimiy g‘oyalarga asoslangan holda vujudga kelgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan ijtimoiy hayot, ilm-fan va estetik tafakkurning rivojlanishi natijasida badiiy mazmun jihatdan boyib borgan. Neolit davrida yaratilgan ona ma‘buda haykalchalari Xorazm aholisi e‘tiqodida hayot manbai va hosildorlik ramzi sifatida muhim o‘rin egallagan.

Bronza va ilk temir davrlariga kelib, Xorazm haykaltaroshlik san‘ati yanada murakkablashib, diniy mazmun bilan bir qatorda badiiy-estetik yo‘nalishga ham ega bo‘la boshlagan. Inson siymosining aniq mutanosiblikda ishlanishi, hayvon figuralaridagi harakat ifodasi haykaltaroshlarning tafakkur darajasining oshganini ko‘rsatadi.

Antik davrda Xorazmda shahar madaniyati, davlatlilik va diniy e‘tiqodlarning rivoji bilan birga haykaltaroshlik ham badiiy mukammallikka erishdi. Tuproqqal’a, Qoyqirilgan qal’a, Kampirtepa kabi yodgorliklarda topilgan haykallar o‘zining shakliy aniqligi, ifoda kuchi va realistik ruhiy holatni aks ettirishi bilan ajralib turadi [8]. Ushbu davr haykallari insonni nafaqat diniy timsol sifatida, balki ijtimoiy mavjudot — jamiyat a‘zosi, tafakkur egasi sifatida tasvirlagan.

O‘rta asrlarda islom madaniyati kirib kelishi bilan haykaltaroshlikda tasviriy ifoda o‘z o‘rnini ramziy, naqshli va yozuvli bezaklarga bo‘shatdi [9]. Ammo Xorazm ustalari haykaltaroshlikka xos hajm, proporsiya va kompozitsiya tamoyillarini me‘moriy bezaklar orqali davom ettirdilar. Xiva va Urganchdagi me‘moriy obidalarda ko‘rinadigan ganch o‘ymakorligi, sirli sopol naqshlar va arabesk elementlari haykaltaroshlik ruhining uzviy davomiyligini namoyon etadi.

Zamonaviy davrda esa Xorazm haykaltaroshlik san‘ati milliy tarix, qadriyatlar va zamonaviy g‘oyalarni o‘zida mujassamlashtirgan yangi bosqichga ko‘tarildi. Mustaqillik yillarida yaratilgan “Al-Xorazmiy haykali”, “Beruniy siymosi”, “Temuriylar xotirasi” kabi yodgorliklarda qadimiy shakllar bilan zamonaviy ifoda vositalari uyg‘unlashgan [10]. Bu jarayon haykaltaroshlikning ijtimoiy va ma‘naviy ahamiyatini yanada oshirib, uni xalqning tarixiy xotirasi va milliy g‘ururining badiiy ifodasiga aylantirdi.

Shunday qilib, Xorazm vohasida haykaltaroshlik san‘ati shakl va mazmun jihatidan o‘zining tarixiy evolyutsiyasini bosib o‘tdi. U dastlab diniy timsollardan iborat bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik jamiyat tafakkuri, estetik qarashlar va badiiy

yo‘nalishlarning o‘zgarishi natijasida san‘atning mustaqil turi sifatida rivojlandi. Bugungi kunda Xorazm haykaltaroshlik maktabi milliy an‘ana, zamonaviy shakl va global badiiy tafakkur uyg‘unligining yorqin namunasi sifatida e‘tirof etilmoqda.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Xorazm vohasi haykaltaroshlik san‘ati Markaziy Osiyo madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lib, u o‘z taraqqiyot yo‘lida ko‘plab bosqichlarni bosib o‘tgan. Neolit davrida diniy-marosimiy ma’noga ega ona ma’buda haykalchalari orqali shakllangan bu san‘at turi keyingi bosqichlarda badiiy ifoda, estetik shakl va falsafiy mazmun jihatidan sezilarli darajada boyigan.

Bronza va temir davrlariga kelib, Xorazm haykaltaroshlik san‘ati shakl va g‘oya jihatidan murakkablashib, inson obrazining anatomik aniqligi, ruhiy holati va ijtimoiy mavqeini aks ettirishga yo‘naltirilgan. Antik davrda esa bu san‘at yuksak realizm, mutanosiblik va plastika darajasiga erishgan. Ayniqsa, Tuproqqal’a, Qoyqirilgan qal’a va Kampirtepa yodgorliklarida topilgan haykallar Xorazm haykaltaroshligining o‘ziga xos maktab sifatida shakllanganini tasdiqlaydi.

Islom davrida tasviriy san‘at shakllarining o‘zgarishi natijasida haykaltaroshlik ramziy va me’moriy bezaklarga singib ketgan bo‘lsa-da, bu san‘at ruhiy mazmunini yo‘qotmagan. U milliy madaniyatning badiiy-estetik tamoyillarini davom ettirib, o‘zining falsafiy asosini saqlab qolgan.

Zamonaviy davrda esa Xorazm haykaltaroshlik maktabi tarixiy an‘analar, milliy qadriyatlar va zamonaviy estetik qarashlar uyg‘unligida yangi bosqichga chiqdi. O‘zbekiston haykaltaroshlari, xususan, Xorazmda faoliyat yuritayotgan ijodkorlar asarlarida milliy o‘zlik, tarixiy xotira va zamonaviy badiiy ifoda uyg‘unlashgan. Bu jarayon Xorazm vohasini nafaqat tarixiy yodgorliklar makoni, balki milliy haykaltaroshlik san‘atining markazlaridan biri sifatida mustahkamladi.

Umuman olganda, Xorazm haykaltaroshlik san‘ati tarixiy davomiylik, shakl va mazmunning uzviy bog‘liqligi hamda milliy ruhning badiiy ifodasi sifatida O‘zbekiston madaniy merosida alohida o‘rin egallaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. – Москва: Издательство АН СССР, 1948.
2. Материалы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Под ред. С.П. Толстова. – Москва: Издательство АН СССР, 1958.
3. Кес А.С. Памятники древнего Хорезма и проблемы их датировки. – Москва: Наука, 1976.
4. Акулов В.В. Художественные ремёсла и искусство древнего Хорезма. – Москва: Наука, 1981.
5. Вайнберг Б.И. Керамика и хозяйство населения Хорезма в эпоху бронзы. – Москва: Наука, 1979.
6. Виноградов А.В., Итина М.А. Культура древнего Хорезма в эпоху бронзы. – Москва: Наука, 1968.
7. Баратов П. Қадимги Хоразм маданияти тарихи. – Урганч: УрДУ нашриёти, 2015.
8. Рахматуллаев Ш. Хоразм археологик ёдгорликларининг бадий қиммати. – Тошкент: Фан, 2004.
9. Бердяев А.Н. История искусства народов Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1985.
10. Мамедов Э.Д. Археологические исследования в нижнем течении Амударьи. – Ашхабад: Ўлут, 1983.

TARIX

XORAZM SAVDOGARLARINING BUYUK IPAK YO'LI ORQALI TIJORIY ALOQALARI

UO'K 391.27



Abdullayev Sarvar,
Urganch davlat
Pedagogika instituti,
“Pedagogika” fakulteti
dekanining yoshlar
bilan ishlash bo'yicha
o'rinbosari

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm savdogarlarining 10-11 asrlarda tashqi savdodagi tijoriy aloqalari, eksport va import mahsulotlari tahlil qilinadi. Bu jarayonda savdogarlarning ko'chmachilar yashagan hududlar bilan qilgan savdo aloqalarining ahamiyati ochib beriladi.

Аннотация: В данной статье анализируются внешнеторговые отношения, экспорт и импорт продукции хорезмских купцов в X-XI веках. В процессе исследования выявляется важность торговых связей купцов с кочевыми регионами.

Annotation: This article analyzes the foreign trade relations, export and import products of Khorezm merchants in the 10th-11th centuries. In the process, the importance of the merchants' trade relations with the nomadic regions is revealed.

Kalit so'zlar: Xorazm, Ustyurt, Amudaryo, Uzboy, savdo, iqtisod, oltin, kumush, chorva, go'sht, sut, ko'chmachilar hududi.

Ключевые слова: Хорезм, Устюрт, Амударья, Узбой, торговля, экономика, золото, серебро, скот, мясо, молоко, территория кочевников.

Key words: Khorezm, Ustyurt, Amu Darya, Uzboy, trade, economy, gold, silver, livestock, meat, milk, nomad territory.

Xorazm vohasining mintaqaviy joylashuv o'rni uning qadim zamonlardan qo'shni hududlar aholisi, xususan ko'chmanchi qabilalar vakillari bilan oldi-sotdi aloqalarini doimiy ravishda amalga oshirishga imkoniyat yaratgan. Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi a'zolari tomonidan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qabilalarning hayoti va turmushi izlarini topish maqsadida Sirdaryoning quyi oqimi, Amudaryoning eski o'zani-Uzboy atroflari va Kaspiyorti hududlarida olib borgan ko'p yillik tadqiqotlar natijasida ko'pming kishilik chorvador aholining tarixning turli davrlarida Xorazm vohasi bilan uzviy iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqada bo'lib kelganliklari aniqlandi. So'nggi

yillarda Ustyurtda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari ham shundan dalolat beradi.

O'troq dehqonchilik hududlari bilan ko'chmanchilar dunyosi o'rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishi va yuksalishida savdo-ayirboshlash munosabatlari keng o'rin egallagan. Chunki o'troq xorazmlik hunarmandlar yaratgan kundalik turmush ehtiyojlari uchun zarur mollarni chorvadorlarning qo'y-echki va qoramollariga, ulardan olinadigan jun, teri, go'sht, sut, pishloq kabi mahsulotlarga ayirboshlash har ikki tomon uchun ham katta foyda keltirgan.

Ko'chmanchilar bilan bo'lgan savdo aloqalari Xorazm vohasidagi shaharlarda bozorlarning kengayishi, hunarmandchilikning rivojlanishiga turtki bergan. Professor A.Yu.Yakubovskiyning yozishiga ko'ra, "O'rta Osiyo hayotida ko'chmanchilar bilan bo'ladigan savdo Sharqiy Yevropa bilan olib boradigan savdo munosabatlaridan kam rol o'ynamagan. Butun bir hududlar aynan shu mahsulot ayirboshlash ta'siri ostida rivojlanganlar. Xorazm iqtisodiy va siyosiy jihatdan faqat Sharqiy Yevropa bilan bo'lgan savdo ta'sirida emas, balki ko'chmanchi turkman va o'g'iz dashtlari bilan bo'lgan savdo orqali ham o'sgan. Har qanday holatda ham, shu davr O'rta Osiyo yirik shaharlaridan biri, Shimoliy Xorazm poytaxti - Urganch o'zining asosiy boyligini o'sha ko'rsatilgan ko'chmanchilar bilan bo'lgan savdo aloqalari orqali to'plaganiki, ko'chmanchilar Urganch bozorlariga chorva mollari, jun va teri olib kelib, uning evaziga sholi, non, gazlamalar va metall buyumlar olib ketganlar"(1).

X asrdayoq mashhur al-Istaxriy "Xorazmliklarning mamlakatida oltin yo'q, kumush konlari yo'q, qimmatbaho toshlar to'g'risida esa so'z ham bo'lishi mumkin emas. Boylikning katta qismini turklar bilan savdodan va mol boqib ko'paytirishdan topadilar", deb yozgandi.

Ayniqsa, Xorazmning Ustyurt, Orolbo'yi hududlari bilan, ya'ni ko'chmanchilar bilan yaqin bo'lgan shimoliy qismidagi shaharlar, xususan Urganchning boyligi va imkoniyatlari ortib bordi. Mazkur ilmiy muammoni o'rganishga e'tibor bergan akademik V.V.Bartold "Xorazm o'z boyligini islom davrida yanada taraqqiy qilgan ko'chmanchilar bilan bo'ladigan savdo aloqalari orqaligina orttirgan. Bu savdo asosan Xorazmning shimolida jamlangan edi", deb yozgandi (2).

Xorazmning tashqi savdo-sotiq munosabatlarida Sirdaryo bo'ylarida shakllangan yangi urug'-qabilalar, xususan qadimgi sak-masaggetlar avlodlari bilan qo'shilgan turkiy xalqlardan paydo bo'lgan o'g'uzlar muhim rol o'ynay boshlaganlar.

XI-XII asrlarga oid yozma manbalar va o'rta asrlarda o'g'uzlar tasarrufida bo'lgan hududlarda olib borilgan arxelogik tadqiqotlar natijasida juda ko'p shaharlar bo'lganligi, bu esa ularning ko'plari o'troq sharoitga ko'nikib, dehqonchilik madaniyatini o'zlashtirganligi, qolgan qismi esa ko'chmanchilik turmush tarzi bilan hayot kechirishni davom ettirganligini tasdiqladi. "G'uzlarning shaharlari ko'p, ular sharq va g'arbga tomon birining ketidan ikkinchisi cho'zilib ketgan", deya yozgandi shu bois al-Idrisiy "Nuzxat al-mushtaq fi ixtirak al-afaq" nomli asarida.

Olim katta-kichik shaharlarni sanab o'tib, ular yaxshi mustahkamlangan va ajoyib bozorlari hamda mo'l-ko'l mahsulotlarga ega bo'lganligini ta'kidlaydi. Boshqa bir mashhur olim Mahmud Qoshg'ariy esa "Devoni lug'atit turk" asarida bir qancha o'g'iz shaharlarini sanab o'tishi bilan kifoyalanmay, o'zining xaritasida Quyi Sirdaryo havzasini "G'uz" shaharlari to'plangan bir muzofot tariqasida tasvirlaydi.

O'g'uzlar davlati tarkibida Sirdaryo bo'ylab joylashgan Yangikent (Jonkent), Jand va Sig'noq kabi bir nechta boy shaharlar bor edi. Ammo X asr arab manbalarida "o'g'uzlar ko'chmanchi chorvador qabila sifatida tasvirlanib, yuqoridagi shaharlardan birortasiga asos solmagan", degan xulosa ham mavjud. Xususan, 922-yilda Ustyurtdan o'tgan Bag'dod elchisi Ibn Fadlanning "Sayyohatnoma" va muallifi noma'lum bo'lib qolayotgan "Hudud al-Olam" kitoblarida "o'g'uzlar shahar hayotini bilmaydigan ko'chmanchilar" sifatida tasvirlanadi. Bizning taxminimizcha, Xorazm, So'g'd va Shosh savdogarlari tomonidan dasht aholisi bilan olib borgan savdo aloqalari jarayonida qadimdan Jand, Sig'nok va Yangikent shaharlariga asos solingan bo'lishi mumkin.

Bora-bora o'g'uzlarning Xorazm bilan savdo-sotiq aloqalari yildan-yilga kengayib borgan. Ko'chmanchilar dunyosi bilan bo'lgan savdoda Kat, Gurganj, Mazdahkon, Madminiya (Bug'roxon) va Git (Puljoy) kabi savdo shaharlari eng muhim markazlar bo'lib, Kat bilan Gurganj deyarli barcha manbalarda g'uzlar Turkistoniga kiruvchi darvoza sifatida eslatiladi. Shu bilan bir qatorda xorazmliklarning o'g'uzlar va boshqa ko'chmanchi qabilalar bilan savdo-sotiq aloqalari holati va ayriboshlash jarayonida mollarning hajmi qanday degan savollarga javob izlash muhim ahamiyatga ega.

Savdo-sotiq munosabatlarida o'g'uzlar hududidagi ayrim shaharlarning mavqei juda baland bo'lgan. Xususan, Sirdaryo bo'ylaridan o'tadigan savdogarlar hayotida Jand shahri ahamiyati Xorazmning Kat yoki Gurganch kabi markaziy shaharlaridan kam bo'lmagan. Bu shahar, ayniqsa Xorazmshohlar davrida juda

yirik savdo va hunarmandchilik markaziga aylanish bilan bir qatorda saljuqiylar va mo'g'ul tatarlar tajovuzlari vaqtida keskin siyosiy kurash maydonlaridan biriga aylandi.

“XI-XIII asrlarda Jand shahrining yirik savdo-sotiq markazi sifatida ahamiyati shu darajada yuksak bo'lganki, hatto Orol dengizini ham, ba'zan Jand dengizi deb atashgan” (3).

O'g'uz davlati hududidan Xorazm bozorlariga qishu-yoz faqat otar-otar qo'ylar va qoramollar haydab kelingan, chorvachilikdan olinadigan xom ashyo sotish uchun keltirilgan desa xato bo'lardi. O'troq hayotga o'tgan o'g'uzlar juda ko'plagan hunarmandchilik mollarini ham savdoga chiqara boshlaganlar. Xususan, Sig'nok shahrida yasalgan kamonlar va uning o'qlari butun sharqda juda xaridorgir bo'lganligi ma'lum. Arxeologik tadqiqotlar ham ko'chmanchilarning Uygarak, Sarlitomqal'a kabi yodgorliklardan va Jand shaharlaridan topilgan hunarmandchilik buyumlarining juda sifatli yasalganligini tasdiqlaydi.

Xorazm savdogarlari ko'chmanchilar yashaydigan hududlar va ularning shaharlar aholisiga asosan, qimmatbaho ip va ipak matolar, uy-ro'zg'or buyumlari, qurol-yarog'lar olib borib sotganlar. Xolijon degan joydan esa ko'p miqdorda baliq ovlanib, u ham ko'chmanchilarga sotish uchun olib borilgan.

1946, 1959-61-yillarda Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi a'zolarining Sirdaryoning o'g'uzlar yashagan Janidaryo va uning irmog'i— Inkardaryo hamda Quvondaryo o'zanlari yaqinida olib borgan tadqiqotlari natijasida Kesganqal'a, Sarlitomqal'a, Zangarqal'a, Ashanas va Uygarak kabi o'rta asr yodgorliklari chuqur o'rganib chiqildi. Yodgorliklarning atrofida kanallar va dalalar qoldiqlari aniqlanganligi bu yerlarda ko'p asrlar davomida dehqonchilik qilinib kelinganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, bu yodgorliklardan turli xil hunarmandchilik ustaxonalari qoldiqlari, zargarlik, kulolchilik, to'qimachilik buyumlari topildi.

Arxeolog professor S. Tolstovning fikricha, “yuqoridagi qal'a va istehkomlarga bir vaqtlar o'g'uzlarning o'zlari asos solganlar. Ushbu o'g'uz shaharlarining vujudga kelishida ularning Xorazm bilan bo'lgan savdo-sotiq aloqalari muhim rol o'ynagan”.

Xorazmning Sirdaryoning quyi havzasi va Orolbo'yi ko'chmanchilari bilan savdo-sotiq aloqalari asosan 3 ta savdo yo'li orqali amalga oshirilgan. Birinchi yo'l - Xorazmning markaziy shaharlaridan boshlanib, Orol dengizini yoqalab shimoli-sharqiy tomondagi o'g'uzlarning poytaxti Yangikent va Jand shaharlariga olib borgan. Ikkinchi yo'l—Beltov qirlari janubidan o'tib, Janidaryo

bo'ylaridan o'g'uzlarning Sig'noq, Ashanas, Sarlitomqal'a shaharlariga yetib borgan. Uchinchi yo'l—Ustyurt qirlari orqali o'tib, bijanaklar, qipchoqlar, o'g'uzlar yashaydigan hududlarga qarab ketgan. Arab-fors manbalarida Zamjon yoki "Bob-at-turk"—"Turklar darvozasi" rabotidan boshlanadi, deb ko'rsatilgan. Uchinchi karvon yo'li Sharqiy Yevropaga mol olib ketayotgan va Xorazmga kelayotgan savdogarlar uchun juda serqatnov bo'lgan.

O'g'uzlar davlatining X asr birinchi choragida qipchoqlar tomonidan tormor qilinishi oqibatida uning aholisidan bir qismi janubiy Rus dashtlariga ketib qolgan. Qolganlari esa Movarounnahr hududiga ko'chib o'tib, saljuqiylar davlatiga asos solgan va ayrimlari qipchoqlar bilan aralashib ketganlar.

XI-XII asrlardagi ushbu siyosiy jarayonlar Xorazmning ko'chmanchilar hududlari bilan bo'lgan savdo-sotiq munosabatlariga deyarlik salbiy ta'sir o'tkaza olmagan. Mavjud savdo yo'llaridagi karvonsaroylar va ilgarigi ko'chmanchilar ovullari va shaharlaridagi bozorlar o'z faoliyatini davom qildirgan. Endi savdo-ayriboshlash munosabatlarida o'g'uzlar emas, balki qipchoqlar boshliq turli-tuman ko'chmanchilar asosiy vositachi va savdogar sifatida xorazmliklar bilan aloqa qilardilar.

Xorazmshohlar-anushteginiylar davlatining vujudga kelishi va uning dunyoviy imperiyaga aylanishi natijasida ko'chmanchilar dunyosi bilan bo'lgan savdo-sotiq munosabatlari o'zining eng rivojlangan bosqichiga kiradi. Ozarbayjonlik akademik Ziyo Bunyodovning "Anushteginlar-Xorazmshohlar davlati" asarida yozilishiga ko'ra, "Jand shahri Xorazmshohlar davlatining eng muhim siyosiy va savdo-sotiq markazlaridan biriga aylanadi. Ushbu shahar uchun Sulton Takash chiqargan Farmoni oliyda qanday qilib bo'lsa-da, savdo-sotiq ishlariga hech qanday to'sqinlik qilmaslik, savdogarlarning mol va hayotini turli tajovuz hamda suiqasdlardan himoya qilish tadbirlarini amalga oshirish lozimligi ko'rsatilgandi".

"Xorazmning dunyo savdo-sotiq munosabatlaridagi juda katta hajmdagi mol ayriboshlash aloqalariga mo'g'ul-tatarlar bosqini juda katta zarba berdi. Bir vaqtlar aholisi ko'p va bozorlari gavjum Sig'noq, Kuyukkesganqal'a, Jand, Ashanas, Sarlitomqa'la, Uygarak kabi ko'chmanchilar bilan aloqani ta'minlaydigan shahar va qal'alar huvillab qoldi. Sirdaryo bo'ylaridagi ushbu savdo markazlarining hayotida Oltin O'rda va Amir Temur davlati hukmronligi davrida biroz jonlanish bo'lsa-da, ular o'zlarining ilgarigi darajasiga ko'tarila olmadilar" (4).

Temuriylar va undan keyingi davrlarda ham ko‘plagan savdo karvonlari bo‘ylaridagi shahar va ko‘chmanchilar yaylovlarini cheklab o‘tadigan bo‘ldilar. Chunki, XIV-XV asrlardagi Dashti Qipchoqda ro‘y bergan siyosiy jarayonlar, ko‘chmanchi o‘zbeklar, o‘zbek-qozoq va qozoqlar urug‘-qabilalari o‘rtasidagi hududiy hukmronlik va yetakchilik qilish uchun o‘zaro kurashlari, ularning Movarounnahr yerlariga tez-tez ayovsiz hujumlari o‘troq aholi bilan ko‘chmanchilar o‘rtasidagi azaliy savdo-xo‘jalik aloqalarini uzib qo‘ydi. Shunday bo‘lsa-da, o‘lka xalqlarining iqtisodiy hayotiga katta ta’sir o‘tkazib kelgan savdo-sotiq aloqalari umuman to‘xtab qolmasdan, cheklangan hajmda bo‘lsa-da, davom etgan va doim o‘troq aholi bilan ko‘chmanchilar o‘rtasidagi ikki tomonlama foydali munosabatlarga zamin yaratgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. А.Ю.Якубовский. “ Феодальное общество Средней Азии и его торговля с Восточной Европой в X-XV вв”.МИУТТ, ч 1.-Л, 1932, с 15.
2. В.В.Бартольд. “История Туркестана”, “Труды Туркестанского Государственного Университета”. Вып. 2, Т, 1922, с 14-19.
3. Очерки истории Каракалпакской АССР, Т1, с 122.
4. Bahodir Norboev, Umid Bekmuhammad. “Xorazm bozorlari”, “Yangi asr avlodi” nashriyoti, Toshkent. 2008-yil, 34-bet.

TARIX

KLAVIXO TASVIRLARIDA AMIR TEMUR SALTANATINING QUDRATI



**Komilova Sarvinoz,
UrDU talabasi**

UO‘K: 947 (10)

Annotatsiya: Mazkur maqola XV asr ispan diplomati Rui Gonzales de Klavixoning Amir Temur saroyiga qilgan elchilik safari va uning natijasida yaratilgan “Samarqandga sayohat kundaligi” asarining tarixiy-madaniy ahamiyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Аннотация: Данная статья работа посвящена анализу историко-культурного значения посольской поездки испанского дипломата XV века Руи Гонсалеса де Клавихо во дворец Амира Тимура и созданного по её результатам труда «Дневник путешествия в Самарканд».

Annotation: This article is devoted to the analysis of the historical and cultural significance of the 15th-century Spanish diplomat Rui Gonzalez de Clavijo's embassy trip to the palace of Amir Temur and the work "Journal of the Journey to Samarkand" created as a result of it.

Kalit so‘zlar: Samarqand elchiligi, davlat boshqaruvi, Saroymulxonim, Temur qo‘shini, Anqara jangi, qurilish, ilm-fan.

Ключевые слова: Посольство Самарканда, государственная администрация, Сараймулханим, армия Тимура, битва за Анкару, строительство, наука.

Key words: Samarkand embassy, state administration, Saraymulkkhanim, Timur's army, the Battle of Ankara, construction, science.

Yevropa va Sharq o‘rtasidagi munosabatlar XV asr boshlarida diplomatik jihatdan faollashgan davrlardan biridir. Kastiliya qiroli Enrike III tomonidan yuborilgan elchilik missiyasi 1403–1406 yillarda amalga oshirilgan bo‘lib, uning rahbari Rui Gonsales de Klavixo bo‘lgan. Elchilikning asosiy maqsadi Temur bilan siyosiy va savdo aloqalarini mustahkamlash, shuningdek Yevropaning Sharq bilan diplomatik kanallarini kengaytirish edi. Klavixoning ushbu safar davomida yozib borgan kundaliklari keyinchalik “Embajada a Tamorlán” nomi bilan mashhur tarixiy manbaga aylandi. Asarda elchilikning har bir bosqichi,

Temur saroyidagi marosimlar va Samarqand madaniy hayotining ko‘plab jihatlari batafsil yoritilgan.

Amir Temur davri bo‘yicha XV-XVI asrlarda yozilgan eng ishonchli manbalardan biri Klavixo kundaligi bo‘lsa undan keyin Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”sidir. Yazdiy Temur davrining rasmiy tarixchisi bo‘lib, harbiy yurishlar, siyosiy faoliyati va shaxsiy fazilatlari idealistik ruhda bayon qilingan[6]. Temuriylar davri voqealari tasvirlangan yana bir muhim manba Mirxondning “Ravzat us-safo” asari hisoblanib asosiy mavzu sifatida harbiy-siyosiy voqealar qamrab olingan. Manba ketma-ketlik tizimi asosida yozilib, og‘zaki rivoyatlarni ham jamlagan. Bo‘riboy Ahmedovning “Amir Temur” ilmiy-tarixiy badiasi turli manbalarni solishtirish orqali tarixiy faktlarni tasdiqlaydi. Ahmedov Temuriylar tarixi bilan bog‘liq qadimgi manbalar, jumladan, Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin al-Qazvinii va Mirzo Ulug‘bek yozuvlariga murojaat qilgan[7].

Klavixo delegatsiyasi 1403-yil 21-mayda Sevilya shahridan yo‘lga chiqqan. Ularning dastlabki manzillari O‘rta Yer dengizi orqali Genuya, undan so‘ng Konstantinopol bo‘lgan. Konstantinopol davrida Klavixo Sharq mamlakatlari, ayniqsa Temur davlatidagi siyosiy jarayonlar haqida dastlabki ma‘lumotlarni yig‘adi. U Qora dengiz orqali Anadolu hududiga o‘tib, bu yerda islomiy va turkiy sulolalarning siyosiy ta‘sirini qayd etadi. Elchilik 1404-yil boshlarida Kaspiy bo‘yi hududidan o‘tib, Xuroson orqali Temur davlatiga kiradi [5]. Klavixo Mashhad, Nishopur, Tus kabi shaharlarda iqtisodiy hayotning jonlanib borayotganini, karvon yo‘llarining xavfsizligi qat’iy ta‘minlanganini ta’kidlaydi. Yo‘l davomida u Temur qo‘shinlarining harbiy intizomi, rabotlar tizimi va davlatning markazlashtirilgan boshqaruvini kuzatadi. 1404-yil yozida elchilik delegatsiyasi Movarounnahr hududiga yetib keladi va Samarqandga qarab yo‘l oladi.

Klavixo Samarqandni Sharqning eng yirik siyosiy va madaniy markazi sifatida tasvirlaydi. U o‘z kundaligida quyidagi inshootlar haqida batafsil ma‘lumot beradi:

- Temurning asosiy qarorgohi — Ko‘k Saroy,
- Ulkan me‘moriy asar — Bibixonim masjidi,
- Bozorlari, hunarmandchilik markazlari, misgarlik, zargarlik ustaxonalari,
- Bog‘i Dilkusho va shaharning keng me‘moriy landshafti.

Muallif Samarqandda ko‘p millatli savdo aloqalari, iqtisodiy barqarorlik va madaniy uyg‘onish jarayonlari davom etayotganini ta’kidlaydi. Temur hukmronligi davrida shahar qurilishi keng miqyosda olib borilgani, infratuzilma rivojlanganini qayd etadi.

Klavixo asarning eng muhim sahifalaridan birida 1404-yil kuzida Amir Temur tomonidan qabul qilingan diplomatik marosimni tasvirlaydi. U marosimning tantanavor o'tganini, Temurning ajoyib tashkilotchilik va davlat boshqaruvi qobiliyatini alohida ta'kidlaydi. Unga ko'ra "Temurning taxti oltin va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan, saroyga kirish qat'iy tartib asosida amalga oshirilgan, yuzlab amirlar, beklar, lashkarboshilar qatnashgan, Temur diplomatik odob-axloq normalariga katta e'tibor bergan"[1]. Mazkur tasvir Temur davlatidagi siyosiy madaniyat, marosimlar tizimi va davlat boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlarini yoritadi. Samarqandda ilm-fan markazi shakllangani Klavixo Samarqandga kirgandan boshlab shaharni ulkan madrasalar, kutubxonalar, olimlar uchun yaratilgan sharoitlar bilan ajralib turishini ta'kidlaydi. U Temurning "ma'rifat shahrini barpo qilish" siyosatini juda ko'p bora eslatadi[2]. Bu Klavixo ko'rgan Temur siyosatining eng asosiy jihatlaridan biri -ilmni davlat qudrati timsoli sifatida ko'rish edi. Temur Samarqandni Yaqin Sharq ilm markazlari darajasiga ko'tarayotganini Klavixo ochiq tasdiqlaydi.

Klavixo Samarqand madrasalarining o'lchami, me'moriy hashamati, o'quvchilar va mudarrislar sonining ko'pligi bilan ajralib turishini qayd etadi. U aynan "keng hovlili, katta darsxonali va o'quvchilar uchun barcha sharoitga ega binolar"ni tilga oladi. Bu tasvirlar Temuriylar davrida ilmga faqat diniy emas, ilmiy-ma'rifiy muassasa sifatida ham qaralganini, oliy ta'limning kuchli tashkil etilganini ko'rsatadi.

Klavixoning qayd etganlari asosida Temuriylar davridagi ilm-fan haqida quyidagilarni aytish mumkin:

1. Temur Samarqandni Markaziy Osiyoning eng yirik ilmiy markaziga aylantirgan.
2. Ilm-fan davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlangan.
3. Madrasalar va kutubxonalar yirik ilmiy infratuzilma sifatida faol ishlagan.
4. Astronomiya, matematika, tarix, tibbiyot kabi sohalar rivojlangan.
5. Saroy ilmiy markaz vazifasini bajargan — olimlar siyosiy maslahatchilar sifatida ishlagan.
6. Turli mamlakatlardan olimlar Samarqandga oqib kelgan -Ilmiy integratsiya kuchli bo'lgan.

Klavixo Temur saroyidagi marosimlarda birinchi o'rinda o'tirgan ayol aynan Saroymulkxonim ekanini qayd etadi. Bu uning siyosiy hokimiyatga ega ekanini, davlat protokolida erkak amirlar bilan teng maqomda ko'rilganini, Temurning ishonchli maslahatchisi bo'lganini ko'rsatadi. Klavixo uni oddiy

malikadan ko'ra siyosiy arbob sifatida tasvirlaydi. XIV–XV asr musulmon sharqida bunday mavqega ega ayol nihoyatda kam uchragan. Bu Temur saroyining o'ziga xos siyosiy tuzilishini ko'rsatadi.

Klavixoning yozishicha Saroymulkxonim marosimlarda alohida chodir, alohida taxt va alohida xizmatkorlar bilan o'tiradi. Unga xizmat qiluvchilar soni juda ko'p bo'lgan.

Elchilarga berilgan sovg'alar orasida Saroymulkxonim nomidan yuborilgan tuhfa ham bo'lgan. Klavixo ayollarning saroydagi iqtisodiy rolini ham ko'rsatadi. Saroymulkxonim alohida mulk va boylikka ega bo'lgan, elchilarning hurmatli shaxs sifatida uni alohida tilga olishi uning diplomatik mavqeini tasdiqlaydi.

Garchi Klavixo Saroymulkxonimni nomi bilan ko'p zikr qilmasa-da, Bibixonim masjidini (Samarqanddagi eng ulkan inshoot) ko'rgan va batafsil tasvirlagan. Bu masjid tarixan aynan Saroymulkxonimga atab qurilgan. Klavixo masjidni ulkan, hashamatli, mislsiz kattalikdagi qurilish sifatida baholaydi. Saroymulkxonimning Temur tomonidan nihoyatda ardoqlangan ayol ekanini ko'rsatadi. Klavixo tasviri orqali uning davlat ramzi darajasiga ko'tarilganini bilish mumkin.

Klavixo manbalarida Temur qo'shinida qat'iy intizom o'rnatilgani qayd etiladi. Har bir askar va komandirning vazifasi aniq belgilangan bo'lib, qo'shin guruhlariga bo'lingan va harbiy tartib qat'iy amal qilingan. Bu jihat Temurning harbiy muvaffaqiyatlarining asosiy omillaridan biri sifatida ilmiy jihatdan tahlil qilinadi, chunki qo'shinning samarali ishlashi faqat strategik mahoratga emas, balki tashkiliy intizomga ham bog'liq.

1402-yilda bo'lib o'tgan Anqara jangi Amir Temur bilan Usmonli sultoni Shayx Bayazid o'rtasidagi hal qiluvchi to'qnashuv edi. Bu jangda Temur o'zining strategik mahorati, sabr-toqati va taktikasini namoyon etdi, Boyazid esa tez va kuchli harakatlanadigan armiyasiga tayanib, lekin rejasiz va ehtiyotsiz qarorlar tufayli mag'lub bo'ldi.

Jang natijasida Boyazid asir qilinib, Usmonli davlatining kuchi vaqtincha sustlashdi, Temur esa sharqda va g'arbda o'z mavqeyini mustahkamladi. Anqara jangi nafaqat harbiy yutuq, balki strategik tafakkur, chidamlilik va rejalashtirishning muhimligini ko'rsatadigan tarixiy voqea sifatida tarix sahifalariga kirib qolgan.

Temur harbiy yurishlarni faqat kuch bilan emas, balki diplomatik strategiya bilan uyg'unlashtirgan. Klavixo yozishicha, Temur dushmanlar bilan muzokara olib borish, shartnoma tuzish va qo'shnlarni xavfsiz yo'llar bilan harakatlantirishni amalga oshirgan. Bu holat harbiy-siyosiy nazariya nuqtai nazaridan Temurning faoliyatini nafaqat harbiy, balki diplomatik jihatdan ham

samarali ekanligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, Klavixo manbalari Temurning harbiy ishlari tarixini ilmiy asosda o'rganish uchun muhim manba sifatida qaraladi. Uning yozuvlari harbiy nazariya, strategiya va tarixiy metodologiya jihatidan tahlil qilinishi mumkin.

1405-yil 18-fevralda Amir Temurning o'limi Klavixo delegatsiyasining qaytish safariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Davlatda yuzaga kelgan siyosiy beqarorlik sababli elchilikning qaytish yo'li murakkablashgan.

Shunga qaramay, Klavixo 1406-yilning ikkinchi yarmida Kastiliyaga qaytadi va o'z kundaliklarini yakunlaydi. Klavixo asari Sharq va G'arb o'rtasidagi o'rta asr diplomatiyasini yorituvchi eng aniq va ishonchli yozma manbalardan biri bo'lib, Temur shaxsiyatini Yevropa nigohida ochib beruvchi muhim tarixiy hujjatdir. Asar keyinchalik Yevropaning Sharq haqidagi eng muhim manbalaridan biriga aylandi[4].

Amir Temur — buyuk milliy dahodir. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov bu buyuk siymoga doir ma'ruzalaridan birida "Amir Temurni anglash-o'zimizni anglashdir". Klavixo asari shu ezgu maqsadga xizmat qiladigan bebaho manbadir[3].

Klavixo Samarqandga bo'lgan sayohatini o'zining asarida batafsil bayon qilgan bo'lib, u Amir Temur davridagi siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotning muhim jihatlarini yoritadi. Sayohat davomida Klavixo nafaqat shaharning obodonligi, uning me'moriy obidalarini va saroy hayotini kuzatadi, balki Temuriylar saroyining tashkiliy va boshqaruv tizimi, askarlarning tayyorgarligi, shuningdek, ilm-fan va san'atga bo'lgan e'tiborini ham qayd etadi.

Klavixo asarida Amir Temurning harbiy va siyosiy salohiyati, shuningdek, saroy ichidagi tartib-intizom va diplomatik faoliyati ilmiy tahlil bilan ko'rsatilgan. U Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi, masalan, madrasa va kutubxonalar tashkil etilishi, shaharsozlik va me'morchilikning yuqori darajada bo'lishini alohida ta'kidlaydi. Shu bilan birga, sayohatga oid tavsiflar orqali o'sha davr odamlarining ijtimoiy hayoti, kundalik odatlari va odob-axloqi haqida ham qimmatli ma'lumotlar olinadi.

Xulosada aytish mumkinki, Klavixoning sayohat asari nafaqat tarixiy manba sifatida ahamiyatga ega, balki ilmiy tadqiqotlar uchun ham asos bo'la oladi. U Temuriylar davrining siyosiy, harbiy va madaniy jihatlarini ilmiy yondashuv bilan yoritadi, shuningdek, Samarqand shahrining o'sha davrdagi rivojlanish darajasini aniq tasvirlaydi. Shu tariqa, asar tarixshunoslik, madaniyatshunoslik va arxitektura sohalarida chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:



1. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. — T.: Sharq, 2000.
2. Amir Temur tuzuklari. — T.:Navro'z, 1992.
3. Ahmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari. — T.: O'qituvchi, 2001.
4. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. — T.: O'zbekiston, 1996.
5. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga — Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar). — Toshkent.: O'zbekiston, 2010.
6. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. — T.: Sharq, 1997.
7. Eshov B.J., Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. Darslik I jild. — T.: Donishmand ziyosi, 2020.

TARIX

1898-YILGI ANDIJON QO'ZG'OLONINING ARXIV HUJJATLARIDA YORITILISHI



Xilola Xakimjonova,
Andijon davlat
universiteti
O'zbekiston tarixi
kafedrası
o'qituvchisi

UO'K 94(67)

Annotatsiya: Maqolada 1898-yil may oyida Andijon uezdida podsho Rossiyasi mustamlakachiliga qarshi kechgan mahalliy xalqning Dukchi Eshon boshchiligidagi ozodlik kurashi tarixi yoritilgan.

Аннотация: В статье описывается история освободительной борьбы местного населения под руководством Дукчей Эшона против колониализма царской России в Андижанской области в мае 1898 года.

Annotation: The article describes the history of the liberation struggle of the local people led by Dukchi Eshon against the colonialism of Tsarist Russia in the Andijan region in May 1898.

Kalit so'zlar: uezd, Mingtepa, volost, arxiv fondlari, hujjatlar, manbalar, qo'zg'olon, ozodlik kurashi, mustamlakachilik, yerli xalq.

Ключевые слова: уезд, Мингтепа, волость, архивные фонды, документы, источники, восстание, освободительная борьба, колониализм, местное население.

Key words: uyezd, Mingtepa, volost, archival collections, documents, sources, uprising, liberation struggle, colonialism, local population.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyin keng ko'lamli islohotlarni amalga oshrishda mintaqaning boy tarixi, madaniyati, ananalarini o'rganish, ularni asrab-avaylash, saboqlar chiqarish muhim vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Shu boisdan ham O'rta Osiyo xalqlari tarixida kechgan tarixiy voqealar, yuksalishlar davri hatto yuz bergan inqirozli davrlar, sodir bo'lgan siyosiy jarayonlar tarixini boricha xolislik bilan o'rganish, tadqiq etish dolzarblik kasb etadi. Zero, Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur"[1]. Shu nuqtai nazardan chor Rossiyasi mustamlakachiligi va unga qarshi O'rta Osiyo xalqlari olib borgan milliy ozodlik

kurashlari tarixini tadqiq etish, o'ziga xos jihatlarini tahlil qilish, ularni jamoatchilikka yetkazishg bo'yicha so'ngi yillarda ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanmoqda. Ayni shu holat ushbu jarayonlarni tarixiy manbalardan yanada samarali foydalangan holda ko'plab voqeliklarni mantiqiy izchillikda o'rganish, tegishli ilmiy xulosalar chiqarish zaruriyatini vujudga keltirmoqda.

Haqqoniy tarixni yozish, hozirgi milliy uyg'onish, o'zlikni anglash, milliy mustaqillik mafkurasini yaratish nuqtai nazaridan muhim zaruriyatdir. Chunonchi, tariximizning ko'pgina muhim va ziddiyatli davrlari, jumladan mustamlakachilik davri tarixini yangicha yondashuv asosida tahlil qilishni taqozo etmoqda. Haqiqatdan ham XIX asrning ikkinchi yarmi Turkiston tarixining eng ayanhli va og'ir davrlaridan biridir. Chunki bu davrda Vatanimiz xalqlari chor Rossiyasining mustamlaka asoratiga tushib, mustaqil milliy davlatchiligidan mahrum etildi.

Chor Rossiyasining Turkiston xalqlariga nisbatan yurgizgan mustamlakachilik, ulug' davlatchilik va shovinistik siyosati, albatta qonuniy suratda mahalliy aholining o'z milliy ozodligi, erki va insoniy haq-huquqlarini himoya qilish uchun muqaddas kurashlarga otlantirdi.

Chor hukumati o'tkazgan mustamlakachilik, shovinistik siyosatga qarshi Turkiston xalqlarining milliy-ozodlik kurashlari o'lkani mustamlakachilar tomonidan bosib olinishidan boshlab to 1917-yilga qadar to'xtamadi. Bunday milliy-ozodlik kurashlaridan eng yiriklaridan biri Andijon qo'zg'olonidir.

Darhaqiqat, chor Rossiyasi yuritgan buyuk davlatchilik siyosati O'rta Osiyo xalqlari "milliy nafsoniyati va iftixorini kamsitgani, milliy madaniyatlar va ma'naviy qadriyatlarni toptagani, ularning ifodachilarini jismonan yo'q qilib tashlagani uchun... tegishli qarshilikka ham uchrar edi[2.57].

1898-yil Andijon qo'zg'oloni an'anaviy hayot tarzini tiklash yo'lida milliy zulm va istibdodga qarshi kurashga, hurriyatga da'vat etgan xalq qarshilik harakati edi. Bugungi kunga kelib tarixshunosligimizda milliy ozodlik harakati deb baholangan Andijon qo'zg'olonini qayta ko'rib chiqish natijasida uning yangi tomonlari ochildi.

Masalaga obyektiv yondashilgan holda qo'zg'olon qatnashchilarining maqsadlari turli xarakterda ekanligi, yo'lboshchilikka "zo'rlab ko'ndirilgan" Muhammad Ali xalfa Sobir o'g'li – Dukchi Eshon dunyoqarashining cheklanganligi, qo'zg'olon g'azovat bayrog'i ostida yuz bergani e'tirof etilmoqda. [2.54-56]

Andijon qo'zg'olonining mag'lubiyatga uchrashi muqarrar edi. Shu bilan birga, mohiyatan XIX asrning oxirida Andijonda ro'y bergan ko'tarilish tarix

sahifalaridan xalq qo'zg'oloni mahv etilgan istiqlool uchun olib borilgan kurash sifatida o'rin olgan.

Mustabid hukumat qo'zg'olonni vahshiyona bostirib, uning bahonasida xalqdan shafqatsiz o'ch oldi. Andijon qo'zg'oloni necha kishilarning o'limi, qamalishi va surgun qilinishi, minglab oilalarning xonavayron bo'lishi bilan tugadi. Birinchi bo'lib, general-mayor Terentev raisligida qo'zg'olon rahbarlari sud qilindi. Harbiy sud hukmiga ko'ra qo'zg'olonga boshchilik qilgan mingtepalik Muhammad Ali xalfa Sobir o'g'li va uning beshta yordamchisi — Kulla bo'limining sobiq boshlig'i G'oyibnazar Ortiq So'fi o'g'li, turklar va sartlar: Mulla Qosim Amin Arabboy o'g'li, Rustambek Sotiboldiyev, Mirzahamdam Usmonov, Bo'taboy G'aynibayevlar dorga osildi. Sud hukmi asosida 22 nafar o'ldirilgan va 20 nafar jarohatlangan rus soldatlarining oilalariga har yili 200 so'mdan tovon to'lanishi tayin qilindi[3.54-56].

O'zbekiston Milliy arxivining tegishli fondlaridagi ma'lumotlarga ko'ra Dukchi Eshonning oila a'zolari - 81 yoshli onasi Asalbibi Ortiqboy qizi, xotinlari Oyimcha Sayid Qulova, Ruhiyabibi Ismoilova, Tojibibi Maqsud Hoji qizi, Isnarabibi Abduljalilovalar, farzandlari - 11 yoshli o'g'li Abduljalil, 7 yoshli Abdurahmon, 8 yoshli qizi Ne'matposhsha, 3 yoshli qizi Hamrabibilar Penza guberniyasiga surgun qilin edilar[4.173].

Muhammad Ali Eshonning oila a'zolari Penzada g'oyatda azob-uqubatli va og'ir kunlarni boshdan kechirdilar. Onasi Asalbibi 1900-yil 4-martda Penzada qazo qiladi. Qolganlari yetti yil tutqunlikdan so'ng ozod etilgan.

Milliy arxivning Turkiston general gubernatorligi devoni (I-1-fond) hujjatlarida qayd etilishicha, qo'zg'olon qatnashchilaridan 777 kishi hibsga olindi. Ular "Rossiya hukmronligi"ni ag'darish uchun kurashganlar sifatida qoralanib, mol-mulkini ham musodara qilinishi haqida hukm chiqarildi. Mahalliy aholining haq-huquqlari shu darajada toptaldiki, hatto balog'atga yetmagan bolalarga ham o'lim jazosini qo'llashga harakat qilingan. Masalan, Mirza Ahmad, Qirg'izboy Aliyevlarning yoshligini hisobga olib, 18-yoshga to'lguncha qamoqda ushlab turish lozimligi, so'ngra balog'at yoshiga yetgach, hukmni ijro etish lozimligi ko'rsatiladi[5.380]. Ma'lumki, Andijon atroflarida istiqomat qiluvchi qirg'izlar ham qo'zg'olonda faol qatnashgan. Shu bois 70 yoshli Shodibek Sherg'ozibekov sardorligidagi oltmishga yaqin qirg'izlarni osib o'ldirishga hukm etilgan[6.391]. Prokuror aybnomasi va sud hukmida ular Dukchi Eshon bilan birgalikda podsho hukumatiga qarshi kurashganlikda ayblanganliklarini arxiv hujjatlaridagi mahlumotlar tasdiqlab turibdi.

1898-yil avgustida Andijon va Namanganda qo'zg'olonchilarning ikki guruhi ustidan o'tkazilgan general-mayor Lyubovskiy raisligidagi harbiy dala sudi tomonidan qo'zg'olonning yirik rahbarlaridan biri Inoyatxon Iskandar To'ra o'g'li osib o'ldirish va mol-mulkini musodara qilishga hukm qilindi. Shuningdek, uni yashirgan To'xtasin Rizaqul o'g'li, Muhammad Alimxon Divon o'g'li, Takiberdi O'tbosar o'g'liga ham osib o'ldirish jazosi berildi. Shu ravishda jami 380 kishiga osib o'ldirish jazosi belgilandi. Xususan, Fozilbek Otabek o'g'lining yozishicha, Muhammad Ali halfa Eshon qamalanganidan 9 kun o'tgach, 15 kishi sudsiz osilgan edi[7.57-58].

Mustamlakachilik zulmining behad kuchayishi, nihoyasiz qirg'inlar mahalliy xalqning chor ma'muriyatiga qarshi nafrati yanada kuchayib ketish xavfini tug'dirishi ravshan edi. Shuning uchun ham imperiya harbiy vaziri A.N.Kuropatkin Turkiston general-gubernatori S.M.Duxovskiyga shunday ma'noda telegramma yuborgan: "O'lim jazosini nihoyatda ehtiyotkorlik bilan qo'llab, faqat uni qo'zg'olon boshliqlariga nisbatan qo'llash muvofiqdir. Chunki osib o'ldirishlarni ko'paytirish xalqni tinchlantirishga olib kelmaydi. Hamda butun Osiyoda Rossiya obro'sini tushirishi mumkin"[8.241-243]. Ushbu ko'rsatma asosida o'lim jazosi katorga ishlariga va turli muddatli qamoqlarga almashtiriladi. Biroq, 380 kishidan 22 kishiga berilgan o'lim jazosi o'z kuchida qoldirildi. Bular: Muhammad Ali xalfa Sobir o'g'li, G'oyibnazar Ortiq So'fi o'g'li, Mulla Qosim Amin Arabboy o'g'li, Rustambek Sotiboldibek o'g'li, Mirzahamdam Usmonbek o'g'li, Inoyatxon Iskandar To'ra o'g'li, Bo'taboy G'ayniboy o'g'li, Qoraboy Arabboy o'g'li, Sarimsoq Sherboy o'g'li, Bekali Abdulla o'g'li, Xolmirza Baqqol Rajabboy o'g'li, Mirza Muhammad Malla Yusuf o'g'li, Nurali Shodi o'g'li, Mahkamboy Hoji Qoquboy o'g'li, Mallaboy Abduraim o'g'li, Sotiboldi Madkarim o'g'li, Boboraim Shomirza o'g'li, Erkaboy Abdurasul o'g'li, Subhonqul Arabboy o'g'li, Muhammad Rahim Ibrohim Raim o'g'li, Abdurahmon Mulla Roziq o'g'li, Isroilxo'ja Usta Tosh o'g'li kabi elning eng sara kishilari edi.

Agar ushbu ro'yxatdagilarga avvalgi qotillik qurboni bo'lgan 15 kishini qo'shadigan bo'lsak, qatag'on qilinganlarning soni 37 kishini tashkil etadi. Bundan tashqari, qo'zg'olonchilarni hibsga olish paytida ko'chalarda yuzlab odamlarning o'ldirilganligi hisobga olinsa, ommaviy qirg'in yuz berganligi ayon bo'ladi. Arxiv hujjatlarining guvohlik berishicha, uch oy davom etgan sud natijasi nihoyatda shafqatsiz bo'lgan:

Ko'rilgan "jinoiy ish": 546 ta

"Jinoiy ish" ko'rilishi davomida

oqlanganlar: 131 kishi

Sudda oqlanganlar: 32 kishi
 Qamoqqa hukm qilinganlar: 2 kishi
 Tarbiyaviy qamoqqa hukm etilganlar: 1 kishi
 Osib o'ldirishga hukm qilinganlar: 380 kishi
 20 yillik surgunga: 3 kishi
 15 yillik surgunga :147 kishi
 13 yillik surgunga: 41 kishi
 8 yillik surgunga: 1 kishi
 7 yillik surgunga: 147 kishi
 4 yillik surgunga: 4 kishi
 Qamoqxonada saqlashga: 3 kishi
 Osib o'ldirishga: 18 kishi
 [9.329-335].

Shunday qilib, o'limga hukm etilganlardan 18 kishi osilib, qolganlari katorgaga va turli muddat bilan qamoqqa tashlangan. Osilganlarning soni esa 22 kishini tashkil etadi. Bu musibat yetmagandek, jazo ekspeditsiyasining boshlig'i general Korolkov imperatordan butun mahalliy xalqni jazolashni iltimos qilgan. Korolkov Eshon va uning muridlaridan olingan intiqom yetarli emasligini ta'kidlab, Mingtepadan Andijongacha bo'lgan yerlardagi barcha aholini imperiyaning ichkari hududlariga surgun qilish taklifini kiritadi. "Bu tadbir, –deb yozgan edli Korolkov imperatorga, – siyosiy jihatdan foydali ahamiyat kasb etib, Farg'onadagi rus unsurining kuchayishiga olib keladi".

Ko'rinib turibdiki, chor ma'muriyati qo'zg'olonchilarni jismoniy jihatdan qirish bilan bir qatorda, ularning uy-joylarini ham ostin-ustun qilib tashladi. Turkiston general-gubernatorining podsho Nikolay II ga yo'llagan maktubida ta'kidlanishicha, "Qo'zg'olonchilar bizning uyquda yotgan 22 soldatimizni o'ldirganliklari uchun buning xuniga isyonchilardan 22 kishiga o'lim jazosi berilib, 300 kishi katorgaga hukm etildi. Qo'zg'olonchilar rahbari yashagan joy tep-tekis qilinib, u yerga 200 oilali rus qishloq qurildi", degan edi. Xuddi shuningdek, Andijon shahri atrofidagi Xakand, Xartum qishloqlaridan ham yerli aholi ko'chirilib, ularning yerlari rus oilalariga berildi"[10.378-379]. Qo'zg'olondan so'ng mustamlakachilar musulmonlarni ruslarga majburiy ravishda sajda qildirish odatini rasm qilganlar.

Chorizm XIX asrning 90-yillardagi xalq harakatlari, xususan, Andijon qo'zg'olonidan tegishli xulosa chiqarib, 1886-yilda tasdiqlangan "Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom"ga o'zgartirishlar kiritdi. 1886-yilgi qonun

asosida Turkiston general-gubernatorligi Turkiston o'lkasiga aylantirildi, "Harbiy xalq boshqaruvi"ga keng vakolatlar berilib, ularga yerli aholi o'rtasida har bir dushmanlik holati sezilsa, darhol uni bo'g'ib tashlash, tartibni buzuvchilar va ularning maslakdoshlariga tegishli saboq berish uchun har qanday choralardan qaytmaslik" buyuriladi, bu o'sha davrga oid arxiv hujjatlarida o'z aksini topgan.

Andijon voqeasi sabab bo'lgan qirg'in uzoq yillar davomida yerli xalqning qalbida fojea, xo'rlanish, kuchli jarohatlanish ramzi sifatida saqlanib qoldi. Ammo bu qirg'inlar o'lka xalqlarining ozodlik kurashini to'xtata olmadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. 19.01.2021. <https://president.uz/uz/lists/view/4089>.
2. Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent: O'zbekiston, 1997.
3. Қаранг: Бабаджонов Б. Андижанское восстание 1898 года: дарвишский "газават" или антиколониальное восстание. // O'zbekiston tarixi.2001. №2,С.25-30; Эркинов А. Дукчи Эшон ва 1898 йил Андижон қўзғолони– давр шоирлари баҳосида //O'zbekiston tarixi.2001. №2, Б.3-17; Алимова Д.А. История как история, история как наука. В 2-х томах. Т.І. Тошкент:Узбекистан, 2008.
4. O'zbekiston Milliy arxivi (O'z MA), I-19, 1-ro'yxat, 5578-ish.
5. O'z MA, I-1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 1144-ish.
6. O'z MA, I-1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 1144-ish.
7. Fozilbek Otabek o'g'li. Dukchi Eshon voqeasi. Toshkent:Cho'lpon,1992.
8. Ziyoev H. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi (miloddan oldingi asrlardan to 1991-yil 31-avgustgacha). Toshkent: Sharq, 2001.
9. O'z MA, I-1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 1144-ish.
10. O'zbekistnning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. Toshkent:Sharq, 2000., 378-379-betlar.

TARIX

“YOSH XIVALIKLAR”NING IJTIMOIIY SIYOSIY JARAYONLARDAGI FAOLIYATI VA JAMIYATGA TA’SIRI



**Umid
BEKMUHAMMAD,**
Tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent

UO‘K 94(575.171)“1900/1924”

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Yosh xivaliklar” harakati (partiyasi)ning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faoliyati va mustamlakachilarga qarshi siyosiy kurashlari yoritib berilgan. Shuningdek, partiya faollarining hayoti, faoliyati va ularning jamiyatga ko‘rsatgan ta’siri arxiv hujjatlari, namoyandalarning memuarlari va ilmiy adabiyotlar, o‘sha davr matbuoti materiallari asosida tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье рассматривается деятельность движения «Молодые Хивинцы» (партии) в социально-политических процессах и политической борьбе против колонизаторов. Также анализируются жизнь и деятельность активистов партии, а также их влияние на общество на основе архивных документов, мемуаров деятелей, научной литературы и материалов прессы того времени.

Annotation: This article covers the activities of the "Young Khivans" movement (party) in socio-political processes and political struggles against the colonialists. The life, activities of the party activists and their impact on society are also analyzed based on archival documents, memoirs of figures and scientific literature, and materials from the press of that time.

Kalit so‘zlar: Xonlik, mustamlakachilik, imperiya, siyosat, harakat, partiya, manifest, jamiyat, respublika, gazeta, islohot, iqtisod, dastur.

Ключевые слова: Ханство, колониализм, империя, политика, движение, партия, манифест, общество, республика, газета, реформа, экономика, программа.

Key words: Khanate, colonialism, empire, politics, movement, party, manifesto, society, republic, newspaper, reform, economy, program.

“Yosh xivaliklar” Xiva xonligida jadidlar tomonidan tashkil qilingan ijtimoiy-ma’rifiy, siyosiy tashkilot va vaqt o’tib partiya darajasiga yetgan, turli sohaning ilg’or vakillarini birlashtirgan tuzilmadir.

Harakat va partiya saflarida jadid maktablari pedagoglari, madrasa mudarrisarlari, xon amaldorlari, savdogarlar, diniy ulamolar birlashishgan va ushbu siyosiy tashkilot asosan taraqqiyparvarlik g’oyalariga asoslangan edi. G’oya sifatida Ismoil Gaspralining Qrimdan boshlangan “Tilda, fikrda, ishda birlik” shiori asos qilib olingan hamda Xorazm jadid maktablarining tashkilotchilari, pedagoglari ham “Yosh xivaliklar”ning asosiy o’zagini tashkil qilardi.

Tarix fanlari nomzodi, dotsent Ne’matjon Polvonov tadqiqotlariga ko’ra, “Yosh xivaliklar” harakati 1904-1905-yillarda hamfikir maslakdoshlar, 1910-yil boshlarida manfaatlar guruhi sifatida shakllangan bo’lsa, 1917-yilda amaldorlar, ma’rifatli boylar, ziyolilarning Xiva xoniga muxolifat bo’lgan siyosiy kuch, 1918-yilda esa rasmiy siyosiy partiya sifatida namoyon bo’ldi.

Partiya saflarida Husaynbek Matmurodov, Jumaniyoz Boboniyozov, Polvonniyozhoji Yusupov, Bobojonboy Yoqubov, Jumaniyoz Sultonmurodov, Nazir Sholikorov, Sultonqori Jumaniyozov, Xudoybergan Devonov, Muhammadyorxo’ja Abdullayev, Otajon Abdolov, Safo Mug’anniy, Avaz O’tar, Bobojon Yoqubov, Hakimboy Jonmuhammedov, Muhammadyor hoji Abdullayev, Otajon Jumaniyozov, Rahmonbergan Yoqubov, Muhiddin Umarov, Mulla Jumaniyoz Sultonmurodov, Xudoyberganbek Matniyozov, Davlatnazar Qayroq, Murod Eltuzarov, Mulla Matmurod, Mulla Abdulla Berdimurodov, Avazxo’ja, Isomiddin eshon, Nizomiddinoxun, Sobir Yoqubov, Bekjon Rahmon, Vais Rahimiy, Muhammad Yusuf Devonzoda singari taraqqiyparvarlar uning turli hududlardagi faollari bo’lishgan. Ularning soni dastlabki paytda 40 nafarni tashkil etgan. Keyinchalik esa Asfandiyorxon tomonidan tazyiq kuchaygach, faollar Toshkent, Chorjo’y, To’rtko’lga muhojirlikka ketishga majbur bo’lishadi va o’sha hududdagi xorazmliklarni partiyaga a’zo qilish hisobiga tarafdorlar soni ko’paya boshlaydi”(1).

Dastlabki davrda har payshanba kunlari Xivadagi Qalandarxonada, gohida Qorako’z masjidida, ko’pincha esa Husaynbek devonbegi Matmurodov uyida yig’ilishlar o’tkazib, dunyoda kechayotgan jarayonlarni, xonlikdagi vaziyatni muhokama qilib turishgan.

E’tiborli jihati shundaki, taraqqiyparvar bosh vazir bevosita Ismoil Gasprali bilan maktub orqali muloqotni yo’lga qo’ygan, Xorazmdagi jadid maktablarining tashkilotchisi, homiysi Islomxo’ja 1913-yilning avgust oyida o’ldirilgan. Agar u hayot bo’lganida 1914-yildan “Yosh xivaliklar” deb nom olgan siyosiy harakatning lideri bo’lardi. Negaki, o’sha davrda islohotchi, jadid taraqqiyparvari

sifatida mashhur bo'lgan Islomxo'ja vohada katta nufuz va ta'sirga ega shaxs, xonlikdagi biron jarayon uning ta'sirisiz harakatga kelmasdi.

1914-yildagi taraqqiyparvarlarning bir tashkilot safiga birlashishida esa Husayinbek devonbegi Matmurodov, qozikalon noibi Boboovun Salimov, savdogarlar Polvonniyozhoji Yusupov, Nazir Sholikorov, xon amaldorlaridan Xudoybergan Devonovlar asosiy liderlar bo'lishdi. Vaqt o'tib, "Yosh xivaliklar" safida xonlikning turli hududlaridagi jadid maktablari pedagoglari, mulkdor boylar, savdogar, ulamolar ham birlashdi.

Tabiiyki, har bir tashkilotning yuzaga kelishiga asosan o'zaro maslakdosh bo'lgan, bir g'oya asosidagi kishilarning intilishlari sabab bo'ladi. Bundan tashqari, o'sha davrdagi jarayonlar, ichki va tashqi siyosatdagi voqealiklar ham bunga katta ta'sir ko'rsatadi. Tarix fanlari nomzodi, dotsent Ne'matjon Polvonovning tahlillariga ko'ra, "Yosh xivaliklar" dunyoqarashining shakllanishi va tadrijiy rivojlanishida xonlikdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzum, Usmoniylar davlati, Eron, Rossiya va Turkistondagi siyosiy o'zgarishlar obyektiv sharoit sifatida katta ta'sir qilgan. Shuningdek, Qrim va boshqa hududlarda nashr etilib turgan jadid gazetalari, xonlikdagi jadid maktablaridagi Ramazon Saydashev, Kabir Abdurashidov, David Bakirov, Muxtor Bakirov singari o'qituvchilar, Usmoniylar davlatidagi "Yosh turklar"ning, Turkiston va Buxorodagi jadidlarning, shuningdek Xorazmga surgun qilingan rus inqilobchilari, soldat sho'rolari ta'siri subyektiv omil sifatida katta rol o'ynagan.

Jadidchilik g'oyalari asosidagi ushbu harakat "Yosh xivaliklar" partiyasi 1918- yil iyun oyida Xorazm aholisi manfaatlarini himoya qiluvchi, o'z dasturi va tashkiliy tuzilmasiga ega bo'lgan rasmiy siyosiy partiya sifatida to'la shakllandi" (2).

"Yosh xivaliklar"ning xonlikdagi ta'siri, ayniqsa, 1916-yil qishidagi xalq qo'zg'olonini qo'llab-quvvatlash va qo'zg'olonchilarga g'oyaviy rahbarlik qilishda sezildi. Bu borada qozikalon noibi Boboovun Salimov, Gurlan begi Xudoyberganbek Matniyozbekovlarning ta'siri katta bo'ldi. Asfandiyorxon va imperiya mustamlakachilariga qarshi qo'zg'olon garchi mag'lubiyat bilan tugasa-da, u milliy ozodlik harakatini strategiya sifatida belgilash va istiqlol harakatini tezlashtirish uchun imkon bo'lib xizmat qildi.

Negaki, Xo'jayli, Qo'ng'iro't, To'rtko'ldan to Xiva va uning atroflarini qamrab olgan, poytaxt Xivani qamal qilish darajasidagi xalq qo'zg'oloni, istiqlol g'oyasi tashkilotchilik, isyonkorlarni qurollantirish asosida amalga oshirilgandi. Bu borada esa Avazxo'ja, Isomiddin eshon singari ulamolar, shuningdek Boboovun Salimovning ta'siri, qo'llab-quvvatlashi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Bundan tashqari, “Yosh xivaliklar”ning xonlikdagi ta’siri ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tezlashtirgan va mustamlakachilarning Asfandiyorxonga katta siyosiy zarba berishi 1917-yil aprelida yanada sezildi. Ular xuddi Buxorodagi “Yosh buxoroliklar” singari 1917-yil aprel oyida Xivada ko‘p sonli miting tashkil qilishdi va xonga ultimatum sifatida manifest taqdim etishdi. Ushbu manifestga ko‘ra, siyosiy islohotlar o‘tkazish, davlatda parlament va ijro hokimiyatini qat’iylashtirish talabi qo‘yildi. Shunga ko‘ra, Bobooxun Salimov “Idorai marshrutiya”-parlament raisi, Husayinbek Matmurodov ijro hokimiyati boshlig‘i qilib saylandi. Parlamentga xonlikdagi turli millatlar, tabaqa vakillari kiritildi. Shu tarzda “Yosh xivaliklar” davlatda muhim islohotlar o‘tkaza boshlashadi va bir qator amaliy natijalarga erishadilar. Ammo 1917-yil iyun oyiga kelib Asfandiyorxon o‘z atrofidagi radikal, qadimchi ulamolar ta’sirida parlamentni tarqatib yuboradi va Ortiqoxunni Bobooxun Salimov o‘rniga tayinlaydi. Shu bilan birga, “Yosh xivaliklar”ga tazyiq o‘tkazib, Husayinbek Matmurodov va bir necha faollarni qamoqqa oladi. Oradan ko‘p o‘tmay, Husayinbek Matmurodov o‘limga hukm qilinadi. Natijada “Yosh xivaliklar” To‘rtko‘l, Chorjo‘y, Toshkent kabi shaharlarga muhojirlikka ketishadi va bu gal bolsheviklar ta’sirida xonlikka qarshi kurashga intilishadi.

1917-yil fevralida Petrograddagi inqilob “Yosh xivaliklar” faoliyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan siyosiy voqelik edi. Natijada ular vaziyatdan foydalanib, ochiq kurash yo‘liga o‘tishadi. Shu tarzda 1917-yil 5-aprelda Xiva xoni Asfandiyorxon “Yosh xivaliklar” harakati taqdim etgan manifestni imzolashga majbur bo‘ladi. Manifestda jadid maktablarini ko‘paytirish, mamlakatda temiryo‘l, pochta, telegraf barpo etilishi zarurligi, davlat xazinasini nazorat ostiga olinishi, barcha amaldorlarning saylanishi va maosh bilan ta’minlanishi, butun aholining shariat oldida tengligi ta’kidlangan edi.

Islohotlar amalga oshirilishini nazorat qilish uchun 30 vakildan iborat muvaqqat qo‘mita tashkil topadi. 8 aprelda mamlakatni boshqarish uchun Xivada xon huzurida “Idorai marshrutiya”-parlament (raisi - Bobooxun Salimov) va Nozirlar Kengashi (raisi - Husayinbek devonbegi Matmurodov) tuziladi. Polvonniyoz Yusupov (1861-1936) ga Rossiya hukumati va rus qo‘shinlari bilan munosabatlarni barqarorlashtirish vazifasi yuklatiladi. Muvaqqat qo‘mita tarkibiga keyinchalik yana 19 kishi, shuningdek, 7 nafar turkman kiritiladi.

Natijada “Yosh xivaliklar” Xiva xonligida hokimiyatni boshqaruvchi hukmron kuchga aylandi. 1917-yil mayda parlament raisi Bobooxun Salimov boshchiligidagi delegatsiya Muvaqqat hukumat vakillari bilan muzokara o‘tkazish uchun Toshkentga boradi.

Asfandiyorxon Muvaqqat hukumatning Xivadagi vakili general Xo‘ja Mirbadalov (millati tatar) boshchiligidagi harbiy kuchlarga tayanib, iyun oyida

parlamentni tarqatib yuboradi. Xon o'ziga ma'qul kishilardan yangi tarkibdagi parlament (raisi - Ortiq Oxun) va Nozirlar Kengashi (raisi-Is'hoqxo'ja Xo'jaev)ni tayinlaydi va muxolifatdagi "Yosh xivaliklar"dan shafqatsiz o'ch olishga kirishadi. Husaynbek Matmurodov boshchiligidagi sobiq parlamentning 17 nafar a'zosi qamoqqa olindi. Boboovun Salimov esa muhojirlikka ketishga majbur bo'ladi. Qadimchilar tomonidan "Yosh xivaliklar" partiyasining barcha a'zolari kofir deb e'lon qilinadi.

1917-yil sentabrda Xivaga polkovnik Zaysev katta qo'shinli kazak otryadi bilan yetib keladi. 21-noyabrda "Yosh xivaliklar" ustidan "qozilarning shariat sudi" o'tkaziladi. 1917-yil noyabrda Asfandiyorxon rus kazaklari yordamida parlamentni butunlay tugatdi. Natijada xonning istibdod tuzumi bilan kurashda mag'lubiyatga uchragan "Yosh xivaliklar" butunlay mamlakatdan chiqib ketishga hamda Asfandiyorxonga qarshi kurashda najotni bolsheviklardan deb bilishadi va ularga tayanishga majbur bo'lishadi. Shu boisdan 1918-yildan "Yosh xivaliklar" g'oyasi, intilishlarida shu tariqa bolsheviklar ta'siri sezila boshlaydi.

1918-yil iyul oyida Toshkentda muhojirlikda kurashni davom ettirayotgan "Yosh xivaliklar" o'z dasturlarini ishlab chiqishadi. Bu paytda ular o'zlarini "Xiva inqilobiy partiyasi" deb ataganlar. "Manifest" tarzidagi bu dasturning dastlab quyidagi bandlari bo'lgan:

1. Xon va uning hukumati tomonidan mamlakatdagi yakka boshqaruvni butunlay tugatish;
2. Xiva hududini Turkiston Respublikasiga qo'shib, RSFSR tarkibiga kiritish;
3. Xiva xoni, to'ralar, beklar va vazirlarning boyligi, har xil ko'rinishdagi molu mulklarini xalq boyligi deb e'lon qilish;
4. Yirik yer egalari mulklaridan kambag'allar hayotini yaxshilashda foydalanish;
5. Shariat hukmi bilan vaqflarning barcha daromadini faqat xalq maorifi uchun sarflash;
6. Xivadagi yangi yerlarni o'zlashtirish uchun Amudaryodan ariqlar chiqarish;
7. Bolalarni bepul o'qitish uchun Xivada maktablar ochish;
8. Xivadagi shahar va qishloqlarda bepul davolovchi kasalxona va davolash muassasalarini ochish;
9. Xiva xoni tomonidan kambag'al aholining majburan tortib olingan yer va boshqa boyliklarini o'z egalariga qaytarish;

10. Asfandiyorxon hukmronligi davridagi xazinaga tushgan xalq boyligining nimaga sarflanganini aniqlashtirish;
11. Ko‘priklar va aloqa yo‘llarini yaxshilashga kirishish;
12. Beklar tomonidan kambag‘al aholining majburan tortib olingan yer va mulklarini o‘z egalariga qaytarish;
13. Majburiy tekin mehnat (begor)ni butunlay tugatish;
14. Xon va uning hukumatini tugatish, xalq hokimiyatini tuzish va yuqoridagi dasturni amalga oshirishga tezda kirishish, xalq hokimiyatiga qarshi bo‘lgan xon tarafdorlari, burjuaziya va aksilinqilobchilarga qarshi ayovsiz kurash olib borish.

Ushbu dastur Shokir Siddiqov raisligi va David Bakirov kotibligida o‘tkazilgan majlisda qabul qilingan. Muzokaralar davomida “Yosh xivaliklar” inqilobiy qo‘mitasi kotibi Otajon mahram Sapayev dasturning Xivani Turkiston Respublikasining bir qismi qilishdan iborat bo‘lgan 2-bandiga qarshi chiqib: “ushbu hurriyatdan tamomi mahkum xalqlar istifoda qilib, o‘z istiqlolini olgan vaqtlarida, biz “Yosh xivaliklar” o‘zimizda bo‘lgan mustaqilligimizni yo‘q qilsak, Vatanga, millatga xiyonat qilgan bo‘lurmiz, tarixda yomon otli bo‘lurmiz”, degan fikr bildiradi. Biroq ko‘pchilik bu moddani olib tashlasak, sho‘rolar hukumati bizga yordam bermaydi, degan andisha bilan yuqoridagi holatda ovoz berishgan.

Ushbu dasturning aniqlashtirilgan va RSFSRga qo‘shilish to‘g‘risidagi moddasi olib tashlanib, 12 moddadan iborat varianti “Xiva inqilobchilari partiyasining yaqin vazifalari” nomi bilan 1920-yil 8-yanvarda Toshkentdagi “Izvestiya” gazetasida chop etilgan (3).

“1918-yil avgust oyi boshlarida “Yosh xivaliklar” inqilobiy qo‘mitasi a‘zolari joylarda inqilobiy uyushmalar tuzish uchun jo‘natiladi. Buni Toshkentdagi “Yosh xivaliklar” inqilobiy qo‘mitasi a‘zosi Mulla Jumanioz Sultonmurodov nomiga 1918-yil 4-avgustda berilgan 12-sonli mandat nusxasi ham tasdiqlaydi. Bu hujjat “Yosh xivaliklar” inqilobiy qo‘mitasining shtampi va muhri nusxasining yaxshi saqlanganligi bilan ham ahamiyatlidir. Yumaloq shakldagi muhrga aylana tarzda “Mlado-Xivinskiy Revolyutsionniy Komitet” deb, doira ichiga arab harfida “Yosh xivaliklar” inqilobiy qo‘mitasi” va kirilchada “Tashkent” so‘zlari yozilgan. Shunga ko‘ra, 1918-yil 5-iyunda “Yosh xivaliklar” inqilobiy partiyasi o‘z dasturi, tuzilishi, muhriga ega bo‘lgan rasmiy tashkilot sifatida to‘la shakllangan” (4).

1917-yil noyabr-dekabr oyilarida P. Yusupov, N. Sholikorov Toshkentga, mulla Jumanioz Sultonmurodov Petro-Aleksandrovsk (hozirgi Qoraqalpog‘istonning To‘rtko‘l tumani)ga yetib borishadi. “Yosh xivaliklar” partiyasining liderlaridan Husaynbek Matmurodov, Ishoqxo‘ja Xo‘jayev,

Abdusalom Hoji Islomxo‘jayev, Hoji Avazberdi Eshonov Asfandiyorxon buyrug‘i bilan qatl qilinadi (1918-yil 18- may). 1918-yil boshlarida Toshkentda “Yosh xivaliklar” qo‘mitasi tuziladi (raisi-Polvonniyoz Yusupov). “Yosh xivaliklar” taktik maqsadlarni ko‘zlab, najotkor kuch sifatida bolsheviklar bilan yaqinlashishga majbur bo‘lishadi. To‘rtko‘ldagi “Yosh xivaliklar”dan bir guruhi 1919-yil boshida kommunistik guruh (fraksiya) tuzganligini e‘lon qildi (raisi - Jumaniyoz Sultonmurodov). Xonlik tuzumiga qarshi kuchlar To‘rtko‘ldagi “Yosh xivaliklar” partiyasi safiga kelib qo‘shila boshlashadi.

Natijada partiyaning yangi dasturi qabul qilinib, unda demokratik islohotlar dasturi bayon etildi. Xiva xoni, to‘ralar va beklarga qarashli butun mol-mulkni xalqqa berish, katta boylarning yerlarini kambag‘allarga taqsimlash, bepul shifoxonalar va maktablar ochish, yo‘llar va ko‘priklar qurish, siyosiy erkinlik, milliy tenghuquqlilik, xonlik tuzumini ag‘darib tashlab, demokratik xalq hokimiyati-respublikani barpo qilish ko‘zda tutildi. Vaziyatni kuzatib turgan Rossiya va Turkistonning bolshevik rahbarlari Xiva xonligini tugatib, sotsialistik tuzumga o‘tkazish uchun barcha muxolif kuchlarni jipslashtirishga zo‘r berib intildi.

1919-yil noyabrda “Yosh xivaliklar”, To‘rtko‘ldagi inqilobchi kommunistlar guruhi hamda Qo‘shmamadxon Sapiev va G‘ulomalixon Bahodir boshchiligidagi turkman urug‘lari birgalikda Xiva xoni Said Abdullaxon va turkman yovmutlarining yetakchisi Junaidxonga qarshi kurash boshlash uchun o‘zaro ittifoq tuzib, Xivani egallash uchun qizil askarlarni yordamga chaqirishadi.

Shu tarzda 1919-yil noyabr, 1920-yil yanvar oylaridagi keskin janglar natijasida Turkiston fronti Amudaryo (Xiva) guruhining qo‘shinlari (qo‘mondon - N. M. Shcherbakov, siyosiy rahbar-G. B. Skalov) 1920-yil 1-fevralda xonlik poytaxti Xivani bosib oladi. Natijada Xiva xoni Said Abullaxon taxtdan voz kechdi, Junaidxon Qoraqumga chekinadi. 2-fevralda Muvaqqat inqilobiy qo‘mita tuzildi.

Qo‘mitaga To‘rtko‘ldagi “Yosh xivaliklar” inqilobiy qo‘mitasining boshlig‘i Jumaniyoz Sultonmurodov muvaqqat rais, xon davridagi qozikalon, so‘ngra parlament raisi Bobooxun Salimov, ulamolar vakili Odamoxun Ortiqov, yirik savdogar Matpanoboy Madrahimov, turkmanlar vakillari Mulla O‘roz Xo‘jamuhamedov va Mulla Navro‘z Ro‘ziboyev a‘zo bo‘lishadi. 9-aprelda Muvaqqat inqilobiy qo‘mita ishini yaxshilash uchun uning tarkibida 10 kishidan iborat dastlabki xalq hukumati - Nozirlar Sho‘rosi tashkil qilindi.

Kundalik masalalarni hal qilish uchun Jumaniyoz Sultonmurodov (rais), Polvonniyoz Hoji Yusupov, Bobooxun Salimovdan iborat hay‘at saylandi. 1920-

yil 26-30-aprelda Butun Xorazm xalq vakillarining I qurultoyida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) tashkil topadi. “Yosh xivaliklar” dasturi qurultoyda qabul etilgan muvaqqat konstitutsiyaga asos qilib olinadi. Unda Xiva xonligi tugatilganligi va Xorazm Xalq Respublikasi tashkil qilinganligi e’lon qilinadi.

Qurultoyda 15 kishidan iborat respublika hukumati - Xalq Nozirlari Sho’rosi tuzildi. Polvonniyoz Hoji Yusupov boshchiligidagi hukumat tarkibiga Jumaniyoz Sultonmurodov (raisning birinchi muovini), Boboovun Salimov (adliya), Bekjon Rahmon (maorif), Eshchonqori Jabborqulov (xalq xo’jaligi), O’roz Xo’jamuhamedov (tashqi ishlar), Navro’z Ro’ziboev (hukumat kotibi), Qo’shmamedxon Sapiyev (raisning ikkinchi muovini), G’ulomalixon Bahodir (ijtimoiy ta’minot), Shomurod Baxshi (sog’liqni saqlash), Muhammadpanoboy Abdullayev (moliya), Xudoybergan Devonov (oliy mufattish nazorat), Rizo Shokirov (harbiy), Hakim Bobojonov (ziroat-dehqonchilik), Nazir Sholikorov (ichki ishlar) nozir sifatida kiritildi. Nozirlarning aksariyati jadidlardan iborat bo’lgan va shu sababli hukumat “Yosh xivaliklar” hukumati deb yuritilgan.

“Yosh xivaliklar” mamlakatda xonlikdan qolgan asoratlarni tugatish, respublikada demokratik tuzumni qaror toptirish, mustaqil Xorazm davlatini barpo qilish uchun kurash olib boradi. Rossiya rasmiy doiralari, Turkkomissiya va Turkfront vakillari mustaqil siyosat yuritishga intilayotgan “Yosh xivaliklar” hukumatini badnom qilish uchun jon-jahdi bilan harakat qiladi. Sovetlar davlatining qurolli fitnalariga qaramay, “Yosh xivaliklar” hukumati respublikani qariyb bir yil davomida boshqarishdi.

1921-yil 6-martda qizil askarlar Xivada ikkinchi marotaba davlat to’ntarishi yasab, “Yosh xivaliklar” hukumatini ag’darib tashlaydi. Bolsheviklar xalq nozirlarini qamoqqa olib, ko’pchiligini otib tashlashdi. Natijada ayrim nozirlar Junaidxon va boshqa sovet hukumatiga qarshi qurolli harakatlar safiga qo’shiladi, ba’zilari esa chet ellarga o’tib ketishga majbur bo’lishadi.

“Yosh xivaliklar”ning bir qismi keyinchalik afv qilindi va ular Xorazmdagi sovet davlati qurilishida faol ishtirok etishdi (1923-yil oktabrgacha). “Yosh xivaliklar” shu tarzda rasman 1921-yil martigacha siyosiy tashkilot sifatida faoliyat ko’rsatishgan va hukumat tarkibida ishtirok qilishgan. Polvonniyozhoji Yusupov raisligidagi hukumat bolsheviklar tomonidan hokimiyatdan chetlatilgach, ko’pchilik “Yosh xivaliklar” 1920-yil may oyida tashkil etilgan Xorazm kompartiyasiga a’zo bo’lib kirishga majbur bo’lishdi. Ammo ular kompartiya saflarida bo’lishsa ham, o’z milliy xususiyatlarini namoyon qilishga intildilar. Biroq ularning aksariyat qismi 1937-38-yillardagi “Katta terror”davri qatag’onlarida qurbon bo’lishdi.

Shu o’rinda taraqqiyparvar “Yosh xivaliklar” harakati (partiyasi)ning Xorazmda kechgan jarayonlarda ta’siri katta bo’lgani, tarixda muhim o’rin

tutganini mamnuniyat bilan qayd etgan holda Polvonniyozhoji Yusupov, Bobooxun Salimov, Nazir Sholikorov, Xudoybergan Devonov singari mashhur siymolarninggina nomlari sanab o'tiladi. Biroq, Xorazm jadidlari safida yana ko'plab taraqqiyparvarlar bor ediki, ular ham jamiyatdagi jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatishgan. Shundan kelib chiqqan holda quyida tarix fanida kam tadqiq qilingan "Yosh xivaliklar" faoliyatiga to'xtalib o'tamiz.

MUHAMMADMURODOV HUSAYINBEK-"Yosh xivaliklar" harakatining lideri. Tarixiy asarlarda va ayrim hujjatlarda Husayinbek Matmurodov nomi bilan ham qayd qilinadi. Rossiyaning 1873-yilgi bosqinchiligiga qarshi kurashgan qahramon Matmurod devonbining o'g'li.

Bolaligida qozi Inoyatulla oxun va qozikalon Salimoxun, Yusuf hoji Doiy singari o'z davrining mashhur shaxslaridan diniy, dunyoviy bilimlarni oladi. Xivadagi maktabni tamomlab, Muhammad Rahimxon 2-Feruzxon madrasasida tahsil oladi. Madrasa tahsili davomida din va fiqh ilmini egallash bilan birga adabiyot, shaxmat bilan jiddiy shug'ullanadi.

Madrasa tahsilidan so'ng Feruzxon saroyida, so'ngra Yangi Urganch hokimligida bojimon sifatida faoliyat ko'rsatadi. Feruzxon tomonidan u o'ziga Noziriy taxallusini qo'llaydi. Mumtoz adabiyotga xos ko'plab g'azallar yozib, boy ijodiy meros qoldirgan. Adabiy asarlari Toshkentdagi sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda.

1873-yilgi Rossiya bosqiniga qarshi otasi qo'shinida qarshi kurashgan. Istilodan so'ng otasi bilan birga dastlab Kazalinsk, so'ngra Kalugaga surgun qilingan. Surgundagi davrida-1876-78-yillarda Voronejga borib, shahardagi kadetlar harbiy korpusida tahsil oladi. Rus tili va adabiyotini, harbiy ta'lim sohasini chuqur o'rganadi. Otasi bilan surgundan qaytib kelib, bojimonlik faoliyatini davom ettiradi. 1901-yilda otasi vafot etgach, Feruzxon da'vati bilan Husayin Muhammad Murod o'g'li devonbegi vazifasiga kirishadi. 1905-yilda Xivada o'z nomiga 18 hujralik madrasa barpo ettiradi.

1910-yilda Feruzxon vafot etgach, Asfandiyorxon davrida ham devonbegi lavozimida faoliyat ko'rsatadi. Husayinbek Muhammadmurodov 1912-yilda Asfandiyorxon boshchiligidagi delegatsiya tarkibida Moskva, Sankt-Peterburg shaharlariga tashrif buyurib, imperator Nikolay II va saroy amaldorlari bilan uchrashgan.

Bosh vazir Islomxo'janing xonlikda mavqei osha boshlagach, Husayinbek devonbegi, Shayxnazarboy yasovulboshi, Omongaldi Sardor, Soibnazar mehtarlar bilan Islomxo'ja o'rtasida ayrim ziddiyatlar kelib chiqdi. Natijada Asfandiyorxon tomonidan Husayinbek va uning ukalari hibsga olindi. Biroz

vaqtdan so'ng ular avf etilib, yana saroydagi ishiga qaytishdi. Husayinbek ham Asfandiyorxonga hamrohlik qilib Rossiyaga borib keldi. 1914-yillarga kelib jadidchilik g'oyalari Husayinbek va uning safdoshlarini "Yosh xivaliklar" nomi bilan siyosiy faoliyat ko'rsatishiga imkon yaratadi. Husayinbekning Patrakdagi uyida va boshqa joylarda ushbu guruhning yig'ilishlari bo'lib o'tadi.

"1917-yili imperiya markazi - Petrograddagi fevral inqilobidan so'ng "Yosh xivaliklar" faolligi oshib, aprel oyida Xivada namoyish tashkil etiladi. Namoyish va monarxiyaga qarshi islohotlar manifestining tashkilotchisi ham bevosita Husayinbek edi. Biroq xonlikda parlament -"Idorai marshrutiya" faoliyati ko'p vaqt o'tmay to'xtatildi. Natijada ko'pchilik "Yosh xivaliklar" To'rtko'l, Chorjo'y, Toshkent va boshqa hududlarga qochib ketishga majbur bo'lishdi. Husayinbek Matmurodov esa Tolib maxsum, Isoqxo'ja va Abdusalomxo'jalar bilan Asfandiyorxon hukmiga ko'ra qamoqqa olinib, ma'lum bir muddat Qo'sha darvoza yonidagi hibsonada saqlanadi. 1918-yilda esa Doshyoq qishlog'idagi Qo'rpko'l hududida xon navkarlari, yovmud askarlari tomonidan otib tashlanadi. Polvonniyozhoji Yusupov va boshqa safdoshlari tomonidan Husayinbek jasi Shohimardon qabristoniga dafn etiladi" (5).

MUHAMMADRAHIMOV OTAMAXZUMOXUN- Xorazmdagi jadid faollaridan va respublikaga rahbarlik qilgan davlat arbobi. Xiva shahrida tug'ilgan va madrasa tahsilini tugatib, Qozikalon madrasasida mudarris, oxun vazifalarida faoliyat ko'rsatgan. Bobooxun Salimov, Polvonniyozhoji Yusupovlarning eng yaqin maslakdoshi bo'lgan va jadidchilik harakatidagi eng ta'sirchan shaxs edi.

Xonlik tugatilgandan keyingi respublika davrida adliya nozirligida mas'ul vazifada ishlagan. 1921-yil 23-mayda 60 kishidan iborat Xorazm Markaziy Ijroiya Komiteti va uning hay'ati tarkibiga adliya noziri qilib saylangan. 1921-yil 14-sentabrda XXSR MIKda "Oliy inqilob jazo mahkamasi" tashkil qilindi.

Bu mahkamaga: Otamaxzumoxun Muhammadrahimov (adliya noziri) rais sifatida, nozirlar kengashining raisi Menglixo'ja Ibniyaminov, oliy mufattish raisi Xudoybergan Devonov, ziroat noziri Abdullaxo'ja Abdurahmonxo'jayev, dohiliya noziri Hasan Ermatov, turkman sho'ba raisi Yangiboy Murodovlar a'zo sifatida kirgan edilar.

Ushbu mahkamaning asosiy maqsadi 1921-yil 6-martdagi davlat to'ntarishi sabab hukumatga qarshi ishlarni kimlar amalga oshirayotganligini aniqlash va unga qarshi kurashish edi. Dasturamalda "hukumat bilan aholi o'rtasida nizo chiqarishiga kimlar sababchi bo'lmoqda? XXSR xodimlarimi yoki chetdan kelganlarmi?" degan savol turar edi. Shuningdek, bu dasturamalda "nozirlarni kimlar hibsga oldilar, ularga qanday ayb qo'yilgan edi, ularni aksilinqilobchi deb aytish uchun siyosiy biron hujjatlari bormidi, yoki nozirlar jinoyatni bilib qildilarmi, yoki yanglish qildilarmi?" singari savollar bilan XXSRga nozirlik

qilgan hukumat rahbarlarini adolatsiz badnom qilinganligini isbotlamoqchi edilar. Hatto dasturamalda “chetdan kelganlar hukumat rahbarlari bo‘lishi mumkin emas”, -deb alohida ta’kidlangan edi.

“Oliy inqilob jazo mahkamasi bilan bir vaqtda Favqulodda jazo komissiyasi ham tashkil qilingan bo‘lib, ularning har ikkalasi ham XXSR 1 qurultoyi davrida saylangan nozirlarni ishlarini to‘g‘ri aniqlab, unga baho berishni asosiy maqsad qilib qo‘ygan edilar”(6).

Oliy inqilobiy jazo mahkamasi dasturamalini Bekjon Rahmon va Muhammadyoqub Xolmuhammedovlar yozishgan va u XXSR MIK tomonidan tasdiqlanib, ishga kirishilgan edi. Buning oqibatida ko‘pgina xufiyona qilingan ishlar ochilib qolishi mumkinligi aniq edi. Shuning uchun markazdan uning boshqa chorasi izlandi.

“1921-yil sentabr oyida XXSR MIK majlisi chaqirilib “o‘z vazifasini bajaraolmagan va ishni chalkashtirganligi uchun”, -degan ayb bilan Xorazm Markaziy Ijroiya Komitetining raisi Muhammadrahim Ollaberganov ishdan olib tashlandi. Uning o‘rniga XXSR adliya nozirligi vazifasini bajarib kelgan Otamaxzumoxun Muhammadrahimov tayinlandi. Otamaxzumoxun Muhammadrahimov o‘rniga adliya noziri qilib Mahmud Rahimov tayinlandi” (7).

Aynan Otamaxzumoxun davrida Xorazm va respublikaning milliy manfaatlarini yuzasidan g‘oyatda dolzarb ishlar qilindi. Otamaxzumoxun Muhammadrahimov XXSR MIKga rahbar bo‘lgach, Hasan Muhammadjonovning o‘rniga o‘zbek harbiy ziyolilaridan yetishib chiqqan Mirkomil Mirsharapovni harbiy nozir va rus harbiylaridan bo‘lgan Mixail Voloshinning o‘rniga o‘zbek harbiylaridan bo‘lgan Hasan Ermatovni dohiliya noziri qilib tayinladi.

“Otamaxzumoxun Muhammadrahimov maorif sohasida ham milliy lashtirish siyosatini oldinga surdi. Maorif noziri qilib qo‘yilgan tatar ziyolilaridan Hofiz Ziyovutdinov o‘rniga o‘zbek ziyolilaridan bo‘lgan Jumamurodov unni maorif noziri qilib tayinladi” (8).

Afsuski, 1920-yildan shu davrgacha ko‘pgina tarixiy va qimmatbaho buyumlar talon-toraj qilingan, o‘zlashtirilgan va markazga olib ketilgan bu jarayonlar yana davom qilmoqda edi. Mirkomil Mirsharapov harbiy nozirlik vazifasiga tayinlanishi munosabati bilan 1921-yil 15-oktabrda 63-sonli buyruq chiqardi va bu buyruq XXSR MIKning 1921-yil 18-oktabrdagi 58-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlandi.

“Ushbu buyruqda urushda qo‘lga tushgan o‘ljalar ayrim kishilarning mulki bo‘lmasligi, Xorazm hududidan chetga chiqarilib ketilmasligi, shuningdek,

hozirgi vaqtda Xorazm kommunistik partiyasi a'zolari va XXSRdagi rossiyaliklar qo'lida bo'lgan narsalarni tezlik bilan Xorazm askari ta'minot sho'basiga topshirish lozimligi, ushbu vaqtga qadar ayrim shaxslar tarafidan urush bahonasi bilan olib ketilgan narsalarni qaytarib berishning qat'iy choralarini ko'rish, shuningdek, 2-o'qchi brigadasi shtabi ham uning ta'minot sho'basi tarafidan 1920-yilda va 1921-yilning boshlarida olib ketilgan narsalarni o'z o'rniga qaytarishi belgilandi. Shuningdek, Xorazmdan olib ketilib, Buxoroda sotilgan brilliantlarni o'z joyiga qaytarish vazifasi ham kun tartibiga qo'yildi. Shuning bilan birga Xorazm tuprog'idan chetga olib chiqilib ketilgan tarixiy, qimmatli narsalarning kimlardaligini aniqlash, jumladan Xorazm xalqining harbiy hayotini ko'rsatadigan qurol va Xorazmning sipohigarchilik davrini ko'rsatadigan olmos, brilliant, oltin, kumush kabi qimmatli narsalarga bundan keyin ehtiyot bo'lishni XXSR hukumatidan so'ralgan edi" (9).

Otamaxzumoxun Muhammadrahimov Xorazm Xalq Sovet respublikasining boshqa davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish va respublikani taraqqiy qildirish borasida ham bir qancha ishlarni amalga oshirgan edi. Jumladan, qo'shni Afg'oniston, Buxoro va boshqa davlatlarda Xorazmning elchixonalarini ochish hamda ularning elchixonalarini Xorazmda tashkil etishga ruxsat berdi.

Afg'onistondagi elchixonaga rais qilib Boboovun Salimov tayinlandi. U 1920-yil apreldan 1921-yil mart oyigacha Xorazm Xalq Sovet respublikasida adliya noziri bo'lgan, Polvoniyozhoji Yusupov hukumati ag'darilgach u o'zini hukumat ishlaridan chetga olib yurgan edi. Uning kotibi qilib Abdullaxo'ja Abdurahmonxo'jaev va elchixona a'zosi qilib Marat To'rayev belgilandi.

"Buxoro Xalq Sovet respublikasi elchixonasiga rais qilib Mulla O'roz Xo'jamuhamedov belgilandi. U respublika hukumati a'ziligiga kiritilgan edi. O'roz Xo'jamuhamedov Xorazm Xalq Sovet Respublikasi delegatsiyasi tarkibida Moskvaga borib, RSFSR va XXSR o'rtasida imzolangan 1920-yil 13-sentabrdagi 24 moddadan iborat shartnomani tuzishda qatnashgan edi. Shuningdek, u o'zbeklar va turkmanlar o'rtasidagi nizolarni tugatish maqsadida XXSRning turkman sho'basi rahbari sifatida ko'pgina ishlarni ham amalga oshirgandi" (10).

Otamaxzumoxun Muhammadrahimov rahbarlik qilgan davrda xonning va xon amaldorlarining tortib olingan ekin yerlari, ko'llar, to'qaylar va boylardan tortib olingan hovli joylar, ularning bog'lari yersiz va kam yerlik dehqonlarga bo'lib berildi. "Faqat 1921-yilda 6,5 ming desyatina (7095 gektar) yer yersiz va kam yerlik dehqonlarga bo'lib berildi" (11).

Otamaxzumoxun Muhammadrahimov dinga, dindorlarga va vaqf yeriga, umuman olganda XXSRning ishlariga qat'iyatli rahbar sifatida yondoshdi va Kreml tomonidan chizib berilgan andozani butunlay rad qildi.

Tarixiy vaziyatga ko'ra, asrlar davomida diniy aqidalarga e'tiqod qilgan xalq ommasida birdaniga vaqfni bekor qilib inqilob yasash qiyin edi. Yersiz va kam yerlik dehqonlarga vaqf yerlaridan bo'lib berilgan yerlarda ham ish ko'ngildagidek emas edi. Shu boisdan ham vaqf yerlarga ekin ekib hosil olgan dehqonlar o'z yerlarida yetishtirilgan hosilni kechqurun, yashirin ravishda ushbu yerning sobiq egalariga, masjid imomlari, madrasalar mutavallilariga olib borib berishardi. Shuning uchun ham Otamaxzumoxun Muhammadrahimov XXSRning 11-qurultoyida qabul qilingan vaqf to'g'risidagi qarorlarni bekor qildi, shariat normalarini tiklay boshladi, islom diniga ishonuvchilarning hurmatini joyiga qo'ydi. U shuningdek, XXSR hukumati ishlariga kommunistik partiya a'zolarining aralishishi va rahbarlik qilishiga chek qo'yishga harakat qildi. Uning milliy rahbar sifatida tanlagan strategiyasida bir respublika hududida kommunistik partiya markaziy komiteti va hukumat markaziy ijroiya komitetidan iborat qo'shhokimiyatchilik bo'lishi mumkin emas edi.

Xorazmda amalga oshirilayotgan Otamaxzumoxunning bunday milliy rahbarlik boshqaruvi, tabiiyki, Kremldan yuborilgan vakillarga to'sqinlik edi. To'sqinlik kuchaymasligi va XXSRni ta'sir doirasidan chiqarmaslik uchun RSFSR MIK va xalq komissarlar soveti 1921-yil oktabr oyining oxirlarida Butun Rossiya MIK a'zosi, Oktabr to'ntarishi kunlarida Petrograd harbiy-revolutsion komiteti a'zosi, RKP (b) MK Turkiston byurosi va Turkiston komissiyasi raisi, V. I. Leninning topshirig'iga binoan O'rta Osiyoga yuborilgan Adolf Abramovich Ioffe rahbarligida XXSRga favqulodda komissiya yubordi. Komissiya Xorazmda amalga oshirilayotgan milliy boshqaruv tizimidagi ishlarni bekor qilishga harakat qildi. "Bunga qapshi Xorazm MIKning raisi Otamaxzumoxun Muhammadrahimov Adolf Abramovich Ioffega, Xorazm respublikasining ichki ishlariga aralashadigan bo'lsa, 24 soat ichida Xorazmni tashlab chiqib ketishi haqida talabnoma topshirdi" (12).

Otamaxzumoxunning Xorazmda tinchlikni o'rnatish borasidagi sa'y-harakatlarida uning harbiy nozir Mirkomil Mirsharopov bilan hamkorligi katta natijalar berdi.

Otamaxzumoxun Muhammadrahimov XXSR hududida tinchlik o'rnatish, buning uchun murosaga borish maqsadida Qurbon Muhammad sardor- (Junaidxon) bilan ham 1921-yil 6-noyabrda "Birlik kelishuvi shartnomasi" tuzishga muvaffaq bo'ldi.

Ya'ni, Otamaxzumoxun Muhammadrahimov shartnoma imzolab, undan oldingi rus harbiylarining qo'pollik bilan qilgan taktikasini takrorlamagandi. Ma'lumki, 1921-yil oktabr oyining boshlarida Junaidxon "O'rta quduq" nomli hududda turganida Zakaspiy frontining qo'mondonlari Bilyayev va Belousovlar uni o'rab olib, butunlay taslim bo'lishga majbur qilgandi. Shartnomaga binoan Junaidxon o'z qurollarini ham topshirishi kerak edi. Ammo Junaidxon bu talabni milliy lider sifatida tan olmadi va kelishilgan kuni qurollarini topshirmadi.

Shartnoma bajarilmagach, Belousov va Bilyayevlar 12 kishilik otliq qo'shin bilan Junaidxon oldiga yetib bordi va shartnomaning bajarilishini talab qildi. Junaidxon shartnomani rad qilgach esa unga to'pponcha o'q talab, asir olinganini ma'lum qildi. Ammo Junaidxon va uning sheriklari o'sha vaqtda Belousovni va Bilyayevlarni otib o'ldirdilar.

Shu tariqa Bilyayev va Belousovlarning Junaidxonni kuch ishlatish yo'li bilan bo'ysundirish niyati amalga oshmagan edi.

Otamaxzumoxun Muhammadrahimov kuch ishlatish yo'li bilan ish bitmasligini bilgach, Junaidxon bilan murosaga kelish uchun 5 kishilik komissiya tuzdi. Komissiya raisligiga dohiliya noziri Hasan Ermatov belgilandi va uning a'zoliciga harbiy ishlar noziri Mirkomil Mirsharapov, adliya noziri muovini, ruhoniyy Iso oxun, kotiblik vazifasiga Muhammad Yusup devon Otajonov, turkmanlardan vakil sifatida Elmuhammad Chariyevlar komissiya tarkibiga kiritildi. Ushbu komissiya 1921-yil 5-noyabrda Junaidxon bilan muzokaralar olib borib, yarash shartnomasini tuzishga muvaffaq bo'ldilar.

"Shartnomani Junaidxon tomonidan uning eng yaqin mahrami Shayx Nafas Xolnियोz o'g'li, Junaidxonning eng e'tiqodli ruhoniysi Xon Eshon va boshqa bir qancha kishilar imzolagan edilar. Shartnoma 7 punktdan iborat bo'lib, "Birlik shartnomasi" deb yuritilgan edi"(13).

XXSR rahbariyatining milliy ruhdagi davlatchilik boshqaruvi, o'z ichki ishlarini o'zi mustaqil ravishda amalga oshirayotganligi RSFSRning Xorazm XSRdagi muxtor vakili Iosif Maisyevich Bikga, Xorazm kommunistik partiyasi rahbarlari nomi bilan ish olib borayotgan ayrim shovinistlarga yoqmas edi. Ular xalqning siyosiy jihatdan o'z yo'llarini aniq belgilab ola olmaganliklarini yaxshi sezib, davlat to'ntarishlari va davlat rahbarlarini o'zgartirib turish siyosatini amalga oshirib turdilar. RSFSRning Xorazmdagi muxtor vakili Iosif Moiseyevich Bik 1921-yil 10-noyabrda RSFSR tashqi ishlar xalq komissarligiga yozgan xatida "hozirgi Xorazmning hukumat rahbarlari Xorazm uchun kerak emas. Hukumat butunlay Menglixo'ja Ibn'yaminov va Otamaxzumoxun Muhammadrahimov qo'liga o'tdi. Milliy masala bilan ayrim intelligensiya shug'ullanadi", deb yozgan edi (14).

Otamaxzumoxun Xorazm hukumati ichki ishlariga aralashgani uchun RSFSRning Xorazmdagi muxtor vakili Iosif Moiseyevich Bikni vohaga qaytib kelmaslik talabi bo'yicha 19-noyabr kuni RSFSR hukumatiga murojaat yo'llaydi. Biroq, Kreml munosabat bildiravermagach, Otamaxzumoxun yanada jiddiyoq harakat qilishga kirishadi. Jumladan, 22-noyabr kuni Rossiya hukumatiga radiotelegramma yuborib, RSFSRning Xorazmdagi muxtor vakili Iosif Moiseyevich Bikning o'z vakolati doirasidan chiqib, Xorazm hukumatini xalq dushmani deya targ'ibot qilayotgani, millatlar orasiga nizo solayotgani, qonxo'rliги va talonchiligi uchun zudlik bilan chaqirib olishni so'raydi. Aks holda, ro'y berishi mumkin bo'lgan ko'ngilsizliklar ikki davlat orasidagi siyosiy va iqtisodiy aloqalarga rahna solishi, do'stlikning o'rni urushga aylanishi ehtimoli yuqoriligini ma'lum qilgandi. Bu radiotelegramma Xorazmning RSFSRdagi doimiy vakili Sulton qori Jumaniyozov va tarjimon Jumaniyoz Ollaquliyevlar tomonidan Kremlidagi V.I.Lenin, Chicherin, Kalininlarga yetkaziladi.

Biroq Kreml ma'muriyati ham Xorazmdan qilingan ikkinchi murojaatga rasman javob bermay, e'tiborsiz qoldiradi. Natijada 1921-yil 23-noyabr kuni Otamaxzumoxun Xorazm hukumatining yig'ilishini o'tkazib, RSFSRning Xorazmdagi muxtor vakili Iosif Moiseyevich Bikning zudlik bilan 24 soat ichida XXSR hududini tark etishi haqida qaror chiqaradi. 1921-yilning 25-noyabr kuni Xorazm radiosi Xorazm hukumatining 17 nafar rahbarlari tomonidan imzolangan qarorini o'qib eshittiradi. Vaziyatning tarangligini sezgan Kreml shundan so'nggina RSFSRning Xorazmdagi muxtor vakili Iosif Moiseyevich Bikni Moskvaga qaytarish haqida rasman qaror chiqaradi. Biroq Iosif Bik 27-noyabr kuni Xivadagi Qizil Armiya kuchlariga tayanib, go'yoki XXSR MIK va Xorazm kommunistik partiyasi favqulodda majlisini chaqiradi.

Majlisda respublika rahbari Otamaxzumoxun va harbiy nozir Mirkomil Mirsharopov "xalq dushmani" deb ataladi. Shu fikrga tayangan holda 1921-yil 27-noyabrda Xorazm kommunistik partiyasi markaziy komiteti, Xorazm markaziy ijroiya komiteti respublika nozirlar kengashining kengaytirilgan qo'shma majlisini chaqirdi. Ushbu majlisda Xorazm markaziy ijroiya komitetining raisi Otamaxzumoxun Muhammadrahimovni, Xorazm respublikasi nozirlar kengashining raisi Menglixo'ja Ibniyaminovni, Xorazm markaziy ijroiya komitetining ish boshqaruvchisi Bekjon Rahmonni, Xorazm markaziy ijroiya komiteti ijroiya bo'limining boshlig'i Muhammadjon Abdalovni, moliya noziri Muhammad Yusup Otajonovni, dohiliya noziri Hasan Ermatovni, xorijiya noziri Mulla O'roz Xo'jamuhamedovni, harbiy ishlar noziri Mirkomil Marsharopovni, turkman sho'ba raisi Yangiboy Murodovni, Trigulovni, Agaydarovni, Yungirovni

Xorazm xalqining dushmani deb e'lon qilishdi. Ularni ishdan olib tashlash va qamashga qapop qilindi”(15).

Otamaxzumoxun Muhammadrahimov majlisga chaqirilmadi. U o'z ustidan chiqarilgan hukmdan xabar topgach Ollaqulixon madrasasida yashirilib, jon saqlashga harakat qildi.

Biroq RSFSRning Xorazmdagi muxtor vakili Bik va boshqa mustamlakachilar tomonidan uyushtirilgan fitna natijasida faqatgina Otamaxzumoxungagina emas, XXRning barcha rahbarlariga nisbatan navbatdagi to'ntarish qilindi. “1921-yil 27-noyabrda uyushtirilgan fitnaga ko'ra, XXR markaziy ijroiya qo'mitasi va nozirlar sho'rosining kengaytirilgan qo'shma majlisida XXR markazqo'mining raisi Otamaxzumoxun Muhammadrahimov, XXR nozirlar sho'rosining raisi Menglixo'ja Ibn'yaminov, Markazqo'm ish boshqaruvchisi Bekjon Rahmon, markazqo'm bo'lim boshlig'i Muhammad Abdalov, moliya noziri Muhammad Yusuf Otajonov, dohiliya noziri Hasan Ermatov, xorijiya noziri Mulla O'roz Xo'jamammedov, harbiy ishlar noziri Mirkomil Mirsharopov, turkman sho'basi raisi Yangiboy Murodov, shuningdek Trigulov, Agaydarov, Yungirovlar Xorazmning dushmani deb e'lon qilindi. Ularni otib tashlash va qamashga qaror qilindi”(16).

Bik Xivadagi 300 nafar pulemyot va miltiqlar bilan qurollangan Qizil armiya qo'shini bilan harbiy nozir Mirkomil Mirsharopovning uyiga bostirib, hovlini o'qqa tuttiradi. Tasodif tufayli omon qolgan Mirsharopov hovlidan olib chiqilib, ko'chadagi olomonning ko'z o'ngida do'pposlangan holda olib ketiladi. Bik Otamaxzumoxunning ham uyini o'rab oldiradi, ammo uni topishning iloji bo'lmaydi. Qizil Armiyaga tayangan Bik Nurillaboydagi hukumat uyi oldida “Senlarga mustaqil davlatligingizni shunday ko'rsatib qo'yaman”, deya ochiqchasiga qichqiradi.

Otamaxzumoxun Muhammadrahimov o'z ustidan chiqarilgan hukmdan xabar topgach, qochib yashirinishga majbur bo'ladi. Polvonniyoz hoji Yusupovning “Xotiralar”ida yozilishicha, Otamaxzum Xivada yashirilib yurgan joylarida kasal bo'lib vafot etgan (ayrim manbalarda uni Olloqulixon madrasasida yashirilib yurganini bilib, topib otib tashlashgan- U.B.). Mahalla oqsoqoli kelib hukumatga ma'lum qildi. Hukumat tovarish Bikga e'lon qildi. Bik doktorni yuborib ko'rsatib, ondin so'ng dafn qilmoqg'a buyurdi. Bul doktorni ko'rsatganidin maqsad shul turur, yolg'ondin aytg'on bo'lmasunlar, deb. Doktorning aytgani birlan xotirjam bo'lib qoldi. Ham hukumatning tamomi ixtiyori tovarish Bikning qo'linda bo'ldi”.

Shu tariqa Otamaxzumoxunning respublika davridagi rahbarlik faoliyati shovinist rahbarlar tufayli ko'p vaqt davom etmadi. 1921-yil may-sentabr oylarida

adliya noziri, sentabr-noyabr oylarida esa respublika markaziy ijroiya komiteti raisi vazifasida ikki oygina faoliyat ko'rsatdi.

BOBONIYOZOV JUMANIYOZ - xorazmlik jadidlarning “Yosh xivaliklar” partiyasi faoli va “Katta terror” davridagi qatag'on qurboni bo'lgan shaxs. 1877- yilda savdogar oilasida tug'ilgan. Dastlab shahardagi eski maktabda, keyin madrasada tahsil olgan. So'ngra Jumaniyoz qori nomi bilan Pahlavon Mahmud maqbarasida faoliyat yuritgan. Shuningdek, Xiva shahridagi do'konlarida savdo bilan shug'ullangan. Islomning beshinchi farzi bo'lgan haj ziyoratini ham bajargan.

Bir guruh taraqqiyparvar jadidlarning “Yosh xivaliklar” harakati tashkil etilganida, birinchilardan bo'lib unga a'zo bo'ladi. 1916-yildagi xalq qo'zg'olonida ishtirok etib, mag'lubiyatga uchragach, To'rtko'l, Chorjo'y hududlarida qochqinlikda yashaydi.

1920-yilda xonlik tugatilib, respublika o'rnatilgandan keyin inqilobiy qo'mita komissari, 1922-yildan maorif xalq nozirligida faoliyat ko'rsatadi. 1925-28- yillarda okrug xalq ta'limi bo'limi hay'at a'zosi, 1928-31-yillarda okrug ijroiya qo'mitasi raisi o'rinbosari, 1931-36-yillarda okrug osori-atiqalar boshqarmasida ilmiy xodim, 1936-yildan keyin boshqarma boshlig'i sifatida mehnat qiladi.

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Bahrom Irzayevning arxivdagi izlanishlariga ko'ra, 1936-yilning 3-sentabrida okrug IIXK boshqarmasi boshlig'i Kalmikov tomonidan J.Boboniyozov “Hazrati polvon” masjidida aksilinqilobiy tashkilot tuzganlikda ayblanib, qamoqqa olinadi. Bu paytda uning oilasida 44 yoshli turmush o'rtog'i Niyozjon, Jonibek, Matsodiq, Oyshajon ismli farzandlar bor edi. 1937-yilning 25-avgust kuni okrug “Uchlik” sudi Jumaniyoz Boboniyozovni 5 yil qamoq jazosiga hukm qiladi. J.Boboniyozov Narpaydagi MTL (mehnat tuzatuv lageri)da hukmni o'tashga yuboriladi. Biroq uning so'nggi taqdiri noma'lum. U 1991-yilning 30-noyabrida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan oqlangan.

Jumaniyoz hoji Boboniyozov tomonidan “Xiva inqilobiy harakati tarixiga oid materiallar” nomli xotiralar yozib qoldirilgan. Ushbu asar O'zbekiston Milliy arxivi (125-fond, 1-ro'yxat, 609-ish)da saqlanadi.

DEVONIY KOMIL (1887-1938). “Yosh xivaliklar” partiyasining a'zosi bo'lgan ijodkor. 1887-yilda Xivaning Sangar qishlog'ida tug'ilgan. Muhammad Komil Ismoiljon o'g'li. Bobosi Muhammad Panoh Xiva xonligining to'p quyuvchi qurolsoz ustasi, shuningdek naqqosh, xattot, musiqa va adabiyot bo'yicha ham mahoratga ega bo'lgan. Xudoybergan muhrkan va Ismoil ham otasi

singari xattot, naqqosh, maqomshunos bo'lishgan. Komil ham ana shu muhitda kamol topdi va 13 yoshida otasi vafot etgach, amakisi Xudoybergan muhrkon vasiyligida voyaga yetdi. Arabxon madrasasida Yusuf hoji Doiydan ta'lim oladi. Komilning iqtidorini sezgan Feruzxon uni saroy devoniga ishga oladi. Tanbur, dutor, g'ijjak singari musiqa asboblarning mohir ijrochisi, naqqosh usta, zargar, muhrkon, qurolsoz bo'lib ham tanildi. XX asr boshlarida Xivada barpo etilgan madrasa, masjid, minora va boshqa obidalarni barpo etish, marmar toshlarga g'azallar o'yib, naqsh bilan sayqal beradi. Shoir sifatida devon tartib beradi.

Xorazmdagi ijtimoiy jarayonlarga aralashib, jadidlarning "Yosh xivaliklar" partiyasiga a'zo bo'lib kiradi. Xonlik tugatilgach, tashkil etilgan respublikada mas'ul vazifalarda faoliyat ko'rsatadi. 1922-yilda respublikaning ilk milliy ordeni loyihasi ham Komil Devoni tomonidan tayyorlangan. Biroq, RSFSRning Xorazmdagi vakillari va boshqa shovinistlari tomonidan tazyiq o'tkazilgach, 1923-1932-yillarda qo'shni Toshhovuzga ketishga majbur bo'ladi. 1935-37-yillarda Toshkentda yashab, Toshkent va vodiyni naqqoshlik san'atini o'rganadi va amaliy san'at bilan shug'ullanadi. 1937-yilning kuzida Toshkentning 3-Qoratosh mahallasi 8-uydagi xonadonidan qamoqqa olinadi. 1938-yil 10-fevralda "Uchlik" qarori bilan otuvga hukm etilgan. 1958-yil 19-sentabrda sobiq ittifoq Oliy sudi harbiy kollegiyasi tomonidan oqlangan.

Komil Devoni ijodiy merosi taniqli adib Komil Avaz tomonidan tadqiq qilinib, "Komil.Devon" nomli asari O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyotida 2008-yilda chop etilgan. Shuningdek, tarixchi Bahrom Irzayev tomonidan arxiv ma'lumotlarining o'rganilishi sabab, Komil Devoni haqida bir qancha maqolalar yoritilgan.

YOQUBOV BOBOJONBOY- XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab, siyosiy faoliyat olib borgan jadid faoli. Xorazmning boy mulkdorlaridan biri sifatida Xiva, Yangi Urganchda savdo do'konlari, yerlarga egalik qilgan. Taraqqiyparvar inson sifatida jadid maktablarini moliyaviy qo'llab turgan. 1912-yilda Asfandiyorxon tomonidan Husayinbek Matmurodov, Polvonniyozhoji Yusupov singari 10 nafar kishilar qatorida qamaladi. Bir oz muddat o'tib ozodlikka chiqadi va xonlik istibdodiga qarshi Polvonniyozhoji Yusupov, Nazir Sholikorov, Otajon Sapoyev, Xudoybergan Devonovlar bilan kurash olib boradi. "Yosh xivaliklar" safiga dastlabki a'zo bo'lgan faollardan. 1917-yil apreldagi Asfandiyorxonga qarshi namoyishda ishtirok qilgan. "Idorai marshrutiya" raisi Boboovun Salimov bilan hamkorlik qilgan. U tugatilgach, Bobojonboy Yoqubov ham ta'qib qilinadi va Toshkent shahriga qochib borishga majbur bo'ladi. Junaidxon va Asfandiyorxonlar tomonidan qamoqqa olingan do'sti Husayinbek Matmurodovni qutqarish uchun Turkiston Xalq komissarlari sovetiga xonlikdagi vaziyat to'g'risida hisobot yozish tashabbuskorlaridan.

Xonlik tugatilgach, respublika davrida mas'ul vazifalarda faoliyat ko'rsatadi. 1921 yil 6 martda Polvonniyozhoji Yusupov hukumat raisligidan chetlashtirilgach, Jabborbergan Qo'chqorov raisligida muvaqqat hukumat tuziladi. Bobojonboy Yoqubov ushbu muvaqqat hukumat raisi o'rinbosarligiga saylanadi. Shuningdek u ijtimoiy ta'minot noziri qilib ham saylanadi. Ammo 1921-yil 15-23-may kunlari bo'lib o'tgan Butunxorazm ikkinchi qurultoyidan keyingi hukumat tarkibiga kiritilmagan.

OLLOQULIYEV JUMANIYOZ - Xorazm jadidlarining "Yosh xivaliklar" partiyasi faoli va Xorazm respublikasida mas'ul vazifalarda ishlagan, "Katta terror" davrida qatag'on qurboni bo'lgan shaxs. 1898-yilda Xivalik qorako'l savdogari oilasida tug'ilgan. Oilasining Turkiston general gubernatorligining Amudaryo bo'limi hududlarida ko'plab yerlari, savdo do'konlari, ishlab chiqarish korxonalari bo'lgan. Jumaniyoz Xivadagi jadid maktabi va Qozikalon madrasasini tugatib, Asfandiyorxon va Said Abdullaxon saroyida kotib bo'lib xizmat qiladi. 1918-yilda Xiva xonligining Petrograd va Moskvadagi vakili bo'lib Rossiyada faoliyat ko'rsatadi.

Taraqqiyparvar inson sifatida Boboovun Salimovning da'vati bilan "Yosh xivaliklar" partiyasiga a'zo bo'lib kiradi. Xonlik tugatilgandan keyingi respublika davrida mas'ul vazifalarda faoliyat ko'rsatadi. 1920-21-yillarda respublika tashqi ishlar noziri o'rinbosari sifatida faoliyat ko'rsatadi. 1920-yilda Boboovun Salimov boshchiligidagi RSFSR bilan shartnoma tuzish uchun Moskvaga boradigan delegatsiya tarkibiga kiritiladi. Biroq unga Toshkentdagi Turkiston ASSR rahbariyati turli soxta ayblar qo'yib, Moskvaga borishiga yo'l qo'yilmaydi.

1924-yilda Xorazm respublikasining RSFSRdagi vakili bo'lib ishlaydi. 1924-yildagi milliy chegaralanish siyosati tufayli XSSR tugatilgach, Jumaniyoz Olloquliyev Bekjon Rahmonning da'vati va O'zbekiston Xalq komissarlari soveti raisi Fayzulla Xo'jayev taklifi bilan poytaxt Samarqandga Xalq komissarlari soveti raisining qishloq xo'jaligi bo'yicha maslahatchisi va referenti qilib ishga o'tkaziladi.

1937-yilgacha Toshkentda Xalq komissarlari sovetida faoliyat ko'rsatadi. Poytaxtdagi Pushkin ko'chasi 40-uyda istiqomat qiladi. 1937-yilning 11-iyul kuni O'zSSR IIXK ligi 4-bo'limi xodimi Agabekov tomonidan tayyorlangan qarorga ko'ra, ish joyida hibsga olinadi. Uyi tintuv qilinib, mol-mulki xatlov qilinadi.

1937-yilning 13-iyulidan 1938-yil 3-yanvargacha Krilov, Agabekov, Borjenko, Abramyans, Akjigitov singari IIXK tergovchilari tomonidan so'roq-surishtiruvlar olib borilgan. O'zSSR JKning 66-moddasi birinchi qismi bilan aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlik aybi qo'yilgan. 1937-yilning 9-dekabridagi

“Uchlik” tomonidan sud qilinib, otuvga hukm etilgan. 1938-yilning 7-yanvarida hukm ijro etilgan.

Turmush oʻrtogʻi Zoya Aleksandrovna Allaqulovanning 1957-yil fevralidagi arizasiga koʻra, ish qayta koʻrib chiqilib, 1957-yil 5-mart kuni Jumaniyoz Olloquliyev sobiq ittifoq Oliy sudi harbiy kollegiyasi tomonidan oqlanadi.

Jumaniyoz Olloquliyev faoliyati tarixchi olim Bahrom Irzayevning “Xalq turmush sharoitini yaxshilashga intilgan maʼrifatparvar” nomli maqolasida (“Yangi Oʻzbekiston” gazetasi, 2020-yil, 14-oktabr) hamda sanʼatshunos va tarixchi olim Sirojiddin Ahmadning “Qizil mustamlaka: eʼlon qilinmagan urush. Katta qirgʻin qomusi (1929-1950), (“Info Capital Books” nashriyoti, Toshkent, 2022-yil) nomli asarida qisman yoritib oʻtilgan.

OLLOQULIYEV IBROHIM - Xorazmlik jadidlarning “Yosh xivaliklar” partiyasi aʼzosi. 1900-yilda Xiva shahrida badavlat savdogar oilasida tugʻilgan. Davlat va jamoat arbobi Jumaniyoz Olloquliyevning ukasi. Xivadagi jadid maktabi va Qozikalon madrasasida tahsil olgan. Bekjon Rahmon Xorazm respublikasida maorif noziri paytida uning referenti sifatida faoliyat koʻrsatgan va akasining tavsiyasi asosida 1923-25-yillarda Samarqandda, soʻngra Moskvadagi Timiryazov nomli Qishloq xoʻjalik akademiyasining kimyo fakultetida tahsil oladi. 1927-yildagi talabalik davrida Moskva komsomollari ichidagi shovinist kayfiyatdagi kishilar tomonidan oʻldirib ketiladi.

SAPAYEV OTAJON MAHRAM - XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi jarayonlarda faol qatnashgan jadid namoyandasi. Asfandiyorxon davrida mahram sifatida faoliyat koʻrsatgan. Doimiy ravishda jadidlarning “Tarjimon” gazetasini va boshqa nashrlarni oʻqib borgan va targʻibot qilib turgan. Polvonniyozhoji Yusupov, Bobooxun Salimov, Xudoybergan Devonovlar bilan maslakdosh boʻlgan. 1914-yildan siyosiy faoliyat bilan shugʻullangan. 1917-yil aprelidagi namoyishda faol ishtirok qilgan. “Idorai marshrutiya” tugatib yuborilgach, Asfandiyorxon taʼqibidan qochib Toshkentda yashashga majbur boʻladi. 1918-yil martida Polvonniyozhoji Yusupov bilan “Yosh xivaliklar” harakatini siyosiy partiya tarzida tashkil etish tashabbuskorlaridan. 1918-yil iyul oyida Toshkentda “Yosh xivaliklar” Xiva inqilobiy partiyasining sarkotibi etib saylanadi. Yigʻilishda partiyaning dastur va vazifalari aks etgan “Manifest”dagi ikkinchi band - “Xiva hududini Turkiston Respublikasiga qoʻshib, RSFSR tarkibiga kiritish” qismini olib tashlashni kommunist Shokir Siddiqovdan talab qiladi. Biroq Otajon Sapayevning qarshiligiga qaramay, bu band oʻz holicha qoldiriladi. Otajon Sapayevning Xorazm jadidchilik harakatidagi ishtiroki va hayoti, faoliyati, taqdiri umuman tarix fanida tadqiq qilinmagan.

UMAROV MUHIDDIN - XX asr boshlarida Xorazmdagi jadidchilik harakatining faollaridan. Polvonniyozhoji Yusupov, Otajon mahram

Sapayevlarning yaqin maslakdoshi bo'lgani uchun jadid taraqqiyparvarlari safiga qo'shilgan. 1914-yildan "Yosh xivaliklar" harakatining faollaridan bo'lgan. 1917-yil aprelidagi xonlik va mustamlakachilikka qarshi namoyish ishtirokchisi. "Idorai marshrutiya" tashabbuskorlaridan. "Yosh xivaliklar" ta'qibga uchragach, dastlab To'rtko'lga, so'ngra dekabr oyida Toshkentga qochishga majbur bo'ladi. 1918-yilning mart oyida Toshkent shahrida "Yosh xivaliklar" inqilobiy qo'mitasining xazinachisi bo'lgan. 1920-yil tashkil etilgan respublikada turli mas'ul vazifalarda faoliyat ko'rsatgan. 1920-yil avgust-sentabr oylarida Bekjon Rahmon boshchiligidagi delegatsiya safida Bokuda o'tkazilgan sharq xalqlari qurultoyida qatnashgan. Muhiddin Umarov bilan birgalikda Otaboy Abdullayev, P.Ashurxiddinov, Boychurin, Hasan Muhammadjonov, Muhammadsharif Ro'zimuhammedov, Nurillo Hojiyev, Abdulla Ermonov, Yusupov Ro'zimuhammad, Vais Rahimiy singari Bokuga borgan xorazmliklarga aynan Istanbulda tahsil olib qaytgan va bu davrda Xorazm respublikasida nozirlik qilayotgan Bekjon Rahmon boshchilik qilgan.

XUDOYBERGANBEK MATNIYOZBEK o'g'li - Xorazmdagi jadidlar harakatining faollaridan va Gurlan bekligida jadid maktablarini tashkil qilgan shaxs. Bu ismni barcha xorazmliklar singari gurlanliklar ham o'z talaffuzlariga moslab Xudirganbek deb atashadi. XX asrning boshlarida yashab o'tgan Xudirganbek Matniyozbek o'g'li haqida afsuski tarixiy ma'lumotlar kam. Uning hayoti va faoliyati o'rganilmagan. Vaholanki, o'z davrida gurlanliklar unga atab qo'shiq yaratganlar.

Xiva jiydasini yirik deydilar,

Xivada begimiz tirik deydilar.

Tirik bo'lsa kelmasmiydi elina,

Uni ham o'likning biri deydilar.

1916-yil yozida yaratilgan qo'shiqqa ko'ra, Gurlan xalqi Xudirganbekning o'lganiga ishonmagan, uni bir kun o'z eliga qaytib keladi, deb o'ylagan. Negaki, 1916-yil yanvar, fevral oylaridagi Chor Rossiyasi va uning qo'g'irchoq xoni Asfandiyorga qarshi qo'zg'olonga aynan Xudoyberganbek rahbarlik qilgan.

U faqat qo'zg'olon rahbari sifatida emas, balki adabiyot va san'at homiysi, xalqparvar bek, Gurlanda tashkil etilgan jadid maktablarining asoschisi sifatida ham mashhurdir. Shuni aytish kerakki, Xudoyberganbekni ba'zilar 1916-yilgacha Gurlan hokimi bo'lgan, deyishadi. Vaholanki, Laffasiyning "Tazkirai shuaro" asarida yozilishicha, "Pur Komil Feruzning hayotidan keyin Asfandiyorxon zamonida Gurlanga ikkinchi marta hokim bo'lib turadur". Uning hokimligi 1916-yil 10-yanvargacha davom etgan. Shu yili u Xivani qamal qilgan qo'zg'olonchilar

o'ldirgan Mirzaboshi o'rniga devonga Mirzaboshi qilib tayinlanadi. Demak, Xudoyberganbek Gurlan hokimi emas, balki boy-badavlat beklardan biri bo'lgan. Biroq ko'pchilik uni Gurlan begi deb atashadi. Shuni e'tiborga olish kerakki, garchi Gurlan Xiva xonligining ma'muriy bir hokimligi sanalsa-da, hokimlik faqat Gurlandagina iborat bo'lmagan. Unga hozirgi Yangibozor tumanining ko'pchilik qismi, hozirgi Gurlan tumanining butun hududi, Mang'itning ham ayrim joylari qaragan. Gurlan esa hokimlikning markazi bo'lgan. Barcha hududni hokim boshqargan. Shuningdek, qishloq va ovullarning ham o'z beklari bo'lgan. Xudayberganbek esa Gurlanning hozirgi markazi va Ko'hnaqal'adan to Hizireli qishlog'igacha bo'lgan hokimlikning markazida bek bo'lgan. Uning ajdodlari ham shu joylarda bek bo'lishgan. Shuning uchun ham Ko'hnaqal'adan oqib o'tuvchi Hizireliyop bo'yidagi hududlar hanuz Bekovul deb ataladi.

Boy-badavlat Xudoyberganbek ma'rifatparvar inson bo'lgan. U har yili Toshkentga borib kelar, o'sha davr uchun yangilik bo'lgan grammafoni ham aynan unda bo'lgan. Hatto mashhur hofiz Mulla To'ychining gramplastinkasini bekning o'zi Toshkentga borganida hofizdan sovg'a sifatida Gurlanga olib kelgan. Shuning uchun ham asli xivalik bo'lgan Sheroziy o'sha yerlik ba'zi boylarning ta'qibidan qochib Gurlanga aynan Xudoyberganbekdan panoh so'rab kelgan.

Xudoyberganbekning Saxtiyon qishlog'ilik Ollambergan Sattorqul o'g'li, Hizrelilik Otash mirob kabi ma'rifatli, elda obro'-e'tibor orttirgan do'stlari bo'lgan. Ular birgalikda Gurlan elidagi ahvol, vaziyat haqida fikrlashib turishar, qilinajak ishlarni birga bahamjihat rejalashtirishardi. U 1916-yilga kelib mustamlakachilikning avjiga chiqishi va Asfandiyorning kayfu-safo, shahvoniy hirsga berilishi natijasida yuzaga kelgan isyon uchqunlarini vaqtida payqadi. Xon haramiga qiz yig'ishga chiqqan O'g'il va Xotira mahramlar barcha beklarda bo'lib, chiroyli qizlarni xon oldiga olib borish uchun Gurlanga kelganlarida xalq isyonga hozirlandi. Mahramlarning mo'g'irdak aravasiga o't qo'yildi, ularning o'zlari esa quvib yuborildi. Bunday hol Mang'it, Xo'jayli ham bo'lib o'tgan. Natijada xalqdagi isyonkorlik kayfiyati uyg'onganini sezgan Xudoyberganbek o'z maslakdoshlari bilan maslahatlashib, aynan Gurlanda 1916-yilning yanvar oyida qo'zg'olonni boshlab yubordi. Mang'it, Xo'jayli, Qipchoqda ham kelishilganidek bir vaqtda xalq harakatga keldi. Gurlanliklarga bosh bo'lgan Xudoyberganbek xonlik markazi Xiva sari o'tlanadi. Qiyot, Shovot, Toshhovuz, Qo'shko'pirni ham qamrab olgan qo'zg'olonchilar shu tarzda Xivagacha kelib poytaxt qamal qilinadi. Qo'zg'olonchilarga xonlikdagi Rossiya qo'shinlari garnizoni ham, xon navkarlari ham bas kelolmagach, Asfandiyor general S. A. Galkin qo'shini yordamga kelguncha qo'zg'olonchilar bilan muzokora olib boradi. Muzokaraga borgan o'n bir qo'zg'olonchi orasida Xudoyberganbek Matniyozbek o'g'li ham bor edi.

Biroq, muzokara tugamay turib S.A.Galkin qo'shinining yetib kelishi natijasida Xudoyberganbek va yana o'n nafar qo'zg'olonchi hibsga olinadi. Ular qo'zg'olon rahbarlari sifatida dorga osib o'ldiriladi. 5000 kishilik qurollangan jazo otryadi esa xonlikdagi qo'zg'olon bo'lib o'tgan joylarda aholidan tovon puli - kontributsiya undirib oladi.

Tabiiyki, xon mahramini jazolashga hamma beklar ham jur'at etolmasdi. Ammo, Xudoyberganbek ana shunday jur'atli va isyonkor yo'l boshchi edi. Uni shunaqa qiyin vaziyatda Hizreli qishlog'ilik Otash mirob qo'llab-quvvatladi. Otash mirob Hizrelining nufuzli kishisi, shu qishloqning suv taqsimotini belgilab beruvchi amaldorlaridan edi. U Xudoyberganbekdek do'stini qo'llab, birgalikda 1916-yil yanvar, fevral oylarida nafaqat gurlanliklarni, balki Mang'it va xo'jayliklarni ham birlashtirgan holda xalqni qo'zg'olonga chorladi.

Ana shu davrda yashab o'tgan "Yosh xivaliklar" harakatining yo'l boshchisi Polyozhoji Yusupov (1861-1936)ning xotiralariga ko'ra, "Asfandiyorxon kayfi safosi birlan mashg'ul bo'laverdi. Fuqarolarning dodu faryodi osmonga chiqdi. Uning huzuridagi mahramlari ko'ngliga tushgan jabr zulmlarini qila boshladilar. Alhosil, fuqarolar bunga toqat qila olmadilar. Shu tariqa Xudoyberganbek, Otash Mirob, Avazxonxo'ja, Mahmudjonxo'ja, Qozoq Salloh, Isomaddin eshon, Qutlimurod inoq, Abdullabek, Dorrobeklar boshchiligida xalq g'alayon ko'tardi".

Natijada Xudoyberganbek, Otash mirob va uning maslakdoshlari 1916-yildagi xalq qo'zg'olonini boshlab, Asfandiyorxonni va uning navkarlari-yu, Xivadagi garnizoniga ham bas kelib, Xivani qamal qilishdi. Xon qo'zg'olonchilar bilan muzokara olib borib, ular talabi, yani soliqlarni kamaytirish, davlatda tartib-intizom o'rnatishga so'z berdi. Ammo shumlik ishlatib, muzokaradagi talabni bajarish muddatini cho'zib turdi va shundan foydalangan holda Toshkentdan general Galkin qo'shinini yordamga chorladi. Natijada general Galkinning 6000 kishilik qurollangan qo'shini xonlikka yetib kelib, mart-aprel oylarida qo'zg'olonchilarga qarshi kurashga otlandi.

Xonning aytganiga ishonib, talablari qondirilishini kutib Gurlanda yurganlarida, Xudoyberganbek va Otash Mirobni izlab xon navkarlari va general Galkin qo'shini bu yerga bostirib kelishadi. Polyozhoji Yusupovning "Xotiralari"ga ko'ra, "General Galkin Gurlanga kelib Xudoyberganbek, Qilich Inoq va Otash Miroblarni osib o'ldirdilar".

Ushbu xalq qahramonlari Gurlan bekligi markazidagi Qori A'lam bobo qabristoniga dafn etiladi. Garchi Xudoyberganbek va Otash Miroblar boshlagan qo'zg'olon mag'lubiyatga uchragan bo'lsada, biroq ular jasorati yoshlar uchun matonat va g'urur, faxr timsoli bo'lib qoldi.

“Yosh xivaliklar” harakati (partiyasi)ning ijtimoiy-siyosiy faoliyati hamda faollarining jamiyatga ta’siridan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Xorazm jadidlari va taraqqiyparvarlari mustamlakachilikka qarshi kurash, xonlik tuzumini isloh qilish va uni zamonaviy davlatga aylantirish maqsadida milliy ruhda muxolif harakat - “Yosh xivaliklar” harakati (partiyasi) saflariga birlasha oldilar.

2. Birinchi jahon urushi va undagi Rossiya ishtiroki vaqtida imperiyaning harbiy, siyosiy jihatdan zaiflashishini qulay vaziyat hisoblab, 1916-yilgi xalq qo’zg’olonini tashkillashtirishdi va Asfandiyorxon hamda mustamlakachilarga qattiq zarba bera olishdi. Garchi qo’zg’olon mag’lubiyatga uchrasa-da, xalqda istiqbolga erishish mumkin degan ishonchni uyg’otishdi.

3. 1917-yil fevralida Petrogradda imperator Nikolay II ning taxtdan voz kechishi, Kerenskiy boshchiligidagi muvaqqat hukumatning demokratik siyosati Xorazm jadidlarida istiqbolga intilishni kuchaytirdi va ular aprel oyida Asfandiyorxon hamda mustamlakachilarga qarshi namoyish o’tkazib, shart qo’ya olishdi. Jadidlarning manifesti Asfandiyorxon tomonidan qabul qilingach, Xorazm davlatchiligidagi muhim siyosiy voqea - palament tashkil etilib, unga Boboovun Salimov, Nozirlar Kengashi tuzilib, unga Husayinbek Matmurodov rais qilib saylandilar. Bu jarayon “Yosh xivaliklar” harakatining muhim siyosiy g’alabasi edi.

4. 1917-yil yoz va kuz faslida jadidlarning muxolifi bo’lgan radikal qadimchilar ta’sirida Asfandiyorxon “Yosh xivaliklar”ga qarshi kurash boshladi va natijada faollardan ayrimlari qamoqqa olinishi bilan jadidlar To’rtko’l, Chorjo’y, Toshkent shahriga emigratsiyaga ketishga majbur bo’lishdi. Asfandiyorxonning milliy-siyosiy murosa yo’lidan bormay, taxt ilinjida kurash boshlashi ziddiyatlarni kuchaytirib yubordi. Natijada “Yosh xivaliklar” najotni bolsheviklardan deb bilishdi va ulardan panoh topishdi. Bu esa Rossiya imperiyasi asoratidagi xalqlarni yana itoatda tutish uchun bolsheviklarga g’oyat ma’qul bo’ldi va “Yosh xivaliklar”ni qurollantirib, Qizil armiya bilan xonlikni tugatishdi.

5. Tugatilgan Xiva xonligi garchi jadidlar taklifi bilan Xorazm respublikasi deb nomlansa va hokimiyatni “Yosh xivaliklar” boshqarishsa-da, asta-sekinlik bilan bolsheviklar ta’sirini kuchaytira boshlashdi. Xorazmda Qizil Armiya qo’shinining ko’payishi, aholi o’rtasida kommunistik g’oyalarning ta’siri orta boshlashi bilan 1921-yil mart oyida “Yosh xivaliklar” partiyasi hokimiyatdan chetlatildi va ushbu partiya rasman tugatildi. Garchi ayrim “Yosh xivaliklar” Xorazm kommunistik partiyasiga a’zo bo’lishsa-da, milliyatchilik ruhiyatini saqlab, respublika boshqaruvida ishtirok qilishdi. Xalq baxtu saodati, hudud istiqboli yo’lida fidoyilik bilan mehnat qilishdi.

6. Jadid taraqqiyparvarlari 1924-yil kuzidagi milliy chegaralanish siyosatiga qarshi chiqishsa-da, Kreml o'z bosimi bilan chegaranishni o'tkazdi va Xorazm okrugi tashkil etildi. Okrug davridagi tazyiq, bosimlar bilan ilgari jadidlarga qatag'on qo'llana boshlandi. 1929, 1935-yillardagi qatag'ondan omon qolgan sobiq "Yosh xivaliklar" 1937-38-yillardagi "Katta terror" davrida otuv, surgunga hukm qilindi va ularning hayoti yakun topdi.

7. 1917-yil fevralidan keyingi demokratik vaziyatda Asfandiyorning murosa yo'lidan bormay, taxt ilinjida kurash boshlashi nafaqat "Yosh xivaliklar" faoliyatiga, balki davlatchilikka ham qattiq zarba berdi. Natijada voha oq imperiya ta'siridan qizil imperiya ta'siri, itoatiga tushib qoldi. Bu tarixiy voqealiklar esa Xorazm tarixining eng fojiali sahifalariga aylandi. Garchi "Yosh xivaliklar" mag'lub bo'lsalar-da, millat va davlatchilik tarixidagi istiqbolga intilgan qahramon sifatida tarixda qolishdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.N.Polvonov. "Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va siyosiy partiyalar tarixi", "Akademnashr" nashriyoti, Toshkent-2011 yil. 39-bet.
- 2.N.Polvonov. "Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va siyosiy partiyalar tarixi", "Akademnashr" nashriyoti, Toshkent-2011 yil. 56-bet.
3. "Известия" газетаси, 1920 йил, 8 январь.
4. N.Polvonov. "Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va siyosiy partiyalar tarixi", "Akademnashr" nashriyoti, Toshkent-2011 yil. 39-bet.
- 5.U.Bekmuhammad. "Xorazm jadidchilik harakati ensiklopediyasi", Urganch-2024-yil, 89-bet.
6. O'zbekiston Milliy arxivi, R-71-fond, 1-ro'yxat, 3-delo, 11-varaq, M. Axangarov. "Xorazm tarixi materiallari", 1964-yil, 107-bet.
7. O'zbekiston Milliy arxivi. R-71-fond, 1-ro'yxat, 2-delo, 26-varaq.
8. O'zbekiston Milliy arxivi. R-71-fond, 1-ro'yxat, 3-delo, 202-varaq.
9. O'zbekiston Milliy arxivi, R-71-fond, 1-ro'yxat, 6-delo, 50-varaq.
10. O'zbekiston Milliy arxivi, R-71- fond, 1-ro'yxat, 3-delo, 219-varaq.
- 11.M.M.Маткаримов. "Аграрные преобразования в Хорезме и их социально-экономические последствия", диссертация қўлёзмаси, Тошкент, 1976, 48-бет.
- 12.Н.Қаландаров. "Образование и деятельность Хорезмской коммунистической партии", Тошкент, 1975, 154-бет.
13. O'zbekiston Milliy arxivi, R-71-fand, 1-ro'yxat, 3-delo, 204-207-varaqlar.



14. Н. Каландаров, "Образование и деятельность Хорезмской Коммунистической партии", Ташкент, 1975, 155-бет.
15. O'zbekiston Milliy arxivi, R-71-fond, 1-ro'yxat, 3-delo, 235-varaq.
16. O'zbekiston Milliy arxivi, 71-fond, 1-ro'yxat, 3-ish, 235-varaq.

TARIX

NAMANGANLIK JADID ZAYNIDDINQORI NASRIDDIN O'G'LINING FOJIALI QISMATI



Azizbek Maxkamov,
Andijon davlat
universiteti “O‘zbekiston
tarixi” kafedrası katta
o‘qituvchisi. Tarix
fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD)

UO‘K 94(575.171)”1900/1924”

Annotatsiya: Maqolada jadidchilik harakatining Namangandagi yirik vakili, qatag‘on qurboni Zayniddinqori Nasriddin o‘g‘lining qatag‘on domiga tortilishining tafsilotlari aks ettirilgan.

Аннотация: В статье отражены жизнь, деятельность и подробности того, как крупный представитель джадидского движения в Намангане, жертва репрессий Зайниддинкори Насриддин угли, оказался в ловушке репрессий советской власти.

Annotation: The article presents the life and activities of Zayniddinqori Nasriddin ugli—a leading figure of the Jadid movement in Namangan and a victim of repression—and details how he became ensnared in Soviet-state repressions.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, qatag‘on, Zayniddinqori Nasriddinov, aksilinqilobiy, aksilsovet, Munavvarqori Abdurashidxonov.

Ключевые слова: джадидизм, репрессия, Зайниддинкори Насриддинов, контр-революционный, антисоветский, Мунаваркори Абдурашидханов.

Key words: Jadidism, repression, Zayniddinqori Nasriddinov, counterrevolutionary, anti-Soviet, Munavvarqori Abdurashidkhanov.

XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakati Turkiston jamiyatida maorif tizimini yangilash, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini uyg‘otish va milliy o‘zlikni mustahkamlashga qaratilgan islohotchilar avlodiga tayangan edi. Bu jarayonda Namangan hududidan yetishib chiqqan ziyolilar ham muhim rol o‘ynagan. Ular safida Zayniddinqori Nasriddin o‘g‘lining o‘rnini alohida qayd etish lozim. U ma‘rifiy tashabbuslari, jamoatchilikka qaratilgan faoliyati va mustamlakachilikka nisbatan tanqidiy qarashlari bilan hududiy intellektual muhitni shakllantirishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, sovet totalitar tizimi o‘rnatilishi, ayniqsa 1930-yillar qatag‘on siyosatining kuchayishi natijasida uning shaxsiy taqdiri fojiali tugagani ma‘lum. Bugungi kunda ushbu shaxsning hayoti

va merosi haqidagi ma'lumotlar parchali holda tarqoq manbalarda saqlanib, ilmiy aylanmada yetarlicha tizimlashtirilmagan.

Namangandagi jadidchilik harakati Turkiston miqyosidagi islohotchilik jarayonining muhim bo'g'ini hisoblanib, uning shakllanishi, institutsional tarmoqlari va qatag'on davrida jismonan yo'q qilingan ziyolilar hayoti va faoliyatlarini qayta tiklash tarixshunoslikda hal etilmagan masalalardan hisoblanadi. Zayniddinqori Nasriddin o'g'li (ism-sharif mahalliy manbalarda turlicha yozilishi mumkin) haqidagi ma'lumotlar parchalangan, asosan mahalliy matbuot, turli muassasalarning, xususan sobiq Ichki ishlar xalq komissarligining arxiv-tergov hujjatlarida aks etgan.

Jadid Zayniddinqori Nasriddin o'g'li (Nasriddinov) 1872-yili Namangan shahrida din xizmatchisi oilasida tavallud topgan. Uning otasi Nasriddin qori dastlab muftiy, so'ng xalq qozisi lavozimida faoliyat ko'rsatgan. Zayniddin oilada 3 nafar aka-ukalari – Zayniddin, Bahriddin, Najmiddin, Fazliddin bilan birga istiqomat qilgan. U namanganlik yana bir taraqqiyparvar Nosirxonto'ra Kamolxonto'ra bilan bolalikdan do'st bo'lgan, bir masjidda tahsil olgan. Yoshligidanoq otasidan diniy bilimlarni, turk, arab, fors tillarini mukammal egallagan, keyinchalik Namangandagi madrasada mudarrislik qilgan.

Turkistonda XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol qatnasha boshlagan Zayniddinqori Nasriddinov 1914-yildayoq "Jamiyati Islomiya" tashkilotining Namangan bo'limiga raislik qilgan. U taraqqiyparvar jadidlar bilan g'oyaviy jihatdan yaqinlashib, 1915-1916-yillarda Namanganda jadidchilik maktabini ochgan va unga mudirlik qilgan. Ayni vaqtda 1917-yil Fevral inqilobidan so'ng Namanganda shariat qozisi lavozimida ham faoliyat ko'rsata boshlagan[1].

Zayniddinqori Nasriddinov 1917-yil oxirlarida tuzilgan Turkiston muxtoriyatini qo'llab-quvvatlagan. Biroq, muxtoriyat sovet hokimiyati tomonidan tor-mor etilganidan so'ng u muholifatchilik faoliyatini yashirin tarzda davom ettirgan. Xususan, 1919-yilda Abdullabek Musabekov tomonidan "Ittihad va taraqqiy" tashkilotining Namangandagi sho'basini tashkil qilingan vaqtida uning raisi etib Zayniddinqori tayinlangan. Uning safdoshlaridan bo'lgan jadidlar – Fayzulla Usmonov tashkilotning kotibi, Asror Zayniddinov uning g'aznachisi, namanganlik ziyolilardan Mulla Hojibobo Muhammadrizayev, Abdullahoji G'afurov, Qori Otaboev, Usmon Akromiy, Jamol Sa'diy, Shahar Shariflar a'zo sifatida qatnashganlar. Keyinchalik "Ittihad va taraqqiy" tashkiloti Munavvarqori Abdurashidxonov tomonidan "Milliy ittihad" nomi ostida qayta tashkil qilinsada, uning Namangan sho'basidagi a'zolar tarkibi o'zgarishsiz qolgan[2].

Zayniddinqori 1920-yili 1-10-sentyabr kunlari Boku shahrida Sharq xalqlarining birinchi syezdida vakil sifatida qatnashgan. Bokuga qilingan tashrif

haqida to‘xtalib, syezdda Anvar Poshshoning nutqini yuqori baholab, O‘zbekistonda ham Turkiya va Misr kabi milliy respublika tuzish kerakligini aytgan, syezdda qatnashayotgan tatar mullalari Muso Hazrat, Ziyo Kamol hazrat, Jahongir hazrat va shu kabilar haqida to‘xtalib, bunday insonlar islom dini uchun hayotini ham ayamasliklarini ta’kidlab o‘tgan.

Jadid Zayniddinqori Nasriddinov milliy-hududiy chegaralanishdan so‘ng 1925-yilda shariat qozisi saylovlarida muvaffaqiyat qozonib, mazkur lavozimga saylangan, bir vaqtning o‘zida Namangandagi Diniy Idoraning raisi lavozimiga ham tayinlangan. 1927-yilning kuzida Namangan shahrining Qizil Chorsu mahallasida joylashgan Said Qulibek madrasasida Zayniddinqori Nasriddinov, Mulla G‘aybulla Dadamuhammedov, Fathiddin Maxzum Ismatullayev va Usmon Akromiylar boshchiligidagi namanganlik ziyolilarni birlashtirgan yangi tashkilot – “Milliy qo‘mita” yashirin tashkilotiga asos solingan. “Milliy qo‘mita” a‘zolari sovet hokimiyati tomonidan O‘zbekistonda olib borilayotgan yer-suv islohoti, quloqlashtirish, surgun qilish jarayonlariga qarshi chiqib, sovet hukumatidan O‘zbekiston mustaqilligini talab qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Tashkilot raisi Zayniddinqori, xazinaboni Mulla G‘aybulla, kotibi Fathuddin Maxsum bo‘lgan. Sovet hokimiyatiga muxolif bo‘lgan “Milliy qo‘mita” tashkilotiga yuqoridagi shaxslardan tashqari namanganlik taraqqiyparvar arboblari Muhammad Hojibobo Rizayev, Asror Zaynuddinov, Ismoilqori Otaboyev, Nasimjon Maxmudov, Fayzulla Usmonov, Inomjon Nizomboyev, Jalol Sa‘diyev, Nuriddin Akramov, Abdullabek Musabekov, Muhammadsharif Abdullaxo‘jaev, Abdulhayhoji Toshxo‘jaev, Lutfulla Olimiy, Omon Yoqubov, Otamirza Sarimsoqov va boshqalar a‘zolikka qabul qilingan[1].

Ayni vaqtda Zayniddin Qorining yaqin safdoshi jadid Muhammadrizayev Hojibobo tashkilot a‘zolariga Nuriddin Qoriyev (keyinchalik O‘zbekiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi kotibi), Muhiddin Shoximardonov, G‘afur Qosimov, Abdulla Maqsum, Rafiq Mo‘minov, Nasriddin Qodiriylarni jalb qilgan. Tashkilotning yana bir faol a‘zosi Usmon Akromiy tomonidan Jalol Sa‘diy, Nasimxon Mahmudov, Akbar Sirojiddinovlar ham tashkilot a‘zolariga tortilgan. Zayniddinqori boshchiligidagi “Milliy qo‘mita” tashkiloti tez orada Andijonda, Kosonsoyda va Qo‘qonda o‘z sho‘balarini tashkil qilishga erishgan. Andijon sho‘basiga G‘afurov Abdullahoji va Karamandiyev Abdumutallib, Abdumannob Hakimov (choyxonachi), Imot Obiddinov (ruhoniy, imom o‘g‘li), Abuqahhor Sattorov, Muhiddin Ashurov (kooperativ xodimlari)lar bo‘lgan[2]. Kosonsoyda Ibray va Abdullabeklar, Qo‘qon filialiga G‘ofurjon Qosimovlar rahbarlik qilgan.

Tashkilotga asos solinishi va faoliyati haqida Abdullabek Musabekov quyidagilarni ma’lum qilgan: *“Men 1929-yil boshlarida Namanganga keldim. Bu*

yerda Fatxiddin Maxzum Ismatullayev xonasida Zayniddinqori, Mulla G‘aybullla va yana kim bilandir uchrashdim. Zayniddin qori bilan choy ichib o‘tirganimizda u menga shunday degan: Biz yangi tashkilotni yaratdik, aniqrog‘i eski tashkilotni qayta tuzdik. Mening “Kimlar bu tashkilotga a‘zo bo‘lib kirgan?” degan savolimga ular hazilomuz tarzda shu yerda o‘tirgan barchamiz deb javob berdilar. Hamma kulib yubordi. Zayniddinqori men ham tashkilotga a‘zo ekanligimni aytdi. Men unga “Ma‘qul” deb javob berdim. Keyin Zayniddinqori menga quyidagilarni aytdi: “Siz hozirda siyosatdan yiroq holatda yashamoqdasiz, gazetalarda nimalar yozilyotganini bilmaysiz, ko‘rinib turibdiki, hozirgi kunda davlat rahbarlari o‘rtasida katta kurash va kelishmovchiliklar sodir bo‘lmoqda. Agar yana to‘ntarish sodir bo‘lsa va hokimiyat tepasiga troskiychilar kelsa hamda urush boshlanib ketsa, biz nima qilmog‘imiz darkor? Biz aholi orasida “jadid” sifatida sharmanda qilinganmiz, hukumat bizning mafkuramizni buzg‘unchi deb hisoblab, bizlarni millatchilikda ayblamoqda. Agar biz betaraf bo‘lishda davom etsak, kun kelib jabrlanganlar qatorida qolib ketamiz. Shunday ekan, biz uyushishga va tashkilot tuzishga qaror qildik. Hozirda esa voqealar rivojini sinchkovlik bilan kuzatmoqdamiz”.

“Milliy qo‘mita” tashkilotiga a‘zo bo‘lib kirish shartlari haqidagi hujjatda Zayniddinqori talabgorning rostgo‘y, vatanparvar, millatparvar, jasur va qo‘rqmas, mohir targ‘ibotchi, tashkilotchi xususiyatlariga ega bo‘lishi kerakligini alohida qayd etgan. Tashkilot a‘zolari aholi orasida davlat apparati boshqaruvini mahalliyashtirishni, buning uchun o‘zbek aholisini zamonaviy bilimlar bilan o‘qitishni yo‘lga qo‘yishni targ‘ib qilishi lozimligi belgilangan. Temiryo‘l, pochta va telegraf kabi muhim sohalar o‘zbek ishchilari tomonidan boshqarilishi lozimligi alohida ta‘kidlangan[2].

Zayniddin qori o‘z ma‘ruzalarida sovet hokimiyati atayin savodsiz aholini davlat xizmatiga qabul qilayotgani, ayni vaqtda keng dunyoqarashga ega eski davrning ziyoli aholisi vakillari ishdan bo‘shatilgani yoki davlat xizmatiga yaqinlashtirilmayotganini qayd etgan. Shu bilan birga, “Milliy qo‘mita” tashkiloti a‘zolari sovet hokimiyati tomonidan qo‘llanilgan, ayollar paranjisini tashlashga majbur qilinayotgan “Hujum” harakati ayni vaqtda mutlaqo noo‘rinligini, jarayonning majburiyat asosida amalga oshirilayotganini keskin tanqid qilganlar. Zayniddinqori Namangandagi istiqloлчаilik harakati a‘zolari haqidagi turli ig‘vo va uydirmalarga qarshi chiqqanlar hamda tashkilot a‘zolari bilan birgalikda Namanganda qurolli qarshilik ko‘rsatish harakati rahbarlari bo‘lgan Dadaboy qo‘rboshi va Nosirxon to‘raga keng miqyosda yordam berishga harakat qilganlar.

1928-yilda Namangandagi “Milliy qo‘mita” tashkiloti raisi Zayniddinqori Toshkentdagi “Milliy istiqloл” tashkiloti rahbarlari Munavvarqori Abdurashidxonov va Salimxon Tillaxonovlar bilan o‘zaro aloqani yo‘lga

qo‘ygan. Munavvarqori Abdurashidxonov 1928-yilda Namangandagi “Milliy qo‘mita” tashkilotiga “Milliy istiqlol” tashkilotining sho‘basi maqomini bergan.

1920-yillarning oxiridan boshlab sovet hokimiyati tomonidan muxolif tashkilotlar va milliy taraqqiyparvar arboblarga nisbatan qatag‘on qilish harakatlari boshlab yuborilgan. 1929-yil 6-noyabrda “Milliy istiqlol” tashkilotining raisi Munavvarqori Abdurashidxonov hibsga olingach, “Milliy qo‘mita” tashkilotining rahbarlari, xususan Zayniddinqori Nasriddinov ham OGPU xodimlari tomonidan ta‘qibga uchragan. Zayniddin Qori 1929-yil 18-iyunda o‘zi yashab turgan uy – Namangan shahri, Darvozaeshik dahasi, Labbaytog‘a mahallasida oila a‘zolaridan ayoli Sojidaxon, o‘g‘illari – Sadriddin, Nasrullo, qizlari – Tursunxon, Aytaxonlar bilan birga dasturxon ustida o‘tirgan vaqtida OGPU xodimlari tomonidan hibsga olingan va 1930-yil 7-yanvarga qadar hibsdan saqlanib, mutassil ravishda tergov qilingan[3].

Tergov materiallaridan birida mahbus Zayniddinqori Nasriddinov Farg‘ona vodiysidagi istiqlolchilik harakatining sardorlaridan biri Nosirxon to‘ra Kamolxonto‘raev bilan aloqasi aks ettirilgan. Nosirxonto‘ra Namanganda bo‘lganida “Muxammadxon to‘ra” madrasasida, ya‘ni Zayniddinqori xonadoni yaqinida tashkilot a‘zolari bilan yig‘ilgan. Nosirxon to‘ra Avliyoota shahriga jo‘nab ketgan vaqtda Zayniddinqori hibsga olingan. Ayblov xulosasida qayd etilishicha, Nosirxonto‘ra Kamolxonto‘raning sovet hokimiyatiga qarshi chiqishlari Zayniddinqori bilan kelishilgan holda yuz bergan.

Zayniddinqori Nasriddinovga doir ayblov xulosasida uni kapitalistik unsurlar qurshovida bo‘lgan sovetlarga qarshi aksilinqilobiy millatchilik kurashi olib borganlikda, “Milliy istiqlol” tashkiloti rahbariyati bilan faol aloqada bo‘lganlikda, ularga bu kurashga rahbarlik qilishni so‘rab, tashkilot dasturini qabul qilganlikda, “Milliy istiqlol”ning xorij bilan aloqasini amalga oshirish maqsadida chet elga vakillar yuborganlikda, qurolli qo‘zg‘olon tayyorlashga da‘vat qilganlikda, “Milliy istiqlol” g‘oyalarini amalga oshirish maqsadida sovet hokimiyatiga qarshi kurash olib borayotgan bosmachilik harakatining taniqli arboblari bilan hamkorlik qilganlikda, Qizil armiya qismlari bilan qurolli to‘qnashuv olib borgan Dadaboy qo‘rboshining qarorgohida bo‘lganlikda ayblangan. 1931-yil 25-aprelda Moskvada Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi (OGPU) Kollegiyasining “12” - yig‘ilishida Zayniddinqori Nasriddinov RSFSR Jinoyat Kodeksining 58/2, 58/3, 58/4, 58/10 bamlari bilan ayblanib, otuvga hukm etilgan. Hukm 1931-yil 7-iyunda o‘sha kuniyoq ijro etilgan. Oradan 58 yil o‘tgach, ya‘ni 1989-yil 30-martda Zayniddinqori Nasriddinov reabilitatsiya qilingan[4].

Namanganlik jadid Zayniddinqori Nasriddin o'g'li o'z davrining yirik ma'rifatparvar arboblardan biri sifatida xalqni uyg'otish, zamonaviy ta'limni yoyish va milliy ongni shakllantirish yo'lida fidokorona xizmat qilgan. U jadidchilik g'oyalarini amalda tatbiq etib, yangi usul maktablarini tashkil etgan, yosh avlodni milliy o'zlik va istiqlol ruhida tarbiyalagan. Biroq, mustabid sovet tuzumi davrida uning ma'rifiy va vatanparvarlik faoliyati "aksilinqilobiy" deb talqin qilingan va u sovetlarning mudhish qatag'on siyosatining navbatdagi qurboniga aylangan.

Zayniddinqorining fojiali qismati o'z davrida minglab jadid ziyolilar boshiga tushgan fojining timsoli bo'lib, uni ilm va taraqqiyotga chorlash yo'lida o'z hayotini qurbon qilgan fidoyi insonlar sirasiga kiritish mumkin. Uning hayoti va faoliyati sovet mustamlakachiligi, siyosiy tazyiqi va jaholatiga qarshi kurashning yorqin namunasi bo'lib, bugungi kunda ham yosh avlod uchun ibrat manbai hisoblanadi. Shu bois Zayniddinqori Nasriddin o'g'li merosini o'rganish, uning g'oyalarini qayta tiklash va tarixdagi o'rni haqida chuqur tadqiqotlar olib borish milliy tarixshunosligimizning muhim vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Meros" xalqaro ilmiy-amaliy ekspeditsiya jamoat fondi materiallaridan (O'zR DXXA materiallari. P-7162-ish).
2. "Meros" xalqaro ilmiy-amaliy ekspeditsiya jamoat fondi materiallaridan (O'zR DXXA materiallari. P-33391-ish).
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy Arxivi, 96- jamg'arma, 4-ro'yxat, 1604-yig'majild, 60-varaq.
4. Rustambek Shamsutdinov, Azizbek Mahkamov, Nigoraxon Akbarova. O'rta Osiyodagi jadidchilik harakati tarixidan (Ikkinchi kitob). Toshkent: Akademnashr, 2025-yil. –336-bet.
5. Shamsutdinov Rustambek. Qatag'on qurbonlari. (1937-yil, 10-avgust – 5-noyabr) — Toshkent: "Sharq", 2007. — 496-bet.
6. Shamsutdinov Rustambek. O'zbekistonda sovetlarning qatag'on siyosati va uning oqibatlari (Birinchii kitob). Toshkent., "Sharq". 2012. – 432-bet.

TARIX

JADID OQILXON DADAXO‘JAYEVNING FOJIALI QISMATI

UO‘K 94(575.11)



Iminov Jasurbek,
Andijon davlat
universiteti “O‘zbekiston
tarixi” kafedrası katat
o‘qituvchisi. Tarix
fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdurauf Fitratning shogirdi, jadidchilik harakatining a‘zosi Oqilxon Dadaxo‘jayevning hayoti, faoliyati, sovet hokimayati tomonidan qatag‘on qilinishi hamda fojiali qismati birlamchi arxiv manbalari asosida bayon qilingan.

Аннотация: В данной статье на основе первичных архивных источников изложены жизнь и деятельность ученика Абдурауфа Фитрата, участника джадидского движения Окилхона Дадаходжаева, а также его репрессирование советской властью и трагическая судьба.

Annotation: Based on primary archival sources, this article presents the life and activities of Okilkhon Dadakhoyayev, a student of Abdurauf Fitrat and a member of the Jadid movement, as well as his repression by the Soviet authorities and tragic fate.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, Fitrat, qata‘on, “Milliy istiqlo‘l”, Ramazon Qayum, I.V.Stalin, aksilinqilobiy.

Ключевые слова: джадидизм, Фитрат, репрессия, «Национальная независимость», Рамазон Каюм, И.В.Сталин, контрреволюционный.

Key words: Jadidism, Fitrat, repression, “National Independence,” Ramazon Qayum, I.V.Stalin, counterrevolutionary.

XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati millatni uyg‘otish, xalqni ma‘rifat va taraqqiyot sari yetaklash g‘oyalarini ilgari surgan eng ilg‘or ijtimoiy-siyosiy oqimlardan biri bo‘ldi. Ushbu harakat vakillari o‘z faoliyatlarini milliy o‘zlikni anglash, diniy va dunyoviy bilimlarni uyg‘unlashtirish hamda mustamlakachilik zulmidan qutulish yo‘lida olib bordilar. Ular orasida Abdurauf Fitrat maktabining iste‘dodli shogirdi, ma‘rifatparvar jadid Oqilxon Dadaxo‘jayev alohida o‘rin tutadi.

Oqilxon Dadaxo‘jayev shaxsiyati va uning jadidchilik harakatidagi o‘rni masalasi o‘zbek jadidchiligi tarixiga oid tadqiqotlarda to‘liq yoritilmagan bo‘lsa-da, ayrim manbalarda uning nomi va faoliyati tilga olingan. Jumladan, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi

jadidlarning asarlarida o'sha davr ijtimoiy-siyosiy vaziyati, ma'rifatparvarlik g'oyalari hamda jadidlar maqsadlari haqida muhim ma'lumotlar uchraydi.

Jadidchilik tarixini o'rgangan o'zbek olimlari — H. Boltaboyev, A. Qodirov, F. Toshpo'latov, R. Shamsutdinov va boshqalar o'z tadqiqotlarida XX asr boshlarida shakllangan milliy uyg'onish jarayonlarini, jadidlarning ma'rifiy faoliyatini hamda ularning sovet davridagi qatag'on taqdirini chuqur tahlil qilganlar. Shuningdek, "Chig'atoy gurungi" to'garagi faoliyati haqida yozilgan ilmiy maqolalarda (masalan, Sh. Vohidov, S. Karimova tadqiqotlarida) ushbu harakat vakillarining ilm-ma'rifat sohasidagi xizmatlari yoritilgan. Biroq Oqilxon Dadaxo'jayevning hayoti va qatag'on davridagi taqdiri alohida ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Shu bois mazkur maqola ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Oqilxon Dadaxo'jaev 1896-yilda Toshkent shahrida yirik savdogar oilasida tug'ilgan. Otasi Toshkent vokzalida bir necha shaxsiy do'konlarga ega bo'lgan va do'konlar ijarasi bilan ham shug'ullangan. Oilada Kamol, Abror, G'ani, Oyposhsha, Muborak va Mohina ismli aka-uka, opa-singillari bilan birgalikda ulg'aygan. 1905-yildan 1909-yilgacha eski uslubdagi maktabda tahsil olgan, 1909-yilda rus-tuzem maktabiga o'tib, u yerda 1911-yilgacha o'qigan. 1911-yilda o'qishni vaqtincha to'xtatishga majbur bo'lib, otasining savdo ishlariga yordam bergan. Oktyabr to'ntarishidan so'ng 1918-yili Toshkentda ochilgan sakkiz oylik pedagogik kursga o'qishga kirgan, ammo o'qishni tugatmasdan, o'sha yiliyoq O'zbek Maorif institutiga o'qishga qabul qilinib, 1922-yilgacha tahsil olgan[1].

O'zbek Maorif institutida faoliyat ko'rsatgan turk muallimlari Afandizoda, Sulaymon Somiy, Ismoilzoda, Rafatbeklardan, shuningdek jadid Abdurauf Fitratdan turli fanlar bo'yicha tahsil olgan. Darslardan tashqari vaqtlarda O'zbek maorif institutining drama to'garagiga ham rahbarlik qilgan.

Institutni tamomlagach, o'qituvchilik faoliyatini boshlagan va 1923-yilda 8-sonli internatda, undan keyin 1924-yilgacha 15-sonli maktabda, 1925-yildan 1926-yilgacha 2-sonli internatda, hibsga olingunga qadar Toshkent tibbiyot institutida o'zbek tilidan dars bergan.

Oqilxon Dadaxo'jayev rafiqasi Zubayda (1897-yilda tug'ilgan), farzandlari Asror (1916), Munira (1922), Mahfuza (1923) va Lola (1932) bilan Toshkent shahri, Kirov tumani, Taxtapul ko'chasi, Zenitniy tor ko'chasi, 53-uyda istiqomat qilishgan.

Sovet hokimiyati qatag'on siyosatining avj pallasi "Katta terror" yillarida Toshkent tibbiyot instituti o'qituvchisi bo'lib ishlayotgan Oqilxon Dadaxo'jayevga turli tazyiq va bosimlar o'tkazilsa-da, u qirg'in va surgun siyosatidan omon qolgan edi. Biroq, 1942-yili Ichki ishlar xalq komissarligi "Milliy istiqlol" tashkiloti a'zolariga nisbatan qayta ish ochib, ular qatorida

O.Dadaxo‘jayevega ham “aksilinqilobiy, millatchilik faoliyati va targ‘ibotini olib borganlik” aybini qo‘ygan va hibsga olishga qaror qilgan[1].

1942-yil 19-yanvarda O.Dadaxo‘jayeve uyiga IIXK xodimlari bostirib kirib, uni hibsga olgan. Tintuv vaqtida uning xonadonidan Abdurauf Fitrat boshchiligidagi “Chig‘atoy gurungi” a‘zolarining umumiy surati topilgan. Shuningdek, uning shaxsiy kutubxonasidan sovet hokimiyati tomonidan “vatan xoini” deb e‘lon qilingan Miyon Buzruk Solihovning “O‘zbek folklori” asari, “aksilinqilobchi adiblar” Sanjar Siddiqov va Ramazon Qayumlarning “Til va tafakkur” asari, Abdurauf Fitratning “Eng eski turk adabiyotining namunalari” va o‘sha davrda ta‘qiq ostiga olingan boshqa adabiyotlar topilgan. Bu adabiyotlar Dadaxo‘jayeve Oqilxonning aksilinqilobiy faoliyatiga dalil sifatida ilgari surilgan edi.

1942-yil 30-yanvarda Oqilxon Dadaxo‘jaev IIXK xodimlari tomonidan tergov qilingan.

“Savol: Siz qaysi aksilinqilobiy millatchi tashkilotlarda qatnashgansiz?

Javob: Men 1918-yildan boshlab Toshkentdagi Maorif institutida tahsil oldim. Institut direktori panturkchi, qrim-tatar millatiga mansub Ibrohim Fahmiy edi. O‘qituvchilar orasida turk zobitlaridan Afandi Zoda, Sulaymon Somiy, Ismoil Zoda, Rafatbek va boshqalar ham bo‘lgan. So‘nggi paytlarda institut direktori Afandi Zoda edi. Maorif institutidagi ta‘lim jarayoni sovetlarga qarshi ruhda olib borilib, Sovet hokimiyatini tanqid qilish odatiy hol edi. Institut talabalar qo‘mitasi (uchkom) nomi ostida panturkchi va sovetlarga qarshi alohida tashkilot tuzilgan edi. Mazkur tashkilotga Sulaymon Salimiy va Afandi Zodalari rahbarlik qilgan.

Tashkilotning sovetlarga qarshi amaliy faoliyati quyidagi yo‘nalishlarda olib borilgan: yoshlarni jalb etish maqsadida yig‘inlar tashkil etilgan va turli xil to‘garaklar – musiqiy, xor, torli cholg‘u va drama to‘garaklari tuzilgan. Musiqiy to‘garakni Yusuf Kalonov, xor to‘garagini Muhiddin Ahmedov, torli cholg‘u to‘garagini Mirkarim Mirahmedov, drama to‘garagini esa men boshqarganman.

Mazkur tashkilot 1922-yilgacha, ya‘ni turk zobitlari Turkiyaga qaytib ketguncha faoliyat ko‘rsatgan. Keyinchalik institutda o‘tkazilgan “tozalov” paytida panturkchilik tashkilotga a‘zolimiz sababli barcha faol talabalar, jumladan, men ham institutdan chetlatilganmiz.

Institutdan ketganimdan keyin vaqtincha savdo faoliyatiga o‘tib, kuyovim (singlimning turmush o‘rtog‘i) Soib Maqsum Abduqayumov (1937–1938-yillarda taxminan Ufa shahriga ketgan), Anvar Xojiyev (tish shifokori), Salimxon Tillaxonov(1929-yilda hibsga olingan)lar bilan sherikchilikda ishladim.

Biz savdo ishlari bahonasida bir necha bor Anvar Xojiyevning uyida to‘planardik. Bu yig‘ilishlarda Tillaxonov millatchi sifatida o‘zining

panturkchilik g'oyalarini targ'ib qilardi. U sovet hokimiyatining qulashini va kapitalizmning qayta tiklanishini muqarrar deb hisoblab, bolsheviklarni mustamlakachilikda ayblardi hamda biz, o'zbeklar mustaqil davlat tuzishga intilishimiz kerakligini ta'kidlar edi. Men bu qarashlarni qo'llab-quvvatlab, amaliy faoliyatimda ham sovetlarga qarshi ishlarni olib bordim. Millatchi g'oyalarga ega bo'lgan Mahmudov Sirojiddin va Mirahmedov Mirkarimlar bilan ular hibsga olinguncha aloqalarimni uzmadim.

1923-yilda Mahmudov meni ular tomonidan tashkil etiladigan yig'ilishlarda qatnashishga taklif etdi. Men Mahmudovning taklifini qabul qilib, muntazam ravishda o'tkazilgan ushbu yig'ilishlarda qatnasha boshladim.

Shuningdek, men Sa'dulla Qori Shomammedovning uyidagi yig'ilishlarda ham qatnashganman. U yerda shoir Abdulhamid Cho'lpon o'z she'rlarini o'qib berardi. Bu yig'ilishlarda qatnashganlar: Sa'dulla Qori Shomammedov, Mahmudov Sirojiddin, Rahmat Qozi, Mirzo Qayum, Odilov Muhaymin, Anvar Abdushukur va boshqalar edi.

1924–1925-yillarda Beshyog'ochda o'qituvchilarning yig'ilishi ("gap") tashkil etilgan, unda taxminan 30 kishi qatnashgan. Bu yig'ilishga Sharofutdinov Boqixon raislik qilgan. Yig'ilish qatnashchilari orasida Ilhom Odilov (hibsga olingan), Ilhom Muslimov, Nazrullo Inoyatov (hibsga olingan), Hoshimov Abduqodirxo'ja, Yoqub Qori, Nosirbekov Nuriddinbek va uning amakisi Eshonbek domla ham bo'lgan"[1].

1942-yil 17-iyunda yuqoridagi ko'rsatmalarga asoslangan holda Ichki ishlar xalq komissarligining Dadaxo'jayev Oqilxonga nisbatan ayblov xulosasi e'lon qilingan: "Mazkur ish yuzasidan olib borilgan tergov natijasida quyidagilar aniqlandi - Dadaxo'jayev Oqilxon inqilobning dastlabki kunlaridanoq aksilinqilobiy millatchilik harakatiga qo'shilib, sovet hokimiyatiga qarshi faol aksilinqilobiy kurash olib borgan.

Dadaxo'jayev 1919-yilda Toshkentdagi Maorif institutining talabasi bo'lib turgan vaqtida turk zobiti Afandi Zoda (keyinchalik Turkiyaga ketgan) tomonidan panturkchilik tashkilotiga jalb etilgan. U mazkur tashkilotning faol a'zosi sifatida talabalar va yoshlar orasida panturkchilik g'oyalarini targ'ib qilish bo'yicha faol ish olib borgan.

Salimxon Tillaxonov tomonidan aksilinqilobiy millatchi "Milliy istiqlol" tashkilotiga jalb qilingan va tashkilot tomonidan unga mafkuraviy ishlar olib borish, yoshlarni millatchilik ruhida tarbiyalash vazifasi topshirilgan".

Dadaxo'jayev Oqilxon sovetlarga qarshi millatchilik tashkilotida qatnashganligi uchun 8 yil muddatga mehnat-tuzatuv lageriga (ITL) hukm qilingan. Uning keyingi taqdiri hozirgi kunga qadar noma'lumligicha qolmoqda.

SSSRda I.V.Stalin vafotidan so'ng boshlangan "iliqlik" davrida ko'plab qatag'on qurbonlari qatori Oqilxon Dadaxo'jayev ham 1957-yil 15-aprelda to'liq reabilitatsiya qilingan[4].

Oqilxon Dadaxo'jayev jadidchilik harakatining fidoyi vakillaridan biri bo'lib, u o'z hayotini xalqni ilm-ma'rifatga chorlash, milliy o'zlikni anglash va istiqloq g'oyalarini yoyishga bag'ishladi. Abdurauf Fitrat maktabining shogirdi sifatida u jadidchilik mafkurasini chuqur anglagan, "Chig'atoy gurungi" kabi ilmiy-madaniy to'garaklarda faol ishtirok etgan, o'z davrining ilg'or ziyolisi sifatida millat uyg'onishiga katta hissa qo'shgan. Biroq, sovet totalitar tuzumi yillarida milliy ongni mustahkamlashga qaratilgan har qanday faoliyat "aksilinqilobiy" deb talqin qilinib, Dadaxo'jayev ham qatag'on siyosatining qurboniga aylandi. Uning fojiali taqdiri XX asrning 30-yillarida yuz bergan ommaviy repressiyalar davrida o'z xalqining ozodligi, taraqqiyoti va ma'naviy uyg'onishi yo'lida kurashgan minglab jadidlarning umumiy fojeasini ifodalaydi. Oqilxon Dadaxo'jayevning hayoti va faoliyatini o'rganish bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega. Bu orqali biz jadidlarning milliy uyg'onish, erkin fikrlash va mustaqil davlat barpo etish yo'lidagi fidoyiliklarini chuqur anglaymiz. Ularning ibratli hayoti hozirgi avlod uchun ilm, vatanparvarlik va adolat yo'lida sobitqadamlik timsoli bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. AndDU tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi fondi materiallaridan (O'zR DXXA materiallari. P-20901-ish).
2. AndDU tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi fondi materiallaridan (O'zR DXXA materiallari. P-33391-ish).
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy Arxivi, 96- jamg'arma, 4-ro'yxat, 1701-yig'majild, 23-varaq.
4. Shamsutdinov Rustambek, Mahkamov Azizbek, Akbarova Nigoraxon. O'rta Osiyodagi jadidchilik harakati tarixidan (Ikkinchi kitob). Toshkent: Akademnashr, 2025-yil, 336-bet.
5. Shamsutdinov Rustambek. O'zbekistonda sovetlarning qatag'on siyosati va uning oqibatlar (Birinchi kitob). Toshkent., "Sharq". 2012. 432-bet
6. Shamsutdinov Rustambek. Qatag'on qurbonlari. (1937-yil, 10- avgust - 5 noyabr) — Toshkent: "Sharq", 2007. 496-bet.

TARIX**TARIX SAHIFALARIDA AYOL**

**Isamidinova Gulira'no,
Andijon Davlat
Universiteti "Kimyo va
biologiya" fakulteti
"Biologiya" ta'lim
yo'nalishi talabasi**

UO'K: 94(575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada ayollarning tarixdagi roli va ularning jamiyat rivojiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Shuningdek, tarixiy voqealar va shaxslar misolida ayollarning ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalarda tutgan o'rni yoritiladi.

Аннотация: В статье анализируется роль женщин в истории и их вклад в развитие общества. Также на примере исторических событий и отдельных личностей освещается роль женщин в социальной, политической и культурной сферах.

Annotation: This article analyzes the role of women in history and their contribution to the development of society. It also highlights the role of women in social, political and cultural spheres using historical events and individuals as examples.

Kalit so'zlar: gender tenglik, comfort women, Afg'oniston, Yevropa, O'zbekiston.

Ключевые слова: гендерное равенство, «женщины для утешения», Афганистан, Европа, Узбекистан.

Key words: gender equality, comfort women, Afghanistan, Europe, Uzbekistan.

O'rta asrlarda ayollarning hayoti kuchli patriarxal tuzum tomonidan belgilangan bo'lib, ularning huquqlari va mavqei asosan tabaqa va oilaviy holatga bog'liq edi. Zodagon ayollarga jamiyatda yashash ancha qulay, oddiy (dehqon) ayollarning hayoti og'ir jismoniy mehnatga to'la bo'lib, ular dalada ishlash, suv tashish, chorva parvarishi bilan shug'ullanardi.

Huquqiy jihatdan ayollar erkak vasiyligida edi. Otasi yoki eri ularning huquqiy vakili sanalgan. Nikohlar ko'pincha oilalar tomonidan belgilangan bo'lib, cherkov rasmiy jihatdan rozilikni talab qilsa-da, amalda qizlarning tanlovi juda cheklangan edi. Mulk huquqi cheklangan: zodagon ayollar o'g'il farzand bo'lmasa, meros olishi mumkin edi, oddiy ayollar esa deyarli hech qachon mustaqil mulkka ega bo'la olmasdi. Bevalar eng ko'p mustaqillikka ega bo'lgan ayollar bo'lib, ular erining biznesi yoki mulkini boshqarishi mumkin edi [14,20].

Ta'lim asosan zodagon yoki monastir muhitidagi qizlar uchun mavjud edi. Oddiy qizlar faqat uy-ro'zg'or ishlariga o'rgatilgan. Tibbiyotda ayollar asosan doylar va tabibalar bo'lgan, biroq universitetlarning faqat erkaklar uchun ochilishi tufayli ayollarning rasmiy tibbiyotdan siqib chiqarilishi boshlandi. Ba'zi shifokor ayollar keyinchalik "jodugar"likda ayblangan [22]. Oilaviy hayotda

qizlar juda yosh - ko'pincha 12-16 yoshda turmushga berilgan. Eri moliya va barcha qarorlarni boshqargan. Ajralish deyarli imkonsiz edi. Oilaviy zo'ravonlik esa ko'p hollarda qonun bilan jazolanmagan. Jinsiy zo'ravonlik jazosi ko'proq oilaning "sharafi" bilan bog'liq bo'lgan, ayolning huquqi bilan emas [20]. O'rta asrlarning oxiriga kelib esa "jodugar"larga bo'lgan qo'rquv kuchaya boshladi, ayniqsa qarovsiz qolgan keksa ayollar nishonga olingan. Juda chiroyli, chapaqay, mushuklari ko'p, o'qish-yozishni bilgan tabib ayollarni ham jodugarlikda ayblashgan. Kimningdir tushiga kirish o'sha insonning ongini seyr bilan boshqargan deb ishonilgan. Ommaviy kasalliklar: vabo, o'lat kabilarni ham jodugarlar bilan bog'lashgan. Jodugarlikda ayblangan ayollarni omma oldida gulhanda yoqib yuborishgan [22,23].

Tarixiy yozuvlar va ilmiy tadqiqotlar orqali biz ulmli ayollarning limiy-madaniy sohalarga qo'shgan hissasini qayta kashf qilishimiz, qadrlashimiz va ayollar ijodining jamiyatdagi o'rnini to'liq anglashimiz muhimdir. Urushdan keyin bu mavzu o'nlab yillar davomida sukutda qoldi, chunki ko'plab ayollar qo'rqdi, uyaldilar yoki ularni hech kim eshitmasligini bildilar. Faqat 1990-yillarda tirik qolganlar ommaviy ravishda gapira boshladilar va rasmiy uzr, kompensatsiya hamda tarixiy tan olinishini talab qildilar. Yaponiya bir necha bor uzr bildirgan va yordam fondlari yaratgan bo'lsa-da, ko'plab tirik qolganlar va tarixchilar bu uzrlar to'g'ridan-to'g'ri va chin yurakdan bo'lmaganini aytadilar [3,4]. "Comfort women" tizimi bugun tarixdagi eng yirik harbiy jinsiy qullik hodisalaridan biri sifatida tan olingan va urushlar vaqtida ayollarni himoya qilish, inson huquqlarini poymol qilmaslik kerakligini eslatib turuvchi muhim saboqdir. Yevropada huquqlarning tiklanishi o'rtacha tendensiyada olingan yillar: Ayollar 1800-yillar boshi 1900-yillarda o'qish huquqini qo'lga kiritdilar [32]. 2021-yilda hokimiyatga qaytgandan so'ng, Tolibon Afg'onistondagi ayollarning huquqlarini tizimli ravishda cheklab, rasmiy farmonlar, norasmiy buyruqlar va ijtimoiy nazoratlar o'rnatdi. Ularning huquqiy tizimi 200 dan ortiq farmonlarni o'z ichiga oladi, jumladan "Xayrli ishlarni rag'batlantirish va yomon ishlarni ta'qiqlash qonuni", bu qonunlar ahloqni nazorat qiluvchi politsiya tomonidan qo'llanadi. Ushbu qoidalar ayollarni jamiyatdan deyarli olib tashladi va ularning erkinliklarini keskin chekladi.

Urushlar, zulm va tizimli cheklovlar ayollarning hayotini yanada murakkablashtirgan, biroq ular har doim oila va jamiyatning tayanchi bo'lib, qiyinchiliklar ortida ham ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatni davom ettirishgan. Tarixiy misollar, jumladan "comfort women" voqeasi yoki Afg'onistondagi zamonaviy cheklovlar, ayollarning huquqlari va erkinliklarining himoya qilinmasligi qanday og'ir oqibatlariga olib kelishini ko'rsatadi. Shu bilan birga,

huquq va imkoniyatlarni tiklash yo'lida erishilgan yutuqlar - Yevropada va O'zbekistonda ayollarning siyosiy, ta'limiy va iqtisodiy faolliklari - insoniyat taraqqiyotida gender tengligining naqadar muhimligini namoyon qiladi. Tarixdan saboq shuki, ayollarning imkoniyatlari kengaytirilgan jamiyat yanada barqaror va rivojlangan bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Artemisia Gentileschi: The Image of the Female Hero in Italian Baroque Art* — Mary Garrard, published by Princeton University Press. 1989 (first edition, 1989): ISBN-10: 0691040508, ISBN-13: 9780691040509
2. *Broad Band: The Untold Story of the Women Who Made the Internet* — Claire L. Evans, , published by Penguin Putnam Inc. March 6, 2018 ISBN-13: 9780735211759 (ISBN-10: 0735211752)
3. *Comfort Women: Sexual Slavery in the Japanese Military During World War II* — Yoshiaki Yoshimi, , published by Columbia University Press 2000, ISBN-10: 023112032X
4. *Comfort Women: Sexual Violence and Postcolonial Memory in Korea and Japan* — C. Sarah Soh, , published by University of Chicago Press 2008, ISBN -10: 022676804X
5. *Education and Social Mobility in the Soviet Union 1921–1934* — Sheila Fitzpatrick,
ISBN -10: 0521223253, ISBN -13: 9780521223256
6. *Equal Pay & Women's Employment in Europe, 1945–1970* — European Commission Archives commission.europa.eu
7. *European Feminisms, 1700–1950* — Karen M. Offen, , published by Stanford University Press, ISBN -10: 0804734208, labyrinthbooks.com
8. *Family Code of the RSFSR (1918)*, rusneb.ru
9. *Foundations of the Welfare State, The* — Pat Thane, published by Longman (London, 1982), 2nd edition (1996): ISBN -10: 0582279526, ISBN -13: 9780582279520
10. *Gender Equality in Uzbekistan Reports* — UNDP, www.undp.org
11. *Hidden Figures* — Margot Lee Shetterly, published by William Morrow & Company, September 6, 2016, ISBN -13: 9780062363602
12. *Hypatia's Heritage: A History of Women in Science* — Margaret Alic, publisher: The Women's Press, London 1986. ISBN: 0 -7043 -3954 -4
13. *Lise Meitner: A Life in Physics* — Ruth Lewin Sime, publisher: University of California Press 1996, ISBN -10: 0520089065

14. *Women and Power in the Middle Ages* – Maryanne Kowaleski, published by University of Georgia Press in 1988. ISBN -10: 0820309583, ISBN -13: 9780820309583
15. *Miss Leavitt's Stars* — George Johnson, publisher: W. W. Norton & Company 2005, ISBN -10: 0393051285, ISBN -13: 9780393051285
16. *Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish to'g'risida* — PF-5325, 2018 2-fevral gov.uz
17. *Rosalind Franklin: The Dark Lady of DNA* — Brenda Maddox, publisher: HarperCollins 2002, ISBN-13: 9780060184070 (ISBN - 10: 0060184078)
18. *Rules & Reports of UNAMA / UN* — (turli hisobotlar) unama.unmissions.org
19. *The Soviet Labor Code (1918)* www.marxists.org
20. *The Ties That Bound* — Barbara Hanawalt, published by Oxford University Press 1986, ISBN -10: 0195045645
21. *Taliban's Treatment of Women and Girls* — Amnesty International, www.amnesty.org
22. *The Witch: A History of Fear, from Ancient Times to the Present* — Ronald Hutton, publisher: Yale University Press 2017, reviews.history.ac.uk, ISBN -13: 9780300229042
23. *The Witch-Hunt in Early Modern Europe* — Brian P. Levack, published by Routledge (Taylor & Francis Group) 2015, ISBN - 13 9780582080690
24. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir)*, constitution.uz
25. *O'zSSR konstitutsiyasi*, ru.wikisource.com
26. *UN Women: Gender Profiles of Uzbekistan*, uzbekistan.unfpa.org
27. *Uzbekistan: Gender Statistics* — State Statistics Agent, stat.uz, genderstat.uz
28. *Veiled Empire: Gender and Power in Stalinist Central Asia* — Douglas Northrop, published by Cornell University Press 2004, ISBN -10: 0801439442
29. *Vindication: A Life of Mary Wollstonecraft* — Lyndall Gordon, published by HarperCollins 2005, ISBN - 10: 0060957743, ISBN - 13: 9780060957742
30. *Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida*,



2019 2-sentyabr, saylov.uz

31. Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida, 2019 2-sentyabr, mc.uz

32. *The Unexpected Revolution: A Study in the History of the Education of Women and Girls in the Nineteenth Century* — Margaret Bryant, 1979, by the University of London Institute of Education, ISBN-10: 0854730869; ISBN-13: 9780854730865.

33. *Women in Science: Antiquity through the Nineteenth Century* — Marilyn B. Ogilvie, published by MIT Press 1986. ISBN-10: 026215031X, ISBN-13: 9780262150316

TARIX

XORAZMDA ZAMONAVIY HUNARMAND AYOLLAR: AN'ANALAR VA INNOVATSIYALAR

UO'K 391.1(575.2)+338.48

Sabirov G'ayrat,
Urganch davlat
universiteti mustaqil
tadqiqotchisi

Annotatsiya: Xorazm vohasida hunarmand ayollarning zamonaviy faoliyati an'ana va innovatsiyaning o'zaro integratsiyasi natijasida shakllanmoqda. Ushbu maqola etnografik, sotsiologik va madaniyatshunoslik metodlari asosida ayollar hunarmandchiligi, lokal qadriyatlarning saqlanishi, innovatsion iqtisodiy salohiyati ilmiy tahlil qilinadi. Jarayon ayollar bandligi va kreativ iqtisodiyot rivojiga muhim ta'sir ko'rsatayotgani dalillar bilan yoritiladi.

Аннотация: Современная деятельность женщин-ремесленниц в Хорезмском оазисе формируется в результате взаимной интеграции традиций и инноваций. В данной статье на основе этнографических, социологических и культурологических методов проводится научный анализ женского ремесла, сохранения локальных ценностей и инновационного экономического потенциала. Процесс раскрывается через доказательные данные, демонстрирующие его значительное влияние на занятость женщин и развитие креативной экономики.

Annotation: The modern activities of craftswomen in the Khorezm region are shaped by the integration of tradition and innovation. This article provides a scientific analysis of women's crafts, the preservation of local values, and the innovative economic potential based on ethnographic, sociological, and cultural studies methods. The study highlights, with evidence, how this process significantly contributes to women's employment and the development of the creative economy.

Kalit so'zlar: an'ana, innovatsiya, hunarmandchilik, lokal qadriyatlar, integratsiya, kreativ iqtisodiyot, etnografik metod.

Ключевые слова: традиция, инновация, ремесло, локальные ценности, интеграция, креативная экономика, этнографический метод.

Key words: *tradition, innovation, craftsmanship, local values, integration, creative economy, ethnographic method.*

Xorazm vohasi qadimdan o'zining boy madaniy merosi, an'anaviy hunarmandchilik turlari va ularni asrab-avaylab kelayotgan ayollar faoliyati bilan ajralib turgan hududlardan biridir. Bugungi kunda ushbu qadriyatlar zamonaviy jamiyat taraqqiyoti va bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi mazmun kasb etmoqda. Hunarmand ayollar faoliyati endilikda faqat an'analarni saqlash emas, balki ularni innovatsion yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish, yangi estetik va iqtisodiy imkoniyatlar yaratish jarayoniga aylangan.

Etnologik nuqtai nazardan olganda, Xorazmda ayollar hunarmandchiligi ijtimoiy-madaniy tizimning ajralmas qismi bo'lib, u nafaqat mehnat faoliyati, balki avlodlararo tajriba, qadriyatlar va identitetni uzatish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Bugungi kunda bu faoliyat zamonaviy texnologiyalar, marketing, turizm va kreativ iqtisodiyot bilan uzviy bog'lanib, yangi ijtimoiy rol va gender imkoniyatlarini shakllantirmoqda. Shu jihatdan, mazkur mavzu Xorazm ayollarining hunarmandchilikdagi an'anaviy tajribasi va zamonaviy innovatsiyalar o'rtasidagi integratsiyani etnologik tahlil qilishni, shuningdek, ushbu jarayonning mahalliy madaniyat va iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini ochib berishni maqsad qiladi.

Tadqiqot 2024–2025-yillarda Urganch, Xiva, Gurlan va Yangiariq tumanlarida olib borildi[1]. Statistik hisobotlar, Xorazm tarixi muzeyi materiallari, Rustamova[2] hamda UNESCO[3] tahlillari ushbu tadqiqotning empirik asosini tashkil etdi. Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida 15 nafar faol hunarmand ayol ishtirokida chuqurlashtirilgan so'rovnomalar va intervyular o'tkazildi, ularning faoliyati bevosita kuzatuv metodi orqali o'rganildi.

Mazkur yondashuv Xorazm vohasida ayollar hunarmandchiligining zamonaviy shakllanish jarayonlarini ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy kontekstda tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqotda olingan ma'lumotlar nazariy jihatdan Appadurai[4] va Bourdieu[5] asarlarida ilgari surilgan "madaniy oqimlar" va "madaniy kapital" konsepsiyalariga tayangan holda sharhlab chiqildi.

Metodologik jihatdan etnografik, sotsiologik va madaniyatshunoslik yondashuvlar uyg'un qo'llanilib, sifat tahlil usullari, jumladan, intervyularni kodlash, mavzularni tahliliy tasniflash hamda kontekstual tahlil metodlari qo'llanildi. Shuningdek, mahalliy ijtimoiy tuzilma, gender rollari va an'anaviy hunarmandchilikning innovatsion shakllar bilan o'zaro aloqasini ochib berishga e'tibor qaratildi. Natijada, tadqiqot nafaqat an'anaviy mehnat madaniyatining davomiyligini, balki zamonaviy kreativ iqtisodiyot sharoitida ayollar hunarmandchiligining transformatsion xususiyatlarini ham ilmiy asosda yoritib berdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Xorazm vohasidagi hunarmand ayollar faoliyati an'ana va innovatsiyaning o'zaro integratsiyasi asosida shakllangan yangi madaniy agentlik modelini ifodalaydi.[3] Ushbu jarayon ayollarni faqat an'anaviy mehnat subyekti sifatida emas, balki madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarning faol ishtirokchisi sifatida talqin etish imkonini beradi. Hunarmandchilik faoliyatida an'anaviy bezak uslublari, texnologiyalar va materiallar zamonaviy dizayn, marketing va raqamli savdo mexanizmlari bilan uyg'unlashib, yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda.

Mazkur o'zgarishlar, o'z navbatida, ayollarning jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy maqomini mustahkamlashga xizmat qilmoqda[6].

Bourdieu konsepsiyasiga ko'ra[5], madaniy kapital ijtimoiy tizimda agentlarning mavqeini belgilovchi asosiy resurslardan biridir. Xorazm hunarmand ayollari ushbu kapitalni amaliy mehnat, estetik did va madaniy merosni uzatish jarayonida namoyon etmoqda. Ularning faoliyati oilaviy an'analar, ustoz-shogirdlik tizimi va ijtimoiy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jihat ularning ijtimoiy integratsiya va iqtisodiy faolligini kuchaytiradi.

Appadurai[4] zamonaviylik jarayonida lokal madaniyatlarning global kontekstda transformatsiyalanishini "madaniy oqimlar" nazariyasi orqali izohlaydi. Shu nuqtai nazardan, Xorazm hunarmand ayollari faoliyati ham global kommunikatsiya, turizm va bozor mexanizmlari ta'sirida kreativ tarzda yangilanmoqda. Mahsulotlarning xalqaro talab va estetik me'yorlarga moslashuvi, eksport salohiyatining ortishi hamda onlayn savdo maydonlarida faollikning kuchayishi bunga yaqqol misoldir.

Etnologik jihatdan bu jarayon ayollar hunarmandchiligining transformatsion mohiyatini ochib beradi: an'anaviy hunar tajribasi endilikda innovatsion iqtisodiyot va kreativ sanoatning muhim segmentiga aylanmoqda. Shu bilan birga, ayollar hunarmandchiligi gender tengligi, ijtimoiy inklyuziya va mahalliy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham dolzarb rol o'ynamoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan davrdan boshlab Xorazm viloyatida ayollar ishtirokidagi uy hunarmandchiligi faoliyati sezilarli darajada rivojlanish bosqichiga ko'tarildi. Bu jarayon, bir tomondan, milliy hunarlarning tarixiy meros sifatida saqlanib qolishini ta'minlagan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularni zamonaviy iqtisodiy tizim va texnologik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qildi. Bugungi kunda Xorazmda gilamchilik, kashtachilik, quroqchilik, kulolchilik, zargarlik, yog'och o'ymakorligi, chevarlik kabi an'anaviy hunar turlari faol rivojlanmoqda. Mazkur hunar turlari o'zining mahalliy estetik

me'yorlarini saqlab qolgan holda yangi texnologik yechimlar bilan boyitilib, modern madaniy va iqtisodiy jarayonlarning muhim tarkibiy qismiga aylangan.

So'nggi yillarda viloyat xonadonlarida tashkil etilgan kichik ishlab chiqarish ustaxonalari Germaniya, Italiya, Turkiya kabi xorijiy davlatlardan keltirilgan zamonaviy texnika va asbob-uskunalar bilan jihozlanmoqda. Bu omil ishlab chiqarish jarayonlarining mexanizatsiyalashuvini, mehnat unumdorligi va mahsulot sifatining oshishini ta'minlamoqda. Hunarmand ayollar faoliyatida elektron tikuv mashinalari, dizayn dasturlari, 3D-modellashtirish vositalari, mobil ilovalar va raqamli aloqa platformalarining qo'llanilishi natijasida an'anaviy hunar turlari raqamli iqtisodiyot kontekstiga muvaffaqiyatli integratsiyalanmoqda.

Raqamli texnologiyalar, xususan, internet tarmoqlari va ijtimoiy media platformalaridan foydalanish, ayollarni onlayn bozorlar, elektron savdo tizimlari va xalqaro mijozlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqaga chiqish imkoniyati bilan ta'minladi. Natijada, Xorazm hunarmand ayollari mahsulotlarini eksport qilish, brendlash va raqobatbardosh narx siyosatini shakllantirish imkoniga ega bo'ldilar.

Uy hunarmandchiligi ayollar uchun iqtisodiy mustaqillikka erishish, ijtimoiy faollikni kuchaytirish va gender tenglikni rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayollar tomonidan yaratilgan mahsulotlar nafaqat oila byudjetiga qo'shimcha daromad manbai bo'lib xizmat qilmoqda, balki ularning ijtimoiy maqomini ham mustahkamlashga yordam bermoqda. Shu bilan birga, mazkur faoliyat ijtimoiy kapitalning shakllanishi, avlodlararo tajriba almashinuvi va madaniy identitetni mustahkamlash jarayonida asosiy vosita sifatida qaralmoqda. [5]

Viloyatda o'tkazilayotgan mahalliy hunarmandchilik festivallari, ko'rgazmalar va yarmarkalar ayollarning ijodiy salohiyatini namoyon etish, zamonaviy dizayn va marketing ko'nikmalarini o'zlashtirish uchun ijtimoiy maydon yaratmoqda. Hunarmand ayollar uyushmalari hamda mahalliy ta'lim muassasalari tomonidan tashkil etilayotgan qisqa muddatli kurslar orqali dizayn, brending va raqamli marketing bo'yicha kasbiy tayyorgarlik tizimi shakllanmoqda.

Umuman olganda, Xorazm hunarmand ayollari faoliyati an'ana va innovatsiya o'rtasidagi o'zaro uyg'unlikni ifodalovchi murakkab madaniy-iqtisodiy hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu jarayon mahalliy qadriyatlarning zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy kontekstda qayta talqin qilinishi va global jarayonlarga moslashuvi orqali yangi madaniy barqarorlik modelini shakllantirmoqda.

Etnologik nuqtai nazardan, Xorazm hunarmand ayollari faoliyati an'ana va innovatsiyalar uyg'unligida shakllanayotgan yangi madaniy model sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayollar kashtachilik, kulolchilik va dizayn sohalarida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali nafaqat iqtisodiy mustaqillikka erishmoqda, balki madaniy merosni yangi shaklda davom ettirmoqda. Ushbu jarayon ayollarning ijtimoiy mavqeini mustahkamlab, ularni zamonaviy madaniy agentlar sifatida ko'rsatadi. Natijada, Xorazmda hunarmandchilik innovatsion va gender jihatdan transformatsion hodisa sifatida etnologik tadqiqotlar uchun muhim yo'nalishga aylanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xorazm viloyati "Hunarmand" uyushmasi arxivi. Ichki statistik hisobotlar. 2024.
2. Rustamova, N. Zamonaviy dizayn va milliy qadriyatlar integratsiyasi. O'zbek madaniy merosi jurnali, 2025. №3, 45–bet.
3. UNESCO. Women and Crafts in Central Asia: Cultural Sustainability Report. Paris. 2024. 17-bet.
4. Appadurai, A. Modernity at Large: Cultural Dimensions of Globalization. University of Minnesota Press. 1996.44-46 betlar.
5. Bourdieu, P. Distinction: A Social Critique of the Judgement of Taste. Harvard University Press. 1984. 120-bet.
6. Jo'rayev, D. O'zbekiston xalq hunarmandchiligi va gender masalalari. Toshkent: O'zFA nashri.2022. 27-29 betlar.

TARIX**XORAZM VILOYAT IQTISODIYOTINI URUSH TALABLARIGA
MOSLAB QAYTA QURISHDA SHAHARLARDA YASHAYDIGAN
AHOLINING ISHTIROKI**

**Komilova Saboxat,
Urganch davlat
universiteti o'qituvchisi**

UO'K 391.1(575.2)+338.48

Annotatsiya: Ushbu maqolada viloyat iqtisodiyotini urush talablariga moslab qayta qurishda shaharlarda istiqomat qiladigan aholining ishtiroki va ularning sanoat korxonalaridagi faoliyati yoritib berilgan.

Аннотация: В данной статье освещается участие городских жителей и их труд на промышленных предприятиях в восстановлении региональной экономики в соответствии с требованиями войны.

Annotation: This article highlights the participation of urban residents and their work in industrial enterprises in the reconstruction of the regional economy in accordance with the requirements of the war.

Kalit so'zlar: Xorazm, viloyat, urush, iqtisodiyot, aholi, shahar, sanoat, ishlab chiqarish, korxona.

Ключевые слова: Хорезм, регион, война, экономика, население, город, промышленность, производство, предприятие.

Key words: Khorezm, region, war, economy, population, city, industry, production, enterprise.

Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan O'zbekiston mamlakatning mustahkam ta'minot bazasiga aylantirilib, iqtisodiyot harbiy asosda qayta qurildi. Respublika iqtisodiyotini harbiy asosga moslab qayta qurishda shahar aholisi muhim rol o'ynadi. Chunki qishloq aholisi front va front ortini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashi zarur edi.

Viloyat iqtisodiyotini urush talablariga moslab qayta qurish uchun dastlab sanoat sohasiga o'zgartirish kiritishga e'tibor qaratildi. Unda avvalo respublika sanoat tarmog'ini uch yo'nalishda: 1) urushdan oldin mavjud bo'lgan sanoat tarmoqlarini yanada rivojlantirish; 2) O'zbekistonga evakuatsiya qilingan zavod va fabrikalarni ish faoliyatini yo'lga qo'yish; 3) yangi sanoat tarmoqlarini O'zbekistonda ham shakllantirish va rivojlantirish hamda sanoatni harbiy izga tushirish lozim edi. Bu muammo urushning dastlabki davrlaridayoq hal qilinib, bu borada o'zbekistonliklar bor kuch va imkoniyatlarini sarflab, iqtisodiy va mehnat resurslari to'laligicha frontga safarbar etdi. Albatta bu muvaffaqiyatga juda katta qiyinchiliklar va mislsiz mehnat evaziga erishildi. Bu yo'lda

respublikada nafaqat fuqarolarning mehnat faoliyati, balki, insonlarning kundalik turmush tarzi ham to'raligicha urush davri holatiga moslashtirildi. Yangi mehnat rejimi joriy qilinib, ish kuni 11 soatga (aslida amalda 13-14 soat) uzaytirildi, dam olish kunlari va mehnat ta'tillari bekor qilindi. Mehnat intizomini buzganlar harbiy holat tartiblariga muvofiq 5 yildan – 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilinishi belgilandi[1].

Viloyat iqtisodiyotini urush talablariga moslab qayta qurishda shaharlarda yashaydigan aholining ishtiroki masalasi yoritilgan materiallar shu kungacha e'lon qilinmagan. Ikkinchi jahon urushi yillarida viloyatda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar dastlab tarix fanlari doktori, professor M.Matniyozovning "Xorazm tarixi" asarida keltirilgan[2]. Bundan tashqari, urush yillarida Xorazm xotin-qizlari faoliyati, ularni sanoat, qishloq xo'jaligi, madaniyat, san'at, tibbiyot sohalarida rivojiga qo'shgan hissalarini F.J.Jumaniyazovning tadqiqotlarida[3], viloyatning ikkinchi jahon urushi yillaridagi ahvoli esa Sh.Yu.Allaberganovning tadqiqotlarida o'z aksini topgan[4].

Viloyat iqtisodiyotini urush talablariga moslab qayta qurishda shaharlarda yashaydigan aholining ishtiroki masalasini o'rganilgan arxiv hujjatlari ko'lamidan kelib chiqib qiyosiy tahlil qilindi.

Iqtisodiyotni harbiy izga solish yo'lidagi yana bir muammo bu - asosiy ishchi kuchi bo'lgan erkaklarning frontga jo'nab ketishi bo'lib, ularni o'rnini endilikda o'smirlar va xotin-qizlar egalladi. Xorazm viloyatida ham urushning dastlabki kunlaridanoq ayollar mitinglar, korxona va idoralarda yig'inlar uyushtirib, barchani bir safda turib, front uchun, frontda jang qilayotgan jangchilar uchun mehnat qilishga da'vat etdilar. Shunday mitinglardan biri 1941-yil iyulda bo'lib o'tdi. Unda ayollarni erkaklar kasblarini mukammal egallashga, dastgohlarda, traktorlarda hamda madaniyat va san'at sohalarida yuqori o'rinlarni egallashga chaqirilgan edi[5].

Ushbu chaqiriqqa javoban Urganch shahar mehnatkashlari 1941-yil 22-iyul kuni 3 ming nafardan ziyod kishi ishtirokida miting o'tkazishdi. Unda viloyatning shaharda istiqomat qiluvchi aholisi, asosan, xotin-qizlar Vatan uchun, g'alaba uchun fidoiylarcha mehnat qilib, erkaklar o'rnini egallashga va'da berishdi. Bu esa uyda ishsiz o'tirgan, kasb o'rganmagan xotin-qizlarni fabrika, zavod, korxona va artellarda ishlashga undadi. Natijada Xorazm viloyatidagi paxta tozalash zavodlariga uy ishlari bilan band bo'lgan shaharlik ayollardan 366 nafari jalb qilindi. 1941-yil oxiriga kelib viloyat sanoat korxonalariga jalb qilingan xotin-qizlarning soni 1213 nafarga yetgan edi[5].

Endi xotin-qizlar erkaklar bilan bir safda turib, ishlab chiqarishda ham o'z mehnatlarini namoyish qila boshladilar. Ular erkaklar bajaradigan: mexanik, tokorchilik, slesarlik, traktorchilik, shafyorlik kabi bir qancha kasblarda o'qitildilar va ishlab chiqarishga jalb qilindilar. Urush yillariga kelib, viloyatda urushdan oldin deyarli mavjud bo'lmagan sanoat sohalari yuzaga keldi. Jumladan, Hazorasp tumanida urushdan oldin mavjud sanoat sohaslarida bor yo'g'i 50 nafar xotin-qiz ishlagan bo'lsa, 1941-yil sentyabriga kelib ularning soni 250 nafarga yetdi. Shulardan 100 tasiga korxonaning o'zidayoq ishlab chiqarish sohasiga oid kasb malakalari o'rgatildi[5].

Ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan davrda Xorazm viloyatida ayollar mehnatiga asoslangan yengil sanoatning to'quvchilik, tikuvchilik va gazlama ishlab chiqarish kabi turlari ancha sust rivojlangan bo'lib, paypoqlar, ichki va ustki kiyimlar ishlab chiqarish viloyatda yo'lga qo'yilmagan edi. Paxtadan qilinadigan mato ishlab chiqarish bo'yicha ham, ipak gazlamasi ishlab chiqarishda ham, teri-charm sanoati sohasida ham Xorazm viloyati respublikada yettinchi o'rinni egallay edi[6].

Ammo, shunday bo'lsa-da, Xorazm viloyati aholisi ushbu sohalarda tinimsiz mehnat qilib, yuqorida ko'rsatilgan to'qimachilik, tikuvchilik, paxta yetishtirish va ipak gazlamasi ishlab chiqarishi, teri-charm sanoati sohaslarida belgilangan ishlab chiqarish rejalari muddatidan oldin oshig'i bilan bajardilar. Jumladan, viloyatdagi Urganch tikuv fabrikasi ishchi va injener-texnik xodimlari 10 oylik ishlab chiqarish rejasini muddatidan oldin 100,3 foiz qilib bajarib, mamlakatga 1 502 700 so'mlik qo'shimcha mahsulot topshirdilar[7].

Urushdan oldingi davrda erkaklar shug'ullanadigan savdo ishlariga ham urush yillariga kelib shaharlik ayollar jalb qilindi. Shahar aholisining asosiy mashg'ulotlarini o'rganish jarayonida arxiv hujjatlarida urushning dastlabki kunlaridanoq viloyat ayollarining savdogarlik ishlariga jalb qilinishi uchun o'quv kurslari tashkil qilinganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Jumladan, 1941 yil iyul oyida Xorazm viloyat Iste'molchilar uyushmasi tomonidan o'quv kurslari tashkil qilinib, 82 nafar ayol umumiy do'konda ishlashga o'rgatilgan, yana 38 nafar ayol bu soha bo'yicha o'qiyotganligi, 25 iyuldan esa 25 kishilik yana bitta guruh uchun dars boshlanishi to'g'risida ma'lumot hujjatlarda keltirib o'tilgan.

Shaharlarda savdogarlik kurslarida ta'lim olgan ayollarning ko'pchiligi qishloqlarda tashkil qilingan do'konlarga mudiralik ham qilganlar. Jumladan, Urganch tumanida 7-do'konga Naziya Axmadullina[8], Yangiariq tumani Kirov selposining Lenin nomli kolxozidagi do'konga Otajonova, Xonqa tumani Sarapayon selposining 11-son do'konga Bibijon Niyozova, Mang'it tumani Kalinin selposidagi 2-son do'konga Bibijon Qoraboeva, 8-sonli do'konga Sharifa Nurmatovalar mudiralik qilganlar[9].

Urush yillarida shahar aholisi oziq-ovqat mahsuloti hisoblangan non va shirinlik ishlab chiqarishda ham faol ishtirok qilgan. Urganchdagi “Yangi turmush” artelida oziq-ovqat va shirinliklar ishlab chiqarilib, unda viloyatning shaharlarda istiqomat qiladigan qatlami ishlagan[10]. Davriy matbuot nashrlarida Urganch shahri yashagan Roviyajon Safaeva non pishirish sexida nafaqat belgilangan normani ortig‘i bilan bajargani, balki ishga yangi kelgan ayollarga ustozlik qilib, nonvoylik kasbini o‘rgatayotganligi haqida ham ma’lumot berilgan[11].

1942-yilning o‘rtalariga kelib viloyatda mahalliy xom ashyoga asoslangan sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga kirishildi hamda ularda harbiy mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirildi. Mahalliy ayollarni yangi kasblarga o‘rgatish ishlari yo‘lga qo‘yilib, yangi sanoat tarmoqlarida asosan xotin-qizlar mehnat qila boshladilar. Bu borada Xorazm viloyatiga ko‘chirib keltirilgan aholi tarkibidagi ayollar muhim o‘rin egallab, ularning aksari qismi ilgari u yoki bu sanoat sohasida ishlagan malakali ishchilar edilar[12].

Bu dolzarb masala viloyat tarkibidagi tumanlar sovetlarida ko‘rib chiqildi. Jumladan, 1942-yil 26-oktyabrda Urganch shahar sovetining VIII sessiyasida ham eng avvalo mavjud sanoat korxonalari ishlab chiqarish sura‘tlarini keskin oshirish va barpo etilajak yangi sanoat korxonalarida tezda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish lozimligi uqtirildi[13]. Ammo, 1942-yil davomida Xorazm viloyati sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish bo‘yicha belgilangan vazifalar to‘liq bajarilmadi. Jumladan, bu yilda barpo qilinishi lozim bo‘lgan sanoat korxonalari va artellari o‘z vaqtida qurilib ishga tushirilmadi. Chunki, buning uchun birinchi navbatda mahalliy xom ashyo manbalari to‘liq o‘zlashtirilmadi. Ikkinchidan esa, viloyat transport tizimining juda sust rivojlanganligi o‘z ta‘sirini o‘tkazdi. Bu paytda viloyatda temir yo‘l tarmoqlari deyarli yo‘q bo‘lib, asosiy transport tarmog‘i Cholish pristaniga bog‘langan suv va quruqlik yo‘llari tizimidan iborat edi.

Shu jihatdan olganda, arxiv manbalarida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra viloyatda sanoat sohasining taraqqiyoti va harbiy ehtiyojlarni to‘liq qondirishi faqat 1943-yil oxirlariga kelibgina uddalangan.

Jumladan, 1943-yil 2-3 oktyabrda bo‘lib o‘tgan Xorazm viloyati ishchi deputatlari Sovetining VIII sessiyasida O‘zbekiston Kommunistik partiyasi (b) Markaziy Qo‘mitasi va O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari sovetining “Xorazm viloyatini iqtisodiy va madaniy jihatdan yanada yuksaltirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori muhokama qilinib, viloyat sanoatini har tomonlama taraqqiy qildirish, respublika hukumati tomonidan yo‘naltirilgan sanoat jihozlarini to‘liq

o'zlashtirish va ajratilgan mablag'lardan unumli foydalanish bo'yicha qaror qabul qilindi. Bu qarorda ham xotin-qizlarning ishlab chiqarishga jalb qilish asosida ishchi kadrlar muammosini hal qilish masalasi eng asosiy vazifalardan biri qilib belgilandi. Natijada 1943 yilga kelib, Xorazm viloyatida mahalliy xom ashyo asosida ishlovchi yangi sanoat korxonalari, ishlab chiqarish artellari ishga tushirilib, xom-ashyoning yangi turlarini o'zlashtirish, keng iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha belgilangan vazifalar ortig'i bilan bajarildi va urush frontlari uchun belgilangan buyurtmalar to'liq bajarildi[13].

Viloyat iqtisodiyotini urush talablariga moslab qayta qurishda shaharlarda yashaydigan aholining ishtiroki katta bo'ldi. Shaharda yashayotgan uyida ishlaymay o'tirgan xotin-qizlar ishlab chiqarishga jalb qilindi. ayollar yangi kasblarga o'rgatildi. Urush tufayli viloyat iqtisodiyotida ham katta o'zgarishlar yuz berdi. Yengil sanoatning yangi turlari amalda joriy etildi. Sanoatni harbiy asosda qayta qurishda asosan xotin-qizlar faollik ko'rsatdilar. Bu ayollarga ko'chirib keltirilgan aholi orasidagi ishlab chiqarishda ishlagan aholi kelib qo'shildi. Ular ham viloyat iqtisodiyotini rivojlantirishga o'ziga xos hissa qo'shdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xorezmskiy oblastnoy gosudarstvenniy arxiv. "Xorezmskaya pravda". 20-iyulya, 1941 g. № 171. S. 2.
2. Xorazm tarixi. II- jild, Mas'ul muharrir: Matniyazov M. – Urganch, "Xorazm" nashriyoti,1997. – 300 b.
3. F.Jumaniyazova. Ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazm xotin-qizlari hayoti va faoliyati. T.f.f.d. (PhD). diss. Urganch. 2024. – B. 114.
4. Allaberganov Sh.Yu. Urush yillarida Xorazmda madaniy hayot (1939-1945) // Sohibqiron yulduzi. 2024. №3(56). – Qarshi. – B. 44-47.
5. Sovetskiy Uzbekistan za 40 let. Statisticheskiy sbornik. – S.78,80, 81.
6. Xorazm viloyati arxivi. Xorazm haqiqati. 1941 yil 6 noyabr. №262. B.2.
7. "Xorazm haqiqati". 1942-yil, 12- mart.
8. Xorazm viloyati arxivi. "Xorazm haqiqati". 1941-yil, 5-noyabr. №263. B.2
9. Xorazm viloyati arxivi. "Xorazm haqiqati". 1941-yil, 25-noyabr. №280.
10. Non zavodi ishchilari g'ayratda: [Urganch sh.non zavodi] // "Xorazm haqiqati". 1942-yil, 15-noyabr.
11. Xorazm viloyati arxivi. 1-fond, 3-ro'yhat, 105-yig'ma jild. 9-varaq.
12. "Xorezmskaya pravda", 30.10.1942.
13. "Xorezmskaya pravda", 5.10.1943.

TARIX

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA XIVA SANOATIDAGI YUTUQ VA KAMCHILIKLAR

UO‘K 512.71



**FIRUZA
JUMANIYAZOVA,**
Xorazm Ma'mun
akademiyasi katta
ilmiy xodimi, tarix
fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida Xiva shahri sanoati taraqqiyotidagi yutuq va kamchiliklar, sanoat korxonalarining aholi ijtimoiy hayotiga ta'siri ochib berilgan.

Аннотация: В данной статье раскрываются достижения и недостатки промышленного развития города Хивы во время Второй мировой войны, а также влияние промышленных предприятий на общественную жизнь населения.

Annotation: This article reveals the achievements and shortcomings in the industrial development of the city of Khiva during World War II, as well as the impact of industrial enterprises on the social life of the population.

Kalit so'zlar: Xiva, sanoat, ishlab chiqarish, artel, sex, staxanovchilik harakati, yillik reja.

Ключевые слова: Хива, промышленность, производство, артель, мастерская, стахановское движение, годовой план.

Key words: Khiva, industry, production, artel, workshop, Stakhanovite movement, annual plan.



**GULZIRA
MADRIMOVA,**
Urganch davlat
universiteti tayanch
doktoranti

Qadimiy Xiva shahri ko'p asrlik taraqqiyot davrlarini boshdan kechirgan. Turli davrlarda aholining ijtimoiy-iqtisodiy darajasi alohida farqlangan. Shahar taraqqiyotida xonlik davrida xususiy sanoat paydo bo'lib, 1900-yillarda o'n ikkita firma, 1910-yilga kelib yigirmata firma bo'lgan bo'lsa, 1913-yilga kelib yillik

mablagʻ aylanmasi 3 mln soʻmdan 20 mln soʻmgacha boʻlgan yigirma ikkita firma faoliyat yuritgan[1]. Shunigdek, “Zinger” firmasining tikuv mashinalar doʻkoni, Sazanovning 1883-yilda ochilgan tikuvchilik ustaxonasi, 14 ta baqqollik va charm sotish doʻkonlari “Sharq jamiyati” nomli yuk tashish shirkati omborxonalari tashkil qilingan[2]. Xiva shahri xonlik poytaxti boʻlgan davrlarda madaniy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy markaz vazifasini bajargan. Rossiya bosqini xonlik hokimiyatini tugatib, 1930-yillardan sovet hokimiyatining oʻrnatilishi bilan Xiva shahri avvaligi poytaxt maqomini yoʻqotsa ham markaziy shahar darajasini saqlab qolgan. Buning bosh sababi barcha markaziy maʼmuriyat hamda yetakchi tashkilotlar Xivada joylashganligi boʻlgan.

Shaharda dastlabki toʻngʻich korxonalardan biri Paxta tozalash zavodi 1925-yilda faoliyatini boshlagan. 1939-yilga kelganda 6.926.000 soʻmlik tola ishlab chiqargan. Zavodda asosiy eʼtibor ajdodlardan avlodlarga oʻtib shakllanib kelgan hunarmandchilikni rivojlantirishga qaratilgan. Sovet hokimiyati oʻrnatilgandan keyin mayda hunarmandlar sexlarga birlashtirilib, artellar vujudga kelgan. Shunday asosda paydo boʻlgan “Umid” artelidan 1939-yilda kulolchilik, temirchilik, koʻnchilar, toʻquvchilarni oʻziga birlashtirgan “Uchqun” arteli ajralib chiqqan [3]. Koʻrinib turibdiki, ishlab chiqarish sanoati mahalliy imkoniyatlardan unumli foydalanilganligini koʻrsatadi.

Mavjud artellarda umumiy holat talab darajasida boʻlmaganligi ishlab chiqarishga salbiy taʼsir qilgan. 1938-yilda “Umid” artelida yillik rejasi qoniqarsizligi aniqlangan. Sovet hokimiyati ishchi kuchidan unumli foydalanishga qaratilgan staxanovchilik, sotsial musobaqa tadbirlarini amalga oshirgan. Artelda esa yaxshi ishlovchi staxanovchi zarbdor ishchilar roʻyxati shakllantirilmagan. Bundan tashqari, ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan barcha imkoniyatlar ishga solinmagan. Bunday sabablar yillik rejasining bajarilishida ortda qolishga sabab boʻlgan [4].

1938-yil paxta zavodi yillik rejasi 3959 tonna qilib belgilanib, 2391 tonna bajarilgan, yani yillik reja 60,47 % ga kam bajarilgan. Bunda zarbdor ishchilar kuchidan yuqori darajada foydalanganligini koʻrsatadi [5]. Aholiga munosib turmush tarzini yaratish vazifasi belgilangan “Xiva Selpo” boshqarmasi 1940-yilda xalqni bugʻdoy, yogʻ, kerosin va shunga oʻxshash mahsulotlar bilan taʼminlash boʻyicha yetarli ishlar amalga oshirmagan[6]. Natijada aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ishlab chiqarish mahsulotlariga talab qoniqarli boʻlmagan.

Urushdan oldingi yillarda Xiva shahar aholisi avvalgi davrga qaraganda uch barobar koʻpaygan. Bunday holat sanoat mahsulotlariga talabning oʻsishiga olib kelgan. 1941-yilda shaharda eng katta ishlab chiqarish korxonalaridan 6 ta korxona faoliyat yurgizgan. Jumladan, “Umid”, “Guiston”, “Paxta zavod”,

“Redaksiya”, “Uchkombinat”, “Traktorniy” kabi kurslar faoliyat ko‘rsatgan [7]. Ikkinchi jahon urushi davrida sanoat sohasi urush manfaatlari asosida yangi sexlar faoliyat boshlagan. Shuningdek, Paxta tozalash zavodi qoshida issiq yoping‘ich (adyol) ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish belgilanganligi buning isboti hisoblanadi[8]. Ushbu sanoat tashkilotlarida ishlab chiqarish quvvatining rivojlanishi elektrga bo‘lgan talabning ortishiga olib kelgan. Lekin, elektr stansiyasi ishida neft bilan ta‘minlanishdagi muammolar, sababli uzilishlar bo‘lgan. Natijada shahar aholisi ham 2 oy elektr energiyasiz qolib ketgan [9]. Yuqoridagi ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, sanoat sohasi urush yillarida qiyinchilik bilan bo‘lsa ham aholining mashaqqatli mehnati evaziga amalga oshirilgan.

Ikkinchi jahon urushi davrida aholi tinch hududlarga joylashtirilgan. Ayni paytda Xivaga ko‘chib kelgan aholini ish o‘rinlari bilan ta‘minlashda quyidagi ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, “Umid arterli” jami 3 kishini, Paxta zavodi 3 kishini, “Pernaxoz Selpo” 3 kishini, Puskin nomli maktabi 3 kishini o‘qituvchi vazifasiga, shahar ta‘limi markazi bir kishini hisobchi, Bolalar uyi uch kishini tarbiyachilikka, to‘rt kishini ishchi vazifasiga, “Guliston” arteli esa o‘n nafar kishini, “Uchqun” arteli besh nafar kishini turli vazifalarga olgan [10].

Barcha sohalarda bo‘lgani kabi sovet hokimiyati ishlab chiqarish sohasida ham sotsial musobaqalrni tashkil qilgan. Bunday tadbirlar ish samarasiga ijobiy ta‘sir qilgan. Shunindek, staxanovchi ayollar safining ko‘payishiga olib kelgan. Jumladan, “Uchqun” arteli Moskvaning A.M.Kaganovich nomli Shariko Podshivnik zavodi bilan sotsialistik musobaqa kirishib, 1941-yilning noyabr oyiga belgilangan 2.185.000 so‘mlik mahsulot o‘rniga 2.284.700 ming so‘mlik ishlab chiqarish qilib, yillik rejani 105% ga bajarishgan. Qandolatchilik bo‘yicha 1.984.500 ming so‘mlik mahsulot o‘rniga 2.284.700 so‘mlik mahsulot ishlab chiqarib, yillik rejani 105% ga bajarilgan[11]. Staxanovchilik tadbirlari barcha sanoat tashkilotlarida birdek amalga oshirilgan va nazoratga olingan. “Umid” artelining tikuvchilik sexida ish unumini yuqori darajada rivojlantirishda Allaberganova Solya bir oyda 150%, Masharipova Bika 140%, Ibodullayeva Qurbonjon 125%, Xabibullayeva Mapyza 125%, Nurmetova Bika 150% qilib rejasini oldindan bajarishgan [12].

Xiva shahridagi zavod va artellarda 1941-1942-yillardagi ishlab chiqarishni tahlil qilinsa, quyidagi farqlarni ko‘rish mumkin. Jumladan, “Guliston” artelida ishlab chiqarish 1941-yilga qaraganda 1942-yilda 12,6 % ga rivojlangan. Gungaranglar jamiyati 1942-yilda yillik rejasini 103,5 %, Ko‘rlar jamiyati esa yillik rejasi 127%, “Umid” arteli 1942-yilda ishlab chiqarish darajasi pasayib o‘tgan

yildan 35,4% ga kam bajargan. Shunindek, “Uchqun” artelida ham 1942-yil yillik rejani o‘tgan yilga qaraganda 33,7% ga kam bajarishgan. Olingan ma’lumotlardan jamiyat qatlamining barcha qismi ishlab chiqarishga tortilganligini ko‘rish bilan birga ishlab chiqarish bir tekis bo‘lmaganligini ko‘rsatadi[13].

Urush davrida aholini zaruriy mahsulotlar bilan ta’minlashda 1942-yilda 1-yanvardan 6-yanvargacha O‘z SSSR Xalq Kommissarlar Soveti hamda Xorazm viloyat Ijroya Komitetining 1941-yil 26-dekabrdagi 36 – sonli qarorlariga asosan hayvonlarni xatlovdan o‘tkazish bo‘yicha yuqoridagi qaror asosida ish olib borilgan. Bundan asosiy maqsad urush davrida shahar aholisini go’sht va go’sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari bilan ta’minlashga qaratilgan. Shahar aholisida jami qoramollar soni 480 bosh ro‘yxatga olingan[14].

Artellar qoshida uning ichki imkoniyatlari hisobga olinib qo‘shimcha sexlar tashkil qilinganligining “Uchqun” arteli misolida davom qilidirish mumkin. 1942-yil 23-mart oyidagi Xiva shahridagi Ijroiya komitetining 7-sonli qaroriga asosan “Uchqun” arteli qoshida asalarichilikni tashkil qilish haqidagi qarori ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra, Asalarichilik sexini ochish uchun 20560 so‘mlik smeta ajratish belgilangan[15].

Sanoat korxonalarida sotsialistik musobaqalar urush tugagach ham davom qilgan. Jumladan, 1945-yilda paxta tozalash zavodi I-yarim yillikda ishlab chiqarish rejasini muddatidan oldin bajarganligi uchun O‘zK(b)P MK va O‘z Xalq Kommissarlar Sovetining To‘qimachilik sanoati xalq komissarligi bo‘yicha bo‘lgan ko‘chma bayrog‘i hamda pul mukofotini qo‘lga kiritgan [16].

O‘rganilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, urush davrida Xiva shahri sanoatining yetakchi hududi hamda ishlab chiqarishda mahalliy sanoatdan tog‘ri foydalangan shahar hisoblanadi. Xiva aholisi esa ishlab chiqarishning asosiy kuchi bo‘lishi bilan birga mashaqqatli davrda qiyinchiliklarga qaramasdan menhati, kuchi, bilim va salohiyati evaziga qo‘lga kiritilgan g‘alabaning tirgaklari bo‘lishganligini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xiva ming gumbaz shahri. “Sharq”. – T. 1997. 43-bet.
2. Rahmonova Yu. Xiva shahri tarixi (an’analar va o‘zgarishlar, XVI-XX asr boshlaridan bosh). – T. 2019. “Akademnashr”. 31-bet.
3. Qurbonov Z., Safaev Q. Xiva-o‘tmishda, hozirda, kelgusida. - Xiva. 1998.15-bet.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi Xorazm viloyat bo‘limi (O‘zRPAA XVB). 6-fond, 1-ro‘yxat, 389-saqlov, 25-varaq.
5. O‘zRPAA XVB. 6-fond, 1-ro‘yxat, 485-saqlov, 2-varaq.
6. O‘zRPAA XVB. 6-fond, 1-ro‘yxat, 77-saqlov, 2-varaq.

7. O'zRPAA XVB. 237-fond, 1-ro'yxat, 15-saqlov, 172-varaq.
8. O'zRPAA XVB. 237-fond, 1-ro'yxat, 15-saqlov, 86-varaq.
9. O'zRPAA XVB. 237-fond, 1-ro'yxat, 15-saqlov, 160-varaq.
10. O'zRPAA XVB. 237-fond, 1-ro'yxat, 15-saqlov, 173-varaq.
11. O'zRPAA XVB. 237-fond, 1-ro'yxat, 15-saqlov, 204-varaq.
12. O'zRPAA XVB. 237-fond, 1-ro'yxat, 17-saqlov, 7-varaq.
13. O'zRPAA XVB. 237-fond, 1-ro'yxat, 17-saqlov, 36-varaq.
14. O'zRPAA XVB. 237-fond, 1-ro'yxat, 10-saqlov, 5,6-varaqlar.
15. O'zRPAA XVB. 237-fond, 1-ro'yxat, 10-saqlov, 29-varaq.
16. "Xorazm haqiqati".1945-yil, 3-avgust. №49 (4973) // 2-bet.

TARIX**BESHTA MUHIM TASHABBUS VA YOSHLAR MA'NAVIYATI****UO'K 391.27**

To'xtarov Ismatullo,
Farg'ona davlat texnika
universiteti dotsenti,
falsafa fanlari nomzodi

Annotatsiya: Maqolada respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusning yoshlarimiz hayoti va kelajagi uchun ahamiyati masalalariga e'tibor qaratish zaminida mamlakatimizning taraqqiyot strategiyasining istiqbolini yoritib berish muammolari tahlil etilgan.

Аннотация: В статье анализируются проблемы стратегии развития Республики Узбекистан на фоне рассмотрения вопросов значения для социальной жизни молодежи и их будущего пять инициатив, выдвинутых Президентом Республики Узбекистан.

Annotation: The article analyzes the issues related to the development strategy of the Republic of Uzbekistan in the context of the significance of five initiatives proposed by the President of the Republic of Uzbekistan for the social life of the youth and their future.

Kalit so'zlar: Besh tashabbus, ma'naviy islohotlar, yoshlar ma'naviyati, taraqqiyot strategiyasi, ma'naviy madaniyat, O'zbekiston istiqboli.

Ключевые слова: Пять инициатив, реформы в духовной жизни, духовность молодежи, стратегия развития, духовная культура, будущее Узбекистана.

Key words: Five initiatives, reforms in spiritual life, youth spirituality, development strategy, spiritual culture, future of Uzbekistan.

Bugungi kunda dunyo taraqqiyoti shiddat bilan sodir bo'layotgan bir paytda yoshlarning ma'naviy madaniyati va innovatsion g'oyalari g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda jamiyatimizning yangilanish jarayonida islohotlarimizni amalga oshirish maqsadida milliy g'oyadan oqilona foydalanishimiz, har bir yosh avlodning qalbida vatanparvarlik tuyg'usini kamol toptirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda yoshlarning siyosiy, huquqiy, ma'naviy ongini yuksaltirish va davlat boshqaruvidagi faolligini kuchaytirishga zarur shart-sharoitlar yaratish dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Bu jarayonda davlatlararo va millatlararo hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash o'ziga xos yo'llardan biri hisoblanadi. Chunki millatlar o'rtasida barqarorlikni ta'minlash, milliy

an'analarni rivojlantirish, mentalitetdagi o'zgarishlarni axloqiy ideallar bilan boyitish bugungi kunda davr talabiga aylangan.

Shuni ta'kidlash mumkinki, Yangi O'zbekiston yoshlari kundan-kunga yuksalib borayotgan mamlakatimizda Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusning ijodkorlari sifatida o'zligining barcha qirralarini namoyish eta boshladilar. Bu hol quyidagi jarayonlarda o'z ifodasini topmoqda:

- yoshlarimizning ma'naviy madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan qadriyatlarning o'rni va rolini ko'tarish, barcha sohalarda izchil va rejali tarzda teatr, rassomchilik va san'at yo'nalishlarida iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularning noyob qobiliyat va iste'dodlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur sharoitlarni yaratib berish;

- jahon yoshlari bilan sportning barcha turlari bo'yicha raqobatlasha oladigan barkamol avlodni kamol toptirish asosida ijtimoiy faol va harakatchan, chaqqon va epchil, sportning barcha turlarida o'zini namoyon qila oladigan, sinovlarga bardoshli, chidamli, mard va jasur farzandlarni tarbiyalab voyaga yetkazish;

- yoshlarimizning aqliy salohiyatini yuksaltirish uchun xizmat qiladigan zamonaviy kompyuter texnologiyalari sohasidagi bilim va ko'nikmalarini qaror toptirish va oshirishga doir munosabatlarni shakllantirish;

- jamiyatda xotin-qizlarimizning mavqeini yanada mustahkamlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga doir puxta o'ylangan izchil chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va uning sifatli ijrosini ta'minlash, ularning haq-huquqlarini himoya qilish, munosib ish joylari bilan to'liq ta'minlash, zamonaviy ta'lim olishi uchun zarur sharoitlar yaratib berish, jamiyat hayotidagi faolligini oshirish.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mazkur tashabbuslarni yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish, ularning ma'naviy madaniyat tizimidagi rolini ochib berish muhim ahamiyatga ega. Bu to'g'rida respublikamiz Prezidenti ham alohida ta'kidlaganidek, "O'g'il-qizlarimizni san'at dunyosiga oshno etish, yoshlarimiz jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari, zamon talabi bo'lgan kompyuter va IT texnologiyalar sohasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta'minlangan 100 mingdan ortiq bepul to'garak faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir" [1;228]. Shuning uchun yoshlar tarbiyasining bu muhim jihatlariga e'tibor qaratish, ma'naviy muhitni rivojlantirish, turli vaziyatlardagi vazifalarni bajarishda besh muhim tashabbusdan foydalanish ijobiy yutuqlarga erishishning garovidir.

“Besh muhim tashabbus” yurtimiz yoshlarini aniq maqsad sari yo‘naltirgan ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ulkan tizimga tayanadi. Zero, u jamiyat yoshlarining bir maqsad sari birlashishi, yangicha tafakkur tarzi, ham jismonan, ham ma’nan barkamollik sari undaydi. Respublikamizning barcha hududlarida yoshlar uchun yaratilgan shart-sharoitlarda ushbu tashabbusga tayanish o‘zining amaliy ahamiyatini namoyon etmoqda. Jumladan,

-jamiyatda mazkur **tashabbusning birinchisi** sifatida aks etgan musiqa, rassomchilik, adabiyot, san’at, teatr sohasidagi o‘zgarishlar tarix bilan bugungi kunni mazmun va shaklan bog‘lamoqda, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mazkur tashabbus doirasida adabiyot eng muhim sohalardan biri bo‘lib, yoshlar ongida o‘ziga xos badiiy-falsafiy tafakkurni shakllantirish va yuksaltirishga olib keldi. Adabiyot so‘z san’ati sifatida inson qalbida ezgulik, mehr-oqibat, insonparvarlik, komillik sari intilish tuyg‘ularini shakllantiradi. Vaholanki, adabiyot so‘zdan san’at darajasida foydalanadi, jurnalistika esa so‘zni avvalo, siyosat darajasida qo‘llaydi. Adabiyotdagi bunday ko‘rinish har bir yoshning qalbida farovonlik, kelajakka ishonch, ma’naviy barkamollik singari kayfiyatni namoyon qiladi. Shuning uchun bugungi kunda “adabiyot va san’at o‘z tabiatiga ko‘ra milliy mafkura va milliy g‘oya bilan uyg‘unlashgan holda o‘tmishimizga, milliy o‘zligimizga bo‘lgan hurmat, kelajakka nisbatan yuksak ishonch, insonparvarlik tuyg‘ularini kamol toptirishga xizmat qilmoqda” [2;136]. Natijada badiiy ijod, o‘z qobiliyatlari va imkoniyatlarini namoyon qilish yoshlarimizning kundalik hayotiy ehtiyojiga aylanib bormoqda, desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Barchamizga ma’lumki, san’atning har bir turi inson qalbidagi nozik tuyg‘ularni uyg‘otadi va, aytish mumkinki, o‘ziga xos tarzda larzaga soladi. Undan tomoshabin ilhom olib, xayolot dunyosiga cho‘mishi yoki sahnadagi ijrodan aktyorning mahoratiga qoyil qolishi bejiz emas, albatta. Shuning uchun ham san’at turlaridan bo‘lgan teatr birinchi tashabbus doirasida yoshlarni kamolot sari yetaklaydigan buyuk kuch, deyish mumkin.

Ta’kidlash joizki, “Quvnoqlar va zukkolar”, “Zakovat”, “Tafakkur sinovlari”, “San’at gulshani”, “Munozara” singari klublarning faoliyati “Besh muhim tashabbus” tufayli yangi bosqichga ko‘tarildi. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining “Talabalar teatr studiyalari” tashkil etilishi esa respublika miqyosida talaba-yoshlarning ijodkorligi va talantini topish va ro‘yobga chiqarishda muhim rol o‘ynamoqda. Umuman olganda, ushbu tashabbus doirasidagi islohotlarda millionlab yoshlarning qamrab olinishi ijtimoiy-madaniy islohotlar uchun Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda muhim qadam rolini o‘tamoqda.

-yoshlarning jismonan sogʻlom va baquvvat boʻlib yetishini koʻzda tutadigan sport sohasidagi **ikkinchi tashabbus** nafaqat yoshlarni, balki yetti yoshdan yetmish yoshgacha boʻlgan aholining barcha qatlamlarini oʻz ichiga qamrab oldi. Natijada respublikamizning barcha hududlarida yangidan-yangi zamonaviy sport inshootlari qurib ishga tushirildi. Ularda futbol, mini futbol, stol tennisi, kurash, qilichbozlik, voleybol, stol tennisi, katta tennis, shaxmat va shashka, yengil atletika, qoʻl toʻpi va boshqa sport turlariga keng imkoniyat va shart-sharoitlar davlatimiz tomonidan yaratib berildi. Umumiy oʻrta taʼlim tizimiga shaxmat darslari kiritildi. Bundan koʻzlangan asosiy maqsad yosh avlodni jismonan baquvvat, sogʻlom, yurtimizning jasur himoyachilari etib tarbiyalashdir. Ushbu tashabbus doirasida hozirda yurtimizda sportni rivojlantirishga doir koʻplab dasturlar ishlab chiqilgan. Bularning barchasi yoshlarimiz maʼnaviy madaniyatida ham maʼnan, ham ruhan, ham jismonan yetuk boʻlishini taʼminlash asnosida oʻzbek sportining jahonda oʻz oʻrniga ega boʻlishiga xizmat qiladi. Jahon shaxmat olimpiadasida zafar quchgan yosh shaxmatchilarimiz tashabbusning keng quloq yoyganligi oqibati boʻldi, deyish mumkin.

Qolaversa, bu tashabbus uzoq muddatli strategiyani oʻzida aks ettirgan boʻlib, bunda yoshlarning kelajakka qaratilgan maqsadli faoliyatlari ifodalangan. Yoshlarning boʻsh vaqtlari mazmunli oʻtishi bilan birga sport sohasida tajriba orttirishlari, jismonan chiniqishlari, sogʻlom turmush tarzi yordamida barkamol boʻlib voyaga yetishlari uchun mustahkam zamindir. Chunki sport, hech birimizga sir emaski, oʻziga xos maʼnaviy madaniyatga yetaklaydigan kuch boʻlib, yoshlarda sabr-toqat, matonat, mardlik, komillik, kamtarinlik singari fazilatlarni tarbiyalaydi.

Mazkur tashabbus doirasida yurtimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasi natijasida oʻzbek sportchilari olimpiada va paraolimpiada oʻyinlarida jahonshumul yutuqlarni qoʻlga kiritdilar. Bu natijalar oʻzbek sportchilarining mehnatlari samarasi boʻlib, kelajakda yangi marralarni egallashlari uchun keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Ayniqsa, futbolchilarimizning kelasi yili AQSh va Meksika stadionlarida boʻlib oʻtadigan jahon chempionatida ishtirok etish yoʻllanmasini qoʻlga kiritganligi sport vositasi yordamida Yangi Oʻzbekistonning xalqaro nufuzini yanada oshirish borasidagi davlatimiz siyosatining juda katta yutugʻi boʻldi.

-uchinchi tashabbusga koʻra, yurtimiz yoshlarining kompyuter texnologiyalariga qiziqishini kuchaytirish hamda internet xizmatlaridan samarali foydalanish borasida izchillik bilan islohotlarni yoʻlga qoʻyish mamlakatimizda

taraqqiyot strategiyasining muhim garovi deb qaralmoqda. Buning uchun yoshlarimizning zamonaviy axborot kommunikatsiyalaridan oqilona foydalanishning samarali mexanizmini shakllantirish va bu boradagi faoliyatini yanada kuchaytirish asosiy maqsad qilib olindi.

Ayni paytda yangi O'zbekistonni rivojlantirishda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishda yoshlarimizning turli axborot xurujlaridan himoyalash mexanizmlarini kuchaytirish zamon talabiga aylanganligini ham alohida ta'kidlash zarur. Bu muhim vazifani bajarishda ta'lim tizimining rolini oshirishga alohida e'tibor qaratish, ayniqsa, yoshlarda yetakchilik va tashabbuskorlik fazilatlarini va qobiliyatlarini shakllantirish lozim. Bunda ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan ma'lumotlarni tahlil qilish va voqeilikka mos axborotlar maydonida maqsadli faoliyat olib borish yoshlar faolligining asosiy mezoniga aylanishi kerak. Shu orqali yoshlarda ma'naviy tahdidlarga qarshi tura oladigan mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirish, jamiyatdagi voqea-hodisalarga nisbatan befarqlik kayfiyatini kamaytirish mumkin bo'ladi.

Yoshlarning ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda IT texnologiyalarining rolini ta'limning barcha bo'g'inlarida yosh avlod ongida muntazam ravishda singdirib borish, jamiyatda ta'sir qudratiga ega axborot maydonini yaratish, ta'sir kuchiga ega ma'naviy muhitni vujudga keltirish, yoshlar orasidan sohaga doir ijodkor va qiziquvchanlarini izlab topish muhim jarayon sanaladi. Bunda ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, zamonaviy innovatsion markazlarni ko'paytirish asosida ijtimoiy ongni rivojlantirish, ma'naviy shakllanishga xizmat qiladigan ijtimoiy institutlarning mavqeini oshirish lozim.

-bugun biz har bir o'sib kelayotgan yigit-qizning qalbida yoshligidanoq kitobga mehrni kuchaytirish, joylarda kitobxonlikni keng targ'ib qilishga doir faoliyatni yo'lga qo'yish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishlarida kitobning o'rnini ko'rsatib berish **to'rtinchi tashabbus**ning mazmun-mohiyatini tashkil qiladi. Mazkur tashabbus mamlakatimizda yoshlarda mutolaa madaniyatini takomillashtirish borasida kutubxona, kitobxonlik faoliyatini yanada faollashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan tizimli ishlarni takomillashtirish yordamida hududlarda yoshlarning kitob mutolaasiga nisbatan qiziqishlarini orttirib borish ishlarini tizimli yo'lga qo'yish asosida ularda ma'naviy tafakkurni tarbiyalash, mutolaa madaniyatini yuksaltirish, kitobxonlik saviyasini ko'tarish, ushbu fazilatlarni doimiy va muntazam ko'nikmaga aylantirish kabilarni nazarda tutadi. Ana shu maqsadda yurtimiz yoshlari uchun an'anaviy kitoblar bilan bir qatorda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish choralari kengaytirilmoqda. Buning uchun elektron adabiyotlar tizimini ko'paytirish, Internet imkoniyatlaridan foydalanishga e'tiborni kuchaytirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi.

Bugungi tobora ommalashib borayotgan axborot maydonida kitobxonlik omilining rolini oshirishga alohida tashabbus sifatida qaralishi mamlakatimizda taraqqiyot strategiyasining o'ziga xos yo'nalishi deb qaralmoqda.

-beshinchi tashabbus doirasida xotin-qizlarning haq-huquqlarini himoya qilish, zamonaviy ta'lim olishda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, qo'shimcha ish o'rinlari yaratgan holda ularning bandligini to'liq ta'minlash orqali doimiy ish o'rinlariga ega bo'lishlariga erishish ham strategik taraqqiyotning muhim tamoyillaridan birini tashkil qiladi.

Bir so'z bilan aytganda, bularning barchasi yoshlar va ularning ertangi turmushini farovonlashtirishga qaratilgan islohotlardir. Bu boradagi ishlarni yanada rivojlantirish Yangi O'zbekiston istiqboli va iqbolini ko'zlab amalga oshirilayotganligi har bir insonda ertangi kunga ishonch ruhini mustahkamlash uchun xizmat qiladi, albatta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. G'aybullayev O. Shaxs ma'naviy kamoloti va estetik madaniyat. – Toshkent: CHASHMA PRINT, 2008.

TARIX**GLOBAL EKOLOGIK KONVENSIYALAR VA XALQARO
EKOLOGIK MUNOSABATLARDA O‘ZBEKISTONNING ISHTIROKI**

**ISMOIL
NURMETOV,**
UrDU dotsenti, tarix
fanlari bo'yicha
falsafa doktori

UO‘K: 947 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik, ayniqsa, atrof-muhitni muhofaza qilish va suv resurslarini boshqarish masalalari tahlil qilingan.

Аннотация: В статье анализируется региональное сотрудничество Республики Узбекистан в Центральной Азии, особенно в сфере охраны окружающей среды и управления водными ресурсами.

Annotation: The article analyzes regional cooperation of the Republic of Uzbekistan in Central Asia, especially in the field of environmental protection and water resources management.

Kalit so‘zlar: DBRK, MOMEM, suv-energetika tizimi, BMT Taraqqiyot Dasturi, ekologik forum, Iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillik.

Ключевые слова: БДРК, МОМЕМ, водно-энергетическая система, ПРООН, экологический форум, изменение климата, биоразнообразие.

Key words: BDRK, MOMEM, water-energy system, UNDP, environmental forum, climate change, biodiversity.

Markaziy Osiyoning barqaror rivojlanishini mintaqaviy hamkorlikdan, ayniqsa, atrof-muhitni muhofaza qilish va suv resurslarini boshqarish masalalaridan holi tarzda amalga oshirib bo‘lmaydi. Yagona ekotizim va umumiy suv resurslari Markaziy Osiyo mamlakatlaridan kuch va hamkorlikni birlashtirishni talab qiladi. Mintaqa davlatlari global ekologik muammolarni hal qilish maqsadida, o‘zlarining xalqaro-siyosiy sa’y-harakatlariga ko‘ra, BMTning deyarli barcha ekologik konvensiyalariga qo‘shilgan[1].

So ‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan mintaqadagi barcha mamlakatlarga turli darajadagi tashriflar amalga oshirildi. Chunki O‘zbekistonning qo‘shni davlatlar bilan 2016-yilga qadar shakllangan barcha masalalardagi munosabatlarini qayta ko‘rib chiqish taqozo qilinardi. Zero, suv resurslari, transport kommunikatsiyalaridan foydalanish, atrof-muhitni transchegaraviy ifloslanishlardan himoya qilish, chegaralar delimitatsiyasi va boshqa masalalarda murosaning yo‘qligi yillar davomida kelishmovchiliklarga sabab bo‘lgan edi[2]. Shu sababli zamonaviy muloqotlarda Markaziy Osiyo

davlatlarini qiziqtiradigan xavfsizlik, iqtisodiyot, investitsiya, turizm, madaniyat, sog‘liqni saqlash va ekologiya sohalarida mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga ega qo‘shma qarorlar qabul qilindi[3]. Mintaqada suv-energetika bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda siljishlar kuzatildi. O‘zbekiston Qambar-Ota va Rog‘un GESi qurilishi loyihalarida ishtirok etish imkoniyatini ko‘rib chiqishga tayyorligini bildirdi[4].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Markaziy Osiyo geosiyosatining ayrim jihatlari, mintqa davlatlarining zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimini shakllantirishdagi ishtiroki, xalqaro shartnomalardagi majburiyatlarining bajarilishiga oid masalalar ko‘rib chiqilgan hamda huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bilan bog‘liq muammolar tahlil qilingan. Jumladan, huquqshunoslar, siyosatshunoslar va iqtisodchi olimlardan N.Qosimova, S.Safojev, R.Alimov, F.Tolipov, Sh.Arifxanov va boshqa mualliflarning tomonidan yaratilgan ayrim asarlar yuqoridagi masalalarni tadqiq etishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil usullari qo‘llanildi. Bugungi kunda dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari natijasida paydo bo‘layotgan global, mintaqaviy va milliy ekologik xavflardan davlatni, jamiyatni va har bir fuqaroni himoya qilishga yo‘naltirilgan O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati bevosita xalqaro hamkorlik masalalariga yo‘naltirilgan. Zero, suv resurslari, daryolardan foydalanish, atrof-muhitni ifloslanishlardan himoya qilish, chegaralar delimitatsiyasi va boshqa masalalarda murosaning yo‘qligi yillar davomida kelishmovchiliklarga sabab bo‘lgan edi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Davlatlararo barqaror rivojlanish bo‘yicha komissiya (DBRK) “Orol dengizi va Orolbo‘yi mintaqasidagi muammoni hal qilish, ekologik reabilitatsiya va Orol mintaqasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shma harakatlar tog‘risida bitim”ga muvofiq 1994-yil 19-iyulda tashkil etildi[5]. Komissiyaning asosiy maqsadi Orol mintaqasini sog‘lomlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, u erda yashovchi aholini ijtimoiy himoya qilish, ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, Markaziy Osiyo davlatlarining ekologik hamkorligi bo‘yicha takliflarni ishlab chiqishdan iborat bo‘ldi.

Belgilangan tartibga muvofiq Komissiya tarkibi 15 nafar a‘zodan iborat bo‘lib, Markaziy Osiyoning har bir davlatidan 3 nafar (atrof-muhitni muhofaza qilish vaziri, iqtisodiyot vaziri o‘rinbosari, ilm-fan sohasi vakili) vakil tayinlanadi.

DBRKga raislik 2 yil davomida rotatsiya shaklida atrof-muhitni muhofaza qilish vazirlari tomonidan amalga oshiriladi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish sohasida mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha DBRKning asosiy faoliyati 2001-yil 12-aprelda tasdiqlangan Markaziy Osiyoda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha mintaqaviy harakatlar rejasi (RPDOOS SA)ni amalga oshirilishida aks etdi[6]. Unga asosan, atmosfera va suvning ifloslanishi, suv resurslari tanqisligini kamaytirish, yerlar va tog' ekotizimlari degradatsiyasi, chiqindilarni boshqarish, atrof-muhit muhofazasida jamoatchilik ishtirokini kuchaytirishga yo'naltirilgan qisqa (2002-2007-yy.) va uzoq (2002-2012-yy.) muddatli harakatlar amalga oshirildi[7]. Ushbu sa'y-harakatlar 2012-yilda yakunlandi.

Ta'kidlash joizki, RPDOOSning yakuniy natijasi salmoqli bo'lib, ushbu mintaqaviy reja Orol dengizi muammolarini hal qilishdan butun Markaziy Osiyo mintaqasining atrof-muhitini muhofaza qilish sohasidagi hamkorlikka o'tish imkonini berdi.

2030-yilgacha bo'lgan davrda RPDOOSning yangi versiyasini ishlab chiqish zarurati tug'ilgach, 2016-2018-yillarda OQXJ IQ DBRKning yig'ilishlari, vazirlar konferensiyasi, davra suhbatlari doirasida 4 marta muhokama bo'lib o'tdi[8]. 2018-yil 24-avgust kuni Turkmanboshi shahrida bo'lib o'tgan OQXJ ta'sischi davlatlar rahbarlari kengashining majlisida Barqaror rivojlanish uchun atrof-muhit bo'yicha Mintaqaviy dasturi loyihasi, DBRKning Maslahat kengashini tashkil etish masalalari ko'rib chiqildi. Shuningdek, DBRKga raislik qilish vakolati Turkmanistondan O'zbekiston Respublikasiga berildi.

2019-yil oktyabr oyida Nukus shahrida DBRKning yillik sessiyasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Evropa iqtisodiyoti komissiyasi hamda Davlatlararo barqaror rivojlanish komissiyasi o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumini imzolash marosimi bo'ldi. Ushbu hujjat Markaziy Osiyoda atrof-muhit bilan bog'liq barqaror rivojlanish maqsadlari, atrof-muhitni boshqarishni kuchaytirish, yashil iqtisodiyot va resurslardan foydalanish samaradorligi, iqlim o'zgarishiga moslashish, bioxilma-xillik va ekotizimlarni boshqarish, suv sifati va chiqindilarni boshqarish, mintaqaviy va milliy ahamiyatga molik boshqa ustuvor yo'nalishlar bo'yicha taraqqiyotga erishishga qaratilgan[9].

Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markazi (MOMEM) atrof-muhit va barqaror rivojlanish sohasidagi yetakchi mintaqaviy bilim markazi bo'lib, milliy, mintaqaviy va xalqaro hamkorlar tomonidan tan olingan. Ushbu tashkilot 2001-yilda Markaziy Osiyoning besh mamlakati hukumatlari[10], shuningdek, Evropa Ittifoqi va BMT Taraqqiyot Dasturi tomonidan 1998-yilda Daniyaning Arxus

shahrida bo‘lib o‘tgan 4-Evropa konferensiyasining qaroriga binoan tashkil etilgan[11].

Markaziy Osiyo mintaqasida ekologik hamkorlik va barqaror rivojlanishni ilgari surgan holda MOMEM mintaqaviy tashkilotga aylangan. 2008-yilgacha MOMEM o‘z faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri maqsadli grantlarni olib keldi. Bu borada Evropa Ittifoqi va boshqa xalqaro tashkilotlar MOMEMni atrof-muhit sohasidagi hamkorlikning mintaqaviy platformasi sifatida rivojlantirishni qo‘llab-quvvatladilar. Davlat organlari, nodavlat tashkilotlari va xalqaro agentliklar MOMEMni professional va ishonchli sherik sifatida ko‘radilar.

2013-yilga kelib tashkilot uchun eng muhim masalalardan biri bu loyihaviy tashkilotdan mintaqaviy tashkilot formatiga o‘tish bo‘ldi. Mintaqaviy hamkorlik platformasiga ega tashkilotga aylanish nafaqat aniq loyihaviy buyurtmalarni bajarish, balki mintaqaning rivojlanishiga ham hissa qo‘shish imkoniyatini berdi. 2013-yildan 2018-yilgacha MOMEM atrof-muhit masalalari bo‘yicha hamkorlikni kengaytirish maqsadida bir qator dialog maydonlarini yaratdi. Markaziy Osiyo xalqaro ekologik forumi, Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Markaziy Osiyo konferensiyasi, Parlament a‘zolari va Tashqi ishlar vazirligi vakillarining uchrashuvlari shular jumlasidandir. Shuni ham ta’kidlash kerakki, MOMEM o‘z faoliyati doirasida yakka tartibdagi muayyan loyihalarni amalga oshirishdan keng miqyosli tizimli loyihalarni bajarishga o‘tdi.

2014-yildan 2019-yilgacha bo‘lgan davrda MOMEM Orxus konvensiyasi, “Nodavlat tashkilotlar bilan ishlash konsepsiyasi”ni amalga oshirish doirasida qator loyihalarga e’tibor qaratdi. 2019-yil oxiri – 2020-yil boshida MOMEM yangi “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan Markaziy Osiyodagi fuqarolik jamiyatlari tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlik konsepsiyasini” ishlab chiqishni boshladi.

Hozirgi kunga qadar MOMEM mintaqa mamlakatlarida Orxus konvensiyasini amalga oshirishda quyidagi yo‘nalishlar orqali o‘z hissasini qo‘shmoqda:

- har yili o‘tkaziladigan mintaqaviy konferensiyalar va forumlar orqali;
- iqlim o‘zgarishi bo‘yicha, xususan, iqlim to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish, muammo va yechimlar, moliyalashtirish masalalarini ko‘tarish;
- suv sifati bo‘yicha ma’lumotlarga ega bo‘lish, ular almashishini ko‘zda tutuvchi suv resurslarini boshqarish bo‘yicha;
- turli ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoniyati masalalari ustuvor bo‘lgan turli xil ekologik konvensiyalar majburiyatlarini bajarish;

- atrof-muhit va barqaror rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlashga yo'naltirilgan iqtisodiyotni ekologiyalashtirish;
- yirik loyihalar doirasida tajribaviy loyihalarini hamkorlikda amalga oshirish orqali;
- Markaziy Osiyodagi fuqarolik jamiyati institutlari vakillarini milliy va mintaqaviy tadbirlarga ma'ruzachi, moderator va vositachi sifatida taklif qilish[12].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). So'nggi yillarda MOMEM 4 ta yirik loyihani amalga oshirmoqda: "Markaziy Osiyodagi suv, ta'lim va hamkorlik", Mercedes, Markaziy Osiyodagi Nexus dialoglari, UzWaterAware. Bundan tashqari, o'tgan davrda Evropa Ittifoqining Markaziy Osiyoda suv yuzasidan hamkorlik borasida WECOOP loyihasi amalga oshirildi.

Markaziy Osiyoda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirishda MOMEMning sa'y-harakatlarini alohida ta'kidlash lozim. Markaziy Osiyo mamlakatlari hukumatlari Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markazi xalqaro ekologik jarayonlarda ishtirok etish, iqlim o'zgarishi va biologik xilma-xillikni saqlash sohasida xalqaro moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish va atrof-muhitni boshqarishning OQXJ va DBRK Ijroiya qo'mitasi sifatidagi mintaqaviy modellarini ilgari surishda yordam beradigan noyob platforma sifatida ko'rishadi.

2017-2021-yillarda Yangi O'zbekistonning olib borayotgan pragmatik siyosati, mintaqaviy siyosiy jarayonlardagi yangicha muhit tufayli MOMEMning ham roli oshdi. MOMEM xalqaro sheriklar, donor mamlakatlar, davlat idoralari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va Markaziy Osiyoda fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda ko'plab muhim tadbirlarni tashkil etish hamda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Сулайманова Г. Сотрудничество стран Центральной Азии по экологическим вопросам // www.ecogofond.kz
2. "Марказий Осиёдаги келишмовчиликнинг асосий сабаби муросанинг йўқлиги эди". 14.07.2020 й. // www.gazeta.uz
3. Замонавий дунёда Ўзбекистон ташқи сиёсатининг кун тартиби // Янги Ўзбекистон, 2020 йил, 27 август.
4. Қодиров А. Янгиланаётган Ўзбекистон ташқи сиёсатининг энг муҳим устувор йўналишлари // "Халқ сўзи", 2020 йил, 9 август.
5. МФСА: Путь к региональному сотрудничеству. – Душанбе, 2003. – С.29.

6. Региональный план действий по охране окружающей среды Центральной Азии от 12 апреля 2001 г. // www.cawater-info.net/library/rus/reg_plan_ca.pdf

7. Талдыкбаев Б., Бузруков Ж. Информационное обеспечение деятельности МКУР МФСА: современное состояние и перспективы усиления потенциала // www.unecce.org

8. Мамедов Б. Региональная программа по охране окружающей среды для устойчивого развития Центральной Азии (Презентация секретариата МКУР) 02.03.2021 // www.eecca-water.net

9. UNECE and Interstate Commission on Sustainable Development strengthen cooperation for environmental protection in Central Asia Environment Sustainable Development. 23.10.2019 // www.unece.org

10. ЎзМА, М-37-фонд, 1-рўйхат, 6916-йиғма жилд, 45-варақ.

11. Содействие водно-энергетической и продовольственной безопасности в Центральной Азии. Бюллетень Нексус № 1. РЕЦЦА, 2019. – С. 3.

12. ЎзМА, М-37-фонд, 1-рўйхат, 6916-йиғма жилд, 46-варақ.

TARIX**ROSSIYA IMPERIYASI HUKMRONLIGI DAVRIDA TURKISTONDA
MILLIY MAORIF SOHASIDAGI JARAYONLAR**

Alimova Nadira,
Qo'qon universiteti
Andijon filiali
"Tarix va ijtimoiy
fanlar" kafedrası
dotsenti, Tarix
fanlari nomzodi



**Sotvoldiyev
Muhammadyusuf,**
Qo'qon universiteti
Andijon filiali
"Stomatologiya"
yo'nalishi talabasi

UO'K: 9 (575.1)

Annotatsiya: Maqolada Rossiya imperiyasining Turkistonda milliy maorif sohasida amalga oshirgan siyosati arxiv manbalari va ilmiy adabiyotlar yordamida tahlil qilingan.

Аннотация: В статье на основе архивных источников и научной литературы анализируется политика, проводимая Российской империей в области национального образования в Туркестане.

Annotation: The article analyzes the policy pursued by the Russian Empire in the field of national education in Turkestan based on archival sources and scientific literature.

Kalit so'zlar: Rossiya imperiyasi, Turkiston, milliy maorif, diniy ta'lim, madrasa, maktab.

Ключевые слова: Российская империя, Туркестан, национальное образование, религиозное образование, медресе, школа.

Key words: Russian Empire, Turkestan, national education, religious education, madrasah, school.

Ma'lumki, o'zbek xalqi Rossiya bosqiniga qadar boy ma'naviy merosga, shu jumladan, o'ziga xos ta'lim tizimiga ega bo'lib, bu hududda ko'p sonli maktablar va madrasalar mavjud edi. Rossiya imperiyasi hukumati O'rta Osiyoni bosib olgandan keyin o'lkamiz hududida mustamlakachilik, ruslashtirish siyosatini olib bordi, milliy madaniyatni, ma'naviy qadriyatlarni, an'anaviy

maktab, madrasalar faoliyatini chekladi. Turkistondagi chor ma'murlari madrasalarni vaqf mulklaridan mahrum qildilar, tarixiy yodgorlik hisoblangan hashamatli binolarini qarovsiz qoldirib, vayron bo'lishiga sababchi bo'ldilar.

Mustamlakachilarning ko'pgina milliy maktab, madrasalarni yopib qo'yishlari, qolganlarini faqat diniy o'quv yurtlariga aylantirib, dunyoviy fanlarni o'qitilishiga qarshilik ko'rsatishlarining zamirida o'zbek xalqini o'z tarixi va madaniyatidan uzoqlashtirishdan, vatanparvarlik tuyg'ularini yo'q qilishdan iborat bo'lgan maqsad yotar edi. Lekin ular o'z maqsadlariga to'la erisha olmadilar. Mamlakatimiz qaramlik zulmi ostida qolgan bo'lsa-da, xalq o'zligini yo'qotmadi, o'zining ma'naviy merosini avaylab-asrab qoldi.

Rossiya imperiyasi hukumati milliy madaniyatni cheklash, mahalliy aholini ruslashtirish maqsadini izchil ravishda oshira borib, Turkistonda ruscha umumta'lim, o'rta maxsus o'quv yurtlari va rus-tuzem maktablarini ochdi. Bu o'quv yurtlariga ruslar bilan birga qisman mahalliy xalq vakillari ham qabul qilingan. Bundan ko'zlangan maqsad ularni Rossiya davlatiga mehr qo'yib xizmat qiladigan kadrlar qilib tayyorlash edi. 1896-yilda faqat Toshkent shahrining erkak va xotin-qizlar gimnaziylaridagi barcha o'g'il bolalarning 3 foizini, qizlarning 2,6 foizini mahalliy aholining bolalari tashkil qilgan. Toshkent o'qituvchilar seminariyasini 1879–1904-yillarda 415 nafar kishi bitirgan bo'lsa, ulardan 65 nafari mahalliy xalq vakillari edi [4. B. 68–70]. 1884 yilda Toshkentda birinchi rus-tuzem maktabi ochilgan [8. B. 13] bo'lsa, XIX asr oxiriga kelib, Turkiston o'lkasida ularning soni yuzdan ortib ketdi. Turkistonda mustamlakachilik davrida bu maktablarda bir necha ming mahalliy aholining farzandlari ta'lim oldilar. Shunisi diqqatga sazovorki, chor ma'muriyatining ularni Rossiya imperiyasining sodiq fuqarolari qilib tarbiyalashdan iborat maqsadiga xilof ravishda ushbu maktablarning bitiruvchilari orasidan Mustaf o Cho'qaev, Turar Risqulov, Ubaydulla Asadullaxo'jayev kabi xalq yetakchilari, mustaqillik uchun kurashchilar yetishib chiqdi.

O'lkada ruscha o'quv yurtlarining vujudga kelishi, mahalliy aholi vakillarining ruscha xat-savodini chiqarishda, rus tilini va rus xalqi madaniyatini o'zlashtirishda va Turkiston xalqlarining madaniy hayotini o'sishida muhim rol o'ynadi. Manbalar shundan guvohlik beradiki, Turkiston o'lkasida ma'rifat, maorif, aholi savodxonligini oshirish ishlari birmuncha yo'lga qo'yilgan edi. XIX asr oxirida Turkiston o'lkasida 313 ta madrasa, Buxoroda – 103 ta, Xivada – 8 ta madrasa bo'lgan. 1913 yilda Turkistonda 7 290 ta eski maktab mavjud bo'lib, ularda 70 ming 864 o'quvchi ta'lim olgan [6. B. 213]. Maxsus ayollar maktablari mavjud bo'lgan.

XX asr boshlarida Fargʻona viloyatida 33 ming nafar qizlar, Toshkentda 6 ming 200 nafar qizlar oʻqigan [7. B. 19]. Bu bilim markazlari mahalliy aholining savodxonligi, madaniyati va maʼrifatiga ijobiy taʼsir koʻrsatganligini chor hukumati maʼmurlari xam tan olishga majbur boʻlishgan. Turkiston general-gubernatori Mishchenko 1909-yil 14-martda Xalq maorifi vaziriga yozgan maxfiy maktubida shunday degan: “Turkiston oʻlkasi mahalliy aholisi orasida xat-savodni tarqatish masalasi, ayniqsa, Sirdaryo, Fargʻona va Samarqand oblastlarida, Rossiyaning Gʻarbiy Evropa qismi aholisiga nisbatan yaxshi uyushtirilgan. Oʻlkaning butun keng hududini koʻpdan-koʻp boshlangʻich oʻquv yurtlari – maktablar, oʻrta va oliy oʻquv yurtlari – madrasalar qoplab olgan. Maktablar maxsus qurilgan binolardan tashqari masjidlarda, hattoki, ulkan chinor va qayragʻochlarning kovaklarida joylashgan. Bu holatda ming yillar davomida madaniy hayot kechirgan xalqning qadimiy madaniyatining taʼsiri koʻrinib turibdi” [9. B. 162]. Yuqorida keltirilgan faktlar Turkiston oʻlkasida, oʻzbek xonliklarida milliy maorif yuksak darajada rivojlanganligidan, mahalliy xalq savodli boʻlganligidan guvohlik beradi. Chor hukumati Oʻrta Osiyoning asosiy qismini bosib olib, 1867-yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil qilingandan keyin oʻlkada mustamlakachilik siyosatini amalga oshirib, milliy maorifga, erli aholining savodxonligining, maʼnaviyatining oʻsishiga katta zarar etkazdi. Chor maʼmurlari madrasalarga nisbatan dastlab ularni inkor etish siyosatini amalga oshirdi. Turkiston general-gubernatori K.P. Kaufman imperatorga yozgan bir hisobotida “Diniy, shu bilan birga, siyosiy hisoblangan musulmon maktabini rus hokimiyati qoʻllab-quvvatlashi, yordam qilishi mumkin emas edi. Shu ham aniq ediki, uni toʻgʻridan-toʻgʻri tugatish bizga nisbatan qarshilikni keskinlashtirishga olib kelardi. Shuning uchun musulmon maktablariga nisbatan, umuman, musulmonchilikka nisbatan qoʻllanilgan usulni, yaʼni ularni inkor etish, tan olmaslik usulini qoʻllash qolgan edi, xolos” deb yozadi [3. B. 437–438].

General-gubernatorning maqsadi madrasa, maktablarni nazoratsiz qoldirib, ularning faoliyatini susaytirish, mol-mulkini, daromadini talontaroj qildirish edi. Lekin diniy oʻquv yurtlariga mahalliy aholining eʼtibori kuchli boʻlganligi tufayli maktab va madrasalar oʻz faoliyatini davom ettirdilar va chor hukumati koʻzlagan maqsadiga toʻla erisha olmadi.

K.P. Kaufman qoʻllagan usul natija bermaganini koʻrgan Turkistonning yangi general-gubernatori, general N.O.Rozenbax (1884–1889-yillarda gubernatorlik qilgan) milliy maorifni qatʼiy cheklashga qaratilgan siyosat olib bordi va Rossiya hukumatiga milliy maktablarning faoliyatini cheklashga oid takliflar bilan murojaat qildi. Ularda maktab va madrasalarning kuzatib turilishi, ularning hukumat nazorati ostiga olinishi va xukumatga boʻysundirilishi koʻzda

tutilgan bo'lib, Rossiya hukumatiga bunday takliflar ma'qul edi. Rossiya imperatorining 1875-yil 17-mayda imzolagan qarorida Turkiston o'lkasida o'quv yurtlari boshqarmasi tashkil qilinib, unga rus o'quv yurtlaridan tashqari barcha tipdagi maktablarni, shu jumladan, milliy maktablarni ham boshqarish topshirilgan edi [2. B. 67].

Musulmon maktablari ustidan nazoratni kuchaytirish, ular faoliyatini susaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida N.O. Rozenbax 1887-yil may oyida Maorif vazirligiga maxsus ma'ruza bilan murojaat qilib, Turkiston o'lkasi o'quv yurtlari boshqarmasida alohida musulmon maktablari inspektori lavozimi tashkil qilishni va bu maktablar ustidan nazoratni kuchaytirishni so'radi. Bu masala ancha vaqt markazdagi har xil idoralarda muhokama qilinib, nihoyat, 1890-yilda shunday lavozim tashkil qilishga ruxsat berilgan. Bu boshqarma tomonidan musulmon maktablari huquqlarini cheklashga qaratilgan bir necha ko'rsatmalar ishlab chiqildi va 1889–1898-yillarda Turkiston general-gubernatori bo'lgan mahalliy xalqlarga nisbatan o'ta dushmanlik kayfiyatidagi general A.B. Vrevskiy tomonidan tasdiqlandi. 1894 yil 14 martda tasdiqlangan “Turkiston o'lkasi musulmon maktablarini boshqaruvchi xalq o'quv yurtlari uchinchi inspektoriga yo'riqnoma”da [12. B. 160–162] o'lkadagi o'troq va ko'chmanchi aholining barcha musulmon madrasa va maktablari shu inspektor qaramog'ida bo'ladi, deb ko'rsatiladi. Bu lavozim Turkiston o'lkasi o'quv yurtlari boshqarmasidagi ikkita inspektor lavozimidan keyingisi bo'lgani uchun 3-inspektor deb nomlangan. Ilgari xonlik davrida musulmon diniy mahkamalari qaramog'ida bo'lgan madrasa, maktablar endi rus ma'muriyati nazoratida bo'lib qoldi. Bu, albatta, yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarni, ya'ni milliy maktablar huquqlarining cheklanishini nazarda tutib qilingan ish edi. 3-inspektor yo'riqnomasida ularning huquqlarining cheklanishiga qaratilgan qoidalar bayon etilgan.

Yo'riqnomaga ko'ra, barcha maktablar o'qituvchilarining boshlig'i deb hisoblanuvchi mazkur inspektorning ish joyi Toshkent shahrida bo'lib, uning zimmasiga musulmon maktablarini imkoni boricha tez-tez tekshirib turish, madrasalar qoshida rus tili kurslarini ochish uchun zarur mablag'lar topish chora-tadbirlarini ko'rish yuklatilgan edi. Madrasalarga ma'lum bilimga, ma'lumotga ega bo'lgan mudarrislar 3-inspektorning tavsiyasi bilan tayinlanishi belgilab qo'yildi. Yo'riqnomada inspektorga madrasadagi darslar hajmi va mazmunini, mudarrislar darslarining xarakteri, yo'nalishi va ruhini nazorat qilish vazifasi yuklatildi. Buning uchun inspektor, birinchidan, shaxsan o'zi o'quv yurtlarini tekshirishi va, ikkinchidan, madrasa mudiridan har oyda o'quv ishlarining ahvoli haqida axborot olib turishi hamda madrasa mudirlari inspektorga yillik hisobot

xam topshirishlari zarurligi ko'rsatilgan. Inspektorga, shuningdek, vaqf mulkidan tushadigan daromad qanday sarflanayotganligini nazorat qilish, mutavalli faoliyatida biror kamchilik aniqlangan taqdirda, bu haqda Bosh inspektorga xabar berish vazifasi yuklatilgan. Biron – bir madrasada uch yil davomida mashg'ulotlar olib borilmaganligi aniqlansa, inspektor bu madrasani yopish to'g'risida yuqori idoralarga murojaat qilishi shart, deb ko'rsatilgan.

1894-yilda Turkiston general-gubernatori madrasalarning katta mudarrisleri uchun yo'riqnomani tasdiqladi. Bu yo'riqnoma madrasalarning chor ma'murlariga tobeligi, qaramligini yanada kuchaytirdi [5. B. 30]. Yo'riqnomada yozilishicha, kichik mudarrislar, mutavalli va mullalar o'z madrasasi katta mudarrisining barcha qonuniy talablarini bajarishlari shart edi. Shu bilan birga, katta mudarris 3-inspektorning va boshqa boshliqlarning barcha qonuniy talablarini bajarishi lozim deb uqtirildi [11. B. 18–19]. Ko'rinib turibdiki, rasman madrasaga katta mudarris boshliq, amalda esa madrasaning rahbarligi rus ma'murlari qo'lida edi. Katta mudarrisga madrasada sodir bo'lgan voqealar, mojarolar, o'lim, yong'in va shunga o'xshash hodisalar yuz berganda inspektor va uezd boshlig'iga shoshilinch xabar berish, xar yili dekabr oyining boshida madrasa xodimlari va talabalarning to'liq ro'yxatini tuzish va unda madrasa mutavallisining, mudarrislarining va talabalarning qaysi darajada (a'lo-katta, avsat-o'rta, adno-kichik) va necha yildan beri shu darajada ekanligini ko'rsatish va inspektorga topshirish, vaqf mulkidan olingan daromad haqida mutavallidan kerakli malumotlarni talab qilish, har yili fevral oyining boshida vaqf mulkidan tushgan daromad, uning qancha qismi sarflanganligi va vaqf mulkida sodir bo'lgan o'zgarishlar haqida inspektorga axborot berish, madrasani toza, pokiza tutish, o'z vaqtida ta'mirlanishini nazorat qilib turish vazifalari yuklatilgan edi [10. V. 28].

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, maktab madrasalarni cheklash siyosati tufayli ularning soni kamaydi, mudarris va mullalar miqdori ozaydi, darslarning sifati pasaydi. Bu holat yoshlar orasida ta'lim-tarbiyani olib borishga, umuminsoniy, milliy qadriyatlarni keng singdirishga katta zarar yetkazdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865–1924 гг.). – Москва: Акад. пед. наук РСФСР, 1960. – С. 67.
2. Кауфман К.П. Проект всеподданнейшего отчёта генерал-адъютанта К.П. Кауфмана по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства. 7.XI. 1867. – 25.III. 1881. – С. Петербург: Б.И., 1885. – С. 437–438.
3. Кары-Ниязов Т.Н. Избр. труды. В 8 томах. – Ташкент: Фан, 1967. – Т. 5. – Б. 68–70.
4. Муминов И. Из истории развития общественно-философской мысли в Узбекистана. Конец XIX и начало XX вв. – Тошкент: Узгосиздат, 1957. – С. 30.
5. Остроумов Н.П. Исламоведение. Введение в курс исламоведения. – Ташкент: 1914. – С. 213.
6. Расулов Б.М. Из истории мусульманских мактабов и медресе Узбекистана. Конец XIX – 20-е годы XX в.: Автореф. дис. ... канд. истор. наук. – Андижан, 1996. С. 19
7. Худайкулов А.М. Просветительская деятельность джадидов Туркестана (конец XIX – начало XX в.): Автореф. дис. ... канд. истор. наук. – Ташкент, 1995. Б. 13
8. O‘zbekiston milliy arxivi (bundan keyin – O‘zMA), 1-f., 31-r., 540-ish, 162-v.
9. O‘z MA, 1-f., 12-r., 630-ish, 28-v.

TARIX**TURKISTONDA PAXTA YAKKAHOKIMLIGINING O'RNATILISHI**

Erkayev Ergashali,
Andijon davlat
universiteti
O'zbekiston tarixi
kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari
nomzodi

UO'K: 9 (575.1)

Annotatsiya: Turkistonda sovet hokimiyati o'rnatilgan dastlabki yillardanoq asosiy e'tibor RSFSR manfaatlariga moslangan iqtisodiyotni shakllantirish va Markaz sanoatini xom ashyo bilan ta'minlash, ayniqsa paxtaga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilganligi va o'lkada paxta yakkahokimligini qaror topshirilishi masalalari tahlil qilingan.

Аннотация: С первых лет установления Советской власти в Туркестане основное внимание уделялось формированию экономики, приспособленной к интересам РСФСР, и обеспечению сырьем центральной промышленности, особенно для удовлетворения ее потребностей в хлопке, анализировались вопросы установления в стране хлопковой монополии.

Annotation: From the first years of the establishment of Soviet power in Turkestan, the main attention was paid to the formation of an economy adapted to the interests of the RSFSR and the provision of raw materials to the Central Industry, especially to meet its needs for cotton, and the issues of establishing a cotton monopoly in the country were analyzed.

Kalit so'zlar: Turkiston, sovet hokimiyati, paxta yakkahokimligi, yengil sanoat, paxta mustaqilligi.

Ключевые слова: Туркестан, Советская власть, хлопковая монополия, легкая промышленность, хлопковая независимость.

Key words: Turkestan, Soviet power, cotton monopoly, light industry, cotton independence.

Turkistonda sovet hokimiyati o'rnatilgan dastlabki yillardanoq asosiy e'tibor RSFSR manfaatlariga moslangan iqtisodni shakllantirish va Markaz sanoatini xom ashyo bilan ta'minlash, ayniqsa paxtaga bo'lgan ehtiyojini qondirish masalasiga qaratildi. O'lkada paxta yakkahokimligini qaror toptirish va shu orqali butun mamlakatning yengil sanoat tarmoqlarini paxta tolasi bilan ta'minlash ishlari bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirila boshlandi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa, butun SSSRning paxta mustaqilligini, ya'ni bu masalada tashqi mamlakatlarga "qaram" bo'lib qolmasligini ta'minlashdan iborat bo'ldi.

RSFSR hukumati eng birinchi o'rinda amalga oshirilgan ish – paxtachilik tarmog'ini o'z qo'liga olish uchun RSFSR Oliy xalq xo'jaligi kengashiga (OXXK) yukladi. OXXK birinchi navbatda paxta davlat monopoliyasi ekanligini barchaga ma'lum qilish zarur deb hisobladi. 1918-yil 12-yanvarda RSFSR OXXK “Paxtachilik ishlarini monopoliyaga aylantirish to'g'risi”da qaror qabul qildi [1.79]. Shu qarorga asosan 1918 yil 26 fevralda Turkiston XKS raisi F. Kolesov o'lkadagi mavjud barcha paxta tolasi va paxta xom ashyosini sotish va sotib olish ustidan davlat nazoratini o'rnatish haqida dekret imzolandi [2.2]. Shu davrdan boshlab, paxtachilik o'lka qishloq xo'jaligining, umuman olganda xalq xo'jaligining ham bosh tarmog'iga aylandi. “Paxtachilik ishlarini monopoliyaga aylantirish to'g'risida “gi qarorga asosan:

3. Banklarda mavjud bo'lgan paxtaning nakladnoyi (paxta toyi yoki og'irligi to'g'risidagi hujjat) larga bo'lgan huquq davlat ixtiyoriga o'tkaziladi va omborlardagi, temir yo'l, pristan (KEMALAR TO'XTASH JOYLARI) va boshqa joylardagi paxta xomashyolarni tarqatish “Bosh paxta qo'mitasi” tashkiloti ixtiyoriga beriladi.

5. Ko'rsatilgan yuk xati bilan “Bosh paxta qo'mitasi” olgan barcha paxta davlat mulki deb hisoblanadi va uni “Bosh paxta qo'mitasi” fabrikalarga naqd pulga yoki shu paxtadan tayyorlanadigan gazmol hisobiga qarzga sotadi. Qarzga berilgan fabrika idoralariga maxsus vakil kiritiladi

6. Davlat monopoliyasini va paxta savdosini tayyorlash uchun “Bosh paxta qo'mitasi” Rossiyaga paxta jo'natish, sotib olish va tozalash idora tashkil qilish uchun Turkistonga o'z vakillarini jo'natish darkor deb ko'rsatilgan edi [3.147].

1918-yil 24-martda bo'lib o'tgan majlisda sovet hukumati “paxta dasturini” tasdiqladi va Turkiston Respublikasiga jo'natiladigan mas'ul xodimlar tarkibi belgilandi. Unga bolsheviklardan B.S.Smirnov, N.I.Sundatov, A.I. Latsis, V.G. Gofmayster, I.A. Sebastyanov singari paxta monopoliyasiga rahbarlik qiladigan vakillar 1918-yilning ikkinchi yarmida Toshkentga yetib kelishdi va ular sovet davlatining manfaatlarini himoya qilish, “davlat mulki” deb e'lon qilingan paxta zaxiralarini aniqlash va Rossiyaga jo'natish masalalarini birinchi darajali vazifa deb qaradilar [4.211].

O'lkadagi mavjud paxtani musodara qilish to'g'risidagi dekretni amalga oshirish uchun Turkiston o'lkasi Xalq Komissarlar Soveti huzurida 1918-yil 2- martda maxsus “Paxta bo'limi” tashkil qilindi. Paxta bo'yicha komissar etib A. Shmidt tayinlandi va u Xalq Kovissarlari Soveti tarkibiga kiritildi (5.99). Yuqoridagi dekretning tadbiq etilishi natijasida paxta mahsulotini yetishtirishga bo'lgan moddiy manfaatdorlik pasayib ketdi. Paxta hosilini sotish va sotib olish

ta'qiqlandi. Bu esa savdo-sotiqning rivojlanishiga zarba berdi. Agar misol uchun 1913 yilda Turkiston o'lkasida 422.726 desyatina erga paxta ekilib hosildorlik o'rtacha 90 pudni tashkil etgan bo'lsa, 1920 yilda bu ko'rsatkich 87.622 desyatina erga paxta ekilib, o'rtacha xar desyatinadan 25 puddan hosil yig'ib olingan [1.79]. Umuman olganda 1919-yilda Turkistonda agrar sektor bo'yicha barcha ekin ekiladigan maydonlar va qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi 1915 yil darajasining yarmidan kamrog'ini tashkil etdi [4.215]. 1918-yil 11-aprelda Toshkentda "Bosh paxta qo'mitasi" tashkilotining bo'limi ochildi. Bu bo'lim Turkistonda paxta monopoliyasini hayotga tadbqiq qilish, paxtani sotib olish, tozalash, transportda markazga jo'natish va asosiysi paxta ekin maydonlarining kamayishiga qarshi kurashish masalalari bilan shug'ullangan. Bo'lim amalda oliy organ sifatida 1920-yilning oxirlarigacha shu sohani nazorat qilib turdi.

O'lka XKS paxta yetishtirishni rag'batlantirish maqsadida 1918-yil 10-martida dehqonlarga paxta ekishda yordam to'g'risida farmoyish e'lon qildi. Mazkur hujjatda paxta zavodi komitetlari hamda paxta, yog, sovun zavodlarining ishchi va xizmatchilari kasaba uyushmalari bo'limlariga dehqonlarga birinchi nav urug'lik chigitini sotishga ruxsat berilgan. Bu urug'lik ni paxta topshirganlarga yoki naqd pulga berish mumkin, deb ko'rsatilgan. Shuningdek, paxta zavodi komitetlariga tuyilgan kunjarani paxta dalalarini o'g'itlash uchun dehqonlarga sotish huquqi berilgan. Bundan tashqari " dehqonlarda naqd pul bo'lmasa, urug'lik chigit va kunjarani kuz mavsumidagi topshiriladigan paxta hisobidan qarzga berilsin", deb ko'rsatma berilgan [6.9].

Sovet hukumati markazni paxtaga bo'lgan ehtiyojini qondirish, o'lkada paxta yetishtirishni ko'paytirish maqsadida Turkistonning paxtakor dehqonlariga o'sha davrda savdodan topish qiyin bo'lgan keng iste'mol mollarini etkazib paxta ekan dehqonlarga alohida e'tibor qaratgan. RSFSR XKS 1920-yil 24-fevralda Turkiston paxtakorlariga shoshilinch ravishda gazmol ortilgan poyezd yuborish to'g'risida qaror qabul qildi. Qarorda paxta ekan dehqonlarni rag'batlantirish maqsadida 1mln. arshin gazmol (arshin-gaz 0.711 metr ga teng uzunlik o'lchovi), 1000 gross (1 gross 144 dona g'altak ipga teng) ip yuklash uchun tezda maxsus poyezd tuzib jo'natish ko'zda tutilgan. Ushbu poyezdni tuzish Tver ip-gazlama fabrikalari boshqarmasiga topshirilgan. Poyezd 25 ta tovar vagoni, 3 ta neft yoqilgisi uchun maxsus vagon, 3ta boshqa zarur buyumlar uchun vagon, jami 31 vagondan iborat edi [7. 527]. 1918-yil 20-yanvarda nam xuddi shunday poyezd Turkistonga yuborilgan edi. Bu poyezdlarni yuborishdan asosiy maqsad esa Rossiyaning to'qimachilik fabrikalariga Turkistondan paxta tashib ketish bo'lgan.

Paxtachilikni tiklash va uni rivojlantirishdan manfaatdor bo'lgan sovet hukumati Turkistonga 1920 yilda 1234 ta plug 128

kultivator, 32741 ta o'roq, 66 ta borona, 96 seyalka, 19290 chalg'i yuborgan [6,17].

1920-yil 31-avgustda RSFSR XKS davlatga topshirilgan paxta uchun paxtakorlarga naqd pul yoki natura bilan to'lash to'g'risida qaror qabul qildi. Qarorda Amerika chigitidan yetishtirilgan 1 pud paxtaning narxi 1260 rubl deb belgilandi. Bundan tashqari har bir desyatina erdan kamida 50 pud paxta topshirgan paxtakorlarga rag'batlantirish uchun quyidagi natural buyumlarni bepul berish joriy qilingan: 1) har desyatina erga 7 pud urug'lik chigit, 2) 24 funt (1 funt- 409,5 grammga teng og'irlik o'lchovi) paxta yog'i, 3) 2 pud-u 16 funt kunjara va sheluxa, 4) 30 arshin gazlama, 5) 9 g'altak tikuvchilik ipi, 6) funt kerosin, 60 funt tuz, 7) 50 quticha gugurt [7,286-287].

Turkistonda irrigatsiyaning og'ir ahvoli paxtachilikni ham inqirozga olib keldi. Masalan: O'lkaning asosiy dehqonchilik hududi hisoblangan Farg'ona viloyatida 1915 yilda umumiy ekin maydoni 866 ming desyatina bo'lgan bo'lsa, 1919 yilda 396 ming desyatina, 1922 yilga kelib 361 ming desyatina tushib qolgan, bu esa 1915-yilgi ekin maydonlarining 1919 yilda 44.7 foizini, 1922-yilda 40.7 foizini tashkil etgan [6. 21]. Paxtachilikni tiklash irrigatsiya shoxobchalarining holatiga bog'liqligini hisobga olib sovet hukumati bu sohani tiklash uchun 1923-yilga 6 mln. so'm (oltin pul hisobida), 1924-yilda Turkiston suv xo'jaligi boshqarmasi ittifoq byudjetidan 6.5 mln so'm (oltin pul pul hisobida) mablag' olgan Buning natijasida 1922 yilda paxta ekin maydonlari 123.5 ming gektar, yalpi hosil 25 ming tonna bo'lgan bo'sa, 1923-yilda paxta ekin maydonlari 192.8 ming gektarga etib, paxta yalpi hosili esa 377 ming tonnaga ko'paygan [8.26]. Dehqon xo'jaliklariga kreditlar berish maqsadida Butunrossiya Markaziy Komiteti 1922-yil dekabrda O'rta Osiyo qishloq xo'jalik bankini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildi. Turkistonda paxtachilikni tiklashda paxtachilik kooperatsiyalarining ahamiyati katta bo'lgan 1924-yil bahorida uyushmaning 238488 a'zosi bo'lib, o'zida 869 shirkatni birlashtirgan edi.

Paxtachilikni tiklash va rivojlantirishning ittifoq tomonidan belgilangan asosiy yo'nalishlaridan biri sug'oriladigan erlardan g'alla va boshqa ekinlarni siqib chiqarish va o'rniga paxta ekishdan iborat edi.

NEP siyosatini joriy etilishi natijasida sanoatning, jumladan, to'qimachilik sanoatining tiklanishi paxta xom ashyosiga bo'lgan ehtiyojni oshirib, Turkistonda paxtachilikni tiklash, paxta yetishtirishni ko'paytirishni talab qilgan Sovet hukumati Turkistonda paxtachilik sohasini shoshilinch ravishda tiklash chora- tadbirlarini ko'rdi. Turkistonda paxta yetishtirish va uni Moskvaga tashib

ketish ishlarini nazorat qilish va paxta ishlab chiqarishni markazlashtirish vazifasi Turkiston XXMKning Paxta bo‘limi zimmasiga yuklatildi.

1920-yilning 2 va 27-noyabr sanalarida RSFSR hukumati Turkiston va Ozarbayjon Respublikalarida paxtachilikni tiklash to‘g‘risida ikkita dekret qabul qildi. Bu qarorlarda paxtachilikni tiklash va rivojlantirish uchun tezda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan quyidagi vazifalar belgilab berilgan edi:

1. Paxta ekish bilan shug‘ullanuvchi kollektiv va yakka xo‘jaliklarga yerdan va suvdan foydalanish imtiyozlarini berish;

2. Paxtakor rayonlardagi hamma davlat va jamoa xo‘jaliklarida majburiy almashlab ekishni joriy qilish, bu almashlab ekishda ekinning asosiy qismini paxta tashkil qilishiga erishish;

3. Aholini shartnoma asosida va topshirgan paxtasi uchun mahsulot almashlab berish tariqasida oziq-ovqat va keng iste‘mol mollari bilan ta‘minlashni uyushtirish;

4. Paxtachilik sohasidagi mutaxassislarning hammasini, ular hozir qanday muassasa va tashkilotlarda ishlab turganidan qat’iy nazar, paxtachilik xo‘jaligini tiklashga safarbar qilish. Bu qarorlarga muvofiq, 1920-yil 24-dekabrda Rossiya Federatsiyasi hukumati Turkiston Respublikasida paxtachilikni tiklash va rivojlantirishning besh yillik rejasini ishlab chiqdi va qabul qildi. Turk-komissiya qaroriga ko‘ra 1920-yil dekabrda Turkiston XKS huzurida Turkiston Paxta qo‘mitasi tuzildi. Yangi tashkil qilingan Paxta qo‘mitasining rejasiga ko‘ra Turkiston 1921-yildan boshlab paxta ekishni urushdan oldingi darajaga yetkazish majburiyatini oldi. Paxtachilikni tiklash va rivojlantirishni boshqarish uchun RSFSR XXOK qoshida Bosh paxta qo‘mitasi, ya’ni “Glavxlopkom”, hamda paxta yetishtiruvchi respublikalarda Paxta qo‘mitalari ta’ sis etildi. 1921-yil 13-sentyabrda Mehnat va Mudofaa kengashi paxtachilikni, paxta tozalash sanoatini va paxta tayyorlashni davlat yo‘li bilan tashkil etish to‘g‘risidagi nizomni qabul qildi. Lenin tomonidan tasdiqlangan ushbu nizom paxtani davlat monopoliyasiga olish prinsipini uzil-kesil tasdiqladi. Turkiston XKS IX syezdida (1920-yil 17-25-sentyabr) RSFSR hukumati vakili Lyubimov Turkistonda g‘alla yetishtirishni to‘liq tugatib, paxta ekishni ko‘paytirish hukumat yuritayotgan siyosiy-iqtisodiy siyosatning asosiy qismi ekanligiga urg‘u berib, quyidagi so‘zlarni aytadi: “Turkiston Rossiya Federatsiyasi tarkibidagi shunday bir yagona mamlakatki, unda noyob va qimmatbaho mahsulot – paxta yetishtirish mumkin. Shuning uchun Turkiston butunlay paxta maydoniga aylantirilishi kerak” [9. 100-101].

Shuni ta’kidlash joizki, sovet hukumati uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan Turkiston da paxtachilik sohasini tiklash va rivojlantirishdan manfaatdor edi. O‘lkada yetishtirilgan paxta xom ashyosi markaz to‘qimachilik sanoati

ehtiyojini qondirish uchun olib ketilar edi. Shu va boshqa ko‘plab maqsadlarni ko‘zlab sovet hukumati Turkistonda paxtachilik sohasini rivojlantirish uchun barcha choralarni ko‘rdi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

- 1.Раззоков А. Ўзбекистон пахтачилиги тарихи. Тошкент, "Ўзбекистон" 1994. 79 б
- 2.Наша газета.28 февралы 1918 г.2-л.
3. О‘з МА, 473-fond,1-ro‘uxat, 194-yig‘majild, 147- varaq.
4. Тарих .шохидлиги ва сабоқлари:Чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларини ўзлаштирилиши. Тошкент, Шарқ, 2001,6-211.215.
5. О‘з МА, 25-fond,1-ro‘uxat, 35- yig‘majild, 99- varaq.
6. Эркаев Э.Советлар даврида Ўзбекистоннинг пахта хом ашё базасига айлантирилиши ва унинг деҳқонлар ҳаётига салбий таъсири (1917-1940 йиллар). Тошкент,2023. 17.216
7. Декреты Советской власти-М., Политиздат,1974,Т.7,-с 286-287.
8. Заготовка хлопка в СССР. Справочник о Средней Азии Ташкент, 1948. с-26
9. Ражабов Қ., Хайдаров М. Туркистон тарихи. Тошкент, 2002. б 100-101

TARIX

MINIATYURA SAN'ATINING PAYDO BO'LISHI VA SHARQDAGI DASTLABKI MINIATYURA MAKTABLARI



**Sobirov Sobirjon,
Xorazm Ma'mun
akademiyasi kichik
ilmiy xodimi**

UO'K: 346,26 (575.1)

Annotatsiya: ushbu maqolada miniatyura san'atining paydo bo'lishi, miniatyura yo'nalishlari, miniatyura maktablarining paydo bo'lishi va Sharqdagi dastlabki miniatyura maktablari to'g'risida ma'lumot berilgan.

Аннотация: В статье представлена информация о зарождении искусства миниатюры, направлениях миниатюры, возникновении школ миниатюры и первых школах миниатюры на Востоке.

Annotation: This article provides information on the origins of miniature art, miniature trends, the emergence of miniature schools, and the first miniature schools in the East.

Kalit so'zlar: miniatyura, kitob miniatyurasi, portret miniatyurasi, Arab, Eron, Turk, Ozarbayjon va Hind miniatyura maktablari.

Ключевые слова: миниатюра, книжная миниатюра, портретная миниатюра, арабская, иранская, турецкая, азербайджанская и индийская школы миниатюры.

Key words: miniature, book miniature, portrait miniature, Arabic, Iranian, Turkish, Azerbaijani, and Indian schools of miniature.

Miniatyura (fransuzcha - miniature, lotincha - minium - qizil bo'yoq) - badiiy usullari o'ta nafis bo'lgan kichik hajmli (mo'jaz) tasviriy san'at asarlari hisoblanadi. O'rta asr qo'lyozmalarini ziynatlash uchun yaratilgan nafis mo'jaz rasmlar, shuningdek, suyak, pergament, mag'zi soxta (tosh qog'oz), metall, chinni, ba'zan maishiy buyumlar (tamakidon, soat, uzuk va boshqalar)ga ishlangan kichik hajmdagi rangtasvirga ham miniatyura atamasi qo'llaniladi (qarang Lokli miniatyura).

Badiiy miniatyuraning kitob va portret miniatyurasi kabi sohalari keng tarqalgan. Kitob miniatyurasida rasmlar rangli qilib tempera, guash, yelim, akvarel va boshqa bo'yoqlar bilan qo'lda bevosita qo'lyozma kitoblar varaqlariga ishlanib, undagi naqshlar (sarlavha, unvon, lavha va boshqalar) shu kitoblarning bezaklari bilan uyg'unlashgan.

Miniatyura qadimdan ma'lum bo'lgan. Qadimgi Misr papiruslariga xira bo'yoqlar bilan peroda rasmlar tekis yuzali qilib rangtasvir usulida ishlangan. So'nggi antik miniatyuralar (IV – VI - asrlar) shakllar va nur havo holati to'g'ri berilganligi bilan diqqatga sazovor. Bu usul Vizantiya miniatyurasida (asosan,

diniy qo‘lyozmalar) X asrgacha hukm surgan. Keyinchalik miniatyuraga xalq ijodiyoti hususiyatlari kirib bordi. XIII – XV - asrlar gotika miniatyurasida naturani haqqoniy ifodalashga intilish kuchaydi, rasmlar matn bilan izohlandi, shakllar jonlandi, manzara, interer, me‘moriy hoshiyalarga keng o‘rin berildi.

O‘rta asrlarda Sharqda miniatyuraning o‘ziga xos maktablari shakllangan (qarang Kitobat san’ati). Arab miniatyursaida bir qator maktablar ajralib turadi: Misr, Suriya, Iroq; Afg‘oniston, O‘rta Osiyo, Ozarbayjon, Eron, Buxoro, Hindiston qo‘lyozma kitoblarning barcha bezaklari o‘zaro uyg‘unlikda bog‘langan; chiziqli ritm, manzara, ranglarning nozik uyg‘unligi ularning bezak tuzilishini belgiladi.

Miniatyura qo‘lyozma kitoblarning mo‘jaz rasmlari va alohida ishlangan rasmlar sifatida XII – XIX - asrlarda Sharqda keng tarqalgan. Avval ilmiy qo‘lyozmalar (masalan tabobatga oid Dioskoridning “Dorilar” risolasining arab tiliga tarjimasi, Abu Rayhon Beruniyning “Osar ul-boqiya” – “O‘tmishdan qolgan yodgorliklar”, Qazviniyning “Nujum” – “Yulduzlar” va boshqalar), keyinchalik badiiy asarlar (Haririyning “Maqomot”, “Kalila va Dimna”, “Tarixi Tabariy” kabi asarlar)ga rasmlar ishlangan. Badiiy adabiyot, asosan, epik she‘riyat – masnaviy, dostonlar (jumladan, Firdavsiyning “Shohnoma”, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiylarning “Hamsa” asarlari, Abdurahmon Jomiy, Sa‘diy, Hofiz Sheroziy va boshqalarning asarlari) qo‘lyozmalarini ziynatlash uchun yaratilgan miniatyuralar alohida turkumni tashkil qiladi.

Buyuk musavvir sifatida Sharqda Moniydan so‘ng Junaid Bag‘dodiy, Xoja Abdulhay, Mahmud Siyohqalam, G‘iyosiddin Naqqosh, Mirak Naqqosh, Kamoliddin Behzod, Qosim Ali, Mahmud Muzahhib, Abdulla Musavvir, Basavan, Rizoyi Abbosiy va boshqalarning nomlari mashhur.

Shayboniylar va Temuriylar davrida alohida varaqlarga miniatyura ishlash va ulardan muraqqa tuzish an‘anaga aylangan, alohida shaxslar tasviri (portreti)ni ishlash taraqqiy etgan, hususan, Hindistonda Boburiylar davrida yuksak darajaga ko‘tarilgan.

VIII asr boshlarida Buxoroda miniatyura maktabi shakllangan VIII - X asrda ishlangan Buxoro miniatyura maktabiga oid miniatyura asarlari hozirda dunyo muzeylarida saqlanib kelmoqda. Jumladan, Fransiyaning Luvr muzeyida hamda Amerikaning Metropoliten, Rossiyaning Ermitaj muzeyida saqlanmoqda.

XIV asr oxirida Samarqandda “Samarqand miniatyura maktabi” shakllangan, keyinchalik u Hirot miniatyura maktabining shakllanishiga ta’sir ko’rsatgan.

Amir Temur qurgan bog’lardagi ko’shklar ham devoriy rasmlar bilan bezatilgan. Temuriylar saroylarida alohida kitobxonalar tashkil etilib, u yerda mohir xattot va kitobat ahli, jumladan, musavvirlar ham faoliyat ko’rsatgan (masalan, Mirzo Boysung’ur kutubxonasida qirqdan ziyod xattot, yetmishdan ortiq musavvirlar ijod qilgani ma’lum).

Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy davrida ham kitobat san’ati va miniatyura taraqqiyotiga katta e’tibor berilgan. Temuriylar, Shayboniylar, Boburiylar davri miniatyura asarlari jahonning eng nufuzli muzey, kutubxona va shaxsiy to’plamlarida saqlanadi.

Portret miniatyura rassomlik san’atining alohida turi sifatida uyg’onish davrida shakllangan, usul va uslub jihatidan kitob miniatyurasi bilan, shuningdek, realistik san’atning umumiy taraqqiyoti bilan uzviy bog’langan[5].

O’zbekiston hududida XX asr boshlariga kelib miniatyura san’atining rivoji to’xtab qoldi. Usta Mo‘min, A. Siddiqiy, G. Nikitin, Ch. Ahmarov, T. Muhamedov kabi rassomlar ijodida miniatyura an’analari kuzatiladi. 1970 – 1980 yillarda miniatyura an’alarini tiklashga urinishlar bo’ldi.

Miniatyuraning haqiqiy taraqqiyoti O’zbekiston mustaqilligidan so’ng amalga oshdi. Ch. Ahmarov miniatyura san’ati an’alarini o’z ijodida davom ettirdi, uni yangicha mazmun, g’oyalar bilan boyitdi. Uning shogirdlari ustozining ishlarini davom ettirib, miniatyurani yangi bosqichga ko’tardilar.

Miniatyura lokli, qog’oz, mato, teri, charmdagi miniatyurani va devoriy ishlarni qamrab olib keng ko’lamli badiiy uslubiy yo’nalishga aylandi. Hozirgi kunda miniatyura rivoji 3 yo’nalishda - aynan qo’lyozma (kitob) rasmlari (T. Muhamedov, Sh. Muhamadjonov, M. Salimov va boshqalar), lokli miniatyura (N. Xolmatov, A. Yo’ldoshev, Sh. Shoahmedov va boshqalar) hamda miniatyura uslubida devoriy rasmlar yaratish (T. Boltaboev, H. Nazirov, G’. Kamolov - Kamoliddin Behzod nomidagi O’zbekiston Davlat mukofotining birinchi sovrindorlari va boshqalar) bo’yicha ijodiy izlanishlar olib borilmoqda[4].

Miniatyurachi rassomlar “Usto” va “Musavvir” ijodiy uyushmalarida faoliyat ko’rsatmoqdalar. Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn institutida, Respublika rassomlik kollejida miniatyurachi rassomlar tayyorlanadi.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi zallari, Angren ishlab chiqarish birlashmasi klubi binosi devorlari (Ulugʻbek akademiyasi nomli) va boshqa miniatyura uslubidagi rasmlar bilan bezatilgan. Hozirda Buxoroda aka-uka miniatyurachi rassomlar Toshev Davron va Toshev Davlat ananaviy Buxoro maktabi yonalishida ijod qilmoqda.

Miniatyura sanʼati arab Sharqi, Eron va Oʻrta Osiyo xalqlarining islomgacha (VII-VIII asrlar) boʻlgan devoriy suratlari, paykarsozlik, amaliy sanʼat kabi qadimiy sanʼatning teran ildizlariga borib taqaladi[2, b.70]. Sanʼatning bu turini rivojlanishi natijasida Sharqda bir qancha miniatyura maktablari vujudga kelgan. Bular Arab, Eron, Turk, Ozarbayjon va Hind miniatyura maktablaridir.

Arab miniatyura maktabi. IX-XIII asrlar davomida Yaqin va Oʻrta Sharq mamlakatlari, Eron, Ozarbayjon va Oʻrta Osiyo xalqlari bir-birlari bilan uzviy aloqada boʻlib kelgan. Bogʻdod, Sheroz, Tabriz, Samarqand kabi shaharlar madaniyat va taraqqiyotning markazi boʻlib, oʻzlarining koʻzga koʻringan olimlari, shoirlari hamda fan va madaniyat oʻchoqlari bilan butun dunyoga tanilgan edilar. Bu shaharlarda fan bilan birgalikda sanʼat ham yuqori darajadagi rivojlanish bosqichiga erishgan edi[5].

Bu davrda tasviriy sanʼatning rivojlanishida tirik jonzotni tasvirlashni man etgan islom dini maʼlum darajada toʻsqinlik qildi. Ammo bu qarshiliklar tasviriy sanʼatning umumiy taraqqiyotini boʻgʻa olmadi. Shunday taʼqiqlanishlar natijasida Sharqiy arab mamlakatlarida dastgohli tasviriy sanʼatning rivojlanishi qiyin boʻldi. Uning oʻrnini esa qoʻlyozma kitoblarga ishlangan bezaklar – miniatyura sanʼati egalladi. Bu sanʼatning yuzaga kelishi va rivojlanishi arab tilida badiiy adabiyotning taraqqiyoti, kitobning qadimdan Sharqda ilmu-maʼrifat manbai sifatida yuksak qadrlanganligidan dalolat beradi.

Miniatyura kolligrafiya, sahifalarni ziynatlash, muqova bezagi bilan bir qatorda qoʻlyozmaning eng asosiy murakkab dekarativ elementlaridan birini tashkil qilardi.

Oʻrta asr musulmonlarining qadimgi qoʻlyozmalari faqatgina guash boʻyoqlari bilan ishlangan. Bu boʻyoqlarni tayyorlash usuli Yaqin Sharqda VIII asrda Oʻrta Osiyo orqali Xitoydan oʻtgan. Madaniyat markazlarini vayron qilgan, tez-tez sodir boʻlib turgan bosqinchilik urushlari tufayli ilk arab miniatyuralari deyarli saqlanib qolmagan. Bizgacha yetib kelgan arab miniatyuralarining asarlari koʻp boʻlmay, ular ham asosan, XIII asrga oiddir.

Eron miniatyura maktabi. Osiyodagi eng yirik davlatlardan hisoblangan Eron insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimgi markazlaridan biridir. Bu yerda necha ming yillar davomida arxitektura, katta qurilishlar va qoyalarga ishlangan monumental releflardan tortib, nozik toshdan yo‘nib ishlangan buyumlar, sopol idishlar va ajoyib miniatyuralargacha yaratilgan.

Eron miniatyura san’atining bizgacha yetib kelgan birinchi yodgorliklari XI asr boshlariga taalluqlidir. Ammo miniatyura janrining Sososniylar davridayoq (III-IV asrlar) mavjud bo‘lganligi haqida ham ma’lumotlar bizgacha yetib kelgan.

Eron, aniqrog‘i fors miniatyurasi kitob illustratsiyasi shaklida yuzaga kelib, to XIV asrgacha ham kitob va qo‘lyozma varag‘i bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi. Katta shaharlarda, hukmdorlarning saroylarida, mansabdor shaxslarda kitoblarni ko‘chirish va bezatish bilan shug‘ullanadagin katta – katta ustaxonalar bo‘lgan. qadimgi Eron qo‘lyozmalari muqovasining rang-barangligi, miniatyuralarning yorqin bo‘yoqlari va naqshin bezaklari kishini diqqatini o‘ziga tortib kelgan.

Eron miniatyura janrining turli davrlardagi rivojlanish jarayonida alohida maktabalar tashkil topib, ular har bir davrda eng asosiy yetakchi dargohga aylangan. Masalan, XIV asr oxirida Eron miniatyura san’atida Sheroz maktabi yuzaga keldi[3, b.165].

XVII asr Eron tasviri, eng avvalo, XVI asr oxirlarida Safaviylar poytaxtiga aylangan Isfaxon shahri bilan bog‘liqdir. Miniatyuraning Isfaxon maktabi mahalliy maktablarni o‘zida birlashtirgan edi. Isfaxon maktabi rassomlarini insonning ichki dunyosini ifodalash qiziqтира boshladi. Manzara elemaentlari bilan to‘ldirilgan portret janri rivojlandi. Miniatyuradagi yorqinlik va ko‘pranglilik yo‘qola boshladi. Yengil rang berilgan chizmalar muhim ahamiyat kasb etdi. Bu davrda Eron miniatyurasida birinchi marta Yevropa rang tasviriga xos nur va soya janriga o‘xshash ko‘rinishlar, yevropacha kostyumdagi personajlar yuzaga keldi.

Turk miniatyura maktabi. Turkiyada miniatyura san’atining rivojlanishi XV asrning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi[1, b.48]. Bu davrda Turk sultoni Mehmed II (1451-1481) bir qancha hattot va musavvirlarni to‘plab, ularga homiylik qilgan. Mehmed sulton tuzdirgan “Fotih albomi” yoki Istanbul albomlaridagi miniatyuralar ko‘proq lirik mavzularga bag‘ishlangan bo‘lib, alohida ahamiyatga ega[4].

Mehmed II saroyida naqqosh va musavvirlar uchun alohida ustaxona bo'lgan. shu davrga oid bir hujjatda 1525 yili bu ustaxonada naqqosh va musavvirlardan 29 nafar usta va 12 nafar xalfa bo'lgan, bulardan besh nafari eroniy, ikkitasi arab, ikkitasi cherkest, bir nafari negr, biri moldovan ekanligi qayd etilgan.

Turk miniatyuralari o'zida O'rta Osiyo va Eron miniatyura maktablarining ayrim xususiyatlarini mujassamlashtirgan bo'lsa ham, O'rta Osiyo miniatyuralaridagi ranglarning nafisligi, murakkab geometrik shakllardan foydalanish va shu kabi jihatlar ham uchraydi. Turk miniatyuralarida keskin chiziqlar, jiddiy mavzu, biroz qo'polroq harakatlarni ko'rish mumkin. Turk miniatyuralariga yorqin bo'yoqlardan foydalanish, ko'proq oltin va kumush ranglarishlatish hosdir.

Hind miniatyura maktabi. XVI – XVIII asrlarda Shimoliy Hindistonning poytaxt shaharlari Agra, Dehli va Lahurda rivoj topgan hind miniatyura maktabi o'ziga xosligi va yuksak badiiy xususiyatlari bilan Sharq miniatyura rassomligi tarixida muxim o'rin tutadi. Bu miniatyura rassomchiligining shakllanish va tarakkiyotida qadimgi mahalliy hind tasviriy san'atining boy an'analari bilan bir qatorda qo'shni va chet mamlakatlar bilan Hindistonning faol madaniy munosabatda bo'lganligi alohida ahamiyatga ega.

Bu Movaraunnahr (Samarqand va Buxoro), Xuroson (Hirot), Janubiy Ozarbayjon (Tabriz), Eron (Sheroz) va G'arbiy Yevropa rassomchiligining hind miniatyurasidagi ta'sirida seziladi. Jumladan, qo'shni mamlakatlardan ko'pchilik olimlar, shoirlar, rassom va xattotlar Hindistonga kelib yashab, hind madaniyati taraqqiyotiga o'zira xos hissa qo'shganlar. Mana shunday shaxslardan tarixchi G'iyosiddin Xondamir, tabib Yusuf Yusufiy, shoir Qosim Rumi Samarqandiy, rassomlardan Mir Said Ali, Abdusamad Sheroziy, Farruxbek kabi ko'plab aql-zakovat egalarini sanab o'tish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Hindistonda miniatyura maktabining shakllanishi aynan Bobur va uning farzandlari davriga to'g'ri keladi. Ularning hukmronligi davrida Hindistonda tasviriy san'at maktablari paydo bo'lgan va taraqqiyotining yuqori cho'qqisiga erishgan. Boburiylar saltanatining tanazzulga uchrashi natijasida miniatyura san'ati susaygan. Ingliz mustamlakachilarining Hindistonga bostirib kelishlari bilan esa san'atning bu turi inqirozga uchrab, mavjud asarlar talon-taroj qilingan.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Veymarn B.V. Iskustvo Tursi. – M.: “Iskustvo”. 1961. – str.48.
2. Polyakova Y.A, Raximova Z.I. Sharq miniatyurasi va adabiyoti. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1980. – B. 70.
3. Pugachenkova G.A. Shedevry Sredney Azii (Albom sost. N.K.Musina). – T.: Izd. Lit i iskustva. 1986. Str.165.
4. Ismoilava.E.M, Polyakova.Y.A. Sharq miniatyurasi. - T.: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1980.
5. Madraimov.M, Normatov.N. Sharq miniatyura maktablari. - T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1989.

TARIX

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING QABUL QILINISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI



Otabek Shixov,
Urganch
innovatsion
universiteti dotsenti,
Tarix fanlari
nomzodi

UO‘K: 9 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati yoritib berilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается принятие Конституции Республики Узбекистан и её историческое значение.

Annotation: This article covers the adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan and its historical significance.

Kalit so‘zlar: Mustaqillik, respublika, konstitutsiya, davlat ramzlari, 8-dekabr, 30-aprel, referendum.

Ключевые слова: Независимость, республика, конституция, государственные символы, 8 декабря, 30 апреля, референдум.

Key words: Independence, republic, constitution, state symbols, December 8, April 30, referendum.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin, davlat mustaqilligi va suverenitetini Konstitutsiya asosida mustahkamlash zarurati yuzaga keldi. O‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasini tayyorlash g‘oyasi dastlab Islom Karimov tomonidan 1990-yilning mart oyida ilgari surildi. 1990-yil 20-iyun kuni bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Oliy Kengashining II sessiyasida yangi Konstitutsiya ishlab chiqish lozim, degan xulosaga kelindi.

Ushbu sessiya O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov boshchiligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Komissiya tarkibiga Oliy Kengash deputatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar vakillari, davlat, jamoat tashkilotlari va xo‘jaliklarning rahbarlari, olimlar, mutaxassislar kiritildi. Konstitutsiyaviy komissiya O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini ishlab chiqish ustida 2,5 yil ishladi.

Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishda konstitutsiyaviy rivojlanishning jahon tajribasi o‘rganildi, inson huquqlari, demokratiya va qonunchilik sohasida jahonda qo‘lga kiritilgan yutuqlar hisobga olindi.

Milliy davlatchiligimizning tajribasi, Amir Temur va boshqa davlat arbobi hamda allomalarimizning davlatni idora qilish sohasidagi g‘oyalari yangi

Konstitutsiyaga asos qilib olindi. Loyihaning dastlabki varianti 1991-yil oktyabr-noyabr oylarida tayyorlab bo'ldi.

“U muqaddima, olti bo‘limga bo‘lingan 158 moddadan iborat bo‘lib, uning ustida yanada jiddiyroq va talabchanlik bilan ishlash zarur edi. 1992-yil bahorida esa loyiha 149 moddadan iborat ikkinchi varianti ishlab chiqildi. 1992-yil 26-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi loyihasi umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e‘lon qilindi” (1).

Muhokama 2 oycha davom etdi. Muhokama jarayonida bildirilgan takliflar asosida tuzatishlar kiritilgan loyiha 1992-yil 26-noyabrda matbuotda ikkinchi marta e‘lon qilindi.

Umumxalq muhokamasi davrida 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi, ular inobatga olindi. Birinchi Prezident Islom Karimov O‘zbekiston Konstitutsiyasini ishlab chiqishga rahbarlik qildi va o‘zining katta hissasini qo‘shdi. Unda mamalakatning Asosiy Qonunini qabul qilish masalasini muhokama qildi. Sessiyada deputatlar loyihaga 80 ga yaqin o‘zgartirish, qo‘shimcha va aniqliklar kiritdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan kunni umumxalq bayrami deb e‘lon qilish to‘g‘risida” va “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini amalga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi Qonunlarni qabul qildi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 6 bo‘lim, 26 bob, 128 moddadan iborat holda qabul qilindi. U “Mustaqillik Deklaratsiyasi”, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Qonunda mustahkamlangan tamoyillar va g‘oyalarni o‘zida to‘la mujassamlashtirdi.

Shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda ro‘y berayotgan geosiyosiy vaziyatlar, eng avvalo, Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi va unda belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun qonunlarimiz mustahkamlanishini kun tartibiga chiqardi.

Natijada xalqimizning taklif va mulohazalari asosida yangilangan Konstitutsiya loyihasi ishlab chiqilib, umumxalq muhokamasiga qo‘yildi. Muhokamalar yakunida mamlakatimiz tarixida birinchi marta Bosh qonun hujjati referendumda bevosita xalq tomonidan qabul qilindi.

“Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi va unda belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun nafaqat qonunlarimiz mustahkamlanishi, balki Konstitutsiyamizda ham inson sha’ni, uning qadr-qimmatini yuksaltirishga

qaratilgan normalarni yanada takomillashtirib, bugungi kun talablariga moslashtirish ehtiyojini paydo qildi.

Mazkur ehtiyojdan kelib chiqqan holda, xalqimizning taklif va mulohazalari asosida yangilangan Konstitutsiya loyihasi ishlab chiqilib, umumxalq muhokamasiga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha 2023-yilning 30-aprelida "Konstitutsiya - o'zimizniki" va "Befarq emasman" shiorlari ostida o'tkazilgan umumxalq referendumi natijalariga ko'ra, bosh Qomusimiz yanada mukammalashib, yangi tahrirdagi Konstitutsiya 6 bo'lim, 27 bob va 155 ta moddadan iborat bo'ldi" (2).

Davlat ramzlarining qabul qilinishi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabr VIII sessiyasida 13 moddadan iborat bo'lgan "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi.

1992-yil 10-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida 12 moddadan iborat "O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi.

"Har bir mustaqil davlatning asosiy belgilaridan biri – milliy valyutasidir. O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritib, o'zining milliy valyutasini muomalaga kiritishga kirishdi. Biroq bu jarayon uchun ma'lum vaqt, tajriba kerak edi. Shu boisdan O'zbekiston 1991-1993-yillarda sobiq ittifoqdan meros qolgan rubl zonasida bo'lib turdi.

Ammo, sovetlardan keyingi makonda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning keskin pasayishi natijasida rublning qadri ham shunga mos ravishda tushib bordi. O'zbekiston muomalaga yangi milliy valyuta kiritish ishiga jiddiy kirishdi. 1992-yildayoq muomalaga chiqarishga mo'ljallangan so'm – kupon nusxalari tayyorlanadi(3).

Nihoyat, 1993-yil 1-noyabrda O'zbekistonda so'm – kupon muomalaga kiritildi, uning kursi oldin muomalada bo'lib kelgan rublga tenglashtirilgan edi. O'zbekiston rahbariyati so'm-kuponlar asosida zarur tajriba orttirdi, haqiqiy milliy valyutani joriy qilish tadbirlarini ko'rdi.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 16-iyunda e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq 1994-yil 1-iyulidan boshlab respublika hududida yagona, cheklanmagan va qonuniy to'lov vositasi sifatida milliy valyutasi - so'm muomalaga chiqarilgan.

Muomalaga 1994-yilda 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100 so‘mlik, 1997- yil 1-martdan 200 so‘mlik, 2000 yil 1 iyuldan 500 so‘mlik, 2001 yil 1 sentyabrdan 1000 so‘mlik banknotlar chiqarilgan. Keyinchalik, 1, 5, 10, 25, 50, 100 so‘m qiymatidagi tangalar muomalaga kiritilgan” (4).

Xulosa qiladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi, uning tarixiy ahamiyati va o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li mamlakatning mustaqillikka erishganidan keyin ro‘yobga chiqarilgan islohotlar va o‘zgarishlarni ifodalaydi. O‘zbekistonning 1991-yil 31-avgustda Sovet Ittifoqidan ajralib chiqishi, mustaqil davlat sifatida e‘lon qilinishi, xalqning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini qo‘lga kiritishi muhim tarixiy voqea bo‘ldi. Bu jarayon O‘zbekistonning xalqaro maydonda o‘zining mustaqil pozitsiyasini egallashiga, o‘z milliy qadriyatlarini tiklash va rivojlantirishga imkon yaratdi.

Mamlakatimiz mustaqilligining tarixiy ahamiyati shundaki, u O‘zbekiston xalqiga o‘z davlatini barpo etish, o‘z iqtisodiy, siyosiy va madaniy tizimini qurish imkoniyatini berdi. Istiqlolga erishgan O‘zbekiston o‘zining milliy g‘oyasi va qadriyatlarini asos qilib olib, barcha sohalarda islohotlar o‘tkazishga kirishdi. Iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarda amalga oshirilgan islohotlar davlatni mustahkamlash, xalq farovonligini oshirish hamda xalqaro darajada tan olinishni ta‘minlashga qaratilgan edi .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. Darslik. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Toshkent. “Mehr-nuri nashriyoti”, 2024-yil, 408-b.
2. У.Ражабов. “Ўзбекистоннинг энг янги тарихи. Қўлланма. “Дурдона” нашриёти, Бухоро-2025 йил, 23-бет.
3. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. Darslik. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Toshkent. “Mehr-nuri nashriyoti”, 2024-yil, 408-b.
4. У.Ражабов “Ўзбекистоннинг энг янги тарихи. Қўлланма. “Дурдона” нашриёти, Бухоро-2025 йил, 24-бет.

TARIX IJTIMOIY HIMOYA TUSHUNCHASI VA UNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

**Amonullayev
Abduvoxob,
Andijon davlat
universiteti
magistranti**

UO‘K: 9 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy himoya tushunchasining mazmuni, uning zamonaviy davlat siyosatidagi o‘rni va asosiy yo‘nalishlari tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье анализируется содержание концепции социальной защиты, ее роль в современной государственной политике и ее основные направления.

Annotation: This article analyzes the content of the concept of social protection, its role in modern state policy and its main directions.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy himoya, ijtimoiy siyosat, pensiya tizimi, mehnat bozori, ijtimoiy sug‘urta, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar.

Ключевые слова: социальная защита, социальная политика, пенсионная система, рынок труда, социальное страхование, здравоохранение, социальные услуги.

Key words: social protection, social policy, pension system, labor market, social insurance, health care, social services.

Ijtimoiy himoya — bu davlat, jamiyat va nodavlat institutlari tomonidan aholi turli qatlamlarining ijtimoiy-iqtisodiy xavflardan himoya qilinishini ta’minlaydigan majmuaviy tizim bo‘lib, aholining farovonligi, barqaror rivojlanishi va ijtimoiy barqarorlikning kafolatidir. Ushbu tizim aholini ijtimoiy tavakkalchiliklardan, jumladan, ishsizlik, keksalik, nogironlik, kasallik, mehnatga layoqatsizlik, boquvchidan mahrum bo‘lish, tabiiy ofatlar yoki iqtisodiy beqarorliklardan himoya qilishni nazarda tutadi. Ijtimoiy himoya nafaqat kompensatsiya va yordam ko‘rsatish tizimi, balki inson kapitalini qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy tenglikni ta’minlash, kambag‘allikni kamaytirish va ijtimoiy adolatni mustahkamlashning muhim mexanizmi sifatida qaraladi. Bugungi global sharoitda ijtimoiy himoya tizimlari mamlakatning iqtisodiy moslashuvchanligi, bozor iqtisodiyotiga integratsiya jarayonlari va aholi hayot sifatining eng asosiy ko‘rsatkichlaridan biri sifatida baholanmoqda [1].

Ijtimoiy himoya tushunchasi mazmunan keng bo‘lib, u ijtimoiy siyosatning eng muhim yo‘nalishi sifatida shakllangan. Ijtimoiy himoyaning markazida inson manfaati turadi, ya’ni har bir fuqaroning asosiy ehtiyojlari davlat tomonidan

kafolatlanishi, ijtimoiy xavflar yuzaga kelganda esa muayyan yordam mexanizmlari ishga tushirilishi lozim. Ushbu tizimning mohiyati ikki omilga tayanadi: oldini olish (preventiv) va kompensatsiya (kompensator) funksiyalari. Preventiv funksiyalar ijtimoiy xavflarni yuzaga keltirmaslikka qaratilgan bo‘lib, aholi bandligini ta‘minlash, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, kasbga qayta tayyorlash, ijtimoiy xizmatlarning rivojlanishini o‘z ichiga oladi. Kompensatsiya esa xavf sodir bo‘lganidan keyin zararni qoplashga qaratilgan bo‘lib, pensiya, nafaqa, moddiy yordam, sug‘urta to‘lovlari kabi shakllarda namoyon bo‘ladi [3].

Ijtimoiy himoyaning asosiy yo‘nalishlaridan biri — pensiya ta‘minoti bo‘lib, u keksalikda mehnat faoliyatini davom ettirish imkoniyati bo‘lmagan fuqarolar uchun minimal daromad manbaini yaratadi. Pensiya tizimi davlat budjeti, majburiy sug‘urta badallari va ixtiyoriy jamg‘armalar orqali shakllanadi. Pensiya ta‘minoti nafaqat iqtisodiy kafolat, balki keksalarning jamiyatdan ajralib qolmasligini oldini oluvchi ijtimoiy institut sifatida ham katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, nogironlik pensiyalari, boquvchidan mahrum bo‘lganlar uchun to‘lovlar ham pensiya tizimining muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi.

Ijtimoiy himoya tizimining yana bir muhim yo‘nalishi — mehnat bozorida ijtimoiy kafolatlar bo‘lib, ular aholini ishsizlik xavfidan himoya qiladi. Bu yo‘nalish ishsizlarga nafaqa to‘lash, ularni ishga joylashtirishga ko‘maklashish, kasbga qayta tayyorlash, mehnat yarmarkalarini tashkil etish, kichik biznes va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash kabi komponentlarni o‘z ichiga oladi. Mehnat bozorida ijtimoiy himoyaning asosiy vazifasi — insonning mehnat resursi sifatidagi ahamiyatini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy faolligini tiklash va kambag‘allikning oldini olishdan iborat. Sog‘liqni saqlashni ijtimoiy himoya qilish yo‘nalishi esa aholini kasalliklar, nogironlik holatlari va tibbiy xarajatlardan himoyalashga xizmat qiladi. Bu yo‘nalishda majburiy tibbiy sug‘urta, bepul tibbiy xizmatlar paketi, ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklarni davolash, rehabilitatsiya xizmatlari, sanitariya-profilaktika choralarining kuchaytirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Sog‘liqni saqlash tizimi orqali ijtimoiy himoya nafaqat sog‘liqning tiklanishiga, balki mehnat qobiliyatining saqlanishiga, aholi umr davomiyligi oshishiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy himoya tizimining yana bir zarur bo‘lagi — moddiy yordam va ijtimoiy xizmatlar tizimidir. Bu yo‘nalish kam ta‘minlangan oilalar, ko‘p bolali oilalar, yetim bolalar, yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun davlat tomonidan ko‘rsatiladigan moddiy yordam va parvarish xizmatlarini qamrab oladi. Ijtimoiy xizmatlar tizimi faqat moddiy yordam bilan chegaralanib qolmay, balki psixologik ko‘mak, pedagogik maslahat, ijtimoiy moslashuv bo‘yicha xizmatlarni ham o‘z ichiga oladi. Bunday xizmatlar inson salohiyatini rivojlantirishga, ularni jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga yordam beradi.

Ijtimoiy himoyaning muhim tarkibiy yo‘nalishlaridan yana biri — ijtimoiy sug‘urta tizimi bo‘lib, u aholini turli ijtimoiy tavakkalchiliklarga qarshi kafolat bilan ta‘minlaydi. Ijtimoiy sug‘urta mehnatga layoqatsizlik, vaqtinchalik ishdan qolish, homiladorlik va tug‘ish, baxtsiz hodisalar, ishlab chiqarish jarayonida jarohatlanish kabi holatlarda yordam ko‘rsatadi. Sug‘urta fondlarining mavjudligi davlat budjetiga tushadigan yukni kamaytiradi hamda ijtimoiy risklarni bo‘lishish mexanizmini yaratadi. Shu bilan birga, zamonaviy ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ijtimoiy himoya mexanizmlarini doimiy takomillashtirish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, davlat va nodavlat sektorlar hamkorligini kengaytirish zarurati tobora ortib bormoqda [4].

Ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi ko‘p jihatdan davlatning ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruvga yondashuvi va resurslarni boshqarish siyosatiga bog‘liqdir. Zamonaviy ijtimoiy himoya konsepsiyasi faqat moddiy yordam yoki kompensatsiya mexanizmlariga tayanmay, balki inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiluvchi profilaktik choralarning ustuvorligini ta‘kidlaydi. Bunday yondashuv ijtimoiy himoyani davlat siyosatining passiv shakli sifatida emas, balki iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy rivojlanishni ta‘minlaydigan faol mexanizm sifatida talqin qiladi. Shu nuqtai nazardan, bandlik siyosatini rivojlantirish, ta‘lim xizmatlarining sifatini oshirish, kasb-hunar tizimini modernizatsiya qilish, sog‘liq uchun xavfsiz muhit yaratish va aholining turmush sharoitlarini yaxshilash ijtimoiy himoya tizimining ajralmas elementi sifatida qaraladi.

Ijtimoiy himoyaning barqaror ishlashi uchun uning moliyaviy asoslari mustahkam bo‘lishi zarur. Bu borada davlat budjeti, ijtimoiy sug‘urta fondlari, mahalliy budjetlar, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar ishtirokidagi moliyalashtirish tizimi muhim o‘rin tutadi. Ko‘plab rivojlangan mamlakatlar ijtimoiy himoya tizimini ko‘p manbali moliyalashtirish orqali barqarorlashtiradi, ular orasida progressiv soliq tizimi, majburiy sug‘urta badallari va ixtiyoriy pensiya jamg‘armalari ham mavjud. Rivojlanayotgan davlatlarda esa moliyaviy resurslarning cheklanganligi ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi; shu bois ijtimoiy dasturlarni maqsadli yo‘naltirish, ehtiyojmand qatlamlarni aniq identifikatsiya qilish va resurslardan oqilona foydalanish kabi islohotlar alohida ahamiyat kasb etadi [5].

Ijtimoiy himoyaning zamonaviy yo‘nalishlaridan yana biri — keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va bolalar bilan ishlashning individual yondashuvlarga asoslangan ijtimoiy xizmatlar modelidir. Mazkur modelda ijtimoiy xizmatlar nafaqat umumiy yordam ko‘rsatish, balki har bir fuqaroning ehtiyojini aniqlab, unga moslashtirilgan xizmatlar majmuini taqdim etishga

qaratiladi. Bu jarayonda psixologik maslahat, reabilitatsiya dasturlari, uy sharoitida parvarish, jamiyatga qayta moslashtirish, ko'nikma o'rgatish markazlari va ijtimoiy pedagogik xizmatlar kabi jihatlar muhim rol o'ynaydi. Bunday yondashuv insonning ijtimoiy faolligini oshirish, uni jamiyatdan ajralib qolishdan himoya qilish va ijtimoiy integratsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy global tendensiyalar ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirish zarurligini ham ko'rsatmoqda. Elektron ijtimoiy xizmatlar, masofaviy ariza topshirish, onlayn monitoring, "yagona reyestr" orqali ma'lumotlar bazasini yuritish, to'lovlarning shaffofligini ta'minlash — bularning barchasi ijtimoiy himoya tizimini samarali va adolatli ishlashiga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar imkoniyatlari yordamida ehtiyojmand oilalarni aniqlashda aniqlik oshadi, yordam so'rovlarini ko'rib chiqish jarayoni tezlashadi va korrupsiya xavfi kamayadi. Bu esa ijtimoiy himoyaning eng muhim tamoyillaridan biri — adolat va ochiqlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Nihoyat, ijtimoiy himoya tizimining barqaror ishlashi uchun ijtimoiy adolat, birdamlik va subsidiarlik tamoyillarining jamiyatda mustahkam o'rnatilishi muhimdir. Ijtimoiy adolat har bir fuqaroning munosib hayot kechirish huquqini ta'minlaydi; ijtimoiy birdamlik esa jamiyatning barcha qatlamlari bir-birining farovonligi uchun mas'ul ekanligini bildiradi; subsidiarlik tamoyili esa yordamning eng past darajada, ehtiyojga eng yaqin nuqtada ko'rsatilishini ta'minlaydi. Bu tamoyillar ijtimoiy himoyani shunchaki davlat funksiyasi emas, balki jamiyatning umumiy qadriyatiga aylantiradi [6].

Ijtimoiy himoya tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda asosiy mexanizmlardan biridir. U aholining turli ijtimoiy xavflarga duch kelish ehtimolini kamaytiradi, shuningdek, keksalik, nogironlik, ishsizlik, kasallik va boshqa hayotiy holatlarda zarur kafolatni taklif etadi. Ijtimoiy himoyaning pensiya ta'minoti, mehnat bozorida ijtimoiy kafolatlar, tibbiy sug'urta, moddiy yordam va ijtimoiy xizmatlar kabi yo'nalishlari insonning farovon hayot kechirishiga, mehnat salohiyatining saqlanishiga va ijtimoiy tenglikning kuchayishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'ulomov S., Qosimova M. Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy himoya. – Toshkent: Fan, 2019. – 256 b.
2. Karimov A. Ijtimoiy himoya tizimining iqtisodiy asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2020. – 214 b.
3. Musayev A. Aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy mexanizmlari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018. – 198 b.

4. Esping-Andersen G. The Three Worlds of Welfare Capitalism. – Princeton: Princeton University Press, 1990. – 248 p.
5. Midgley J. Social Protection and Social Development. – London: Sage Publications, 2013. – 314 p.
6. International Labour Organization (ILO). World Social Protection Report 2021–2023. – Geneva: ILO Publishing, 2023. – 420 p.

TARIX**YANGI O‘ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISHINI
TA’MINLASHDA TURKIY TILLI DAVLATLAR KASABA
UYUSHMALARI TASHKILOTI BILAN O‘ZARO HAMKORLIK
ALOQALARI YANGI YO‘NALISHDA**

**Axmadjonov
Baxromjon,
Andijon davlat
texnika instituti
dotsenti, Tarix
fanlari bo‘yicha
falsafa doktori
(PhD)**

UO‘K: 9 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiy tilli davlatlar kasaba uyushmalari tashkilotlarining o‘zaro xalqaro hamkorlik aloqalari va ularning mehnatkashlar manfaatlarini himoya qilishdagi o‘ziga xos jihatlari tarixiy manbalar, davriy matbuot hamda internet materiallari asosida tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются международные профсоюзные организации тюркоязычных стран сотрудничество и его особенности в защите интересов трудящихся проанализировано на основе исторических источников, периодической печати и материалов интернета.

Annotation: This article examines the cooperation of international trade union organizations of Turkic-speaking countries and its features in protecting the interests of workers. The analysis is based on historical sources, periodicals and internet materials.

Kalit so‘zlar: Turkiy tilli davlatlar, federatsiya, xalqaro mehnat tashkiloti, ustav, mehnat konfederatsiyasi, mintaqaviy kongress, VTSSPS, strategiya, YUNISEF, parlament.

Ключевые слова: Тюркоязычные страны, федерация, международная организация труда, устав, конфедерация труда, региональный конгресс, ВЦСПС, стратегия, ЮНИСЕФ, парламент.

Key words: Turkic-speaking countries, federation, International Labor Organization, charter, labor confederation, regional congress, All-Union Central Council of Trade Unions, strategy, UNICEF, parliament.

Hozirgi davrda Markaziy Osiyo mintaqasida yangi tamoyillar kuchayib, ko‘p yillik muammolarni birgalikda hal etish, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarni yanada kuchaytirish uchun keng istiqbolli imkoniyatlar yaratilmoqda.

Yangi tarixiy sharoitda vujudga kelayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlarda Turkiy tilli davlatlar xalqlarining o‘tmishi, ularning tarixi, o‘ziga xos

turmush tarzlari va yaqin qo'shnichilik munosabatlariga har qachongidan ham ko'proq ehtiyoj sezilmoqda. Biroq ayni paytda mustaqil davlat bo'lib yashayotgan mamlakatlar o'z tarixiy ildizlarini qidirib topishi, o'zaro hamkorlik munosabatlarini qaytadan tiklash hayotiy zaruratdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2022-yili 22-sentabrda Samarqand shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar Sammitida ta'kidlab o'tgan fikri e'tiborga loyiqdir. "Turkiy dunyoning havas qilsa arziydigan buyuk tarixi, ulug' ajdodlari va beqiyos boyliklari bor. Va men ishonaman, Turkiy dunyoni buyuk kelajak kutmoqda. Bu kelajakni, hech shubhasiz, mehnatkash, bag'ri keng va oliyjanob halqlarimiz bilan birgalikda yaratamiz"[1].

Haqiqatdan ham yangilanayotgan O'zbekistonda Turkiy xalqlarning hamjihatligini yanada rivojlantirish va mustahkamlash maqsadida nainki turkiy davlatlar o'rtasidagi aloqalar, balki jamoat tashkilotlari o'rtasidagi do'stona hamkorlik aloqalari ham tizimli ravishda rivojlanib bormoqda.

Shuni alohida e'tirof etish lozimki, Ozarbayjonning Shusha shahrida 2023-yilning 29-iyulida Turkiy davlatlar - Qozog'iston, Ozarbayjon, Turkiya, O'zbekiston milliy kasaba uyushma markazlari o'rtasida yangi yagona birlashgan tuzilma-Turkiy davlatlar kasaba uyushmasi tashkilotini tuzish tug'risidagi shartnoma imzolandi [2]. Ushbu tuzilmaning asosiy maqsadi-mehnatkashlarning ijtimoiy, mexnat, kasbiy va iqtisodiy xuquq va manfaatlarini ximoya qilishga qaratilgan chora tadbirlarni birlashtirishdan iborat bo'lgan.

2023-yilning sentabr oyida Samarqand shahrida ushbu tadbirning ta'sis yig'ilishi bo'lib o'tgan. Turkiy davlatlar kasaba uyushmalari tashkilotining asosiy faoliyati hodimlarning mehnat, kasbiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa qonuniy huquqlari va manfaatlarini, kasaba uyushmalarining xalqaro birdamligi va o'zaro xamkorligini mustahkamlashdan iborat ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Shunisi e'tiborliki, 2023-yil 29-noyabr kuni Turkiyaning Anqara shahrida Turkiy davlatlar kasaba uyushmalari tashkilotining se'zdi bo'lib o'tgan [2]. Shuni alohida ta'kidlab o'tish o'rinliki, Samarqand shahrida o'tkazilgan tashkilotning ta'sis yig'ilishida asos sifatida ustav qabul qilingan. Ustavning loyhasi bo'yicha bildirilgan takliflar to'la inobatga olingan.

Ustavga binoan tashkilotning asosiy maqsad va vazifalari ta'sischi tashkilotlar o'rtasida o'zaro ishonch, do'stlik va yaxshi qo'shnichilikni mustahkamlash kasaba uyushmalarining rolini oshirish va mexnatkashlarning manfaatlaridan kelib chiqqan xolda, ijtimoiy va mexnat munosabatlarini ximoya qilish samaradorligini oshirish, Xalqaro Mehnat Tashkiloti xujjatlarida belgilangan asosiy inson huquqlari va ishchilarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini

himoya qilish bo'yicha halqaro hujjatlarga rioya etilishini rag'batlantirishdan iborat ekanligi atroflicha ko'rsatib o'tilgan [2].

Avvalombor shuni e'tirof etish o'rinliki, O'zbekiston kasaba uyushma Federatsiyasi tomonidan Turkiy tilli davlatlar kasaba uyushma tashkilotlari bilan mustaqillikni dastlabki yillaridanoq hamkorlik alakalari o'rnatib kelganligini tarixiy manbalar asosida ham ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston kasaba uyushmalari mustaqillikni dastlabki davridan boshlab jamiyatimiz ravnaqi uchun o'z faoliyatini yangicha tartibda yo'lga qo'yishga alohida e'tiborni qarata boshladi. Ayniqsa, xalqaro miqyosda kasaba uyushmalarining faoliyati, ularning tajribasi va muammolarini o'rganish shu asosda o'zlarini ish faoliyatini belgilab olishga alohida urg'u bera boshlaganligini e'tiborga olish muhimdir.

Barchamizga ma'lumki, mustaqillikkacha O'zbekiston kasaba uyushmalari, butun ittifoq kasaba uyushmalari markaziy kengashining (VTSSPS) ruxsatsiz xorijiy davlatlar kasaba uyushmalari tashkilotlari bilan erkin, mustaqil hamkorlik qilish imkoniyatiga ega emas edi.

O'zbekiston Respublikasi 1992-yilning 13-iyulida BMTning ixtisoslashtirilgan muassasasi-xalqaro mexnat tashkiloti (MOT) ga a'zo bo'ldi. SHunday qilib O'zbekiston kasaba uyushmalari faoliyatida ham mehnatkashlar huquqlarini ta'minlash bo'yicha dunyoda yetakchi tashkilot bo'lgan Xalqaro mehnat tashkiloti bilan yaqin hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish imkoniyati yaratildi.

Mustaqillik e'lon qilinganidan keyin birinchi mustaqil tashrif O'zbekiston kasaba uyushmalari delegatsiyasining Toskana MKK mintaqaviy qo'mitasi taklifiga binoan Italiyaga qilgan safari bo'lgan. Ushbu tashrif doirasida delegatsiya a'zolari 1991-yil 23- sentabrda Montekatine-termi shahrida bo'lib o'tgan Toskana mintaqaviy kongressida ishtirok etgan. Albatta, O'zbekiston kasaba uyushmalari delegatsiyasining Italiyaga tashrifi, kasaba uyushmalari faoliyatini yanada chuqurrok o'rganish, tajriba almashish, ikki tomonlama O'zbekiston Italiya kasaba uyushmalari aloqalarini mustahkamlashga xizmat qilgan [3,15-b].

Shuningdek, Frantsiya Umumiy Mehnat konfederatsiyasi mintaqaviy qo'mitasi taklifiga binoan, Respublika kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashining 4 nafar delegatsiyasi 1992-yili Frantsiyaga tashrif byurdi. Tashrif dasturiga binoan viloyat va idoraviy VKT rahbariyati darajasida muhokamalar, suhbatlar, turli tarmoqlardagi qator korxonalarga tashriflar, ayrim boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlari faoliyati bilan tanishish, mehnatkashlar bilan uchrashuvlar o'tkazishga qaratilgan [5,20-b].

Shunisi e'tiborga loyiqki, 1995-yilning dekabr oyida kasaba uyushmasi xodimlarining ikki guruhi Ashxobod shahrida yevroosiyo metal-ishchilari kasaba uyushmasining ayollar kengresida va 1996-yilning mart oyida Turkiya metall kasaba uyushmasining Ankara shahrida bo'lib o'tgan ayollar kongresida ishtirok etgan [3,24-b].

Bundan tashqari, Yevroosiyo metall-ishchilar kasaba uyushmasi bilan tuzilgan o'zaro hamkorlikka asosan, kasaba uyushmasi faollaridan 49 nafari Turkiyada o'zaro tajriba almashib malakasini oshirishga muvofiq bo'lganligini ham e'tirof etish o'rinlidir [3,26-b].

Xalqaro hamkorlik aloqalari, muntazam uchrashuvlar, albatta o'z samarasini beradi, O'zbekiston yosh kasaba uyushmasi xodimlaridan 7 nafari Anqarada o'tkazilgan Turkiya- metallar ittifoqi, metal-ishchilari kuriltoyida faol qatnashdilar va o'ziga xos ko'nikma tajribaga ega bo'ldilar [3,76-b].

Mustaqillik yillarida davlatimiz tomonidan jamaot tashkilotlarini, jumladan kasaba uyushmalarini erkin faoliyat yuritishiga, yaratilayotgan imkoniyat, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining xalkaro tashkilotlar va xorijiy kasaba uyushmalari markazlari bilan hamkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirish borish masalasiga to'la zamin yaratib berdi.

2011-yilda "O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi yo'li bilan xodimlarni hamda a'zo tashkilotlar faollarini chet el safariga yuborish tartibi", shuningdek "O'zbekiston kasaba uyushmalarining xalqaro faoliyati strategiyasi" tasdiqlandi.

Shu bois, 2012-yilning 25-may kuni "Fuqarolarning mehnat huquqlarini muhofaza qilish va amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutining roli" mavzusida xalqaro konferentsiya o'tkazilgan bo'lsa, 2013-yilning 2-avgust kuni "Ijtimoiy sheriklik barqaror ijtimoiy-mehnat munosabatlarini ta'minlashning omili sifatida: O'zbekiston tajribasi va yanada rivojlantirish istiqbollari" mavzusida xalqaro konferentsiya tashkil etilgan [3,40-b].

Ushbu konferentsiyalarda Xalqaro Mehnat tashkilotlari, BMT Taraqqiyot Dasturi, Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik tashkiloti, YUNISEF, Osiyo taraqqiyot banki, xorijiy davlatlar elchixonalari, Ozarbayjon, Qozog'iston davlatlari kasaba uyushmalari markazlari rahbarlari hamda vakillari, ishtirok etgan [5,42-b].

2015-yilning 22-23 aprel kunlari Federatsiya Kengashi tomonidan tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda Toshkent shahrida "Fuqarolarning munosib mehnat sharoitiga bo'lgan huquqlari kafolatlarini ta'minlashda kasaba uyushmalarining roli: O'zbekiston tajribasi" mavzusida xalqaro konferentsiya

o'tkazildi. Ushbu konferentsiya ishida davlat organlari, kasaba uyushmalari, ish beruvchilar birlashmalari, fuqorolik jamiyati institutlari, shuningdek, XMT, Xalkaro kasaba uyushmalari Konfederatsiyasi, xorijiy kasaba uyushmalari markazlari vakillari, O'zbekiston akkreditatsiyadan o'tgan qator xalqaro tashkilotlar mutasaddilari, jumladan Markaziy Osiyo davlatlari kasaba uyushmalari o'zaro fikr va tajribalari bilan muloqatda bo'lishgan. Shuningdek, Federatsiya kengashi vakillari muntazam ravishda Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston davlatlarida tashkil etilgan xalqaro o'quv seminarlar, konferentsiyalar, hamda, malaka oshirish kurslarida ham ishtirok etib kelmoqdalar.[3].

2018-yilning 25-aprel kuni Toshkentda O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi tashabbusi bilan "Harakatlar strategiyasi va kuchli ijtimoiy siyosat: xalqaro amaliyot va O'zbekiston tajribasi" mavzusida xalqaro konferentsiya o'tkazildi.

Konferentsiya ishida Xalkaro mehnat tashkiloti (XMT), Xalqaro kasaba uyushmalari Konfederatsiyasi (XKUK), Xalqaro kasaba uyushmalari Konfederatsiyasi Umumevropa mintaqaviy kengashi, xalqaro ish beruvchilar tashkiloti rahbarlari, 30 dan ortik mamlakatdan nufuzli xalqaro ekspertlar va yirik olimlar, O'zbekiston akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlar vakillari, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Turkiya, kabi Turkiy tilli davlatlarning kasaba uyushma markazlari rahbarlari ham ishtirok etganligini ham ta'kidlab o'tish ham o'rinlidir [2].

Xalqaro anjuman davomida milliy xalqaro ekspertlar ijtimoiy-mehnat munosabatlari, xalqaro mehnat standartlari, ijtimoiy ta'minot, real daromadlar va bandlik darajasini oshirish, ijtimoiy himoya, ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tamoyillari kabi yo'nalishlarni o'z ichiga olgan dolzarb masalalar bo'yicha o'z fikr mulohazalari hamda tajribalari bilan o'rtoqlashdilar. Ushbu xalqaro konferentsiyaning yakuniy natijasi "Toshkent rezolyutsiyasi"ni qabul qilinishi bilan yakunlangan[2] .

2019-yil 8-aprel kuni Samarqand shahrida Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikda "Tez o'zgaruvchan mehnat sohasi: muammo va yechimlar" mavzusidagi milliy konferentsiya ham o'tkazildi. Konferentsiyada Xalqaro mehnat tashkilotining mehnatkashlar faoliyati bo'yicha byurosi (AKTRAV) direktori o'rinbosari Anna Biondi, Xalqaro mehnat tashkiloti Mehnatkashlar faoliyati bo'yicha byurosi (AKTRAV)ning yevropa va Markaziy Osiyo sektori mudiri Sergeyus Glovatskas, XMT ning SHarqiy yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun Byurosining mehnatkashlar faoliyati bo'yicha mutaxasisi Gocha Aleksandriya, XMTning "O'zbekistonda munosib mehnat bo'yicha

mamlakat dasturi amalga oshirilishiga ko‘maklashish” loyihasi katta texnik maslahatchisi Anton Xauzen, shuningdek vazirliklar, idoralar, ish beruvchilar tashkilotlari va kasaba uyushmalaridan jami 60 nafar vakillar ishtirok etishgan [2].

Shuni ta’kidlash lozimki, 9-10 aprel kunlari esa “Xalqaro mehnat tashkilotlarining “Transmilliy korporatsiyalarga va ijtimoiy siyosatga taallukli printsiplar to‘g‘risidagi uch tomonlama deklaratsiyasi” kasaba uyushmalari uchun harakatlar vositasi” mavzusidagi Xalqaro seminar tashkil etildi. Xalqaro mehnat tashkilotlari, Xalqaro kasaba uyushmalari Konfederatsiyasi, qo‘shni davlatlarning kasaba uyushma markazlari vakillari ishtirok etgan mazkur seminarda kasaba uyushmalari va transmilliy hamda milliy kompaniyalar o‘rtasida samarali xamkorlikni yo‘lga qo‘yish mexanizmlari va vositalari to‘g‘risida fikr almashildi. Shuningdek anjuman ishtirokchilariga O‘zbekistonning bu boradagi tajribasi to‘g‘risida tegishli ma’lumotlar taqdim etilishi bilan birga, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va Tojikiston kasaba uyushmalarining tajribalari bilan xam tanishildi.

2019-yilda yana bir muhim xalkaro anjuman bo‘lib o‘tgan. Samarqand shahrida O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi Xotin-qizlar kengashi tashabbusi bilan xalkaro tashkilotlar va qator Turkiy davlatlar kasaba uyushmalari markazlari vakillari ishtirokida “Ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va kasaba uyushmalarining gender tengligiga erishishda ishtiroki” mavzusida xalqaro seminar o‘tkazilgan.

2025-yilda Issiko‘lda “Bo‘ston-Rezort” pansiyani ishga tushirildi. Ushbu xolat O‘zbekiston va Qirg‘iziston xalqlarining yanada xamkorlik aloqalarini kuchayib borayotganidan dalolatdir. Xullas, O‘zbekiston kasaba uyushmalarining xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad quydagilardan iboratdir:

- O‘zbekiston kasaba uyushmalari o‘z xalkaro faoliyatida kasaba uyushmalari birdamligi tamoyillariga amal qilish va tajriba almashish;

- Turkiy tilli davlatlar kasaba uyushmalari tashkilotlari bilan muntazam tizimli ravishda hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga ko‘tarish;

- Mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar bilan xorijiy davlatlar o‘rtasidagi samarali aloqalarni yanada mustahkamlash;

- Xalqaro kasaba uyushmalari konfederatsiyasi a‘zolari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantira borish;

-Kasaba uyushmalari faoliyatining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha XMT bilan hamkorlikni yanada kengaytirish xamda ushbu tashkilot tomonidan tashkil etilayotgan barcha tadbirlarda muntazam ravishda ishtirok e‘tish;

-Xorijiy davlatlarning turdosh kasaba uyushmalari bilan ikki tomonlama manfaatli aloqalarni yo‘lga qo‘yish va uslubiy hamkorlik qilish;

-Rivojlangan davlatlarning kasaba uyushmalari markazlari, xalqaro tashkilotlarning O‘zbekistonda akkreditatsiya qilingan bo‘limlari bilan aloqalarni yanada kengaytira borish;

Haqiqatdan ham bugungi kunga kelib Turkiy tilli davlatlarning o‘zaro hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga ko‘tarilganligidan guvox. Bu borada O‘zbekiston kasaba uyushmalari faoliyatining o‘rni beqiyos ekanligini e‘tirof etish muhimdir.

Adabiyotlar:

1.Sh.M.Mirziyoevning Samarqand shahrida o‘tkazilgan Turkiy davlatlar tashkiloti Sammitida so‘zlagan nutqi 2022-yil sentabr.

2. O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi matbuot xizmati.

3. <https://kasaba.uz/kuchli-izhimoij-siyosatning-uzbekistongahos-tazhribasi/>

4. O‘zbekiston Milliy Arxivi, fond M-106, ro‘yxat 1, yig‘majild 24, 25, 105, 106.

5. O‘zbekiston Milliy Arxivi, fond M-106, ro‘yxat 1, yig‘majild -107.

TARIX

O‘ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLAR TA‘LIMNING MUSTAQILLIK DAVRI TAJRIBASI: TIZIMNING TARKIB TOPISHI VA NORMATIV KAFOLATLAR



**Narziyev
Rustambek,
Sharof Rashidov
nomidagi
Samarqand davlat
universiteti
“O‘zbekiston tarixi”
kafedrasi doktranti**

UO‘K: 9 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1991 yildan to hozirgi kungacha nogironlar ta’limi tizimining shakllanish bosqichlari, maxsus ta’lim muassasalaridan inklyuziv ta’limga o’tish jarayoni yoritilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются этапы формирования системы образования для лиц с инвалидностью с 1991 года по настоящее время, процесс перехода от специальных образовательных учреждений к инклюзивному образованию.

Annotation: This article covers the stages of the formation of the system of education for people with disabilities from 1991 to the present day, the process of transition from special educational institutions to inclusive education.

Kalit so‘zlar: mustaqillik yillari; maxsus ta’lim; inklyuziv ta’lim; nogiron bolalar; ta’lim huquqi; qonunchilik bazasi; ixtisoslashgan maktab-internatlar; inklyuziya konsepsiyasi.

Ключевые слова: годы независимости; специальное образование; инклюзивное образование; дети-инвалиды; право на образование; нормативно-правовая база; специализированные школы-интернаты; концепция инклюзии.

Key words: years of independence; special education; inclusive education; children with disabilities; educational rights; legislative framework; specialized boarding schools; inclusion concept.

O‘zbekiston SSR davrida shakllangan nogiron bolalarni maxsus maktablarda o‘qitish tizimi mustaqillikdan keyin dastlabki yillarda ham davom etdi. 1991 yil 18 noyabrda qabul qilingan “Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun mustaqil O‘zbekiston nogironlik sohasidagi birinchi huquqiy hujjati bo‘ldi [15, b. 2-4]. Ushbu qonunda nogironlarning boshqa fuqarolar bilan teng huquqlari, jumladan, ta’lim olish huquqi kafolatlangan bo‘lsa-da, amaliyotda nogiron bolalarni umumiy ta’lim muassasalariga integratsiya qilish masalasi hali ko‘ndalang qo‘yilmagan edi. Mazkur davrda

nogiron bolalar uchun alohida ixtisoslashgan maktab-internatlar tarmog'i saqlanib qoldi. Misol uchun, 2013 yilgacha respublika bo'yicha 86 ta maxsus maktab-internat faoliyat yuritib, ular turli toifadagi (eshitish, ko'rish, jismoniy yoki aqliy) nuqsoni bo'lgan bolalarni alohida dastur asosida o'qitishga ixtisoslashgan edi [7, c. 31-32]. Bu maktablarda ta'lim muhitini nogiron bolalarga moslashtirishga e'tibor berilgan bo'lsa-da, ular sog'lom bolalar bilan birgalikda ta'lim olish imkoniyatidan mahrum edi.

O'zbekiston mustaqilligining ilk o'n yilligida maxsus ta'lim muassasalari tarmog'ini saqlab qolish bilan birga, nogironligi bo'lgan bolalar manfaatlarini ijtimoiy himoya qilishga doir dastlabki hujjatlar qabul qilindi. Xususan, 1992 yilda O'zbekiston BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasini ratifikatsiya qilib, bolaning, jumladan nogiron bolaning, ta'lim olish huquqini kafolatlash majburiyatini zimmasiga oldi. Keyinchalik 1997 yilda mamlakatda ta'lim sohasida tub islohot boshlab berildi – "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilinib, umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limining yagona tizimi joriy etildi. Biroq 1997 yilgi Ta'lim to'g'risidagi Qonunda alohida ehtiyojli bolalarning ta'limga teng huquqli kirishiga oid aniq me'yorlar ifoda etilmagan edi. Unda faqat jismoniy yoki aqliy nuqsonlari tufayli oddiy maktab dasturini o'zlashtira olmagan bolalar uchun maxsus ta'lim muassasalari mavjudligi qayd etilib, ular "zarur bo'lganda" maxsus (alohida) sharoitlarda o'qitilishi mumkinligi ko'rsatilgan [12, p. 14]. Natijada mazkur davrdagi qonunchilik amalda inklyuziv ta'lim konsepsiyasini joriy etishga undamagan, aksincha, nogiron bolalarni "oddiy" va "maxsus" maktablarga ajratish amaliyotini qonuniy jihatdan mustahkamlab bergan edi.

Shu bilan birga, 2000-yillarga kelib, nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim sifati va ijtimoiy moslashuvini yaxshilash maqsadida ayrim dastur va tashabbuslar amalga oshirila boshlandi. Jumladan, 2005–2010 yillarda "Bolalik" davlat dasturi doirasida nogiron bolalarni ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlari ko'rilgan bo'lsa, 2007–2011 yillarda nogiron bolalar uchun rehabilitatsiya markazlari infratuzilmasini yaxshilash loyihalari amalga oshirildi [11, b. 129-137]. 2007 yilda esa Respublika Ijtimoiy tashabbuslar fondi tomonidan "O'zbekistonda inklyuziv ta'lim" pilot loyihasi yo'lga qo'yildi. Ushbu loyiha doirasida qator viloyatlar markazlarida – Termiz, Qarshi, Navoiy, Samarqand, Jizzax, Guliston, Toshkent, Andijon, Farg'ona, Qo'qon, Urganch va Nukus shaharlarida – tanlab olingan maktabgacha va umumta'lim muassasalarida sog'lom va nogiron bolalar birgalikda tahsil oladigan "inklyuziv sinf va guruhlar" tashkil etildi [7, c. 31-32]. Milliy model sifatida taklif etilgan ushbu yondashuv natijasida 600 nafardan ortiq nogiron bolalar ilk bor oddiy bolalar bilan birga ta'lim jarayoniga jalb qilindi [7, c. 32]. Bu tajriba mamlakat sharoitida inklyuziv ta'limni yo'lga qo'yish

mumkinligini amalda namoyish etdi va kelgusidagi islohotlar uchun zamin hozirladi.

2. Qonunchilik bazasining takomillashtirilishi va inklyuziv ta'limga o'tish. 2008 yil O'zbekiston nogiron bolalar ta'lim huquqini ta'minlash borasida muhim bir bosqich bo'ldi. Shu yili "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, unda har bir bolaning tegishli yoshga doir davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim olish huquqi mustahkamlab qo'yildi [4, b. 5-7]. Mazkur qonunning 29-moddasida ota-onalar yoki vasiylarga bolaning qaysi turdagi ta'lim muassasasida – umumta'lim maktabidami yoki maxsus maktabda – o'qishini tanlash huquqi berildi [4, b. 15-16]. Biroq bu tanlov amaliyoti tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya xulosasiga bog'liq edi: odatda, nogironligi bo'lgan bolani oddiy maktabga qabul qilish uchun maxsus komissiya tavsiyasi talab etilardi [12, p. 15]. Amaliyotda ko'plab hollarda bunday komissiyalar bolani umumta'lim muhitiga emas, balki maxsus muassasaga yo'llashni tavsiya etgan, chunki oddiy maktablarda inklyuziv ta'lim uchun zarur shart-sharoitlar yetarli darajada mavjud emas edi. Shunga qaramay, 2008 yilgi qonun bolalarning ta'lim olishda teng huquqliligini ta'minlash yo'lida muhim qadam bo'ldi hamda keyinchalik inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun huquqiy asos yaratdi.

Keyingi yillarda nogironlar ta'limini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar takomillashtirib borildi. 2017 yil 1 dekabrda Prezident Sh. Mirziyoyevning PF–5270-son Farmoni e'lon qilinib, unda nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash davlat tizimini tubdan takomillashtirish vazifasi qo'yildi [5, b. 1-3]. Ushbu Farmon bilan O'zbekiston hukumati BMT Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasining talablarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilishga kirishdi. Xususan, Farmonda "nogiron" atamasini rasman "nogironligi bo'lgan shaxs" iborasi bilan almashtirish, nogironlar huquqlarini himoya qiluvchi alohida qonun loyihasini ishlab chiqish va taqdim etish belgilandi [5, b. 4-6]. Shu asosda Vazirlar Mahkamasi va tegishli idoralar ishtirokida yangi qonun ustida ish boshlandi. Davlat rahbari tashabbusi bilan, bir tomondan, nogiron shaxslarning huquq va manfaatlarini har tomonlama himoya qiluvchi kompleks yondashuv zarurligi ta'kidlangan bo'lsa, ikkinchi tomondan, jamiyatda nogironlik masalalariga oid tushunchalarni yangilash, nogironlarni kamsitishdan xoli muhit yaratish g'oyasi ilgari surildi.

Mazkur islohotlarning mantiqiy davomi sifatida 2019–2020 yillarda ta'lim tizimi va nogironlar huquqlariga oid muhim normativ hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 2019 yil davlat tomonidan "2030 yilgacha Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish Konsepsiyasi" tasdiqlandi. Unda alohida ehtiyojli bolalarning ta'lim

olishini yaxshilash, inklyuziv yondashuvni keng joriy etish alohida vazifa sifatida belgilandi [12, p. 18]. 2020 yil 23 sentabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan yangi tahrirdagi “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun qabul qilindi [2, b. 1-3]. Ushbu Qonun O’zbekistonda 1997 yildan buyon amal qilib kelgan ta’lim to’g’risidagi qonunni almashtirdi va zamonaviy talablar asosida yangilandi. Eng muhimi, yangi Qonunning 4-moddasida ta’lim sohasida hech kimni nogironligi yoki boshqa belgilariga ko’ra kamsitmaslik prinsipi mustahkamlandi [2, b. 5]. Qonunga ilk bor “inklyuziv ta’lim” tushunchasi kiritilib, uning hayotga tatbiq etilishi uchun normativ asos yaratildi. Yangi hujjatda nogironligi bo’lgan bolalarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularni maxsus muassasalarda yoki oilaviy ta’lim shaklida emas, aksincha imkon qadar inklyuziv (integratsiyalashgan) muhitda o’qitish masalasi e’tiborga olindi [9, p. 514-515].

Shuningdek, 2020 yil 15 oktabrda qabul qilingan “Nogironligi bo’lgan shaxslarning huquqlari to’g’risida”gi Qonun mamlakatda nogironlar ijtimoiy himoyasi va huquqlarini ta’minlash borasidagi asosiy huquqiy hujjatga aylandi [3, b. 8-10]. Ushbu qonun bilan 1991 yildagi “Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to’g’risida”gi qonun o’z kuchini yo’qotdi [15, b. 2]. Yangi Qonunning 20-moddasida nogironligi bo’lgan shaxslarning ta’lim olishi uchun teng sharoitlar yaratish davlatning burchi ekani belgilandi [3, b. 25]. Xususan, ularga maktabgacha, umumiy o’rta, o’rta maxsus va oliy ta’limga kirishda zarur sharoitlar (kirish imtihonlarida maxsus moslashuvlar, qo’shimcha kvotalar va h.k.) yaratish majburiyati qonuniy mustahkamlandi. Mazkur qonun nafaqat ta’lim, balki nogironligi bo’lgan shaxslarning barcha sohalardagi huquqlarini (mehnat, sog’liqni saqlash, ijtimoiy himoya va boshqalar) keng qamrovda kafolatlab, BMT Konvensiyasi mezonlariga muvofiqlikni ta’minladi [13, p. 39-42].

2020 yilning o’zida davlat rahbarining inklyuziv ta’limni rivojlantirishga doir alohida qarori ham qabul qilindi. Prezidentning 2020 yil 13 oktabrdagi PQ–4860-son qarori bilan Xalq ta’limi tizimida 2020–2025 yillarda inklyuziv ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi [6, b. 2-4]. Ushbu hujjat inklyuziv ta’lim bo’yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilab berdi. Jumladan, 2021–2022 o’quv yilidan boshlab har bir viloyatda namunaviy inklyuziv maktablarni tashkil etish, umumta’lim maktablarini bosqichma-bosqich jismoniy muhandislik jihatdan moslashtirish (panduslar, maxsus hojatxonalar va boshqalar bilan jihozlash), pedagog kadrlarni inklyuziv metodika bo’yicha qayta tayyorlash kabi vazifalar qo’yildi [9, p. 516]. Shuningdek, qarorda 2025 yilgacha bosqichma-bosqich alohida ehtiyojli bolalarning kamida 50 foizini oddiy maktablardagi inkluziv sinflarga integratsiya qilish maqsadi belgilangan edi. Mazkur qarorning ijrosi sifatida qisqa fursat ichida qator amaliy ishlar boshlandi: 2021 yildan boshlab

ayrim umumta'lim maktablarida nogiron bolalar uchun maxsus sinflar (inklyuziv sinflar) ochildi, metodik qo'llanmalar ishlab chiqildi, ota-onalar va jamoatchilikka tushuntirish ishlari kuchaytirildi.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan huquqiy va tashkiliy islohotlar o'z samarasini bera boshladi. 2021 yil iyun oyida O'zbekiston Respublikasi nihoyat BMT Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasini ratifikatsiya qildi [13, p. 39]. Shu munosabat bilan, 2022 yil boshida Konvensiya talablarini milliy darajada ro'yobga chiqarish bo'yicha Milliy harakatlar rejasi va Strategiya loyihasi ishlab chiqilib, Oliy Majlis tomonidan 2023–2025 yillarga mo'ljallangan maxsus Milliy Harakatlar rejasi tasdiqlandi [10, p. 47-50]. Unda ta'lim sohasida quyidagilar ko'zda tutilgan: inklyuziv ta'limni huquqiy tartibga solish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, barcha bolalar uchun maktablarga kirish infratuzilmasini to'siqsiz qilish, maxsus ehtiyojli bolalarni erta aniqlash va aralashuv tizimini yo'lga qo'yish, malakali defektolog kadrlar tayyorlashni kengaytirish va h.k. Davlatning kuchli siyosiy irodasi va xalqaro hamjamiyat (Jahon banki, UNICEF va boshqalar) ko'magida ushbu rejalarni amalga oshirish ishlari boshlangan [13, p. 41-44].

Inklyuziv ta'lim sohasidagi eng e'tiborga molik yutuqlardan biri – uning amaliy qo'llanish geografiyasining kengayganidir. 2023/2024 o'quv yili birinchi yarim yilligi holatiga ko'ra, respublika bo'ylab 530 ta umumta'lim maktabida inklyuziv ta'lim yo'lga qo'yildi [10, p. 48]. Ta'kidlash joizki, 2018 yilda tasdiqlangan davlat ta'lim dasturida inklyuziv ta'lim milliy ta'lim tizimining kelajagi uchun muhim yo'nalish sifatida qayd etilgan edi [11, p. 515]. Mana shu siyosiy e'tibor tufayli qisqa muddat ichida ko'plab maktablar inklyuziv ta'limga tayyorlandi: shaharlardagi ba'zi maktablar tajriba sifatida tanlanib, u yerda nogiron bolalar sog'lom bolalar bilan birgalikda o'qiy boshladi; qator pedagoglar maxsus kurslarda o'qitilib, inklyuziv metodikaga o'rgatildi; ota-onalar va mahalla jamoalari o'rtasida targ'ibot ishlari olib borildi. Ayni paytda, shuni ta'kidlash kerakki, mazkur maktablarning aksariyati shahar markazlarida joylashgan bo'lib, qishloq joylarda inklyuziv ta'limni joriy etish sur'ati biroz sekinroq kechmoqda [11, p. 515]. Biroq hukumat tomonidan belgilangan rejalarga muvofiq, 2025 yilgacha barcha hududlarda inklyuziv ta'lim elementlarini joriy etish ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, oliy ta'lim sohasi ham e'tibordan chetda qolmadi. 2018-yilda Vazirlar Mahkamasining 417-son qarori bilan imkoniyati cheklangan yoshlarni oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda maxsus davlat grantlari kvotalari ajratish tartibi tasdiqlandi [12, p. 17]. Natijada har yili o'nlab nogironligi bo'lgan

yigit-qizlar oliy ta'lim muassasalariga imtiyozli ravishda o'qishga kira boshladi. Shuningdek, ayrim universitetlarda (masalan, Toshkent davlat pedagogika universitetida) "Defektologiya" yo'nalishida maxsus inklyuziv ta'lim kafedralari tashkil etilib, kelgusida maktablarda inklyuziv yondashuvni joriy qiluvchi mutaxassis kadrlar tayyorlanmoqda [12, p. 19].

Ta'kidlash lozimki, hukumat maxsus ta'lim muassasalarini ham e'tibordan soqit qilmayapti. Ayni paytda mamlakatda 85 ta maxsus maktab-internat faoliyat ko'rsatmoqda va davlat ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga, o'quv reja va dasturlarini zamon talablari asosida yangilashga alohida e'tibor qaratmoqda [7, c. 32]; [9, p. 518]. Zero, xalqaro tajribada ayrim rivojlangan davlatlar barcha nogiron bolalarni umumiy maktablarga o'tkazishga uringan va maxsus maktablarni butunlay yopib yuborgan. O'zbekistonda esa hozircha aralash model qo'llanilmoqda: bir tomondan, bosqichma-bosqich inklyuziv sinflar soni oshirilsa, ikkinchi tomondan, og'ir darajadagi imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus maktablar faoliyat yuritishda davom etmoqda [7, c. 32-33]. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi vaqtda nogiron bolalarning atigi 15–20 foizi umumta'lim maktablarida o'qimoqda, qolgan 80–85 foizi esa maxsus maktab-internatlarda ta'limni davom ettirmoqda [9, p. 2-3]. Bu ko'rsatkichlar hali ham inklyuziv ta'limning to'liq qaror topmaganini, tizim oldida integratsiyani kengaytirish vazifasi turganini ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan natijalar shuni ko'rsatadiki, mustaqillik yillarida O'zbekiston nogironligi bo'lgan shaxslar ta'limi tizimining huquqiy asoslarini yaratish borasida sezilarli yutuqlarga erishdi. Eng avvalo, qonunchilik darajasida nogironlarning ta'lim olishi inson huquqi sifatida e'tirof etildi. Konstitutsiya va keyingi qonunlarda har kim teng ta'lim olish huquqiga egaligi va nogironlarga nisbatan diskriminatsiya taqiqlanishi belgilandi [1, b. 12-13; 3, b. 8]. Bu tamoyillar milliy qonunchilik va siyosatda inkluzivlik g'oyasiga zamin yaratdi. Xususan, 2020 yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi yangi Qonunda inklyuziv ta'lim tushunchasining kiritilishi va 2020 yilgi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunda nogiron bolalarning teng ta'lim olishi kafolatlanishi – bu sohadagi huquqiy bo'shliqni to'ldirdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ilgari amalda bo'lgan qonunlar (masalan, 1997 yilgi Ta'lim qonuni) inklyuziya masalasini ochiq tilga olmagan va maxsus ta'limga urg'u bergani olimlar tomonidan tanqid qilingan edi [8, b. 388-390]. Endilikda esa qonunchilik meditsina modelidan ijtimoiy modelga tomon siljiyapti: ya'ni, avval boladagi nuqson tufayli uni alohida maktabga joylashtirish "muammo yechimi" deb qaralgan bo'lsa, hozirda ta'lim tizimini bolaning individual ehtiyojlariga moslashtirish konsepsiyasi ilgari surilmoqda.

Shu bilan birga, olingan natijalar inklyuziv ta'limni to'laqonli joriy etishda hali ancha masalalar ochiq qolayotganini ham ko'rsatadi. Jumladan, infratuzilma muammolari hamon dolzarb: ko'plab umumta'lim maktablari jismoniy imkoniyatlari cheklangan o'quvchilar uchun moslashtirilmagan (panduslarning yo'qligi, binolarda lift va maxsus sanitariya joylarining yetishmasligi va hokazo) [9, p. 3]. O'qituvchilarning malakasi masalasi ham muhim to'siqlardan: pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida inklyuziv ta'lim metodikasi hali to'liq joriy etilmagan, ko'plab amaldagi o'qituvchilar maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash ko'nikmalariga ega emas [11, p. 119-122]. Bu esa bunday bolalar oddiy sinflarga integratsiya qilinganda ta'lim sifati va samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Didaktik-material bazaning yetishmasligi ham seziladi: nogiron bolalar uchun maxsus moslashtirilgan darsliklar, o'quv qo'llanmalari va texnik vositalar cheklangan [9, p. 3]. Masalan, eshitish nogironi bo'lgan bolalar uchun eshitish moslamalari, nuqsonni tuzatish jihozlari yoki Brayl alifbosidagi materiallar har doim ham maktablarda mavjud emas.

Ijtimoiy-psixologik omillar – jamiyat va ota-onalarning qarashlari ham inklyuziv ta'limning muvaffaqiyatini belgilaydi. O'zbekiston jamiyatida an'anaviy ravishda nogiron bolalarga nisbatan xayriya yoki himisergarlik kayfiyati kuchli bo'lib, ularni oddiy maktabga berishdan ko'ra maxsus maktabda yoki uyda tarbiyalashni ma'qul ko'ruvchi qarashlar anchayin keng tarqalgan edi [8, b. 387-389]. So'nggi yillarda olib borilgan targ'ibot-tashviqot ishlariga qaramay, hali ham ba'zi ota-onalar va hatto o'qituvchilar inklyuziv ta'lim samaradorligiga shubha bilan qaramoqda [9, p. 3-4]. Jamiyatda nogiron bolalarni "ajanabiy" muhitga moslashtirish qiyin, ular alohida o'qigani ma'qul degan stereotiplar mavjud. Bu stereotiplarni bartaraf etish uchun vaqt va izchil ma'rifiy ishlar talab etiladi. Shu ma'noda, inklyuziv ta'lim nafaqat ta'lim sohasi islohoti, balki jamiyatning nogironlikka munosabatini o'zgartiruvchi, inkluziv madaniyatni shakllantiruvchi jarayondir.

Yuqoridagi muammolarga qaramay, O'zbekiston inklyuziv ta'lim borasida qat'iy ijobiy qadamlar qo'ymoqda. Davlat "hech kimni e'tibordan chetda qoldirmaslik" tamoyili asosida har bir bolaning, shu jumladan nogiron bolaning salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga intilmoqda [13, p. 43-45]. Bu yo'lda milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish davom etadi. Misol uchun, kelgusida "Inklyuziv ta'lim to'g'risida" alohida qonun yoki kodeks qabul qilinishi ham ehtimoldan xoli emas. Xuddi shuningdek, pedagogik oliy ta'lim tizimiga "Inklyuziv pedagogika" fanini joriy etish, har bir viloyatda defektolog va inklyuziv ta'lim metodistlarini tayyorlash markazlarini ochish rejalari muhokamada. Inklyuziv ta'limni

monitoring qilish va baholash tizimini yo'lga qo'yish ham dolzarb – bu borada Hukumat 2023 yilda maxsus indikatorlar va hisobot shakllarini joriy etdi [13, p. 79-87].

Xalqaro tajribadan ma'lumki, inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilarga – nogiron bo'ladimi yoki yo'q – foydali ta'sir ko'rsatadi: bolalarda mehribonlik, bag'rikenglik, jamiytdagi turli xil insonlarga hurmat kabi fazilatlar shakllanadi, nogiron bolalar esa ijtimoiy muhitga yaxshiroq moslashadi va o'z tengdoshlari orasida rivojlanishga erishadi [11, p. 113-118]. O'zbekistonda ham inklyuziv ta'limning bunday ijobiy samarasini namoyon etuvchi misollar ko'paymoqda. Masalan, ayrim umumta'lim maktablarida nogiron bolalar bilan birga o'qigan sog'lom bolalar ularga do'stona ko'maklashib, birgalikda musobaqa va tanlovlarda qatnashib, nafaqat o'z nogiron do'stlarini, balki o'z shaxsiyatlarini ham rivojlantirmoqdalar. Bu jamiyatning umumiy ma'naviy salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi, zero inkluziya – bu nafaqat ta'lim masalasi, balki jamiyatning har bir a'zosini qadrlash va hech kimni ajratib qo'ymaslik g'oyasidir.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida nogironlar ta'limi tizimi izchil rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 1990-yillarda hukm surgan segregatsion maxsus ta'lim modeli asta-sekin o'zgarib, 2000-yillarning oxiri va 2010-yillarda inkluziv ta'lim konsepsiyasiga yo'l ochildi. Bu jarayonda huquqiy asoslar muhim rol o'ynadi: dastlab Konstitutsiya va “Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida”gi qonun bilan boshlanib, keyinchalik “Bola huquqlari to'g'risida”gi qonun, prezident farmon va qarorlari hamda yangi tahrirdagi “Ta'lim to'g'risida”gi va “Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida”gi qonunlar bilan mustahkamlandi. Ayniqsa, 2020 yilgi qonunlarning qabul qilinishi va O'zbekistonning BMT Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasini ratifikatsiya qilishi tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi – bu bilan davlat nogiron shaxslarning ta'lim olish huquqini to'la tan oldi va xalqaro majburiyatlarni zimmasiga oldi.

Hozirgi vaqtda mamlakatda inklyuziv ta'limni amalga oshirish bosqichma-bosqich davom etmoqda. Yuzlab umumta'lim maktablarida nogiron bolalar sog'lom tengdoshlari bilan birga ta'lim olishmoqda, qonunchilik va amaliy me'yorlar esa bunday integratsiyani qo'llab-quvvatlash uchun moslashtirilmoqda. Shu bilan birga, oldinda turgan vazifalar ham oz emas. Infratuzilmani to'liq moslashtirish, pedagoglarni maxsus tayyorlash, mos o'quv materiallari bazasini shakllantirish va eng muhimi – jamiyat ongida inklyuziv qadriyatlarni mustahkamlash zarurati mavjud. Shunday bo'lsa-da, olib borilayotgan islohotlar nogironlar ta'limi tizimini modernizatsiya qilishda qat'iy ijobiy siljishga erishilganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillari davomida O‘zbekiston nogironlar ta’limi tizimi rivojida segregatsiyadan inklyuziyaga tomon yo‘l oldi. Huquqiy bazaning takomillashuvi bu jarayonning poydevorini yaratdi – endilikda inklyuziv ta’lim prinsiplari qonunlarda mustahkamlandi va davlat siyosiy darajada bu yo‘nalishni qo‘llab-quvvatlamoda. Bu boradagi tajriba shuni ko‘rsatadiki, qonunchilikdagi o‘zgarishlar amaliy natija berishi uchun ularni to‘g‘ri implementatsiya qilish, ta’lim muassasalarini moddiy va metodik jihatdan tayyorlash hamda jamiyatni psixologik jihatdan moslashtirish zarur. O‘zbekiston misolida nogironlarni ijtimoiy hayotga to‘laqonli integratsiya qilish yo‘lida ta’lim tizimini isloh etish uzluksiz jarayon ekanini ko‘rmoqdamiz. Ushbu jarayon yutuqlari va kamchiliklarini ilmiy tahlil qilish esa kelgusida yanada puxta chora-tadbirlar ishlab chiqish, barcha bolalar uchun teng va sifatli ta’lim imkoniyatlarini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2014. – 72 b. (41-modda, 45-modda) [1, b. 12-13].
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ–637-son, 23.09.2020 y. – 32 b. (4-modda) [2, b. 5].
3. O‘zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ–641-son, 15.10.2020 y. – 40 b. (20-modda) [3, b. 25].
4. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 07.01.2008 y., O‘RQ–138-son. – 24 b. (29-modda) [4, b. 15-16].
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (PF–5270-son, 01.12.2017). “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – Xalq so‘zi gaz., 02.12.2017. [5, b. 1-6].
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (PQ–4860-son, 13.10.2020). “Bolalarni maxsus ehtiyojlar bilan ta’lim-tarbiyalash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – QHTB (Qonun hujjatlari to‘plami), 2020 y., No. 37, 768-modda. [6, b. 2-4].
7. Мелиева Ш. М. Инклюзивное образование в Узбекистане // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития, 2013, №2. – С. 31–33. [7, с. 31-32].
8. Raimova N. X. Aqliy va jismoniy rivojlanishida muammolari bo‘lgan insonlar va sog‘lom insonlar aloqasi // BILIG – Ilmiy faoliyat (Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi jurnali), 2023, Jild 4, No. 4. – B. 386–390. [8, b. 387-389].
9. Sulaymanova M. K., Utbasarova U. M. Inclusive Education in the Republic of Uzbekistan: Problems and Solutions // Sciental Journal of Education, Humanities and Social Sciences, Vol. 3, No. 10, 2025. – pp. 1–4. [9, p. 2-3].

10. Porsaeva M. M. Inclusive Education in Uzbekistan: Legal Framework, Institutional Progress and International Comparison // Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning, Vol. 6, No. 4, 2025. – pp. 10–13. [10, p. 47-50].
11. Saidova N. B. Improving Mechanisms for Advancing the Effectiveness of Inclusive Education in Uzbekistan // International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, Vol. 12, No. 2, 2025. – pp. 514–520. [11, p. 513-517].
12. UNICEF. Legislation and Policy Review of Inclusive Education in Uzbekistan. – Tashkent, 2020. – 20 p. [12, p. 14-19].
13. World Bank. Uzbekistan's First Steps Towards Implementing the CRPD. – World Bank Brief, 22 Dec 2023. – p. 1–2. [13, p. 39-44].
14. United Nations. Convention on the Rights of Persons with Disabilities (CRPD). – New York, 2006. – Art. 24. [14, p. 3].
15. O'zbekiston Respublikasining "Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. 18.11.1991 y. (O'RQ–162-son, 11.07.2008 y. tahriri; kuchini yo'qotgan). – QHTB, 2013 y., No. 18, 233-modda. [15, b. 2-4].

TARIX

YANGI O'ZBEKISTONDA ADVOKATURA INSTITUTINING QAYTA SHAKLLANISH TARIXI



**Murtazayev
Dilshod,
Navoiy davlat
universiteti
tadqiqotchisi**

UO'K: 9 (575.1)

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda 2017-2024-yillarda advokatura institutining qayta shakllanish va rivojlanish jarayonlari, huquqiy hamda amaliy o'zgarishlar tahlil etiladi.

Аннотация: В статье анализируются процессы реформирования и развития института адвокатуры а также правовые и практические изменения в Узбекистане в 2017–2024 годах.

Annotation: The article analyzes the processes of reforming and developing the institution of advocacy, as well as legal and practical changes in Uzbekistan during 2017–2024.

Kalit so'zlar: Adliya, advokatura, Advokatlar palatasi, advokatlik byurosi, advokatlik firmasi, advokatlik qasamyodi, YuMOM, e-advokat.uz, advice.uz, madad.uz, «Mediatsiya», «O'zbekiston-2030».

Ключевые слова: Юстиция, адвокатура, Палата адвокатов, адвокатское бюро, адвокатская фирма, адвокатская присяга, ЮМОМ, e-advokat.uz, advice.uz, madad.uz, «Медиацция», «Узбекистан–2030».

Key words: Justice, advocacy, Bar Association, law office, law firm, advocate's oath, YuMOM, e-advokat.uz, advice.uz, madad.uz, "Mediation", "Uzbekistan-2030".

O'zbekistonda 2017-yildan boshlab advokatura sohasida yangi bosqichga qadam qo'yildi. Prezidentimizning 2018-yil 12-maydagi PF-5441-sonli farmoni bu sohada tub islohotlarni boshlab berdi. Unda advokaturaning hozirgi holati, so'nggi yillardagi ijobiy o'zgarishlar bilan birga, muammolarni bartaraf etish yo'llari belgilab berildi. Mazkur farmon asosida advokatura faoliyatini tartibga soluvchi qonun va normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilgan o'zgartishlar ushbu sohadagi tizimli islohotlarning uzviy va bosqichma-bosqich davomi bo'ldi.

Advokatlik faoliyatini rivojlantirish maqsadida Adliya vazirligi tasarrufidagi YuMOM nafaqat adliya xodimlari, balki advokatlarning malakasini oshirish hamda qayta tayyorlashda ham muhim rol o'ynamoqda. Vazirlar Mahkamasining 544-sonli qaroriga muvofiq Markazda yuridik sohaga oid bilim talab etiladigan barcha sohadagi mutaxassislar, shu jumladan advokatlar,

mediatorlarni ham o‘qitilishi belgilandi. Ayniqsa, 2020-yil 1-yanvardan boshlab kuchga kirgan “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonun orqali advokaturani rivojlanishining yangi bosqichi boshlandi. Xalqaro tajribaga suyanib, advokatlar malaka oshirishida o‘z ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos keluvchi shaklni erkin tanlash qulay mexanizmi shakllandi¹.

2017-2024-yillar davomida Advokatlar palatasining faoliyatida sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi. Jumladan, advokatlar sud binolariga hech qanday cheklovlarsiz aloqa vositalari, noutbuk va boshqa qurilmalarni olib kirish huquqiga ega bo‘ldi. Malaka imtihonlarini adolatli va shaffof o‘tkazish uchun, onlayn translyatsiya qilinishi yo‘lga qo‘yildi. Advokatlar o‘z himoyasidagi shaxslar bilan begona shaxslar ishtirokisiz, video yoki audiokuzatuvsiz xonalarda erkin uchrashish huquqini qonuniy asosda qo‘lga kiritdi.

2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi 2 esa sud-huquq sohasini chuqur isloh qilish bilan bir qatorda advokatura institutining roli va salohiyatini tubdan kuchaytirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Olim M.Rustambayevning ta’kidlashicha, advokatlarning jinoyat ishlari bo‘yicha ishtirok etish huquqlari ancha kengayib, ular sud jarayonida dalillarni to‘plashda to‘laqonli va mustaqil isbotlovchi subyekt sifatida qatnashish imkoniyatiga ega bo‘ldi³.

2019-yil boshida O‘zbekiston aholisi soniga nisbatan advokatlar sonining juda past darajada edi. Xususan, 2019-yilda 3,9 mingta advokat ro‘yxatga olingan bo‘lib, 2010-2020 yillar mobaynida ularning soni kutilganidek, sezilarli darajada oshmadi. O‘zbekistonda o‘rtacha 8,6 ming kishiga bir advokat, hududlarda bu ko‘rsatkich 12-20 mingni tashkil qildi⁴.

2019-yil 13-dekabrda Prezidentimizning PQ-4551-sonli qarori 5 qabul qilinishi, advokatura institutini tubdan isloh qilish jarayonida muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi. Shuningdek, «Bepul yuridik yordam to‘g‘risida»gi qonun loyihasi, 2023-yil 16-iyunda esa «Davlat hisobidan yuridik yordam

¹ <https://yuz.uz/uz/news/yurtimizda-yuristlar-malakasiqandayoshiradi?view=mahsulot-xitoynikini-bolsa-unda-kafolat-muddati-bolmaydimi>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan «2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-sonli farmoni.

³ Rustambayev M.H. O‘zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati : darslik / O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. TDYI. Toshkent: O‘FMJN, 2012. 384 bet

⁴ https://norma.uz/nashi_obzori/advokatura_kakovy_problemy_i_kak_ih_reshat

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-dekabrda «Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4551-sonli qarori.

ko‘rsatish to‘g‘risida»gi 848-sonli qonuni¹ ishlab chiqildi. Mazkur Qonun bilan davlat hisobidan aholiga bepul yuridik yordam olish imkoniyatlari yaratildi. 2023-yil yakunlariga kelib, mamlakatda advokatlar soni **5377 nafarga** yetib, ularning o‘rtacha yoshi **50 yosh** atrofida egaligini ko‘rsatdi².

Advokatlar va advokatlik tuzilmalari soni muhim bir nechta qonunosti hujjatlaridan so‘ng tizimli ravishda oshib bordi. Xususan, 2016-yilda advokatlarning umumiy soni 3872 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda 7000 ga yaqinlashdi. Quvonarlisi, 2024-yil o‘rtasida advokatlari soni 6054 tani, advokatlik byurolari 3306 tani, advokatlik firmalari 593 tani hamda advokatlik hay‘atlari 91 tani tashkil etgan. Advokatlik faoliyati bilan bog‘liq yana bir o‘zgarishlardan biri, uning faoliyatiga to‘sqinlik qilish mumkin emasligi belgilandi. Advokat so‘roviga o‘z vaqtida javob bermagan mansabdor shaxslar advokatning sudga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaatiga asosan ma‘muriy javobgarlikka tortilishi belgilandi.

Hukumatning 2022-yil 5-avgustdagi 432-sonli qarori 3 asosida «Advokatlik faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to‘g‘risida»gi Nizom qabul qilindi. Nizomga asosan, nomzodga litsenziya berish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda, talabgorga 24/7 formatda xabarnoma yuborilmoqda⁴.

2023-yil 9-avgust kuni qabul qilingan 862-sonli qonun bilan «Advokatura to‘g‘risida»gi qonunning 3-1-moddasiga o‘zgartish kiritilib, bu yangilik advokatura institutida tub islohotlarga zamin yaratdi. Mazkur tuzatishga ko‘ra, advokatlik litsenziyasiga ega bo‘lish uchiun advokatlik tuzilmalarida kamida uch oy davomida stajirovka o‘tash hamda majburiy malaka imtihonidan o‘tishi lozim bo‘ladi. Ilgari esa, faqat yuridik mutaxassislik bo‘yicha ikki yillik ish tajribasi talab etilar edi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning XXIV bobi 141 va 142 moddalarida advokatlik faoliyatiga huquqiy kafolatlar yanada mustahkamlandi⁵.

¹ O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 16-iyundagi “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘RQ-848-sonli qonuni.

² <https://e-advokat.uz/>

³ Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-avgustdagi «Advokatlik faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 432-sonli qarori.

⁴ <https://yuz.uz/uz/news/advokatlik-faoliyatini-litsenziyalash-soddalashtirildi>

⁵ I.Bekov, V., Davlyatov Advokatura institutining konstitutsiyaviy asoslari [Matn]: o‘quv qo‘llanma / I. Bekov, V. Davlyatov. T.: TDYU nashriyoti, 2023. 44 b.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2024-yil 3-iyundagi 10-mh-sonli buyrug‘i¹ qabul qilinib, u asosida 33 banddan iborat «Advokat stajyori va yordamchisining faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom tasdiqlandi. Mazkur normativ-huquqiy hujjat stajyor advokatlarning faoliyatiga ancha yengillik va mustaqillik olib kirgani bilan e‘tiborga loyiqdir. Stajyor tomonidan topshirilishi kerak bo‘lgan hujjatlar soni 4 taga kamaytirilib, stajirovka to‘liq amaliy ko‘nikmalarga yo‘naltirilganligi belgilandi.

2022-yil 30-mayda davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan PQ-263-sonli qaror² asosida advokatura tizimini raqamlashtirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilanib, ularni amaliyotga tatbiq etish yo‘nalishida ishlar boshlandi. Shuningdek, mazkur hujjat asosida 2023-yil 1-yanvardan boshlab davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatlarni tanlash mexanizmi to‘liq elektron tizim orqali, inson omilisiz, tasodifiy tanlash usulida amalga oshiriladigan bo‘ldi. Advokatura institutidagi ushbu muhim o‘zgarishlar 2017-2021-yillarda amalga oshirilgan «Harakatlar strategiyasi», 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan «Taraqqiyot strategiyasi» hamda «O‘zbekiston-2030» strategik dasturlarida belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlar bilan uzviy bog‘liqdir.

Xulosa shuki, so‘nggi 7 yillikda advokatura institutining jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini oshirishga qaratilgan qator qonunchilik tashabbuslari va amaliy choralar hayotga tatbiq etildi. Advokatura institutiga bunday yondashuvlar, aholiga ko‘rsatilayotgan yuridik xizmatlar samaradorligi va sifati oshishiga xizmat qiladi. Shunga qaramay, tizimda hanuzgacha muayyan muammolar va yechimini kutayotgan masalalar mavjud. Xususan:

Birinchidan, aholi ko‘rsatilayotgan ayrim advokatlik xizmatlarning sifati va advokatning malakasidan doim ham qoniqmaydi. Ketgan vaqti, moddiy resursi hamda asabbuzarligidan kuyinib yuruvchilar ham ko‘pchilikni tashkil etadi. Shuning uchun, mijoz murojaat qilayotgan advokatning malakasi va bilimini oldindan bilishni istaydi. «e-advokat.uz» yuridik yordam ko‘rsatish axborot tizimida advokatlarning reytingini oshkora yuritilishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, amaldagi qonunchilikda yuridik xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish maqsadida advokatlar har uch yilda malaka oshirish kurslarida qatnashishi shartligi belgilangan. Biroq, ushbu o‘quv mashg‘ulotlari faqat poytaxtdagi Adliya vazirligi huzuridagi o‘quv markazida o‘tkazilishi va

¹ O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2024-yil 3-iyundagi «Advokat stajyori va yordamchisining faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 10-mh-sonli buyrug‘i. <https://lex.uz/uz/docs/-6951674>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 30-maydagi «Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-263-sonli qarori.

mintaqaviy filiallarning mavjud emasligi hududlarda faoliyat yuritayotgan advokatlar uchun muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Treningni tamomlash uchun advokatlar ikki haftadan bir oy muddatgacha mijozlaridan ajralib turishiga to‘g‘ri keladi. Bu esa mijozlar uchun ortiqcha noqulaylik, vaqt va asab sarfi bilan kechmoqda. Shu bois, malaka oshirish muddatlari va shaklini advokatning ish tajribasi va stajiga qarab belgilash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, advokatlik faoliyatini boshlash istagida bo‘lgan shaxslar litsenziya olish uchun malaka imtihonidan o‘tolmaganda, uni takroran faqat olti oydan so‘ng topshira olish imkoniga ega. Ushbu holat, ayniqsa oila boqayotgan va doimiy daromad manbaisiz qolayotgan nomzodlarni boshqa sohalarga o‘tishga majbur qilmoqda.

Uchinchidan, yuridik fakultet iqtidorli bitiruvchilari boshqa davlat organlardan bir yil ichida ish takliflarini olishmoqda. Bu esa advokatura tizimi uchun malakali kadrlar zaxirasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, advokatlik faoliyatini tanlamoqchi bo‘lgan yosh mutaxassislar uchun universitetning yakuniy bosqichida, ya’ni so‘nggi kurslarda, olti oylik maxsus tayyorlov dasturini joriy etish maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, «Advokatura to‘g‘risida»gi qonunning 11-moddasiga ko‘ra, advokat xizmati uchun to‘lov ishonch bildiruvchi shaxs bilan advokat o‘rtasida erkin tuziladigan shartnoma asosida amalga oshiriladi. Biroq amaliyotda ko‘plab advokatlik tuzilmalarida xizmat haqlarining rasmiy ro‘yxati mavjud emas yoki mavjud bo‘lsa ham, bu ro‘yxat mijozlarga taqdim etilmaydi. Natijada, ko‘p hollarda sud qarori chiqmaguniga qadar xizmat narxi sezilarli darajada oshib boraveradi.

Shu sababli, advokatlik xizmatining taxminiy narxlarini oldindan e’lon qilish yoki ma’lumot tariqasida taqdim etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu yondashuv shaffoflikni ta’minlash bilan birga, ishonch bildiruvchilar bilan advokatlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, hozirda xorijda ishlayotgan hamda ta’lim olayotgan millionlab yurtdoshlarimizni huquq va erkinliklarini himoya qilish maqsadida O‘zbekistonning diplomatik elchixonalarida advokatlik lavozimini joriy etish hamda kamida bittadan malakali advokat bilan ta’minlash maqsadga muvofiq.

Oltinchidan, bugungi kunda advokatlar tomonidan «e-advokat.uz» yuridik yordam ko‘rsatish axborot tizimi, «advice.uz» va «madad.uz» saytlari orqali aholiga bepul yuridik yordam ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsada, aksariyat fuqarolar ushbu bepul huquqiy maslahat saytlaridan xabardor emas. Shuning uchun shahar va tuman markazlaridagi yirik reklama banerlarida, ijtimoiy



tarmoqlarda vaqti bilan ushbu saytlar yuzasidan sifatli targʻibot materiallarini koʻrsatish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 12-maydagi «Advokatura institutining samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5441 sonli farmoni.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-sentabrdagi «Yuridik sohaga oid bilim talab etiladigan mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning zamonaviy tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 544-sonli qarori.
- 3.<https://yuz.uz/uz/news/yurtimizda-yuristlar-malakasi-qanday-oshiradi?view=mahsulot-xitoynikini-bolsa-unda-kafolat-muddati-bolmaydimi>
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan «2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-sonli farmoni.
- 5.Rustambayev M.H. O‘zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati : darslik / O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. TDYI. T.: O‘FMJN, 2012. 384 bet.
- 6.https://norma.uz/nashi_obzori/advokatura_kakovy_problemy_i_kak_ih_reshat
- 7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-dekabrdagi «Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta‘minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4551-sonli qarori.
- 8.O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 16-iyundagi “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘RQ-848-sonli qonuni.
- 9.<https://e-advokat.uz/>
- 10.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-avgustdagi «Advokatlik faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 432-sonli qarori.
- 11.<https://yuz.uz/uz/news/advokatlik-faoliyatini-litsenziyalash-soddalashtirildi>
- 12.I.Bekov, V.Davlyatov. Advokatura institutining konstitutsiyaviy asoslari. O‘quv qo‘llanma / T.: TDYU nashriyoti, 2023. 44 b.
- 13.O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2024-yil 3-iyundagi «Advokat stajyori va yordamchisining faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 10-mh-sonli buyrug‘i.
- 14.<https://lex.uz/uz/docs/-6951674>
- 15.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 30-maydagi «Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-263-sonli qarori.

TARIX**AHLOQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISHDA KEKSA AVLOD
TAJIRIBASINING AHAMIYATI**

**Axmadiyev
Nuriddin,
Farg'ona davlat
universiteti dotsenti.**

UO'K: 17.023.36

Annotatsiya: Ushbu maqolada axloqiy madaniyat tushunchasining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati, uning shaxs axloqiy saviyasini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье анализируется значение понятия нравственной культуры в развитии общества, ее роль в формировании нравственного уровня личности.

Annotation: This article analyzes the significance of the concept of moral culture in the development of society, its role in shaping the moral level of the individual.

Kalit so'zlar: axloqiy madaniyat, ma'naviyat, keksa avlod, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, jamiyat, totuvlik, vatanparvarlik.

Ключевые слова: нравственная культура, духовность, старшее поколение, воспитание молодежи, национальные ценности, общество, согласие, патриотизм.

Key words: moral culture, spirituality, older generation, youth education, national values, society, harmony, patriotism.

Axloqiy madaniyat-jamiyatdagi axloqiy yuksaklik darajasini, fuqarolarning axloqiy saviyasini aks ettiruvchi tushuncha. Shaxsning jamiyatdagi asosiy axloqiy me'yorlarni egallashi va o'zgalar bilan hurmat asosida muomalada bo'lishi, o'zini axloqiy tomondan muntazam takomillashtirib borishi axloqiy madaniyatning muhim jihatlari sanaladi. Axloqiy madaniyat orqali odobning qat'iy qonun-qoidalari chiroyli hatti-harakatlar vositasida amalga oshadi.

Keksalarning jamiyatdagi totuvlik, o'zaro izzat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga chuqur hurmatni bajo keltirish, yoshlar ongida, tafakkurida azaliy urf-odatlarini ulug'lash, kelajak avlodlar uchun saqlab qolish, boyitishdagi o'rni muhimdir. Zotan, keksalar jamiyatda muhim o'rin egallaydi. Mutafakkir Sitseron ta'kidlaydiki, "Xalq qandaydir tarzda birgalikda to'plangan har qanday odamlarning birlashmasi emas, balki huquq va manfaatlar umumiyligi masalalarida o'zaro bir-birlari bilan kelishishga harakat qilgan odamlarning birikmasidir". Mutaffakkir urg'u berganidek, xalqni birlashtiruvchi asosiy omil umummanfaatlar ekan, bu borada xalqning ertangi kunini belgilovchi katta kuch

bo'lgan yoshlar va ularning ma'naviy-axloqiy kamoloti uchun barcha birgalikda mas'ul ekanligi birlamchi ahamiyatga egadir.

Keksalar millatlararo munosabatlarni asrab-avaylash, boshqa millatlar tili, urf-odatları va diniga tolerant munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan omillardan biri hisoblanadi. Ushbu omilning tarixiy jihatlariga e'tiborni kuchaytirish, milliy g'oya ildizlarini yosh avlod tomonidan o'rganishga e'tiborni kuchaytirish zarurdir.

Yurt rivojida yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimi maktabgacha ta'lim muassasalaridan oliy o'quv yurtlarigacha bo'lgan oraliqda, mustahkam ilmiy asoslar bilan olib borishga erishilmoqda. Bu jarayonda keksa avlod tajribasi, bilimi, olimlarning qalamiga mansub darslik va o'quv qo'llanmalaridan samarali foydalanish – maqsadga muvofiq.

Shaxs dunyosiga o'z ta'sirini o'tkazayotgan zamonaviy axborot shakllari g'oyat xilma-xil va tezda anglab olish murakkab bo'lgan mavzularda ekani, axborot texnologiyalarining ta'sirini muntazam o'tkazib borayotgani bilan xarakterlanadi. Qolaversa, ma'naviy-axloqiy tarbiyada diniy va dunyoviy qarashlarning inson faoliyatidagi o'rni, uning ma'naviy, axloqiy dunyosi shakllanishiga ta'siri faollashib, tarbiyaviy jarayonda yetakchi ahamiyatga ega bo'layotganini ta'kidlash zarur. Bunday tarbiyaviy jarayonda “mo'tabar otalarimiz, mehribon onalarimiz boshimizdagi toji davlatimiz ekanini hech qachon unutmaylik. Bu g'animat, ko'z ochib yumguncha o'tib ketadigan hayotda ularni qanchalik qadrlab, imkon qadar umrlarini uzaytirishga qancha harakat qilsak, ikki dunyoda aslo kam bo'lmaymiz. Agar mendan dunyodagi qaysi oila eng baxtli, deb so'rashsa, hech ikkilanmasdan, keksalari bosh bo'lib, izzat-hurmatda hayot kechirayotgan oila, deb javob bergan bo'lardim”. Bu mulohazalar sharqona tamoyillarni tasdiqlashi barobarida har qanday zamonaviy hayotning mustahkam ma'naviy ildizlari oilaning fayz-u farishtalari – nuroniylariga ehtirom tuyg'usi bilan chambarchas bog'liq. Qolaversa, ajdodlarimizning hikmatli o'gitlarida aks etganidek, ota-onaga qaramaslik, ularni so'zlariga quloq solmaslik eng buyuk gunohlardan biridir. Mohiyatan olib qaraganda, xalqimizda yoshi ulug'lar so'zlarini hikmat darajasiga olib chiqilishining sababi ham shu.

Bugungi axborot bosimi va globallashuv jarayoni jadallashib borayotgan davrda yoshlar o'rtasidagi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati va rolini ilmiy tadqiq etish muhim zaruratdir. Bu esa ilmiy tadqiqot, davlat va nodavlat tashkilotlari, ta'lim-tarbiyaga mas'ul muassasalarga aloqador muhim vazifadir. Ayrim yoshlarning ijtimoiy munosabatlarga nisbatan begonalashuvi, jamiyat taqdiri hayotiga nisbatan sovuqqonlik, hatto ijtimoiy

munosabatlardan butunlay chetga chiqish kabi salbiy holatlar yuzaga kelayotgani sir emas. Bunday munosabat jamiyatni ma'naviy-axloqiy jihatdan tanazzulga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham keksalar jamiyatda mehr-oqibat, yoshlarni kelajak sari undovchi omil rolini bajaradi. Mamlakatda bunday tarixiy ildizga ega bo'lgan ijtimoiy ibrat, milliy qadriyat, farzandlar va keksa avlod vakillari o'zaro munosabatlar asosida shakllangan amaliyot hisoblanadi. Tarbiya, inson kamoloti uchun zarur bo'lgan ma'rifiy ishlar jarayonida ajdodlarning ko'rgan-bilganlariga, hayotiy tajribasiga tayangan holda ma'naviy-madaniy, turli millatlararo totuvlik va mamlakat taraqqiyotida barqarorlikni mustahkamlash jarayonidagi tajribasidan samarali foydalanish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaydiki, "Keksalarni manzilli ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, yoshi ulug' insonlar, birinchi navbatda yolg'iz qariyalar va nogironlarga ko'rsatiladigan ijtimoiy va maishiy xizmatlar ro'yxatini kengaytirish, ularni farovon va munosib turmush sharoitlari bilan ta'minlash uchun mahallalar, "Nuroniylar" jamg'armasi, boshqa nodavlat tashkilot va ijtimoiy tuzilmalar tomonidan moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash miqyosini oshirish lozim". Bunday munosabatning asosiy sabablaridan biri – keksa avlod vakillarining milliy tarix sahifalarini yaxshi bilishi va ana shu bilim mazmunidan yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasida foydalanish imkoniyatlarini izlash maqsadga muvofiq. Professor Nazar Hakimov qayd etganidek, Ikkinchi jahon urushi yillarida, "mahalladan urushga chaqirilib, keyin uyiga "qora xat" kelgan yigitlar xonadonidagi ta'ziyaga butun elu xalq sherik bo'lgan. Motamli oilaga mahallaning yoshu keksasi birikib, qo'ldan kelgancha yordam ko'rsatadi. Elning birdamligi ayriliq va musibatni yengib o'tishga madad bo'ladi". Bunda ham yoshi ulug'larning yetakchilik, ko'pga bosh bo'lish fazilatiga urg'u beriladi.

Yoshlarni tarbiyalash borasida umuminsoniy va milliy qadriyatlarning chuqurlashuvida keksa avlod vakillaridan unumli foydalanish mumkin. Jumladan, islom dini qadimdan vujudga kelgan davrlardayoq muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etgan. Zotan, yurtimizda islom dinining munosib bilimdonlari keksa avlod sanaladi. Ayniqsa, insonning ma'naviy shakllanishida, vatanparvarlik, axloqiy qadriyatlar, urf-odatlar, qariyalarni e'zozlash masalalari yetakchi omillardan biri bo'lgan. Shuningdek, jamiyatda dinning o'rni, dinga nisbatan turlicha munosabat turli tarixiy davrlarda, jamiyat va davlat tuzumiga, amalga oshirilgan siyosatining xususiyati va yo'nalishiga mos tarzda shakllangan. Yaqin o'tmishda mafkura hukmron bo'lgan sho'rolar davri tajribasi tasdiqlaydiki, din davlatdan ajratilgan, jamiyat dinning ta'siridan ozod etilgan va dinning jamiyat hayotidagi o'rni tanazzulga uchragan. Shuningdek, jamiyatning ijtimoiylashuvida ham dinning ishtiroki sezilmagan. Dinga nisbatan ma'muriy buyruqbozlik munosabati

oʻrnatilgan. Bu borada buyuk faylasuf I.Kantning quyidagi fikri muhim ahamiyat kasb etadi: “Insonning fuqaro sifatidagi muhim huquqiy belgisi erkinlik, tenglik va mustaqillikdir”. Shuning uchun ham, bu uch muhim omilsiz tafakkur oʻsmaydi, tafakkurning tirik va teran boʻlmasligi har qanday jamiyat ildizining zaiflashishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. Қайта ишланган нашри. Тошкент: “Ғафур Ғулом” номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.2016.
2. Цицерон. Диалоги о государстве, о законах.-Москва: Мысль, 1966.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Мирзиёев Ш. М. 9 май Хотира ва кадрлаш кунига бағишланган маросимдаги нутқи. “Буюк аждодларимизнинг муқаддас хотираси ва жасорати олдида бош эгамиз”.-Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 1-Том.
4. Ҳайитметов А. Ҳикматлар хазинаси. –Тошкент.: Янги авлод, 2003.
5. Халқ сўзи, - 2015. 9 февраль.
- 6.Ҳакимов Н.Ҳ. Комилликка интилиб. Монография. -Тошкент: Фан ва технологиялар, 2015.
- 7.Кант И. Идея всеобщей истории во всемирно гражданском плане. Сочинение в 6 -ти томах. –Москва, 1966.

TARIX**NOGIRONLAR SPORTINING JAHONDA VA O‘ZBEKISTONDA
HUQUQIY SHAKLLANISHI**

**FARRUX
FAYZIYEV,
Mustaqil
tadqiqotchi**

UO‘K: 17.023.36

Annotatsiya: Ushbu maqolada nogironlar sporti va uni rivojlantirish doir xalqaro va milliy ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar, ularning mohiyati hamda xronologiyasi mazmun mohiyatiga ko‘ra keltirib o‘tiladi.

Аннотация: В данной статье представлены международные и национальные нормативно-правовые акты о спорте для людей с инвалидностью, их развитие, сущность и хронология в соответствии с содержанием.

Annotation: This article presents the international and national regulatory legal acts on sports for people with disabilities and their development, their essence and chronology in accordance with the essence of the content.

Kalit so‘zlar: Paralimpiya, BMT, Vazirlar Mahkamasi, institut, adaptive sport, Parij, integratsiya, assotsiatsiya, qo‘mita, mutaxassislar, nogironlar, Eynshteyn, deklaratsiya.

Ключевые слова: Паралимпийские игры, ООН, Кабинет министров, институт, адаптивный спорт, Париж, интеграция, ассоциация, комитет, эксперты, люди с ограниченными возможностями, Эйнштейн, декларация.

Key words: Paralympics, UNO, Cabinet of Ministers, institute, adaptive sport, Paris, integration, association, committee, experts, disabled people, Einstein, declaration.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda ko‘plab sohalar singari aholini ijtimoiy qo‘llab -quvvatlashga davlat siyosati darajasida e‘tibor berilmoqda. Shu qatorda aholi orasida nogironligi bo‘lgan insonlar ham bundan chetda qolmayapti. Ularga moddiy va ma‘naviy tibbiy va boshqa tomonlama imkoniyatlar yaratilib faol hayotga hamda inklyuziv jamiyatga integratsiyalashishiga sharoit yaratilib kelinmoqda. Ushbu jarayonga samarali vositalardan bo‘lib xizmat qilayotgan, nogironligi bo‘lgan insonlarni hayotga bo‘lgan intilishlarini yanada oshirib, o‘z hayot yo‘llarida ulkan yutuq va natijalarga erishib kelishida esa asosiy vosita parasport hisoblanadi. Parasport bunday kishilarni sog‘ligini mustahkamlash bilan birga o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirishda, ijtimoiy aloqalarni kuchaytirishda shuningdek ularning sportdagi yutuqlari boshqalarga namuna

bo‘lib xizmat qilishi shubhasizdir. Zero, buyuk fizik olim Albert Eynshteyn aytganidek- „ Sport hayotni yaxshiroq yashash uchun ajoyib maktabdir”.

Shu o‘rinda sportning aynan nogironligi bo‘lgan insonlar shug‘ullanib keluvchi parasport turlarini takomillashtirish va ular bilan shug‘ullanuvchi sportchilar ko‘lamini yanada oshirish maqsadida mustaqillikdan so‘ng keng e‘tibor berilib kelingan bo‘lsa, bugungi kunda esa bu jarayon o‘zining mutlaqo yangi davrini boshladi. Bu borada yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev va hukumatimiz tomonidan chiqarilgan normativ-huquqiy hujjatlar buning yorqin isbotidir. Jumladan 2021-yil 18-maydagi 5114-sonli „ Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Prezident qarori, 2022-yil 6-iyundagi 270-sonli „ Paralimpiyachilarning matonat maktabi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Prezident qarori, 2021-yil 5-noyabrdagi 5281-sonli „ 2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida” gi Prezident qarori, 2022-yil 5-maydagi 234-sonli „ 2023-yilda Xanchjou shahrida (Xitoy) bo‘lib o‘tadigan XIX yozgi Osiyo va IV Paraosiyo o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida” gi Prezident qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2022 yil 30-dekardagi „ Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 731-sonli qarori shular jumlasidandir.¹

Bugungi kunda ushbu sohada amalga oshirilayotgan keng islohotlar va ularning samarali natijalari xalqaro maydonda sport assotsiatsiyalari hamda bir qator nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan e‘tirof etilib kelinmoqda. Buni birgina 2024-yil 28-avgustdan 8-sentabrgacha Fransiya poytaxti Parij shahrida o‘tkazilgan XVII Yozgi Paralimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston oltinchi bor qatnashdi. Unda O‘zbekistonlik parasportchilardan 65 nafari 113 ta sport yo‘llanmasi bo‘yicha ishtirok etishdi . Ushbu parasport musobaqasida dunyo davlatlaridan 168 tasi ishtirok etgan bo‘lsa, O‘zbekistonlik parasporotchilar umumiy hisobda 10 ta oltin, 9 ta kumush va 7 ta bronza medali ishtirokchi davlatlar qatorida umum jamoa hisobida 13-o‘rinni egallashdi.

Nogironlar sporti va uni rivojlantirish bugungi u yoki bu davlatningina oldiga qo‘ygan muhim vazifasi bo‘lib qolmasdan umumjahon miqyosida ijtimoiy, umuminsoniy masaladir. Bu o‘rinda xalqaro hamjamiyatlar, tashkilotlarning birgalikda amalga oshirayotgan ishlari esa insonparvarlikning bir belgisidir.Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari to‘g‘risidagi

¹lex.uz hukumat portal

konvensiyasi singari bir necha o'n yillab davomida tayyorlanib 1975-yil 9-dekabrda Nogironlar huquqlari deklaratsiyasi qabul qilindi. Buning natijasi o'laroq 1982-yil Xalqaro nogironlar yili deb e'lon qilindi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1992 yil 14-oktyabrdagi 47/3-sonli qaroriga asosan har yili "3 dekabr - Xalqaro nogironlar kuni" sifatida e'lon qilindi. 2006-yil 13-dekabrda qabul qilingan va 2007-yil 30-martda imzolash uchun ochilgan 20 ta davlat tomonidan ratifikatsiya qilinganidan keyin 2008-yil 3-mayda kuchga kirgan Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi qabul qilindi.

Bugungi kunda ushbu ezgulikning bir ramzi sifatida talqin etilayotgan sana 3-dekabr ham hukumatimiz nazaridan chetda qolmay kelmoqda. Bu o'rinda Respublikamizdagi 2018-yil 21-fevral kuni mamlakatimizdagi barcha nogironlar jamoat tashkilotlarini jipslashtirish maqsadida **O'zbekiston Nogironlar Assotsiatsiyasi** tuzildi. Assotsiatsiya raisi Oybek Isoqov ta'birlari bilan aytganda bu kun ya'ni 3-dekabr „Bu kun millionlab nogironligi bor shaxslar har kuni faqatgina jismoniy to'siqlar bilan emas balki jamiyat munosabatlardagi to'siqlar bilan ham to'qnash kelayotganini eslatadi. 3-dekabr -Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi qoidalarini amalga oshirish bo'yicha davlat majburiyatlarini yodga soluvchi kundir. 3-dekabr nogironligi bor shaxslar uchun minbar bo'lib xizmat qiladi. Ular ovozi butun dunyo bo'ylab: televideniya, OAV, radio orqali, davra suhbatlari, konferensiyalar va forumlarda eshitiladi. Bu kun nogironligi bo'lgan shaxslar o'z hikoyalari muammolari va yutuqlari haqida so'zlab berish, huquq va ehtiyojlarini ifodalash imkonin yaratadi. Bu kun jamiyatni haqiqiy harakatlarga ilhomlantirib, hayot sifatini yaxshilash yo'lida ilgarilash imkoniyatidir. Bu kunda jamoat tashkilotlari va davlat tuzilmalari alohida o'rin tutadi. Ular nafaqat tinglashlari, balki aniq chora tadbirlar kurishlari shart:

- Davlat tashabbuslari. Nogironligi bor shaxslarni qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish.
- Ijtimoiy loyihalar. Ta'lim, ish bilan ta'minlash va sog'likni saqlash sohalarida inklyuziv standartlarni mustahkamlash.
- Axborot tadbirlari. Media va jamoat muhokamalari orqali muammolarga e'tibor qaratish.

Nogironligi bor shaxslarga nisbatan e'tibor, hurmat va yordamga tayyorlik har bir inson qila oladigan kichik ammo muhim qadamdir. Joy bo'shatish yordam taklif etish yoki tashabbuslarni qo'llab -quvvatlash kabi harakatlar katta harakatning bir qismiga aylanadi. 3-dekabr tenglik- bu orzu emas, balki biz birgalikda erishishimiz mumkin bo'lgan haqiqiy maqsadligini yodga soladi”.¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Nogironlar Assotsiatsiyasi matbuot xizmatidan.

Nogironlar sportini rivojlantirish va undagi sportchilar ko‘lamini yanada kengaytirish avvalo, bu sohada yetakchi ustoz va murabbiylarni tayyorlash, ularning jahon standartlari bo‘yicha malakalarini oshirish bu eng muhim va dolzarb masaladir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi 599-sonli „O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi huzuridagi Paralimpiya sport turlari bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori alohida o‘rin egallaydi¹. Qaror ijrosi yuzasidan ushbu institut o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

parasport bo‘yicha faoliyat yuritayotgan trenerlar, yo‘riqchi-uslubchilarva boshqa mutaxassislarning malakasini oshirish, bunda xalqaro ilg‘or tajribaga ega bo‘lgan mutaxassislar va trenerlarni ta‘lim jarayoniga shartnoma asosida jalb etish;

kasbiy ma‘lumotga ega bo‘lmagan sport-ta‘lim muassasalari xodimlari uchun qo‘shimcha ixtisoslik bo‘yicha pullik asosda parasport bo‘yicha qayta tayyorlash va qisqa muddatli maxsus kurslarni tashkil etish;

parasport bo‘yicha qobiliyatli yosh sportchilarni aniqlash hamda ular orasidan xalqaro sport maydonlarida munosib qatnashishni ta‘minlashga qodir bo‘lgan professional sportchilarni tayyorlash mahorati va ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy hamda samarali o‘qitish dasturlari va usullarini joriy etish;

O‘z o‘rnida ushbu muassasa tashkil etilgach bugungi kunga qadar ko‘plab paramutaxassislarni kasbiy tayyorlab, malakasini oshirib O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan sportchilarni tayyorlashda ishtirok etuvchi murabbiylarni bo‘lgan ehtiyojni qondirib kelmoqda.

Sport bu avvalo, insonning ham jismonan ham ruhan tetiklashtiruvchi, uni teran fikrlashga ko‘mak beruvchi ilg‘or vositadir. Shu bilan birgalikda sport xalqlarni birlashtiruvchi, tinchlik o‘rnatuvchi ijtimoiy hodisadir. Bu qadimgi yunonistondagi olimpiada o‘yinlaridan ma‘lumki, sport musobaqalari o‘tkazilayotgan vaqtda sportchilarning sport musobaqalariga sihat-salomat yetib olishlari uchun davlatlar, qabilalar o‘rtasidagi urushlarning to‘xtatilib turganligi buning yaqqol misolidir.

Zero, sport haqida JAR prezidenti Nelson Mandelaning „Sport jismoniy kuchning emas, balki iroda kuchining namoyishi” dir, yoki o‘bek

¹ Shodiyev O.T. Paralimpiya sportining huquqiy asoslari. Toshkent 2024

yozuvchilaridan Shukur Xolmirzayevning “Sogʻlom odam -boy odamdir” degan fikrlari sportning inson hayotidagi oʻrni beqiyosdir.

Ushbu tadqiqotda xronologik fikrlash, tarixiy tushuncha, qonun va qonunosti hujjatlar bilan fikrlash, solishtirish, taqqoslash kabi metodologik usullardan keng foydalanildi

Xulosa qilib aytish joizki, har bir jamiyat va davlat taraqqiyotida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va marifiy hayotini tartibga solishda qonun va qonunosti hujjatlarning ahamiyati beqiyosdir. Shu qatorda Oʻzbekistonda ham nogironlar sportini rivojlantirishga qaratilgan eʼtibor soʻnggi oʻn yillikda oʻzining sezilarli natijalarini koʻrsatib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Shodiyev O.T. “Paralimpiya sportining huquqiy asoslari” T. 2024
2. Maxsudov M.M. “Paralimpiya sport turlarining tasnifi” T. 2024
3. LEX.UZ hukumat portali
4. Oʻzbekiston Nogironlar Assotsiatsiyasi matbuot boʻlimi arxivi
5. Ziyonet.uz kutubxoansi
6. Декларация о правах инвалидов. Нью-Йорк: ООН, 1975. -Рез.3447
7. Шадриков В.Д. Философия образования и образовательные политики. - М.: Издательская фирма «Логос», 1993

TARIX

OLIY TA'LIM ISLOHOTLARI: TALABALAR VA PROFESSOR-O'QITUVCHILAR UCHUN YANGI IMKONIYATLAR



**OTAXONOVA
INTIZOR,
Urganch davlat
pedagogika instituti
tayanch doktoranti**

UO'K: 17.023.36

Annotatsiya: Ushbu maqola 2025–2030-yillarda oliy ta'lim tizimida talabalar va professor-o'qituvchilar uchun yaratilayotgan yangi imkoniyatlarni tahlil qiladi. Raqamli texnologiyalarni tatbiq etish, xalqaro hamkorlik, grant va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarida amalga oshirilayotgan islohotlar tuzilmasi ko'rib chiqiladi. Harvard va Oxford kabi yetakchi universitetlar tajribasi asosida yuqoridagi imkoniyatlarning samaradorligi va istiqbollari yoritiladi.

Аннотация: В статье рассматриваются реформы в сфере высшего образования в период 2025–2030 годов, направленные на расширение возможностей для студентов и преподавателей. Анализируются цифровизация образования, международное сотрудничество, поддержка научных исследований и грантовые программы. На основе опыта таких ведущих университетов, как Гарвард и Оксфорд, оцениваются эффективность и перспективы этих реформ.

Annotation: This article explores higher education reforms between 2025 and 2030 aimed at creating new opportunities for students and faculty. It analyzes digital transformation, international collaboration, research funding, and grant programs within framework. Drawing on the experiences of leading universities like Harvard and Oxford, the article highlights the effectiveness and future potential of these reforms.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, islohotlar, raqamli ta'lim, xalqaro hamkorlik, grantlar, sun'iy intellekt, talabalar imkoniyatlari, professorlar malakasi

Ключевые слова: высшее образование, реформы, цифровое обучение, международное сотрудничество, гранты, искусственный интеллект, возможности студентов, повышение квалификации преподавателей

Key words: higher education, reforms, digital learning, international cooperation, grants, artificial intelligence, student opportunities, faculty development.

XXI asrda oliy ta'lim tizimi misli ko'rilmagan darajada tez o'zgarishga yuz tutmoqda. Raqamli texnologiyalar joriy etilishi, globallashuv jarayonlari va bilim iqtisodiyotining rivojlanishi oliy ta'limda chuqur islohotlarni talab etmoqda. Jumladan, 2025–2030-yillarda mo'ljallangan islohotlar natijasida talabalar va professor-o'qituvchilar uchun qator yangi imkoniyatlar yaratilishi kutilmoqda. Bu imkoniyatlar raqamli o'qitish va texnologik transformatsiyalar, xalqaro hamkorlik va almashinuv dasturlari, grantlar ajratilishi hamda ilmiy tadqiqot va malaka oshirish imkoniyatlarida namoyon bo'lmoqda. Jahon hamjamiyati ham ta'lim sohasida yuqori maqsadlarni ilgari surgan — masalan, BMT Barqaror Rivojlanish Maqsadlari doirasida 2030-yilgacha rivojlanayotgan mamlakatlarda xalqaro hamkorlik orqali malakali o'qituvchilar sonini sezilarli oshirish vazifasi belgilangan[1]. Shuningdek, kam rivojlangan davlatlardan chiqqan talabalar uchun rivojlangan mamlakatlarda oliy ta'lim olishga mo'ljallangan xalqaro stipendiyalar sonini oshirish maqsadi qo'yilgan[2]. Global jarayonlarga hamohang tarzda, rivojlangan davlatlardagi yetakchi universitetlar – xususan Harvard University, Oxford University kabi maskanlar – so'nggi o'n yillikda ta'limni modernizatsiya qilish bo'yicha ilg'or tajribalarni to'pladi. Masalan, 2012-yilda Harvard universiteti MIT bilan hamkorlikda onlayn ta'lim platformasini ishga tushirib, dunyo bo'ylab o'quvchilarga o'zining mashhur kurslarini bepul MOOC formatida taklif eta boshladi[3]. Harvardning ushbu tashabbusi oliy ta'limda onlayn ta'limning rivojlanishiga turtki berdi va universitetni innovatsion pedagogik texnologiyalar sohasida yetakchi o'ringa chiqardi[4]. Xuddi shunday, Oksford universiteti ham o'z faoliyatida raqamli transformatsiyaga jiddiy e'tibor qaratib, bir qator tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Jumladan, Oksfordda onlayn ta'limni rivojlantirish uchun maxsus markazlar (masalan, Online Education Hub, AI Competency Centre) tashkil etilib, professor-o'qituvchilar va talabalar uchun zamonaviy raqamli vositalardan samarali foydalanish bo'yicha ko'nikmalar berilmoqda[5][6]. Oxford University rahbariyati, shuningdek, Microsoft kompaniyasi bilan strategik hamkorlikda sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etishni tajriba sifatida sinovdan o'tkazmoqda[7].

Yetakchi oliy o'quv yurtlari, shu jumladan Harvard va Oksford, ta'lim sifatini oshirish va ilmiy salohiyatni yuksaltirish yo'lida xalqaro hamkorlikni kengaytirmoqda. Oxford universiteti bir qancha xalqaro alyanslarda ishtirok etib, boshqa nufuzli universitetlar bilan qo'shma ta'lim va tadqiqot tashabbuslarini amalga oshirmoqda, talabalar uchun xalqaro tajriba almashinuvlarini yaratib,

universitet rahbariyati o'rtasida ilg'or tajribalarni ulashmoqda[8]. Harvard Universitetida esa bakalavriat talabalarning yarmidan ko'pi o'qish davrida kamida bir marta chet elda ta'lim oladi yoki xalqaro tajriba orttiradi – bu esa mazkur dargohning globallashuv va madaniyatlararo tajriba almashinuviga qanchalik ahamiyat berishini ko'rsatadi[9].

Ushbu izlanishda sifat jihatidan tahliliy yondashuv qo'llanilib, xalqaro tajribalarni o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Maqola doirasida oliy ta'limdagi tendensiyalar haqida e'lon qilingan xalqaro hisobotlar va ilmiy adabiyotlar, jumladan YuNESKO va boshqa tashkilotlarning materiallari tahlil qilindi. Xususan, oliy ta'limning raqamli transformatsiyasiga bag'ishlangan mintaqaviy va global tadqiqotlar, masalan, Sharqiy Osiyoda raqamli texnologiyalar ta'lim tizimini qanday o'zgartirayotgani haqidagi YuNESKO hisobotining xulosalari o'rganildi[10]. Shuningdek, Harvard va Oxford universitetlari kabi nufuzli maskanlarning rasmiy strategiyalari, veb-sahifalari hamda ta'limni rivojlantirish bo'yicha e'lon qilgan ma'lumotlari qiyosiy tahlil qilindi. Masalan, Harvard Online platformasining so'nggi o'n yillikdagi rivojlanishiga oid ko'rsatkichlar (kurslar soni, qamrab olingan tinglovchilar auditoriyasi va h.k.) ochiq ma'lumotlar asosida tahlil qilindi[11]. Shu tarzda to'plangan ma'lumotlar IMRAD usulida bo'limlarga ajratilib, tegishli mavzular kesimida tahlil etiladi. Kelgusida keltiriladigan natijalar aynan shu tahlil va taqqoslashlarga asoslanadi.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi oliy ta'limda yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Xususan, onlayn ta'lim platformalari va masofaviy o'qitish tizimlari talabalarga geografik joylashuvidan qat'i nazar dunyoning eng yaxshi professorlaridan saboq olish imkonini bermoqda. Harvard va MIT hamkorligida yaratilgan edX platformasi bunga yorqin misoldir — u orqali Harvard universitetining dunyoga mashhur kurslari butun dunyo bo'ylab millionlab tinglovchilarga yetkazildi va onlayn ta'limning ommalashuviga turtki bo'ldi[3][4]. 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi tufayli yuzaga kelgan inqiroz davrida aynan shu kabi raqamli infratuzilma ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlashda muhim omil bo'ldi. Masalan, Harvard universitetida ilgari to'plangan onlayn ta'lim tajribasi pandemiya davrida butun universitetni qisqa fursatda masofaviy o'qitishga o'tkazish imkonini berdi[12]. Natijada professor-o'qituvchilar tezkorlik bilan yangi raqamli vositalarni o'zlashtirib, talabalar bilan virtual makonda samarali muloqot qilishni yo'lga qo'yishdi. Raqamli transformatsiya jarayoni nafaqat onlayn ma'ruzalar, balki

ta'limning barcha jihatlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, interaktiv platformalarda test sinovlari va topshiriqlar avtomatlashtirilgan tarzda baholanib, talabalarning o'zlashtirish darajasi haqidagi ma'lumotlar o'quv analitikasi (learning analytics) yordamida tahlil qilinmoqda. Professor-o'qituvchilar dars jarayonida raqamli ilovalar orqali hamkorlik va faol o'qitish usullarini joriy etish imkoniga ega bo'lishmoqda[13]. Harvard Medical School tomonidan taklif etilgan maxsus onlayn kurs misolida, pedagog kadrlar virtual muhitda samarali va interaktiv ta'lim berish bo'yicha ko'nikmalarni oshirmoqda – bunda o'qitish, texnologiya va o'quv maqsadlarini uyg'unlashtirish, raqamli vositalar orqali baholash va hamkorlikni tashkil etish kabi masalalar qamrab olingan[13]. Shuningdek, so'nggi davrlarda sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari ta'lim jarayoniga jadal kirib kelmoqda. 2025-yilga kelib ko'plab universitetlar AI vositalaridan o'quv jarayonida foydalanish siyosatini ishlab chiqdi va bu borada talabalar hamda o'qituvchilarga ko'maklashish uchun maxsus markazlar tashkil etilmoqda. Masalan, Oksford universiteti huzuridagi Sun'iy intellekt kompetensiya markazi (AI Competency Centre) talabalarni o'qishda AI vositalaridan samarali va mas'uliyatli foydalanishga o'rgatish maqsadida bevosita ular bilan ishlayapti[14]. Bu kabi tashabbuslar talabalarga zamonaviy texnologiyalarni me'yorida qo'llash malakasini berib, ularning raqamli savodxonligini yuksaltirmoqda. Harvard universitetida ham ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish masalalari dolzarb muhokamada – 2023-yilda “Sun'iy intellekt davrida o'qitish” mavzusida maxsus anjuman tashkil etilib, ta'lim jarayonida AI'dan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilindi[15].

Umuman olganda, 2025–2030-yillar oralig'ida raqamli texnologik transformatsiya oliy ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladigan kuchli omilga aylanmoqda. Talabalar uchun u yangi formatlarda bilim olish, o'zlashtirishni shaxsiy sur'atda olib borish (masalan, MOOC va masofaviy kurslar orqali), dunyo bo'ylab turli muassasalardan dars olish imkoniyatlarini yaratmoqda. Professor-o'qituvchilar uchun esa zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, dars sifati monitoringini yaxshilash va o'z malakasini uzluksiz oshirib borish uchun yangi platformalar paydo bo'lmoqda. Ko'plab universitetlar raqamli vositalardan foydalanishni rag'batlantirish maqsadida ichki mukofot va grant dasturlarini ham joriy etgani kuzatilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, pedagoglarning innovatsion faoliyatga motivatsiyasini oshirmoqda.

Bugungi globallashuv davrida oliy ta'lim muassasalari o'z faoliyatini xalqaro maydon bilan tobora integratsiya qilmoqda. Talabalar uchun xorijiy

universitetlarda o'qish, qisqa muddatli almashinuv dasturlarida qatnashish va qo'shma dasturlarda diplom olish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi 1987-yildan buyon 15 milliondan ortiq kishiga xalqaro akademik almashinuv imkonini bergan bo'lsa, faqat 2014–2023-yillarning o'zida 8,5 milliondan ziyod ishtirokchi Erasmus grantlari orqali chet elda tahsil oldi yoki tajriba almashdi[16]. Xalqaro almashinuvlar nafaqat bilim olish, balki talabalarga boshqa madaniyat va tillarni o'rganish, global dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir. Xususan, Harvard universiteti ma'lumotlariga ko'ra, u yerda bakalavriat talabalarining yarmidan ortig'i o'qish davrida hech bo'lmaganda bir marta xorijda tahsil olish yoki amaliyot o'tash tajribasiga ega bo'ladi[9]. Bu jarayonda universitet tomonidan talabalarni puxta tayyorlash va qo'llab-quvvatlash tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, safarga jo'nashdan oldingi tayyorgarlik, xorijdagi davrida maslahatchilik hamda moliyaviy yordam ko'rsatish kabi jihatlar e'tiborga olingan – buning natijasida talabalarining xorijdagi o'qish tajribasi samarali va foydali bo'lishi ta'minlanadi[17].

Yetakchi universitetlar global miqyosda hamkorlik tarmoqlarini kengaytirmoqda. Misol uchun, Oksford universiteti bir nechta nufuzli universitetlar bilan strategik alyanslar tuzgan bo'lib, ular doirasida qo'shma ta'lim va tadqiqot loyihalari amalga oshiriladi, professor-o'qituvchilar va talabalar uchun xalqaro imkoniyatlar yaratiladi hamda oliy ta'lim boshqaruvidagi eng yaxshi amaliyotlar o'zaro almashiladi[8]. Jumladan, 11 ta yetakchi tadqiqot universitetini birlashtirgan Xalqaro tadqiqot universitetlari alyansi (IARU) doirasida a'zo oliygohlar talabalari uchun har yili turli universitetlarda Global yozgi maktab (Global Summer Programme) kurslari tashkil qilinib, ular qisqa muddatli intensiv o'quv dasturlarda birgalikda tahsil olish imkoniga ega bo'lishadi[18][19]. Bundan tashqari, Oksford–Berlin ilmiy hamkorlik shartnomasi kabi tashabbuslar orqali turli davlatlar olimlari qo'shma tadqiqot loyihalarini olib borishlari uchun maydon yaratilib, bu loyihalar Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro manbalar moliyalashtiruvi uchun birgalikda ariza topshirish orqali qo'llab-quvvatlanmoqda[20][21]. Akademik almashinuv dasturlari professor-o'qituvchilar uchun ham katta foyda keltiradi. Turli xalqaro grantlar va stipendiyalar doirasida o'qituvchilar chet el universitetlarida malaka oshirish, tajriba orttirish yoki qo'shma tadqiqotlarda ishtirok etish imkoniga ega bo'lmoqdalar. Masalan, AQShning Fulbright dasturi va boshqa shunga o'xshash

ilmiy almashinuv grantlari orqali har yili minglab pedagoglar va tadqiqotchilar xorijdagi muassasalarda faoliyat yuritib, ilmiy salohiyatini boyitmoqda. Bunday tajribalar natijasida, o'qituvchilar yangi ilmiy usullar va pedagogik yondashuvlarni o'z vataniga olib kelib, milliy ta'lim tizimini boyitishda muhim o'rin tutadi. Umuman olganda, 2025–2030-yillarda xalqaro hamkorlik va almashinuvlar oliy ta'limning ajralmas qismiga aylanishi kutilmoqda – bu esa talaba va professor-o'qituvchilarga dunyo miqyosida o'z bilim va malakalarini oshirish, o'zaro tajriba almashish va global ilmiy hamjamiyatga integratsiyalashish uchun beqiyos imkoniyatlar yaratadi.

Yuqorida keltirilgan natijalar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim sohasidagi 2025–2030-yillar uchun mo'ljallangan islohotlar talabalar va professor-o'qituvchilar hayotida sezilarli ijobiy o'zgarishlar qilmoqda. Raqamli ta'limning joriy etilishi, xalqaro hamkorlikning kengayishi, grantlar hajmining ko'payishi hamda ilmiy va malakaviy rivojlanish uchun yaratilgan sharoitlar oliy ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shu bilan birga, bu jarayonlar bilan birga yangi vazifalar va sinovlar ham kelmoqda. Xalqaro Universitetlar Assotsiatsiyasi (IAU) ta'kidlaganidek, jamiyatning raqamli transformatsiyasi oliy ta'lim sohasini tubdan o'zgartirmoqda – boshqaruvdan tortib ta'lim berish uslublarigacha, o'quv dasturlaridan tortib ilmiy tadqiqot faoliyatigacha barcha jabhalarga ta'sir ko'rsatmoqda[32]. Bu transformatsiya yangicha imkoniyatlar bilan birga yangi muammolarni ham keltirib chiqaradi. Shu sabab, oliy ta'lim muassasalari ushbu jarayonga moslashish, uni shakllantirish va unga faol ta'sir ko'rsatish yo'lida doimiy harakatdadir[32].

Kelgusida islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ularning qanchalik izchil va inkluziv amalga oshirilishiga bog'liq bo'ladi. Har bir talaba va o'qituvchi yaratilayotgan imkoniyatlardan teng foydalana olishi uchun infratuzilma va resurslarga teng yetkazish zarur. Xususan, raqamli texnologiyalar joriy etilar ekan, raqamli tafovutga yo'l qo'ymaslik, barcha uchun internet va qurilma mavjudligini ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib qoladi. Xalqaro dasturlarda ishtirok etish uchun til va madaniyatlararo ko'nikmalarni rivojlantirish ham muhim – bu borada tayyorgarlik va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kuchaytirilishi lozim. Grantlar taqsimotida esa adolat va shaffoflik prinsiplariga amal qilinib, haqiqatan ehtiyojmand va iste'dodli nomzodlargaгина imkoniyat berilishi ta'minlanishi darkor.

Xulosa qilib aytganda, 2025–2030-yillar davrida oliy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar talaba va o'qituvchilarga keng ko'lamli yangi

imkoniyatlar taqdim etmoqda. Raqamli o'qitish texnologiyalarining rivojlanishi tufayli ta'lim jarayoni moslashuvchan, interaktiv va ochiq bo'lib bormoqda; xalqaro hamkorlik va almashinuvlar esa bilim va tajriba almashuvini tezlashtirib, ta'limning globallashtirishga olib kelmoqda. Kengaytirilayotgan grant dasturlari yoshlar va olimlarning intilishlarini ro'yobga chiqarishga moliyaviy zamin yaratmoqda, ilmiy tadqiqot va malaka oshirish imkoniyatlari esa oliy ta'lim tizimini doimiy innovatsion yangilanishda ushlab turibdi. Albatta, bu jarayonda duch kelinadigan qiyinchiliklar ham yo'q emas, lekin ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni milliy sharoitga moslash orqali bu muammolarni yengib o'tish mumkin. 2030-yil ufqida, oliy ta'limning sifati va samaradorligini oshirish yo'lida boshlangan bugungi islohotlar o'z natijasini berib, jamiyatga zamonaviy fikrlaydigan, yuqori malakali va dunyoqarashi keng mutaxassislarini yetkazib berishga xizmat qiladi[34]. Bu esa yurtimiz va butun insoniyat taraqqiyoti uchun mustahkam investitsiya ekanini isbotlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **Harvard Online (2024)** – “A Decade of Innovation: Online Learning at Harvard.” *Harvard Online Blog*, 6-mart, 2024. Harvard Online tomonidan e'lon qilingan blog posti (Harvard University). [\[3\]\[4\]\[12\]\[15\]\[11\]](#)
2. **Oxford University (2025)** – “Oxford's Digital Transformation.” *Oxford University Staff Gateway*, 2024–2025. Oksford universitetining raqamli transformatsiya dasturi bo'yicha veb-sahifasi. [\[5\]\[6\]\[7\]\[14\]](#)
3. **Harvard Medical School (2026)** – “Transforming your Teaching using Technology.” *Harvard Medical School Continuing Education*, 2026. Pedagoglar uchun mo'ljallangan onlayn kurs tavsifi (Harvard University). [\[13\]](#)
4. **Harvard College (2025)** – “Study Abroad – A World of Opportunity.” *Harvard College Website*, 2025. Harvard talabalari uchun xalqaro almashinuv dasturlari bo'yicha rasmiy sahifa. [\[9\]\[17\]\[25\]](#)
5. **Oxford University (2023)** – “International alliances.” *Oxford University Website*, 2023. Oksfordning xalqaro alyanslari haqidagi rasmiy ma'lumot. [\[8\]\[18\]\[19\]\[20\]\[21\]\[27\]\[30\]\[31\]](#)
6. **European Commission (2024)** – “Marking 37 years of Erasmus+: Key numbers and achievements.” *Erasmus+ News*, 17-iyun, 2024. Erasmus+ dasturining 1987–2024 yillardagi yutuqlari haqida hisobot. [\[16\]\[26\]\[28\]](#)
7. **Harvard University (2023)** – Harvard University Office for Sponsored Programs Annual Report (2024 moliya yili). *Harvard OSP Report*, 2024. Harvard universitetida ilmiy tadqiqotlarga ajratilgan grant mablag'lari statistikasi. [\[23\]](#)
8. **Oxford University (2025)** – “Research funding, applications and awards.” *Oxford University Research Support*, 2025. Oksford tadqiqotchilarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha rasmiy sahifa. [\[24\]\[29\]](#)

9. **UNESCO Global Goals (2015)** – “Goal 4: Quality Education – Targets.” *GlobalGoals.org*, 2015. BMT Barqaror Rivojlanish Maqsadlari 4-band (ta’lim sifati) bo’yicha maqsad va vazifalar. [\[1\]\[22\]\[34\]](#)
10. **UNESCO (2025)** – *Digital Leap in East Asia: A Regional Synthesis on Higher Education Transformation*. YuNESKOning Sharqiy Osiyoda oliy ta’limning raqamli transformatsiyasi bo’yicha hisobotidan press-reliz, 3-iyun 2025. [\[10\]](#)
11. **International Association of Universities (2022)** – “Transforming Higher Education in a Digital World for the Global Common Good.” *IAU Policy Statement*, 2022. IAUning raqamli transformatsiya bo’yicha siyosiy bayonotidan parcha. [\[32\]\[33\]](#)

TARIX

MAHALLANING FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA ROLI



**Matyaqubov
Nurbek, Urganch
Innovatsion
Universiteti dotsenti**



**Yuldashova
Manzura, Urganch
Innovatsion
Universiteti magistri**

UO‘K: 17.023.36

Annotatsiya: Mazkur maqolada mahalla institutining fuqarolik jamiyati tizimidagi o‘rni va roli ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan.

Аннотация: В статье рассматриваются место и роль института махалли в системе институтов гражданского общества.

Annotation: This article analyzes the place and role of the mahalla institution within the system of civil society institutions.

Kalit so‘zlar: mahalla, fuqarolik jamiyati, o‘zini o‘zi boshqarish, jamoatchilik nazorati, ijtimoiy faollik, demokratik institutlar.

Ключевые слова: махалля, гражданское общество, самоуправление, общественный контроль, социальная активность, демократические институты.

Key words: mahalla, civil society, self-governance, public control, social participation, democratic institutions.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 3-fevralda qabul qilingan “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qadriyatlar beshigi sanalmish milliy demokratik institut – mahallalarning rolini yanada kuchaytirish, ularning xalqimiz hayotidagi o‘rni va nufuzini yanada oshirish borasida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Mazkur Farmon bilan Mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, yuqori iqtisodiy o‘sishga erishish hisobidan xalqimizning farovonligini oshirish va kundalik hayotidagi muammolarni hal etish, shuningdek 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrdagi

Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida bir qancha vazifalar belgilab berildi [1-B.21].

Ma'lumki, keyingi besh yilda fuqarolar yig'inlarining 1600 ga yaqin xizmat binolari joriy, 367 tasi kapital ta'mirlandi va 350 dan ortig'i rekonstruksiya qilindi, namunaviy loyihalar asosida 216 ta bino yangidan qurilib, foydalanishga topshirildi. Farmonda ko'rsatilganidek, 2018-yilning 1-dekabriga qadar tumanlar va shaharlar markazlarida "Mahalla markazi" majmualari binolarining namunaviy loyihalar asosida barpo etilishi bu kabi muammolarning yechim topishiga olib keladi.

Mustaqillik yillarida yurtimizda yosh avlodning har jihatdan barkamo qilib tarbiyalash uchun kerakli imkoniyatlar yaratilib, ko'pgina xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Onalik va bolalikning ijtimoiy muhofazasi, sog'lom oila muhitini, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, bolalarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish, ularni sportga, qo'shimcha ta'limga jalb etish, sog'lomlashtirish va kasbga yo'naltirish, har taraflama uyg'un rivojlangan yetuk shaxsni tarbiyalash borasidagi sa'y-harakatlarga e'tibor qaratildi.

Har qanday davlatning kelajagi yosh avlodga, uning ma'naviy, jismoniy kamolotiga bog'liq. Jismonan baquvvat, imon-e'tiqodli, bilimli, ma'naviyati yuksak, vatanparvar, barkamol avlod – jamiyat taraqqiyotining asosi ekanligi ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Bunday barkamol yoshlar tarbiya maskani bo'lgan mahallalarda ulg'ayadi.

Mahalla qadim-qadimdan ezgulik beshigi, tarbiya o'chog'i, milliy udumlar, urf-odat va an'analar shakllangan maskan hisoblanadi. Insonlarning bir-biriga mehr-oqibatli, muruvvatli, saxovatli bo'lishida va o'ziga xos jamoani shakllantirishda mahalla juda muhim hisoblanadi. Bu maskanning hayotimizdagi tarbiyalovchi vazifasi shu qadar sezilarliki, so'nggi paytlarda "mahalla" va "tarbiya" tushunchalari yonma-yon ishlatiladigan bo'ldi. Zero, "tarbiya" tushunchasining asl ma'nosi bu – insonning o'zi va o'z hulqi haqidagi tasavvurining to'g'ri va xolis bo'lishini ta'minlovchi murakkab jarayon. U bevosita uni o'rab turgan insonlardan, oila a'zolari, mahalladoshlari, yor-do'stlaridan ayri tushunilmaydi.

"Oila, mahalla, ta'lim muassasasi" hamkorligi mexanizmini kuchaytirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar majmuasida "Oila, mahalla, ta'lim muassasasi" jamoat kengashlarini shakllantirish va ularning faoliyatini tashkil etish, o'quvchi-yoshlar o'rtasida g'ayriijtimoiy harakatlarning vujudga kelish sabablari va shart-sharoitlarini o'rganish, ularni bartaraf etish, barkamol avlodni tarbiyalashga doir ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning samaradorligini oshirish va ularni mazmunan yanada takomillashtirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yish o'smirlar orasida

tartibbuzarlik, jinoyatchilik va shunga o'xshash noxush holatlarning oldini olishda muhim tarbiya vositasidir. Tarbiya – tub mohiyati bilan davlat ko'lamida amalga oshiriladigan ishdir. Har bir bolaga munosabat ota-onaning ham, o'qituvchining ham, jamoatchilikning ham millatga, Vatanga bo'lgan munosabatini aks ettiradi. Demak, tarbiyani faqat oilaga, ta'lim muassasasiga tashlab qo'ymay, butun jamoatchilik, ya'ni davlat va nodavlat tashkilotlarining yaqin hamkorligida olib borilsagina, o'sib kelayotgan yosh avlod barkamol bo'lib voyaga yetadi.

Barcha ta'lim muassasalarida shu asosda ma'naviy va ma'rifiy mavzulardagi tadbirlar, sport musobaqalari, davra suhbatlari, targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda. Ta'lim muassasalarida "Oila, mahalla, ta'lim muassasasi hamkorligi" markazlari va ishchi guruhlar tashkil etildi. Tashkil etilgan ishchi guruh zimmasiga belgilangan reja asosida ish tashkil etish va uni nazorat etish vazifalari yuklatilgan. Rejaga ko'ra ota-onalar, mahalla fuqarolar yig'ini vakillari, faollar, xotin-qizlar qo'mitalari a'zolari o'zaro hamkorlikda qator ishlarni amalga oshirmoqda. Har bir ta'lim muassasasining bevosita mahalla yoki oilalar bilan hamkorlikda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish, notinch oilalar farzandlarining darslarga qatnashishi va bilimlarni o'zlashtirishining muntazam monitoringini olib borish, shuningdek, bunday oilalar farzandlarini o'quv jarayoniga faol ravishda jalb etish, ularni tajribali pedagoglarga birkiritish, notinch oila farzandlarining ruhiy holatini o'rganib borish, zarur hollarda ular uchun qo'shimcha mashg'ulotlarni, sport va bolalar ijodi bilan shug'ullanishini tashkil etish, notinch oilalarga bolalarni tarbiyalashda o'quv-metodik va ijtimoiy ko'makni ta'minlash shular jumlasidandir.

Ta'lim muassasalarining faoliyatini yanada kuchaytirib, bola tarbiyasiga alohida e'tiborli bo'lish, darslarga muntazam qatnashmaydigan, huquqbuzarlikka moyil, turli sabablarga ko'ra nazoratsiz qolayotgan o'quvchilarni ta'limga jalb etish maqsadida ish tashkil etish vazifalari belgilab olingan. Joylarda bu boradagi ishlarni tizimli tashkil etish maqsadida ota-onalar kengashlari va mahalla faollari bilan uzluksiz hamkorlik ishlari olib borilmoqda [2-B.3-4].

Maktablardagi "Maslahatchi otaxonlar va buvijonlar maktabi" a'zolari, tumanlardagi "Mahalla" xayriya jamoat fondi bo'linmasi, Kamolot YoIH, masjid imomlari, hokimlik vakillari, tuman markaziy shifoxonasi shifokorlari bilan hamkorlikda "O'zbekiston yoshlari – narkomaniya va giyohvandlikka qarshi" mavzusida kengaytirilgan davra suhbatlari va shu mavzudagi hujjatli filmlar namoyishi o'tkazildi. Barcha ta'lim muassasalarida Madaniyat va sport ishlari vazirligi tashabbusi bilan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi

vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, "O'zbekkino" milliy agentligi, "O'zbeknavo" estrada birlashmasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamda Yoshlar madaniyat va san'at markazi tomonidan "Kim edigu kim bo'ldik, ertaga qanday yuksak marralarni egallashimiz kerak?" mazmunidagi targ'ibot tadbirlari o'tkazildi.

Tumanlarda yoshlar va voyaga yetmaganlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy, targ'ibot va tashviqot ishlarining ta'sirchanlik darajasini oshirish, umumta'lim maktablarida muntazam darsga kelmayotgan o'quvchilarni ta'lim muassasalariga jalb etish, o'quvchilarning jamoat ishlaridagi ishtiroki, jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikda o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan targ'ibot va tashviqot ishlarini jonlantirish, "Oila, mahalla, ta'lim muassasasi" hamkorligini oshirish, ta'lim-tarbiya ishlarini yanada kuchaytirish, jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish borasida olib borilgan ishlar natijasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklar kamayganligi bunga yaqqol misoldir.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-yanvardagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi Namunaviy Nizomni tasdiqlash haqida"gi 7-sonli qaroriga asosan Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika Kengashi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan Namunaviy Nizom asosida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan tegishli nizomlar tasdiqlangan hamda ularning o'z faoliyatini ushbu nizomlar asosida tashkil etishiga ko'maklashishi belgilangan **[3-B.19]**.

Ushbu Nizom "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibini belgilab berdi. Shu bilan birga, davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan fuqarolar yig'inlaridagi jamoatchilik tuzilmalariga uslubiy-amaliy ko'maklashish, o'zaro bog'liq bo'lgan vazifalar ijrosini to'laqonli ta'minlash tizimini shakllantirish hamda o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-fevraldagi 117-sonli qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq mahallalardagi jamoatchilik tuzilmalari faoliyatiga davlat va nodavlat, notijorat tashkilotlari tomonidan uslubiy-amaliy ko'maklashishning asosiy yo'nalishlari belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevralda "Jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5338 son Farmoni qabul

qilindi[4-B.20]. Farmonga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi. Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi va uning hududiy bo‘linmalari tashkil etilishi jarayonida jamoatchilik tuzilmalari, xususan, Xotin-qizlar qo‘mitalari, Respublika Mahalla kengashi, “Nuroni” jamg‘armasining hududiy bo‘limlari tugatildi. “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, “Mahalla” o‘quv-uslubiy va ilmiy tadqiqot markazi negizida “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Mahallalarga yuklatilgan 46 turdagi va profilaktika inspektorlariga yuklatilgan 13 turdagi vazifa va funksiyalar qisqartirildi, maqbullashtirildi, ayrimlari tugatildi. Vazirlik doirasida oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va jamoatchilik nazorati bo‘yicha komissiya tashkil etildi. 2020-yil 1-apreldan boshlab FXDYo organlari Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi tasarrufiga o‘tkazildi.

22-mart “Mahalla tizimi xodimlari kuni” deb e‘lon qilindi. Endilikda mahalla raisining saylanish muddati 5 yil qilib belgilandi. Mahalla raisining huquq-tartibot masalalari bo‘yicha o‘rinbosari vazifasini profilaktika katta inspektori bajarib, u ham 5 yilga muddatga tayinlanadi. Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi vaziri, uning birinchi o‘rinbosari, Xotin-qizlar qo‘mitasi raisi, 3 ta o‘rinbosar, “Nuroni” jamg‘armasi, “Mahalla” kengashi raisi o‘rinbosari va huquq-tartibot masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari lavozimi ta‘sis etildi.

2016-yilning 28-dekabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni e‘lon qilindi. Unga muvofiq Prezident devoni ishlar boshqarmasining Fuqarolar qabulxonasi negizida Xalq qabulxonasi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, tuman va shaharlarda virtual qabulxonalar tashkil etildi. Mazkur yangi tizimlar fuqarolar ommasini bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini to‘laqonli himoya qilish, hukumatga, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlariga, mahalliy davlat tashkilotlari va xo‘jalik boshqaruvi organlariga murojaat qilinishini ta‘minlashlari zarur edi. Xalqdan kelib tushayotgan arizalarni vaqtida qayd etish, ko‘rib chiqilishi ustidan tizimli monitoring va nazoratni amalga oshirish, mansabdor shaxslarning javobgarligini kuchaytirish ham lozim edi [5-B.10].

2017-yilning 21-iyuligacha Xalq qabulxonalariga bir million murojaat kelib tushdi. Ularning mazmuni tahlil qilinganda, murojaatlarning 97504 tasi uy-

joy, 56567 tasi ishga joylashish, 33813 tasi sudlarda fuqarolik ishlari ko‘rilishi, 28864 tasi oilaga moddiy yordam, 27956 tasi aliment undirish to‘g‘risidagi ijro hujjatlari bo‘yicha, 17582 tasi bolalar nafaqasi, 16567 tasi mehnat va bandlik masalalari, 15743 tasi sudlarda jinoyat ishlari ko‘rilishi bo‘yicha, 15728 tasi fuqarolik pasporti masalasida, 14491 tasi konvertatsiya masalasi(tadbirkorlardan tashqari) kabi muammolar to‘g‘risida edi.

Dasturni amalga oshirishda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi, mutaxassislar va xalqaro ekspertlarning yordami o‘z samarasini berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.02.2021-y., 06/21/6155/0082-son.

2.Respublika “Mahalla” xayriya jamg‘armasining arxivi, 2018-yil, 26-dekabr.//“Oila, mahalla, ta’lim muassasasi” hamkorligi mexanizmini kuchaytirish bo‘yicha qabul qilingan chora-tadbirlar majmuasisining ijrosi to‘g‘risida”gi ma’lumotnoma.– B. 3-4.

3. “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risida Namunaviy nizom” // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09. 01. 2018, 09/18/7/0530-son, 14. 05. 2018, 09/18/327/1173-son, 23. 04. 2019, 09/19/346/2994-son.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19. 02. 2020, 06/20/5938/0187-son; 03. 04. 2020, 06/20/5978/0393-son.

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi // <https://pm.gov.uz>.

TARIX

O‘ZBEKISTON SAUDIYA ARABISTONI MUNOSABATLARI SHAKLLANISHINING DASTLABKI BOSQICHI



Rahmatov Xurshid,
TDSHU mustaqil
izlanuvchisi

UO‘K: 17.023.36

Annotatsiya: 1990-2017 yillar oralig‘idagi davr mobaynida O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarining rivojlanish bosqichlari xorijiy mualliflar tomonidan o‘rganib chiqilgan bo‘lib, mazkur maqolada ular ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

Аннотация: В период с 1990 по 2017 годы этапы развития сотрудничества между Узбекистаном и Саудовской Аравией были изучены зарубежными авторами, и в данной статье они были научнопроанализированы.

Annotation: In the period from 1990 to 2017, stages of development of cooperation between Uzbekistan and Saudi Arabia were studied by foreign authors, and in this article they were scientifically analyzed.

Kalit so‘zlar: xalqaro hamkorlik, Markaziy Osiyo, Ko‘rfaz arab davlatlari, ziyorat turizmi, rivojlanish holati.

Ключевые слова: международное сотрудничество, Центральная Азия, государств Арабского залива, паломнический туризм, состояние развития.

Key words: international cooperation, Central Asia, Arab Gulf states, pilgrimage tourism, development status.

1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida musulmon mamlakatlari, xususan Arab yarimorolidagi yetakchi davlat — Saudiya Arabistoni bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish muhim strategiyaviy vazifa bo‘ldi. Saudiya Arabistoni O‘zbekistonning siyosiy barqarorligi, iqtisodiy islohotlari va xalqaro maydondagi o‘rnini mustahkamlashda muhim sherik sifatida qaraldi. O‘zbekiston mustaqilligini e‘lon qilgach, Saudiya Arabistoni uni tan olgan ilk musulmon davlatlardan biri bo‘ldi. 1991-yil 8-dekabrda Saudiya Arabistoni O‘zbekiston mustaqilligini rasman tan oldi. 1992-yil 20-fevralda esa ikki davlat o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatildi. Dastlabki bosqichda ikki davlat o‘rtasida rasmiy delegatsiyalar tashriflari amalga oshirilib, siyosiy ishonch va hamkorlikning huquqiy asoslari

yaratildi. Shuningdek, Islom Hamkorlik Tashkiloti doirasida o‘zaro qo‘llab-quvvatlash kuchaydi. 1990-yillarning boshida iqtisodiy munosabatlar hali keng rivojlanmagan bo‘lsa-da, savdo delegatsiyalari, Saudiya taraqqiyot jamg‘armasi bilan dastlabki muzokaralar olib borildi. Bu kelgusidagi yirik loyihalar uchun zamin yaratdi. Saudiya Arabistonidagi “Qirol Feysal nomidagi islom tadqiqotlari markazi”, Qirol Saud universiteti Gumanitar ta’lim fakulteti, Podshohlikning TIV huzuridagi Diplomatik tadqiqotlar instituti, Ko‘rfaz tadqiqotlari tahliliy markazi kabi bir qator muassasalarda va yana ko‘plab mustaqil kuzatuvchilar tomonidan Saudiya Arabistonining xalqaro hamkorlik aloqalariga oid tadqiqotlar olib boriladi va aynan mazkur muassasalarda Saudiya Arabistonining O‘zbekiston bilan aloqalari ham o‘rganiladi. Bu yo‘nalishda amalga oshirilgan salmoqli ishlardan Ibrohim al-Mutrif, Solih ar-Radjixiy, Sayyid as-Salim, Shohrustam Shomusarov kabilarning ishlarida o‘zaro hamkorlik aloqalarining 2000-yilgacha bo‘lgan davri turli yo‘nalishlar misolida tahlil qilingan.

Qirol Saud universiteti dotsenti Shoh Rustam Shoh Musarovning “Saudiya Arabistoni Podsholigining Markaziy Osiyo va Kavkazdagi musulmon respublikalari bilan aloqalari (O‘zbekiston-Qozog‘iston-Ozarbayjon)”.¹ nomli asari O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni munosabatlariga bag‘ishlangan arab tilidagi kam sonli asarlardan biri hisoblanadi. Asarda 1992-yil aprel oyida O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov Saudiya Arabistoniga tashrifida erishilgan natijalar o‘zaro munosabatlarning institutsional asoslarni yaratganligi hamda Saudiya Arabistoni O‘zbekistonni mustaqillikka erishish yo‘lida qo‘llab-quvvatlaganligi haqida tarixiy ma’lumotlar bor. Xususan, 1990 yildan 1992 yilgacha islom dinining muqaddas shaharlari Makka va Madina sharharlariga ziyoratga kelayotgan o‘zbekistonlik hojilarga Qirol mehmoni degan sharaflı imtiyoz berilgan, shuningdek, 1990-yildan boshlab mamlakatdagi masjidlarining qayta ochilishi uchun ta’mirlash ishlari, yangi masjidlar qurish, Qur’oni karim mus’haflarini bepul tarqatish kabi ishlarga homiylik yordamlarini ko‘rsatgan edi. Muallif o‘z tadqiqotida, tomonlar o‘rtasidagi rasmiy delegatsiyalar almashinuvi, elchixonalar faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi, madaniyat sohasidagi o‘zaro munosabatlarning yo‘lga qo‘yilishi, talabalar almashinuvi kabi tarixiy voqealarga batafsil to‘xtalgan.

¹ شاه موساروف ، شاه رستم. علاقات المملكة العربية السعودية مع الجمهوريات الإسلامية في وسط آسيا و القوقاز (أوزبكستان - قازاقستان - أذربيجان). 2002 م

O'zbekistonning Saudiya Arabistoni bilan munosabatlarining shakllanishi va dastlabki natijalariga oid ilmiy maqolalarni Ibrohim Arofat¹ va Solih Ar-Radjaxi² ilmiy ishlarida ham uchratish mumkin. Sayyid as-Salimning "Arablar va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi munosabatlar"³ nomli tadqiqotida Saudiya Arabistoni va O'zbekiston o'z mintaqasidagi yetakchi davlatlar sifatida ikki mintaq o'rtasidagi hamkorlik aloqalarining rivojlanishda katta ahamiyat kasb etishi qayd etilgan.

O'zbekiston va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi munosabatlarga oid arab tilidagi tadqiqotlarga tanqidiy yondashilsa, ularda o'zaro munosabatlarga nisbatan bir yoqlama yondashuv borligini ko'rish mumkin bo'ladi. Misol uchun, mazkur mavzuda yozgan xorijiy mualliflar Hidden Linkages⁴, G.G.Kosach kabilar o'zaro hamkorlik aloqalari uzoq yillar davomida kutib turish, o'rganish va, eng muhimi, hadiksirashdan iborat bo'lganligini ochiq yozadi va dalillar bilan isbotlaydi. G.G.Kosach o'z tadqiqotida⁵ tomonlar o'zaro aloqalarni imkoniyatlar darajasiga olib chiqa olmaganligining sabablarini tahlil qilgan. Uning fikriga ko'ra, asosiy sabab Saudiya Arabistonining o'zbek jamiyati, o'zbekistonlik musulmonlar uchun islomning mo'tadil bo'lmagan noan'anaviy qoidalarini targ'ib qilishi edi. Mazkur targ'ibot natijasida mamlakatda radikal kayfiyatdagi islom guruhlarining shakllanishi kuzatildi. Mazkur holatlarning tadqiqi arab mualliflarining mavzuga oid tadqiqotlarida juda kam tahlil qilinadi.

Xronologik jihatdan O'zbekiston va Saudiya Arabistoni munosabatlarining 1990-yildan 2010-yillargacha bo'lgan davri nisbatan yaxshi o'rganilgan. Biroq aloqalarning so'nggi o'n yilliklari ilmiy adabiyotlarda, xususan, arab tilidagi

¹ إبراهيم المطرف: "العلاقات الاقتصادية بين الجمهوريات الإسلامية في آسيا الوسطى والمملكة العربية السعودية"، في: ندوة مستقبل العلاقات العربية مع الجمهوريات الإسلامية في آسيا الوسطى. الرياض: معهد الدراسات الدبلوماسية، 1996.

² صالح الراجحي 1996.

³

http://srv4.eulc.edu.eg/eulc_v5/Libraries/start.aspx?fn=ApplySearch&ScopeID=&criteria1=9.&Search\\Миср университетлари кутубхонлар федерацияси.

⁴ Hidden Linkages, The Republic of Uzbekistan and the Gulf Region in a Changing World Order// Invited Publication in Russian and CIS Relations with the Gulf Region: Current Trends in Political and Economic Dynamics An Edited Volume to be Published by the Gulf Research Council (GRC), 2009

⁵ Григорий Косач. Политика Саудовской Аравии на постсоветском «мусульманском» юге: цели и итоги курса. // Вестник Евразии. 2005. – 128 с.

ilmiy adabiyotlarda ham, o'zbek arabshunosligida ham chuqur o'rganilmagan va jarayonlar o'zining ilmiy bahosini olmagan. Shunga qaramasdan, O'zbekiston va Saudiya Arabistoni munosabatlarida kuzatilayotgan faollik, katta miqdordagi sarmoyaviy bitimlarning imzolanishi, energetika sohasida bir qancha katta loyihalarning amalga oshirilayotganligi, ziyorat turizmi bo'yicha qo'shma loyihalarning tatbiq qilinayotganligi kabilar, bir so'z bilan aytganda, o'zaro munosabatlardagi yangi tendensiyalar saudiyalik siyosiy sharhlovchilarning diqqat markazida bo'lib turibdi.

Podshohlikning "Araa" jurnali uchun yozgan tahliliy maqolasida siyosiy sharhlovchi Maha Muhammad Sharif 2017-yildan boshlab mamlakat Prezidenti Shavkat Mirziyoev Saudiya Arabistoni bilan munosabatlarni yaxshilash iqtisodiy, savdo va sarmoyaviy sohadagi yangi tashabbuslarni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratayotganligi haqida yozadi. Unga ko'ra, O'zbekiston Prezidenti saudiyalik ishbilarmonlarni o'z mamlakatiga tashrif buyurishga, ulkan rivojlanish holati va sarmoyaviy imkoniyatlarni yaqindan o'rganishga chaqirmoqda. Chunki, Prezident Sh.Mirziyoev mamlakatda iqtisodiy ochiqlik siyosatini boshlagan va u bu jarayonlarda Ko'rfaz arab davlatlari, xususan, Saudiya Arabistoni sarmoyadorlarini faol ishtirok etishidan manafaatdordir¹.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston va Saudiya Arabistoni munosabatlarining dastlabki bosqichi ikki davlat o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va diniy sohalardagi keng qamrovli hamkorlik uchun mustahkam asos yaratdi. Davriy jihatdan ikki davlat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni 3 davrga ajratish mumkin, bular: 1992 yildan 2005 yilgacha bo'lgan davr, uni har ikki tomondagi noqulay vaziyat sabab, rasmiy tan olish va o'zaro kuzatish davr sifatida baholash mumkin; ikkinchi davr 2005 yildan 2016 yilgacha bo'lgan davr, u ham o'zaro aloqalardagi faol davr hisoblanmaydi, uning xususiyati O'zbekiston tomonidan Yaqin Sharq mintaqasi radikal islom guruhlarining manbai sifatida baholanib, tahdid sifatida qaralgani va shu sabab ham mintaqqa mamlakatlari bilan yaqin hamkorlik aloqalari olib borishdan xavfsiraganidir; uchinchi davr O'zbekiston Respublikasi va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalarining faol davri hisoblanib, u 2017-yildan boshlanadi va bu O'zbekiston tashqi siyosatida ko'pvektorlilik tamoyiliga faol o'tish va, eng avvalo, iqtisodiy manfaatlarni birinchi navbatda ko'rish bilan bog'liq edi. 2017 yildan bugungi kunga qadar o'nlab yuqori darajadagi davlat tashriflari har ikki tomondan ham amalga oshirib

¹ araa.sa مها محمد الشريف. العلاقات السعودية مع دول آسيا الوسطى: شراكة واعدة وملء الفراغ الاستراتيجي. 08 تشرين 1/أكتوبر 2019

kelinmoqda va bu jarayonlar har ikki davlat uchun birdek manfaatli deb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. شاه موساروف ، شاه رستم. علاقات المملكة العربية السعودية مع الجمهوريات الإسلامية القوقاز (أوزبكستان - قازاقستان - أذربيجان). 2002 م في وسط آسيا و
2. إبراهيم المطرف: "العلاقات الاقتصادية بين الجمهوريات الإسلامية في آسيا الوسطى والمملكة العربية السعودية"، في: ندوة مستقبل العلاقات العربية مع الجمهوريات الإسلامية في آسيا الوسطى. الرياض: معهد الدراسات الدبلوماسية، 1996
3. Hidden Linkages, The Republic of Uzbekistan and the Gulf Region in a Changing World Order// Invited Publication in Russian and CIS Relations with the Gulf Region: Current Trends in Political and Economic Dynamics. An Edited Volume to be Published by the Gulf Research Council (GRC), 2009
4. Grigoriy Kosach. Politika Saudovskoy Aravii na postsovetском «musulmanskom» yuge: seli i itogi kursa. // Vestnik Yevrazii. 2005. – 128 s.
5. إبراهيم المطرف: "العلاقات الاقتصادية بين الجمهوريات الإسلامية في آسيا الوسطى والمملكة العربية السعودية"، في: ندوة مستقبل العلاقات العربية مع الجمهوريات الإسلامية في آسيا الوسطى. الرياض: معهد الدراسات الدبلوماسية، 1996
6. صالح الراجحي. "الأوضاع الاقتصادية في جمهوريات آسيا الوسطى وأثرها على الجدوى الاستثمارية ومستقبل العلاقات التجارية مع دول مجلس التعاون الخليجي". // التعاون، العدد 11 (44) ديسمبر 1996

TARIX XORAZMDA ZARDUSHTIYLIK DINI (ARXEOLOGIK VA YOZMA MANBALAR TAHLILI)

UO‘K: 94(575.171):28-9



Xasanov Mardon
UrDU katta
o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Xorazm vohasi hududida arablar istilosigacha bo‘lgan davrda (VIII asrgacha) zardushtiylik dinining mavjud bo‘lgani va boshqa dinlardan ustunlik qilib kelgani arxeologik material va yozma manbalardagi ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье на основе археологического материала и письменных источников анализируется существование зороастрийской религии и ее господство над другими религиями в Хорезмском оазисе до арабского завоевания (до VIII в.).

Annotation: In this article, on the basis of archaeological material and written sources, the existence of the Zoroastrian religion and its dominance over other religions in the Khorezm oasis before the Arab conquest (until the 8th century) is analyzed.

Kalit soz‘lar: Xorazm, Mizdaxqon, zardushtiylik, ossuariy, dahma, nekropol, afrig‘iylar, xorazmshoh

Ключевые слова: Хорезм, Миздахкан, зороастризм, оссуарий, дахма, некрополь, афригиды, хорезмшах

Key words: Khorezm, Mizdahkan, Zoroastrianism, dakhma, ossuary, necropolis, Afrigids, khorezmshah

Zardushtiylik – dunyo dinlarinig eng qadimgilaridan biri bo‘lib, u kishilik tarixidagi ko‘pgina xalqlarning ijtimoiy va madaniy hayotiga o‘zining bevosita yoki bir qadar ta’sirini ko‘rsatib kelgan. Zardushtiylik miloddan avvalgi VI asrdan milodiy VII asrgacha mavjud bo‘lgan uchta buyuk eroniy imperiyalarning davlat dini bo‘lgan hamda O‘rta Sharq va Yaqin Sharqning katta qismida ustunlik qilib kelgan.

Xorazmda zardushtiylik dinining paydo bo‘lishi va rivojlanishi muammosini o‘rganishda sovet arxeolog va etnograflarining o‘rni beqiyos darajada kattadir. Bu sohada mazkur muammo bo‘yicha jiddiy ish olib borgan S.P. Tolstov, Y.A. Rapoport, V.N. Yagodin, A.V. Gudkova, G.P. Sneryev va boshqalarning tadqiqotlarini yuksak baholash mumkin.

Xorazm tarixiy yodgorliklarining ko'p yillar mobaynida o'rganilishi natijasida o'rganilgan terrakotadan yasalgan sopol haykalchalar, sopol bo'rtma naqshlar, tangalarda aks etgan muhrlar, shuningdek turli xil ossuariylardan iborat juda katta va boy materiallar hamda "Avesto"dan tortib Abu Rayhon Beruniyning "Osor al boqiya"sigacha bo'lgan yozma manbalarning shohidligi qadimgi xorazmiylar e'tiqodining xarakteri to'g'risida ishonch bilan gapirishga yordam beradi.

Xorazmda marhumning suyaklarini zardushtiylik e'tiqodi qoidalari bo'yicha maxsus sopol idishlar – ostadon (ossuariy)larda saqlash odati tarqalganligi arxeologik qazilma ishlar davomida aniqlangan. Xorazmda paydo bo'lgan dastlabki ostadonlar odam shakli ko'rinishida, ya'ni antropomorfli bo'lib (bu turdagi ostadonlarning ko'pchiligi Qo'yqirilgan qal'adan topilgan), ularning tarqalishi miloddan avvalgi IV asrdan milodiy II asrgacha bo'lgan davrni qamrab oladi [1. B-58].

III asrdan boshlab bunday turdagi ostadonlar voha hududida umuman uchramaydi. Qat'iy o'rnatilgan diniy sistemasi zardushtiylik bo'lgan Sosoniylar davlatining Xorazmga harbiy yurishlari to'g'risidagi ma'lumotlarning borligi [2. B-170] uchun tahmin qilish mumkinki, haykali ostadonlardan birdan va butunlay voz kechish butparastlik keskin qoralanadigan eron zardushtiyligining to'g'ridan-to'g'ri ta'siri ostida ro'y bergan. Shuni alohida qayd qilish kerakki, eron zardushtiyligi bilan mahalliylashgan xorazmiylar zardushtiyligi o'rtasida biroz tafovut bo'lgan – ossuariylarning odam haykali ko'rinishida bo'lishi na Markaziy Osiyoning boshqa joylarida, va na Eronda uchraydi.

Ikkinchi fors imperiyasining Xorazmga ta'sirini o'rta asrlar Xorazmining savdo va madaniy hayotida katta rol o'ynagan Mizdaxqon shahri misolida ham ko'rish mumkin. Mizdaxqon nekropolidan III asrdan – VIII asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrga mansub ko'plab ostadonlar topilgan bo'lib, ossuariylarning xarakterli jihati ularda ko'plab mayda teshiklarning mavjudligidir [3. B-129]. O'xshash teshiklarga ega ossuariylar O'zbekistonning boshqa hududlaridan ham topib o'rganilgan [4. B-37].

Ostadonlar nima maqsadda yoriqlar bilan jihozlanganini bilish uchun ba'zi tadqiqotchilar ostadon xarakteristikasi berilgan o'rtafors zardushtiylik matni Dadistani-Dinikga murojaat qilishadi. Zardushtiytlarning mazkur diniy kitobida (VIII-IX asrlarda yozilgan) ostadon – yorug'lik tushishi uchun teshik bilan jihozlangan, qopqog'i bo'lgan ichi bo'sh narsa sifatida ta'riflanadi [5. B-168]. Abadiyotlarda bu matn ossuariyning tavsifidan boshqa narsa emasligi allaqachon qayd etilgan.

Shunday qilib, ossuariylarda yorug'lik o'tishi uchun teshiklarning mavjudligi Sosoniylar davrida davlat dini darajasiga ko'tarilgan zardushtiylik qoidalaridan biriga mos keladi. Bu belgi, boshqa nishonalar bilan birgalikda, mazkur ossuariylarga dafn etilganlar zardushtiylikka mansubligini bildiradi.

Umuman olganda, voqea hududida olib borilgan arxeologik tadqiqot izlanishlari davomida juda ko'p sonli ossuariylarning Qalaliqir I (mil.avv. V-IV asrlar), Qo'yqirilgan qal'a (mil.avv. IV-III a.), Gaur qal'a (milodiy IV-VIII a.), To'q qal'a (VII-VIII a.), Burgut qal'a (VII asr), Quyuq qal'a (VII-VIII a.), Tuproq qal'a (VII a.), Qo'rg'oncha (VII a.) va yana boshqa joylardan topib o'rganilgani hamda yuqorida keltirilgan dalillarni hisobga olsak, islomdan oldingi Xorazmda zardushtiylik dini hukm surganiga ishonch xosil qilamiz. Shuningdek, o'z davrida Qo'yqirilgan qal'a va Chilpiq qal'a zardushtiylik dahmasi vazifasini o'tagani dalilini inobatga olsak, Xorazm aholisining islomgacha bo'lgan diniy qarashlari to'g'risidagi fikrlar yana ham teranlashadi.

Mizdaxqon nekropolidagi B-r-I-14 tipdagi ossuariy ichidan ko'plab mis tangalar qatori 751 yilda Xitoyga elchi yuborgan afrig'iy Savshafan, shuningdek Qanig' ismli xorazmshohga tegishli tangalarning topilishi hamda qator tarixiy, arxeologik va numizmatik ma'lumotlarga tayanib, A.V. Gudkova va V.L. Livshitsning To'q qal'a ossuariylaridagi yozuvlarni 750 va 775 yillar orasidagi davrga mansublashi [6. B-8] Xorazmda zardushtiylik dini Qutayba ibn Muslim fathidan keyin – VIII asr ikkinchi yarmida ham amalda bo'lganini tasdiqlaydi.

Endi islomdan oldingi davrdagi zardushtiylik odatlarini yozma manbalar bo'yicha ko'rib chiqamiz. Shulardan eng qadimgisi "Avesto" bo'lib, zardushtiylikning ushbu kitobi (aniqrog'i, uning keyingi qismlaridan biri – Videvdut) o'lganlarning jasadlarini itlar va qushlarga berishni va ularning suyaklarini saqlab qo'yishni buyuradi [1. B-5].

Qadimda zardushtiylik gullab-yashnagan sosoniylar Eroniga sayohat qilgan bir sayyoh shunday yozadi: "Shahardan tashqarida boshqalardan alohida yashovchi odamlarning shunday bir toifasi bor. Ular marhumlarni dafn qilish bilan shug'ullanadi va nopok hisoblanadilar. Agar ular shahar bozoriga kelisha, qo'ng'iroq chalgan holda o'zlari haqida belgi berishadi" [8. B-262].

Xitoylik sayyoh Vey-Sze tomonidan qoldirilgan VII asr boshlariga tegishli ma'lumotga ko'ra, Samarqand shahri tashqarisida dafn marosimlarini o'tkazishga ixtisoslashgan ikki yuzdan ortiq oila alohida yashagan [9. B-133].

739 yilda Samarqandda buxorxudot Tug'shodaning halokati haqida hikoya qila turib, Tabariy va Narshahiy shuni qayd qiladiki, marhumning xizmatkorlari murdaning go'shtini ajratib tashlab, suyagini Buxoroga olib ketadilar.

Va nihoyat, Abu Rayhon Beruniy o'zining "Hindiston" asarida hindlarning eng qadimiy dafn marosimlarini bayon qila turib, ilgari jasadlar majusiy kohinlarning dahmalariga o'xshash shamol urib turadigan baland joylarga qo'yib qo'yilganini yozadi [10. B-478].

Shunday qilib, o'liklarning suyaklari turli usullar bilan tozalangan: hayvonlar yordamida, yumshoq to'qimalarni suyakdan ajratish yo'li bilan yoki marhumning murdasini shunchaki chirib bitadigan maxsus imoratlarda qoldirish orqali va h.k. An'anaviy zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, o'likka aylangan hamma narsa, eng avvalo, inson jasadi tevarak-atrofni ifloslash manbai sanaladi, shuning uchun bunday ifloslanishdan tuproq zararlanishi mumkin. Vendidad o'liklarni yerga ko'mish eng og'ir jinoyatlardan biri ekanligiga alohida e'tibor qaratgan.

Shu tufayli Xorazmda qadimgi davrda turli ko'rinishdagi ostadonlarning juda keng ommalashgani voha hududida islomdan oldingi vaqtda – VIII asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davrda zardushtiylik dini mavjud bo'lganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Рапопорт Ю.А. Из истории религии древнего Хорезма. М., 1971.
2. Henning W.B. The Choresmian Documents, "Asia Major", New Series vol. XI, part. 2, London, 1965.
3. Ягодин В.Н., Ходжайов Т.К. Некрополь древнего Миздакхана. Т., 1970.
4. Ставиский Б.Я. К вопросу об идеологии домусульманского Согда, СРИКМ ТаджССР, вып. 1, Сталинабад, 1959.
5. Иностранцев К.А. Туркестанские оссуарии и астоданы. ЗВО, т. XVII, вып. 4, СПб., 1907.
6. Гудкова А.В., Липшиц В.А. Новые хорезмийские надписи из некрополя Токкала и проблема «хорезмийской эры» // Вестник Каракалпакского филиала Академии наук Узбекской ССР. 1967. Вып. 1. С. 8
7. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена, т. II. М.-Л., 1950.
8. Сборник трудов Орхонской экспедиции, т. VI. "Documents sur les Toukiue (Turcs) occidentaux. Recueillis et commentés par. Ed. Chavannes. St.-Petersbourg, 1903.
9. Бируни, Избранные произведения, т. II. М., 1995.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATION UNIVERSITETI NTM

INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT

12-son, 1-qism (33)
2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir:	M.Eshmurodov
Bosh muharrir o‘rinbosari:	S.Samandarova
Mas’ul kotib:	U.Bekmuhammad
Texnik muharrir:	A.Xushnudov
Navbatchi:	A.Xushnudov

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 2-noyabr kuni №0154405 raqamli tasdiqnoma berilgan.

Bosishga topshirilgan vaqti: 10:00. Ruxsat etilgan vaqti: 11:00

Qog‘oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.

Hajmi: 11,875 b.t. Buyurtma №1/25.

Nashr ko‘rsatkichi: 1404.

Bahosi kelishilgan narxda.

“Milleniumus print” MCHJda ofset usulida chop etildi.

Urganch tumani, “Shermatlar” MFY, Tadbirkorlar ko‘chasi, 69-uy.

Tel: (+998) 91-994-24-00

Urganch innovatsion universiteti
220100, Urganch shahri, “Mustaqillik” MFY,
Gurlan ko‘chasi, 2-uy.
Tel: (+998) 90-436-20-22